



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI



DENOV TADBIRKORLIK VA
PEDAGOGIKA INSTITUTI

TIL VA TAFAKKUR: LINGVISTIK VA METODIK TADQIQOTLAR

RESPUBLIKA ILMIV AMALIV ANJUMANI
MATERIALLAR TO‘PLAMI

13 IYUN 2025 YIL



www.dtpi.uz



[dtpi_uz](https://t.me/dtpi_uz)



[dtpi_uz](https://www.youtube.com/dtpi_uz)



[dtpi_uz](https://www.facebook.com/dtpi_uz)

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI



XORIJIY TIL VA ADABIYOTI YUQORI KURSLAR KAFEDRASI
XORIJIY TIL VA ADABIYOTI QUIY KURSLAR KAFEDRASI

TIL VA TAFAKKUR: LINGVISTIK VA METODIK TADQIQOTLAR

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

MATERIALLARI TO'PLAMI

13 IYUN 2025 YIL



UDK: 81:001.891(575.1) (082)

“**Til va tafakkur: lingvistik va metodik tadqiqotlar**” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami. – Denov. DTPI, 2025. - bet

Mazkur ilmiy to‘plam til va tafakkur o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni lingvistik va metodik nuqtai nazardan chuqur tahlil qilish, zamonaviy ta‘lim texnologiyalarining til o‘rgatish jarayonidagi o‘rnini yoritish, shuningdek, lingvokulturologiya, psixolingvistika, tarjimashunoslik kabi yo‘nalishlarda olib borilayotgan ilg‘or ilmiy izlanish natijalarini keng jamoatchilik e‘tiboriga havola qilish maqsadida nashr etilmoqda. To‘plamda jamlangan maqolalar orqali o‘quvchilarga tilshunoslik fanining nazariy va amaliy masalalari haqida kengroq tasavvur berish, o‘qituvchilar va tadqiqotchilar o‘rtasida ilmiy-metodik tajriba almashinuvini yo‘lga qo‘yish ko‘zda tutilgan. Shuningdek, ushbu nashr akademik doiralarda til va tafakkur masalalariga yangicha yondashuvlarni shakllantirish, yosh tadqiqotchilarni ilmiy izlanishlarga jalb etish hamda o‘quv-tarbiya jarayoniga ilmiy asoslangan metodik yondashuvlarni joriy etishda xizmat qilishi ko‘zda tutilgan.

Mas’ul muharrirlar:

D.D.Tog‘aymurodov – Xorijiy til va adabiyoti yuqori kurslar kafedrası mudiri
V.A.Tangriyev - Xorijiy til va adabiyoti quyi kurslar kafedrası mudiri
M.A.Xidirova - Xorijiy til va adabiyoti yuqori kurslar kafedrası katta o‘qituvchisi

Taqrizchilar:

G.S.Nasrullayeva - DTPI, f.f.b.f.d., (DsC) dotsent
M.N.Musurmankulova - DTPI, f.f.b.f.d., (DsC) dotsent
Z.N. Suvonov - DTPI, f.f.b.f.d., (DsC) professor

Ushbu nashr 2025 yil 13 iyun kuni o‘tkazilgan ilmiy-amaliy anjumanda taqdim etilgan maqolalar asosida tuzilgan bo‘lib, har bir material ilmiy mezonlarga muvofiq ko‘rib chiqilgan va tahrir hay’ati tomonidan tasdiqlangan.

***Mualliflar uchun eslatma:** To‘plamga kiritilgan barcha maqolalardagi fikrlar mualliflarning shaxsiy ilmiy nuqtai nazarini ifodalaydi. Tahrir hay’ati mazmuniy xatoliklar va ilmiy xulosalar uchun javobgar emas.*



Tahrir hay'ati raisi:

G.S.Nasrullayeva DTPI, f.f.b.f.d., (DsC) dotsent

Tahrir hay'ati a'zolari:

O.A.Ruziyev DTPI rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

R.E.Shukurov DTPI prorektori, p.f.b.f.d., (PhD)

G'.X.Raximov O'DJTU, f.f.b.f.d., (DsC) professor

M.N.Musurmankulova DTPI, f.f.b.f.d., (DsC) dotsent

A.E.Xudoyqulov TerDU, f.f.b.f.d., (PhD)

Z.R.Narmuratov TerDU, f.f.b.f.d., (PhD) dotsent

Z.N. Suvonov DTPI, f.f.b.f.d., (DsC) professor

M.T.Qodirova TerDU, f.f.b.f.d., (PhD) dotsent

Samuel Nyabere Kenya Respublikasi, Ingliz tili fani o'qituvchisi

M.K.Toshpulatova TerDU, f.f.b.f.d., (PhD)

M.B.Nizomova QarDU, f.f.b.f.d., (DsC) dotsent

Muslih Ahmad Shikib TerDU, katta o'qituvchisi

B.T.Suyunov DTPI, f.f.b.f.d., (DsC) dotsent

S.R.Norqobilov TerDU, o'qituvchi

B.I. Sodiqova DTPI, tayanch-doktoranti.

D.J.Bobojonov DTPI, f.f.b.f.d., (PhD)



KIRISH SO‘Z

Bugungi globallashuv jarayonida tilshunoslik, metodika va tafakkurga oid tadqiqotlar nafaqat nazariy, balki amaliy nuqtai nazardan ham alohida ahamiyat kasb etmoqda. Tillarni o‘rganish jarayoni, ayniqsa xorijiy tillar, bugungi ta’lim tizimida muhim strategik yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Bu esa, zamonaviy lingvistik yondashuvlar, innovatsion o‘qitish metodikasi va kognitiv tafakkur bilan bog‘liq tadqiqotlarga e’tibor kuchayganligini ko‘rsatadi. Shunday bir davrda, 2025 yil 13 iyun kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida bo‘lib o‘tgan “Til va tafakkur: lingvistik va metodik tadqiqotlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani o‘z dolzarbligi, ilmiy-amaliy ahamiyati bilan ajralib turdi.

Ushbu anjuman “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **PF-5847-son Farmonida** belgilangan ustuvor vazifalarga, xususan, **ilmiy izlanish yutuqlarini amaliyotga joriy etish, fan sohalarining rivojlanishini ta’minlash**, hamda **xalqaro ilmiy hamjamiyatda e’tirof etilishiga xizmat qilish** kabi masalalarga muvofiq ravishda tashkil etildi. Shuningdek, anjuman o‘tkazilishining asosiy huquqiy zaminlaridan yana biri sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 maydagi **PQ-5117-sonli qarori** — “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori xizmat qildi. Bu qarorlar doirasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli farmoyishiga asosan ushbu anjuman tashkil etildi.

Anjuman maqsadi va vazifalari

Mazkur ilmiy-amaliy anjumanning asosiy maqsadi – til va tafakkur o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni lingvistik, kognitiv va metodik jihatdan tahlil qilish, o‘qitishda innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish hamda tilshunoslikda milliy va xalqaro tajribalarni integratsiya qilishdir. Shuningdek, anjumanda quyidagi vazifalar ilgari surildi:

- ❖ Til va tafakkur o‘rtasidagi lingvistik munosabatlarni aniqlash va nazariy asoslarini tahlil qilish;
- ❖ O‘qitish metodikasida innovatsion yondashuvlarni amaliyotga joriy etish yo‘llarini ko‘rsatish;
- ❖ Lingvokulturologik tadqiqotlarni kengaytirish va madaniyatlararo kommunikatsiyani rivojlantirish;
- ❖ Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning lingvistik ta’limdagi o‘rnini aniqlash;
- ❖ Yosh avlod uchun til o‘rganishni soddalashtiruvchi yangi metodlarni ishlab chiqish;



❖ Xalqaro ilmiy tajriba va metodologiyalarni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish. Anjumanning yo'nalishlari keng ko'lamli bo'lib, nafaqat lingvistika, balki metodika, psixolingvistika, kognitiv tahlil, semantika, pragmatika, lingvodidaktika kabi sohalarni ham qamrab oldi. Shu bilan birga, anjumanda til madaniyati, muloqot madaniyati, milliy ong va tafakkur uyg'unligi ham alohida e'tiborga olinib, zamonaviy global muammolar kontekstida muhokama qilindi.

Anjuman ishtirokchilari va taqdim etilgan ishlar

Anjumanda respublikaning turli hududlaridan oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistrantlar va bakalavriyat bosqichidagi iqtidorli talabalar ishtirok etdilar. Jami 500 dan ortiq ilmiy maqola qabul qilindi, ularning aksariyati ma'ruza shaklida tinglandi va muhokama qilindi.

Ishtirokchilar tomonidan quyidagi mavzular doirasida chuqur ilmiy tahlillar amalga oshirildi:

- ❖ Til va tafakkur o'zaro munosabati
- ❖ Til tizimi va ijtimoiy muhit
- ❖ Semiotika, psixolingvistika, sotsiolingvistika tadqiqotlari
- ❖ Zamonaviy lingvistik tahlil usullari
- ❖ Ona tili va chet tillarini o'qitishda samarali metodikalar
- ❖ Lingvodidaktika: nazariya va amaliyot
- ❖ Kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim berish
- ❖ Raqamli texnologiyalar va interaktiv metodlar
- ❖ Tarjimada ekvivalentlik va moslik muammolari
- ❖ Ixtisoslashgan tarjima: ilmiy, texnik, adabiy tarjimalar
- ❖ Avtomatik tarjima vositalari va ularning samaradorligi
- ❖ Tarjima jarayonida madaniyatlararo tafakkur

Yuqoridagi yo'nalishlar bo'yicha ma'ruzalar seksion yig'ilishlarda muhokama qilindi, ishtirokchilar o'zaro fikr almashdilar va kelgusidagi ilmiy hamkorlikni yo'lga qo'yish yuzasidan takliflar berdilar.

Ilmiy yutuqlar va amaliy ahamiyat

Anjumanda ilgari surilgan fikr va g'oyalar nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb ahamiyat kasb etdi. Jumladan, xorijiy til o'qitishning interaktiv modellarini ishlab chiqish, dars jarayoniga multimodal yondashuvlarni joriy etish, o'quvchi tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiluvchi topshiriqlar yaratish kabi takliflar bilan yangi g'oyalar maydoni shakllandi.

Ko'plab ma'ruzalarda sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar, mobil ilovalar orqali til o'rgatish usullari, tilni vizual va eshituv asosida mustahkamlash



texnologiyalari muhokama qilindi. Bu esa, anjumanning dolzarbligini va zamon bilan hamqadamligini yana bir bor isbotladi.

Anjuman yakunida taqdim etilgan taklif va tavsiyalar, muhokama qilingan ilmiy yondashuvlar asosida metodik tavsiyalar ishlab chiqilishi rejalashtirilmoqda. Shuningdek, anjumanning eng muhim natijalaridan biri sifatida ishtirokchilarning ilmiy ishlari asosida ushbu **ilmiy maqolalar to‘plami** tayyorlandi.

“Til va tafakkur: lingvistik va metodik tadqiqotlar” nomli Respublika ilmiy-amaliy anjumani tilshunoslik, metodika va kognitiv tafakkur sohalarida ilmiy hamkorlikni kuchaytirish, yangi pedagogik yondashuvlarni ilgari surish, yosh tadqiqotchilarni rag‘batlantirish va ilm-fan sohasida sifat jihatidan yangi bosqichga chiqishga xizmat qiladigan muhim ilmiy platforma bo‘ldi. Ushbu anjuman orqali fanga, ta’limga va amaliyotga oid ko‘plab dolzarb masalalarga yechimlar izlandi.

Mazkur ilmiy to‘plam esa, nafaqat anjumanning ilmiy-ma’naviy hosilasi, balki kelgusida olib boriladigan tadqiqotlar uchun metodik manba vazifasini o‘taydi. Undagi har bir maqola o‘ziga xos yondashuvi, ilmiy asoslanganligi va amaliy ahamiyati bilan ajralib turadi.

Umid qilamizki, ushbu ilmiy nashr mutaxassislar, tadqiqotchilar, o‘qituvchilar va til o‘rganuvchilar uchun muhim qo‘llanma va ilhom manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Oybek Abdimo‘minovich Ruziyev

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti rektori



MUNDARIJA

Marufjon Karimov

“O‘TKAN KUNLAR” ROMANIDAGI SINEKDOXA TASVIRIY
VOSITASINING QO‘LLANILISHI VA INGLIZCHA TARJIMALARDA AKS
ETISH MASALALARI 13

Sayyora Pulatova

BADIIY TARJIMADA SINTAKTIK TRANSFORMATSIYALARNING
LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI VA EKVIVALENTLIK
MUAMMOLARI (J.JOYSNING “ULISS” ROMANI MISOLIDA) 17

Sodiqova Baxtigul Ibodullaevna

JON FAULZ ASARLARIDA TARJIMA SHAKLLARI: LINGVISTIK VA
ESTETIK YONDASHUVLAR..... 20

Mo‘minova R.N

AVTOMATLASHTIRILGAN TARJIMA VOSITALARI..... 23

Nazarova Lobar Maxmataminovna

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI SINLEKSIK BIRLIKLARNING LEKSIK-
SEMANTIK MOSLIGI..... 26

Raximov Raxmatullo Rafiqjon o‘g‘li

INGLIZ TILIDAGI LOGISTIKAGA OID TERMINLARNING TAHLILI 29

Xo‘jabekova Ramzida O‘ktam qizi, Sindorov Lutfulla Kurolovich

TARJIMA JARAYONIDA MADANIYATLARARO TAFAKKURNING
AHAMIYATI 34

Arzimurodova E‘zoza Berdimurod qizi

MOBIL ALOQA TERMINLARINING TARJIMASIDA EKVIVALENTLIK VA
SEMANTIK SILJISHLAR: INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA..... 38

Bahodirov G‘iyosbek Murodjon o‘g‘li

USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN TRANSLATION STUDIES: AN
ANALYSIS OF ADVANTAGES AND DISADVANTAGES 41

Bahodirov G‘iyosbek Murodjon o‘g‘li

THE IMPORTANCE AND COMPLEXITY OF TECHNICAL TRANSLATION IN
ENGINEERING..... 44

Musulmonova Sarvinoz Olim qizi, Jo‘ranazarova Nigora Qurbonboy qizi

TARJIMA JARAYONIDA MADANIYATLARARO TAFAKKUR 48

Ruxillayeva Nilufar Shukrullo qizi

ANTUAN DE-SENT EKZYUPERINING “KICHKINA SHAHZODA”
ASARINING O‘ZBEK TILIGA TARJIMA JARAYONIDA
MADANIYATLARARO TAFAKKUR..... 52



Umaraliyeva Ruxshona

ZAMONAVIY TARJIMASHUNOSLIK: NAZARIY YONDASHUVLAR,
AMALIY MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH YO‘NALISHLARI..... 55

Xoldarova Mahliyoxon Azimjon qizi

CHALLENGES IN TRANSLATING ENGLISH FOOD IDIOMS FOR NON-
NATIVE SPEAKERS 59

Abdurahmonova Farangiz Husan qizi

O‘ZBEK HAMDA CHET TILLARIDA O‘ZGALOVCHI KATEGORIYALAR
MUQOYASASI..... 64

Abdurahmonova Sarvinoz

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI FRAZELOGIZMLARNING O‘ZARO
MUTANOSIBLIGI..... 71

Ahatova Dilshoda Bahodir qizi

BOLALAR ADABIYOTINI TARJIMA QILISH: TARJIMA NAZARIYASINING
AMALIY QO‘LLANILISHI 76

Акбарова Шахло Ганиевна

ПЕРЕВОД И РЕЦЕПЦИЯ: ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ КУЛЬТУР ЧЕРЕЗ
ЛИТЕРАТУРУ..... 80

Amonova Bahora Nasriddin qizi

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA MERONOMIK BIRLIKLAR TADQIQI ... 82

Muxlisa Erdonova

ANTONYMIC RELATIONSHIPS IN ORNITHONYMS IN ENGLISH AND
UZBEK..... 85

Nizomova Mohinur Baratboyevna, Xidoyatov Nusratullo Shavkatillo O‘g‘li

COMPARATIVE ANALYSIS AND PROBLEMS OF TRANSLATION OF
ADVERTISING TEXTS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES 90

Baymuratova Sarbinaz Maxsetovna

INGLIZ KLASSIK ADABIYOTIDAGI IRONIYANI O‘ZBEK VA
QORAQALPOQ TILLARGA TARJIMA QILISHNING O‘ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI..... 100

Sunatillayeva E‘zoza Ma‘ruf qizi

CULTURAL MEDIATION THROUGH TRANSLATION: A MODERN
PERSPECTIVE..... 105

Khudoyberdieva Oyjamol Muzaffarovna

LINGUISTIC AND CULTURAL DIMENSIONS OF GENDER IN ENGLISH
AND UZBEK DANCE TERMINOLOGY 110

Buronova Xolida Toshtemirovna



O‘ZBEK TILI IZOHLI LUG‘ATLARIGA TAVSIYA ETILADIGAN TERMINLAR SEMANTIZASIYASI	116
<i>Xabibjonov Ikromjon Toshpulat o‘g‘li</i>	
METAFORIK IQTISODIYOT TERMINLARINI TARTIBGA SOLISH MUAMMOLLARI.....	121
<i>Isakova Zilolaxon Zokirovna, Solijonova Diyoraxon Murodjon qizi</i>	
INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA “QO‘RQUV” KONSEPTI TAHLILIGA KOGNITIV YONDASHUV	126
<i>Xo‘shbaqova Nasiba Nurqobil qizi</i>	
INGLIZ YO‘L BELGILARIGA OID TERMINLARNING SINONIMLIK XUSUSIYATI.....	131
<i>Maxsumov Rustam</i>	
ETHNOLINGUISTIC FEATURES OF UZBEK AND ENGLISH PROVERBS BASED ON AGRICULTURAL TERMINOLOGY	136
<i>Qurbonova Farangiz Mirzayevna</i>	
FRAZEOLOGIK BIRLIKLARDA MAQSAD VA INTILISH OBRAZLARI: O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA LINGVO-AKSIOLOGIK TAHLIL	139
<i>Choriyeva Iroda Qurbonboyevna</i>	
TIBBIY LEKSIKA ASOSIDA SHAKLLANGAN INGLIZCHA VA O‘ZBEKCHA MAQOLLARNING CHOG‘ISHTIRMA TADQIQI	142
<i>Nizomova Mohinur Baratboyevna</i>	
PEDAGOGIK TERMINLARNING LINGVOPRAGMATIK TASNIFI VA ULARNING NUTQIY-FUNKSIONAL IFODALANISHI (INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA).....	147
<i>Normuminova Marjona Erali qizi</i>	
PRINCIPLES OF COMPARATIVE TERMINOLOGY STUDIES.....	159
<i>Panjiyeva Shaxodat Olimjonovna</i>	
KOREYS VA O‘ZBEK TILLARIDA INKOR SHAKLLARI: O‘XSHASHLIKLAR VA FARQLAR	168
<i>LHO Taegeun</i>	
LANGUAGE AS A MIRROR OF CULTURE: A COMPARATIVE ANALYSIS OF KOREAN AND UZBEK	171
<i>N.E.Sharipova</i>	
INGLIZ, NEMIS VA O‘ZBEK TILLARIDAGI MAQOLLARNI MAVZULASHTIRISH MUAMMOSI.....	177
<i>Barotov Javoxir Ravshan o‘g‘li</i>	



MADANIYATLARARO KOMMUNIKATSIYADA SPORT LEKSIKASINING ROLI.....	183
<i>Мамадаминова Жамила Турабоевна</i>	
ФРАЗЕОЛОГИЗМЫ В КОНТЕКСТЕ РУССКОГО И АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКОВ.....	188
<i>Sobirjonova Muxlisa Sobirjonovna</i>	
O‘ZBEK VA INGLIZ MAQOLLARIDA “YOLG‘IZLIK” VA “HIJRON” KONSEPTLARINING IFODALANISHI	191
<i>Maxmudov Xudoyshukur Alisherovich, Madrimova Shirinasaloy Otabek qizi</i>	
TIL REGISTRINING TURISTIK KONTEKSTDAGI O‘ZGARISHI VA TARJIMAGA TA’SIRI.....	194
<i>Proxorova Olga Nikolayevna, Mamanova Sayyora Faxriddinovna</i>	
O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA O‘ZLASHMA SO‘ZLARINING O‘RNI....	198
<i>Behzod Xudoyqulov</i>	
ITALYAN TILIDAGI MAQOLLARNING TEMATIK TASNIFI VA TARJIMADA BERILISHI.....	202
<i>Xolboyeva Marjona Rahmon qizi, Xudoyqulov Abdulla Eshkuvatovich</i>	
SINONIMIYA HODISASI: O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SEMANTIK VA FUNKTSIONAL QIYOS.....	205
<i>Hafizov Sarvar</i>	
O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SOMATIK FRAZEOLOGIZMLARNING MADANIY-MA’NAVIY JIHATDAN TAQQOSIY TAHLILI	208
<i>Pirniyazova Shaxnoza Almas qizi,</i>	
PRAGMATIC FAILURES IN TRANSLATION: THE ROLE OF CULTURE IN MISINTERPRETING MEANING.....	211
<i>Ro‘ziyeva Rayxon Abduxalilovna</i>	
O‘ZBEK VA INGLIZ MAQOLLARIDA GENDERNING GERMENEVTIK JIHATDAN LISONIY VOQEALANISHI	216
<i>Xudayberganova Maxbuba Meylibayevna</i>	
REKLAMA MATNLARINING LINGVOKULTUROLOGIK JIHATLARI	218
<i>Nishonova Sayyora Saidovna</i>	
INGLIZ VA O‘ZBEK TILIDA ANTROPONIMLAR QATNASHGAN FRAZEOLOGIK BIRLIKLER.....	221
<i>Ma’ruffjon Karimov, Rahimjonov Bahtiyor</i>	
METHODOLOGICAL APPROACHES IN TEACHING ENGLISH AS A FOREIGN LANGUAGE: THEORY AND PRACTICE.....	225



Xayitova Rushana Ximoyiddin qizi

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI NOSTALGIK SO‘ZLARNING
ETIMOLOGIK TAHLILI 231

Sayidov Shukrullo Xaliljonovich

XORIJY ADABIYOTLARNING O‘ZBEK TILIGA TARJIMASI VA
ULARNING TANQIDIY MUAMMOLARI..... 236

Sherqulova Mahliyo Xasan qizi

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI REKLAMA SLOGANLARINI TARJIMA
QILISH USULLARI 241

Abduvaliyeva Sitara Sunnatali Kizi, Z.A.Umirova

SPECIALIZED TRANSLATION: SCIENTIFIC, LITERARY TRANSLATIONS,
SYNONYMS AND ANTONYMS 246

Egamnazarova Zaynab Xolmurod qizi

XORIJY VA MAHALLIY TILSHUNOSLIKDA RIELTORLIK
TERMINLARNING O‘RGANILISH MASALASI..... 251

Rahimova Mohinur Qaxramon qizi

INGLIZ TILIDAGI EKOLOGIYAGA OID NEOLOGIZMLARNING O‘ZBEK
TILIGA TARJIMA MUAMMOLARI 259

Javliyev Mansurbek Odil o‘g‘li

NATIONAL-CULTURAL CONCEPTUAL FEATURES OF FLOWER NAMES
IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES 264

Sharipova Charos Ahmadjon qizi

TRANSLATION CHALLENGES OF TOPONYMS IN ENGLISH AND UZBEK
LANGUAGES 267

Turdaliyeva Shaxnoza O‘ktamovna

SODDA GAP SHAKLIDAGI GIBRID KOMPONENTLI MAQOLLARNING
STRUKTUR TAHLILI 270

Xalilova Shoxista Muhammadi qizi

RAY BREDBERINING “FALOKAT YAQINLASHMOQDA” ASARIDA
AXLOQIY QADRIYATLARNING LINGVISTIK VA SEMANTIK TALQINI..... 273

Xolmurotova Gulnora Sattorovna

MAXSUS LEKSIKA DOIRASIDA INTERYER DIZAYN TERMINLARINING
LISONIY O‘RGANILISHI 278

Zaripova Ruxshona Sherali qizi

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA YURIDIK TERMINLARNING RUS TILIDAN
TARJIMA QILGANDA YUZAGA KELADIGAN MUAMMOLAR..... 282

Муртозакулова Нафосатхон



ЛЕКСИЧЕСКИЕ ТРАНСФОРМАЦИИ ПРИ ПЕРЕВОДЕ	286
<i>Мустафаева Дилором Норбековна</i>	
ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕВОДА МЕСТОИМЕНИЙ С РУССКОГО НА УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК.....	293
<i>Якубова Гузалхон Махмудовна, Ахмадалиева Лазизабону Саидумар кизи</i>	
РОЛЬ МЕЖКУЛЬТУРНОГО МЫШЛЕНИЯ В ПЕРЕВОДЕ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ	296
<i>Tursunova Charos</i>	
ILMIY-TEXNIK MATNLARDA METAFORIK IFODALAR VA ULARNING TARJIMA JARAYONIDAGI TALQINI	305





“O‘TKAN KUNLAR” ROMANIDAGI SINEKDOXA TASVIRIY VOSITASINING QO‘LLANILISHI VA INGLIZCHA TARJIMALARDA AKS ETISH MASALALARI

Marufjon Karimov

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD

NamDTU, O‘UK: 82.091:81‘255.2:81(575.1)

marufjon.karimov.87@mail.ru

Annotatsiya. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida qo‘llangan sinekdoxa usuli muallifning badiiy mahoratini ko‘rsatadi. Ushbu uslubiy vosita orqali yozuvchi murakkab ijtimoiy va ruhiy holatlarni qisqa, lekin ta‘sirchan shaklda ifodalaydi. Tezisd sinekdoxaning funksional imkoniyatlari, uning milliy adabiy kontekstdagi o‘rni hamda tarjima jarayonidagi semantik aniqlikni saqlab qolish muammolari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: tarjimon, mashaqqat, tasvir, ifodalash, avtor, haqqoniy, so‘z, asl nusxa, muvofiq, mag‘iz, ma‘no, aksincha, noaniq, mujmal, ekvivalentlik.

Общие формы синекдохи в романе «Минувшие дни» и вопросы их отражения в английских переводах

Tarjima jarayonida asarning g‘oyasi uning uslubiy jihati bilan chambarchas tarzda bog‘liq bo‘lib, asar yozilgan davr ruhini, qahramonlar ijobiy va salbiy jihatlarini ijodiy qayta yaratish uchun tarjimon nafaqat badiiy mahorat, iste‘dod va boy tajriba sohibi bo‘lishi, balki badiiy tarjima amaliyoti dalillari asosida vujudga kelgan nazariy bilimlar bilan puxta qurollangan filolog olim sifatida faoliyat ko‘rsata bilishi ham lozimdir [1.74-76 b]. Asliyat va tarjima tillari badiiy-uslubiy vositalarni chuqur matniy va lisoniy tahlil qilish asosida qiyosiy o‘rganishgina san‘atkorni tarjima amaliyotida uchrab turadigan qator illatlardan saqlab qolgani holda, unga asliyat lisoniy-uslubiy hodisalari vazifalarini ijodiy tiklash imkoniyatini beribgina qolmay, bularni barchasini uddalash mas‘uliyatini ham yuklaydi. Sinekdoxaning umumiy ko‘rinishlari quyidagilardan iborat:

Butun o‘rnida qism ifodalanishi: Sinekdoxa-grekcha “birga anglamoq” demakdir. Qism orqali butunni yoki aksincha butun orqali qismning ifodalanishi



sinekdoxa deyiladi. Masalan, tirnoq soʻzining “bola” maʼnosida bosh, tuyoq soʻzlarining “qoʻy”, “sigir” maʼnosida ishlatilishi qism orqali butunni ifodalashdir.

Asliyat matnida: “Arzimagan sabablar bilan talaf boʻlgan jonlarni hamisha koʻz oldingda tut!” [2.40 b] Ushbu matnda sinekdoxa leksik-stilistik vositasi “talaf boʻlgan jonlar” birikmasida qoʻllangan hamda koʻchma maʼno ifodalagan. “Talaf boʻlgan jonlar” birikmasi orqali aslida “qurbon boʻlgan kishilar” nazarda tutilmoqda, yaʼni “qism” (jonlar) orqali “butun” (insonlar) ifodalanmoqda. Romanda Yusufbek xoji purviqor siymo sifatida juda koʻp oʻrinlarda muallif tomonidan oʻrnak etilishiga guvoh boʻlishimiz mumkin. Bunda adibning badiiy mahoratiga qoyil qolmasdan iloj yoʻq.

I.Toʻxtasinov, O.Moʻminov, A.Hamidovlar tarjimasida: “Always remember the innocent victims! [2.3 b]” (Har doim begunoh qurbonlarni yodingda tut!- K.M-Karimov Maʼrufjonning qisqartma shakli [keyingi tarjimalarda K.M tarzida beramiz] K.M) deb beriladi.

Kerol Yermakova tarjimasida: “Always remember those innocent who died!” (Har doim begunoh oʻlganlarni yodingda tut!) (K.M) shaklida beriladi.

Mark Riz tarjimasida esa: “Remember the past victims who have been killed for the same miserable reasons.” (oʻtmishda oʻldirilganlar- K.M)

Yuqoridagi tahlillardan koʻrinadiki bunda oʻzbek hamda ingliz tarjimonlari soʻzma-soʻz tarjima usulida sinekdoxani tarjimada muvaffaqiyatli aks ettirganlar.

Asliyat matnida: “Yoʻlak panasidan mudhish bashara chiqib bir-ikki qayta unga kulib qaragʻach, yoʻqoldi...” [3.186 b] Romandagi salbiy qahramon boʻlmish Homid tomonidan yozilgan ushbu soxta taloq xati va uni olib kelguchi “mudhish bashara” Kumushni deyarli aqlidan ozdiradi. “Mudhish bashara” birligida ham sinekdoxa orqali koʻchma maʼno ochib berilmoqda. Ushbu jumlada “mudhish bashara” “koʻrinishi niyati kabi xunuk, kishida qoʻrqinch uygʻotuvchi” maʼnolarini bildiradi. Salbiy qahramonlardan biri Jannat tasvirlangan ushbu oʻrin roman oʻquvchisi qalbida nafrat uygʻotadi, Kumushning xatdan keyingi taqdiri esa ayanchli boʻladi.



T.I. tarjimasida: “From the dark aisle of the gate the terrible woman’s face was seen, she laughed and disappeared...” [4.167 b] (dahshatli ayolning basharasi)

Y.K. tarjimasida: “The frightening face of the hag peered out of the dark alley by the gates. With a nasty laugh, she vanished.” [5.159 b] (qo‘rqinchli cho‘chqabashara- K.M) tarzida beriladi.

R.M. tarjimasida esa: “The terrible visage previously described peeked out from around the corner of the entryway, snickering with joy, and then disappeared.” [6.305 b] (dahshatli qiyofa- K.M)

Parchada keltirilgan sinekdoxa(qism orqali butun) ifoda vositasi tarjimasini ikki tarjima matnlari misolida qiyoslaymiz tahlilga tortamiz:

Asliyat matnida keltirilgan “mudhish bashara” birikmasi I.To‘xtasinov tarjimasida “terrible woman’s face” (dahshatli ayol basharasi) shaklida beriladi [7.35336 b]. Bizningcha, tarjimonlar “terrible” (dahshatli) sifat aks etgan leksik birlikni “woman’s” (ayolning) so‘zidan keyin qo‘llaganlarida, birikma “woman’s terrible face” (ayolning dahshatli basharasi) tarzida muallif keltirgan birikmaga muqobil bo‘lar edi. Yoki “horrible face” (mudhish bashara) deb berilishi asliyatga aynan so‘zma-so‘z sinonimik bo‘lib, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda o‘zbek tarjimonlari tasviriy ekvivalent usulidan foydalanib, kitobxonga tushunarli bo‘lishi uchun harakat qilgan.

“Mudhish bashara” birikmasi K.Yermakova tarjimasida esa “the frightening face of the hag” (qo‘rqinchli cho‘chqabashara) tarzida beriladi. Bunda tarjimon kitobxonga tushunarli bo‘lishi uchun romandagi salbiy qahramon Jannatni “qo‘rqinchli cho‘chqabashara” [8.261-264 b] deb beradi, biroq mutarjim ozgina emotsiyaga berilishi natijasida birikmani shaxsiylashtirib, mubolag‘alashtirib yuboradi. Parcha asliyatga muvofiq qayta yaratilishi uchun esa “the frightening face” (qo‘rqinchli bashara)ning o‘zi kifoya qiladi, “of the hag” (cho‘chqaning) leksik birligining keltirilishi qo‘shimcha konnatativ ma’no kasb etadi hamda asliyatga nomuvofiqlik yuzaga keladi. “Tarjima variantini tanlash ma’lum darajada tarjimonning mahorati va shaxsiy hususiyatlariga bog‘liq. Lekin tarjimaning sub’ektivligi asl nusxa tarjimasining iloji boricha to‘laroq mazmunini bera olish



bilan cheklanadi. Shunday qilib, tarjima uni amalga oshiradigan tarjimon tomonidan ob’ektiv munosabatlarning sub’ektiv voqelanishidir [9.242 b].” Shunga ko‘ra badiiy tarjima birmuncha mushkul vazifa hisoblanadi.

O‘zbek tarjimonlari hamda K.Yermakovadan farqli o‘laroq M.Riz “mudhish bashara” birikmasini tarjimada terrible visage- daxshatli qiyofa [10.12 b] tarzida aks ettiradi. Tarjimon previously described- ilgari tasvirlangan deya ta’kidlaydi, chunki rostdan ham ushbu salbiy personaj tarjima matnining avvalida a stunted and misshapen woman- pakana, rivojlanmay qolgan ayol tarzida tanishtiriladi. Tarjimon ushbu sinonimik birikmani asliyatga muqobil aks ettirgan, zero adib Jannatni “pakana xotin” degan edi.

Adabiyotlar:

1. Пирс Ч.С. Принципы философии. – Санкт Петербург, 2001. – С.313
2. Моррис Ч.У. Основания теории знаков // Семиотика: хрестоматия: учеб.метод. модуль / под ред. Л.Л. Федоровой. – М., 2005. – С. 45–98.
3. Yermakova K. The Days Gone by. – England, 2018. –P. 60
4. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Монография. – Т., 2008. – Б. 59-241
5. Mey J.L. Pragmatics: An Introduction. 2nd ed. – Oxford: Blackwell, 2001. – P.148.
6. Reese M. Bygone Days. – The United States of America, 2018. –P. 60
7. Kim D. et al. The Role of an Interactive Book Reading Program in the Development of Second Language Pragmatic Competence // The Modern Language Journal. Vol. 86, № 3, 2002. – P. 328-332.
8. Levinson S.C. Pragmatics. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008. – P. 9-236.
9. Karimov M. The etiquette and the literary description of character used in the novel “Days Gone By”//Turkish Journal of Physiotherapy and Rehabilitation; 32(3) ISSN 2651-4451. – 2022. – P. 35336-35344.
10. Tukhtasinov I. The Days Gone by. – Tashkent, 2017. –P. 61
11. Умарходжфев М. Основы фразеогрфии. Дис... д-ра филол. наук. – Москва, 1981. – С. 77-100
12. Karimov M. Specific Features of English literature translations// 6th International Multidisciplinary Scientific Conference on Innovative Technology. – San Francisco, USA, 2021. –P. 12



13. Karimov M. The usage of some stylistic figures in the novel “Days Gone By” (Tropes, Archaisms, Historisms, Dialects)//НамДУ илмий ахборотномаси-Научный вестник НамГУ 2021 махсус сон. –Namangan , 2017. –P. 261-264

BADIIY TARJIMADA SINTAKTIK TRANSFORMATSIYALARNING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI VA EKVIVALENTLIK MUAMMOLARI (J. JOYSNING “ULISS” ROMANI MISOLIDA)

Sayyora Pulatova

Termiz davlat universiteti

Annotatsiya. Maqolada badiiy tarjimada sintaktik transformatsiyalarning qo‘llanilishi, ularning lingvopragmatik xususiyatlari va ekvivalentlik muammolari tahlil qilinadi. Tarjima jarayonida transformatsiyalar til va madaniyat farqlari, grammatik va stilistik tafovutlarni bartaraf etishda muhim rol o‘ynashi, ekvivalentlik va pragmatik me‘yorni ta‘minlashga xizmat qilishi asoslanadi. Nazariy qarashlar va amaliy mezonlar asosida, sintaktik transformatsiyalarning muvaffaqiyatli tarjima va samarali kommunikatsiyaga ta‘siri ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: badiiy tarjima, sintaktik transformatsiya, lingvopragmatika, ekvivalentlik, tarjima muammolari, kommunikativ kompetensiya, madaniy tafovutlar.

Tarjima transformatsiyalari matnda doimiy va muqarrar yuz beradigan jarayon bo‘lib, har bir transformatsiya ma‘lum sababga ko‘ra amalga oshiriladi. Tarjimon ko‘pincha bu jarayonni intuitiv tarzda, ya‘ni his qilgan holda bajaradi. [2, 357b.]

Tilshunoslar transformatsiyalarning qo‘llanishini turlicha talqin qiladi. Masalan, A.M. Malofeev va O.A. Krapivkina fikricha, tarjima transformatsiyalari ekvivalentlik normasi va pragmatik me‘yor o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarni hal qilish vositasidir. [2, 357b.]

V.N. Bazilev esa tarjimaning pragmatik me‘yorini, tarjimaning pragmatik qiymatini ta‘minlash talabi sifatida ko‘radi. Tarjima pragmatikasi matnning mazmuni va maqomini aniqlash, uni tarjimada yetkazish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. [3, 25b.]



G.M. Strelkovskiyga ko'ra, tarjimada eng muhim narsa ikki til birligi o'rtasidagi aniq moslik emas, balki funksional o'ziga xoslikdir. Tarjima jarayonida transformatsiya tillar, madaniyatlar, tarixiy rivojlanish va dunyoqarash farqlari tufayli yuzaga keladi. [4, 112b.]

Transformatsiyalar orqali tarjimon manba va tarjima matnining funksional o'ziga xosligiga erishadi. L.K. Latishev fikricha, muallif o'z kommunikativ maqsadiga erishish uchun matni tuzadi va bu jarayonda adresatning yoshi, bilim darajasi, madaniyati va boshqa xususiyatlari hisobga olinad. [5, 47b.]

Kommunikativ kompetensiya – bu matni to'g'ri idrok etish va sharhlash uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar to'plami. Asliyat va tarjima qabul qiluvchilarining kommunikativ kompetensiyasi bir xil bo'lishi kerak, biroq ular til va madaniyat nuqtai nazaridan farq qilishi mumkin. [5, 47b.]

A.F. Arxipov transformatsiya sabablarini quyidagicha ajratadi:

- So'zma-so'z tarjimadan chekinish
- Tarjimani idiomatizatsiya qilish va tarjima tili me'yoriga yaqinlashtirish
- Gapning uyushiq bo'laklarini o'g'irishda tilararo farqlarni bartaraf etish
- Begona so'z yasovchi modellaridan chekinish
- G'ayritabiiy, estetik bo'lmagan, noqulay va tushunarsiz tarjimadan qochish
- Tarjimaning ixcham va o'quvchi uchun qulay bo'lishiga intilish
- Muhim ma'lumotni yetkazish yoki ortiqcha ma'lumotlarni olib tashlash
- Murakkab so'zlar va stilistik figuralarni qayta yaratish. [6, 55b.]

T.I. Gubskaya fikricha, transformatsiyalar manba til va tarjima matni o'rtasidagi ziddiyatlarni hal qilish, ekvivalentlik va semantik-strukturaviy o'xshashlikni ta'minlash uchun zarur. [7, 62 b.]

Quyidagi misollarda sintaktik transformatsiya usuli qo'llanilganligini ko'rishimiz mumkin. Qiyoslang:

1. Buck Malligan peeped an instant under the mirror and then covered the bowl smartly. [8, 2 b.]

Бык Маллиган заглянул под зеркальце и тут же опять прикрыл чашку.
[9, 5 b.]



Bak Malligan oyna ostiga ko‘z tashladi, yana tez idishni yopdi.[10, 22b.]

Mazkur gap ingliz tilidan rus tiliga tarjima jarayonida ketma-ketlikda o‘zgarish, ya’ni qisqartirish bilan tarjima qilingan, biroq o‘zbek tilidagi tarjimasida i(va) bog‘lovchisi tinish belgisi bilan stilistik nuqtai nazaridan almashtirilgan. Rus va o‘zbek tarjimalarida gap qisqartirilgan va soddalashtirilgan. Rus tilida qisqa va tezkor uslub, o‘zbek tilida esa soddalashtirish va bog‘lovchining tinish belgisi bilan almashtirilishi kuzatiladi. Asliyatdagi *peeped an instant* iborasining yashirinlik ma’nosi to‘liq saqlanmagan. Tarjimonlarning shaxsiy yondashuvi va til xususiyatlari aks etgan.

2. My name is absurd too: Malachi Mulligan, two dactyls.[8,4b.]

У меня тоже нелепое-Мейлахи Маллиган, два дактиля.[9, 6b.]

Mening ismim ham be’ma’ni:Malaki Malligan, ikki daktil. [10, 23b.]

Rus tilida *имя* so‘zi tushib qolgan, tire orqali izohlash kuchaytirilgan. O‘zbek tilida esa to‘liq nolga teng tarjima (so‘zlar qisqartirilgan) kuzatiladi.

Har ikkala misolda ham sintaktik transformatsiya (qisqartirish, soddalashtirish, izohlash) usullari qo‘llanilgan. Tarjimonlar til xususiyatlari va stilistik talablardan kelib chiqib, asliyatdagi ma’noni saqlashga harakat qilganlar, lekin ayrim semantik va ekspressiv tafovutlar yuzaga chiqqan.

Demak, transformatsiyalarning to‘g‘ri qo‘llanishi natijasida muvaffaqiyatli kommunikatsiya va ekvivalent tarjima hosil bo‘ladi. Bu nazariy asoslar tarjima amaliyotida muammolarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega.

Tarjima transformatsiyalari tarjimon faoliyatining ajralmas qismi bo‘lib, u til, madaniyat va kommunikativ farqlarni bartaraf etish, matnning pragmatik va semantik mazmunini to‘g‘ri yetkazish uchun xizmat qiladi. Transformatsiyalarning ilmiy asoslari va amaliy mezonlari tarjima sifatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qambarov N. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2018.
2. Малофеев А.М., Крапивкина О.А. Причины переводческих трансформаций (на материале переводов научно-технических текстов) // Вопросы языкознания. – Москва, 2010. – №3. – С. 112-120.



3. Базилев В.Н. Проблемы прагматики перевода. – Москва: Высшая школа, 1983.
4. Стрельковский Г.М. Теория и практика военного перевода (немецкий язык). – Москва: Военное издательство, 1974.
5. Латышева Л.К. Введение в переводоведение. – Москва: Издательство РУДН, 2003.
6. Архипов А.Ф. Перевод и переводческие трансформации. – Москва: Флинта, 2005.
7. Губская Т.И. Теория перевода: Учебное пособие. – Москва: Академия, 2004.
8. James Joyce “Ulysses”, 1305p. <http://www.planetpdf.com>
9. Джеймс Джойс.”Улисс”, -В.Хинкис., С.Хоружий, перевод.(1-часть),-М., 2014. 771 с.
10. Жеймс Жойс. ”Улисс саргузаштлари” (И.Фофуров таржимаси) - Тошкент:О‘zbekiston, 2013 -840 б.

JON FAULZ ASARLARIDA TARJIMA SHAKLLARI: LINGVISTIK VA ESTETIK YONDASHUVLAR

Sodiqova Baxtigul Ibodullaevna

O‘qituvchi, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

ORCID ID- 0009-0008-1553-9849

UO‘K-821.111.09-31

E-mail: baxtigulsodiqova88@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz adabiyotining yirik vakili Jon Faulz asarlarining o‘zbek tiliga tarjima qilinishida qo‘llanilgan tarjima shakllari tahlil qilinadi. Xususan, postmodern matnlarning o‘ziga xosligi, intertekstual va metaadabiyot unsurlar, madaniy tafovutlar tarjimon tanloviga qanday ta’sir qilishi muhokama qilinadi. Maqolada ingliz va o‘zbek tarjimashunoslarining nazariy qarashlari hamda amaliy misollar asosida tahlil keltiriladi.

Kalit so‘zlar: tarjima shakllari, postmodernizm, intertekst, adaptatsiya, ekvivalentlik.

Kirish. Jon Faulz (John Fowles, 1926–2005) ingliz postmodern adabiyotining yetakchi namoyandalaridan biridir. Uning asarlari o‘ziga xos falsafiy mazmun, murakkab syujet tuzilmasi va eksperimentallik bilan ajralib turadi. "Fransuz



leytenantining ayoli", "Afsungar", "Kolleksiyachi" kabi romanlarida tarixiy va zamonaviy qatlamlarning uyg'unligiga tayanadi. Shu bois, tarjima jarayoni ham o'ziga xos yondashuvlarni talab etadi.[9, 1-8- bet]

Tarjimashunos L. S. Barkhudarov ta'kidlaganidek, "Tarjimada muhim narsa bu muallif uslubini iloji boricha asliga yaqin yetkazishdir, lekin bunda o'quvchining madaniy dunyoqarashi ham inobatga olinishi kerak" [1, 22-bet].

Postmodernizmga xos belgilardan biri intertekstualizmdir. Faulz o'z asarlarida boshqa adabiy matnlarni parodiya, to'g'ridan-to'g'ri iqtibos tarzida qo'llaydi.[7, 65-67- bet] "Fransuz leytenantining ayoli" romanida, masalan, Charlz Dikens, Tomas Xardi kabi viktorian yozuvchilarning ruhiy-estetik olami aks etadi. Bu holatni tarjimada saqlab qolish mushkul: tarjimon ba'zida kontekstual izohlar yoki moslashtirishdan foydalanishga majbur bo'ladi.

O'zbek tarjimashunosi G. S. Sayfiyev yozadi: "Tarjimada intertekstual birliklar yoki madaniy konnotatsiyalarni to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish emas, balki ularni anglatgan mazmunni o'ziga xos uslubda berish zarur" [3, 34-bet].

Semantik yaqinlikni saqlashga intiladi. Lekin Faulzning falsafiy-psixologik ohangidagi iboralari, masalan, "freedom is the will to be responsible to ourselves" (Afsungar romanidan) iborasi [6,656-bet], oddiy so'zma-so'z tarjimada o'z kuchini yo'qotadi. Bu iborani "Erkinlik bu o'z harakatimizga o'zimiz javobgar bo'lish istagi" tarzida moslashtirish mumkin.

Tarjimon matndagi madaniy realiyalarni o'zbek o'quvchisi uchun tushunarli va mantiqan yaqin shaklga keltiradi. Masalan, "governess" so'zining o'zbekcha mos ekvivalenti mavjud emas. U "tarbiyachi ayol" yoki "xonadon muallimasi" deb moslashtiriladi.

Lokalizatsiyada tarjima faqat til darajasida emas, balki madaniy kontekstda ham yangidan yaratiladi. Faulzning Viktorian Angliyasi tasvirlangan sahnalari izohlar bilan boyitilmasa, o'zbek o'quvchisi kontekstni tushunmasligi mumkin. Shuning uchun lokalizatsiya ko'pincha annotatsiya va izohlar bilan birga yuritiladi. [5, 445 p]



Ayniqsa, falsafiy fikrlar va ilmiy terminlarga boy sahnalar (masalan, Asfungar romanidagi eksistensial fikrlar) izohsiz qabul qilinmaydi. Tarjimonlar ba’zida asar tagida yoki orqa sahifada qisqa izohlar kiritadilar.

Jon Faulz asarlarida muallif ko‘pincha syujetga bevosita aralashadi, hatto o‘quvchi bilan “suhbatlashadi”. Bu esa tarjimada erkin yondashuvlarni talab qiladi. Tarjimada faqat matn emas, balki muallif vazifasi ham aks ettirilishi kerak. Niderland tarjimashunosi Theo Hermans fikricha: “Tarjimon bu passiv ko‘chirish vositasi emas, balki muallif va o‘quvchi o‘rtasida faol vositachidir” [2, p. 30].

O‘zbek yozuvchisi va tarjimoni U. Normatov esa ta’kidlaydi: “Tarjimon ba’zan ijodkor darajasiga chiqadi, chunki u muallif fikrini boshqa tilda qayta yaratuvchidir” [4, 18-bet].

Xulosa. Jon Faulz asarlarining tarjimasi nafaqat tilshunoslik masalasi, balki estetik va falsafiy tafakkur sohasidir. Tarjimon Faulz uslubining murakkab qatlamlarini, intertekstual ishoralarni va metaadabiyot unsurlarni o‘zbek o‘quvchisi uchun tushunarli shaklga keltirishi kerak. Bunda tarjima shakllarining to‘g‘ri tanlanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Бархударов Л. С. Язык и перевод: Вопросы общей и частной теории перевода / Л. С. Бархударов. — М.: Международные отношения, 1975. — с. 240
2. Hermans, T. Translation in Systems: Descriptive and Systemic Approaches Explained / Theo Hermans. — Manchester: St. Jerome Publishing, 1996. — 240 p.
3. Сайфиев Г. С. Таржимашунослик асослари / Г. С. Сайфиев. — Т.: Фан ва технология, 2018. — 180 б.
4. Норматов У. Таржима санъати ва иждокорлик / У. Норматов. — Т.: O‘zRFA нашриёти, 2005. — 120 б.
5. Fowles, J. The French Lieutenant’s Woman / John Fowles. — London: Jonathan Cape, 1969. — 445 p.
6. Fowles, J. The Magus / John Fowles. — London: Jonathan Cape, 1966. — 656 p.
7. Sodiqova, B. (2024). Postmodernizm tarixiga oid ta’riflar. Tamaddun nuri jurnali, 6(57), 65-67.



8. Sodikova, B. (2022). John Fowles as a writer of existentialistic and realistic literary trends, and his philosophical and psychological views. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 2022(1), 176-184.
9. Ibodullaevna, S. B. (2024). Interpretation of "the magus" as a story of initiation. *Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research*, 2(7), 1-8.

AVTOMATLASHTIRILGAN TARJIMA VOSITALARI

Mo'minova R.N.

Qo'qon Davlat Universiteti, dotsent

ranokhon29@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada tarjima sanoatida yangi texnologiyalarning paydo bo'lishi jiddiy o'zgarishlarga olib kelganligi, tarjimon uchun juda muhim vositalarning paydo bo'lganligi, kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda kompyuterdagi matnlarni tarjima qilish qulay usullari, moslashuvchan avtomatlashtirish tizimlari (Computer-Assisted Translation tools, CAT tools) yoritilgan.

Kalit so'zlar: CAT dasturlari, elektron lug'atlar, avtomatik tarjima qilish dasturlari, Computer-Assisted Translation tools, CAT tools), Artil OmegaT Trados'ning Deja Vu (TRADOS), Metatexis (Metatexis) Star Transit, Wordfast.

So'nggi bir necha yil ichida tarjima sanoati yangi texnologiyalarning paydo bo'lishi bilan bog'liq jiddiy o'zgarishlarga duch keldi. Tarjimon uchun juda muhim vositalar, jumladan elektron lug'atlar va lug'atlar, ovoz yozish dasturlari va oxir-qibat tarjima disklari (CAT dasturlari) paydo bo'ldi.

Dastur sayti (ingl. Computer Aided Translation) - kompyuterda matnni tarjima qilishga yordam beradigan dasturlar. Shuning uchun avtomatlashtirilgan tarjima - kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda kompyuterdagi matnlarni tarjima qilish hisoblanadi. Tarjimoni avtomatlashtirishni ta'minlaydigan barcha mavjud dasturlarni quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

- elektron lug'atlar - tarjima dasturlari va xotira tizimlari (TM dasturlari)
- avtomatik tarjima qilish dasturlari



O‘z faoliyati davomida tarjimon tayyor tarjimani amalga oshiradigan dasturlardan foydalanishi kerak bo‘ladi. PROMT, Suqrot, Pragma 5 kabi dasturlar.x va boshqalar. ularning barchasi CAT dasturlariga ham tegishli bo‘lishi mumkin, faqat farq shundaki, dastur tarjimani amalga oshirgandan so‘ng, tarjimon olingan natijani batafsil va puxta tahlil qilishi kerak.

Tarjimon uchun bunday dastur yordamida qilingan tarjima matn mazmuni bilan yuzaki tanishish uchun ishlatilishi mumkin. Bunday holda, u signal ma'lumotlari sifatida ishlatilishi mumkin va ehtiyotkorlik bilan tahrirlashni talab qilmaydi. Agar tarjimon ushbu dasturdan, masalan, vaqtni tejash uchun foydalansa, u holda mashinani qayta ishlagandan so‘ng, “inson” qo‘li bilan majburiy tahlil qilish va tahrirlash kerak.

Avtomatlashtirish tizimlari (Computer-Assisted Translation tools, CAT tools) ancha moslashuvchan. Ular zamonaviy professional tarjima jarayonining ajralmas qismiga aylandi. Ushbu echimlar hujjatlarni tarjima qilish, dasturiy ta'minotni lokalizatsiya qilish, terminologik lug‘atlarni yuritish, tarjima sifatini tekshirish, tarjima loyihalarini yaratish va tarqatish uchun texnologiyalar va vositalarning butun majmuasidir.

Ularning yordami bilan eng qisqa ishlab chiqarish tsikli doirasida sifatli tarjimani amalga oshirish vazifalari hal qilinadi. Ushbu echimlardan foydalanish, shuningdek, bitta loyiha doirasida kelishilgan tarjimani ta'minlash zarur bo‘lganda, jamoaviy ish paytida tavsiya etiladi. Barcha natijalar avtomatik ravishda tarjima jarayonining barcha ishtirokchilari uchun mavjud bo‘lgan yagona ma'lumotlar bazasida saqlanadi. Eng zamonaviy echimlar odatda 3 ta asosiy texnologiyaga asoslangan:

Tarjima xotirasi (yoki bazasi) (tarjima xotirasi, TM);

Terminologiyani boshqarish (terminologiya menejmenti);

Loyihalarni boshqarish (Project Management, Translation Management System, TMS).

Tarjima xotirasi bazasi lingvistik ma'lumotlar bazasi bo‘lib, unda tarjimalar tarjimon foydalanuvchi tomonidan yaratilganda ma'lum bir tuzilma doirasida



saqlanadi. TM bazasining odatiy tarkibi boshlang'ich segmentlar va ularga teng keladigan maqsadli segmentlardir (qoida tariqasida, taklif segment sifatida qabul qilinadi). Tarjimaga kelgan yangi matnni qayta ishlashda tizim uning har bir jumlasini ma'lumotlar bazasida saqlanganlar bilan taqqoslaydi va tegishli mosliklarni chiqaradi. Natijada, bir xil jumlaning qayta – qayta tarjima qilish shart emas-aksincha, agar kerak bo'lsa, ilgari tarjima qilingan matn qismlarini qayta ishlatish mumkin.

Tarjima xotirasi (TM) texnologiyasi texnik hujjatlar tarjimoni uchun kalit hisoblanadi. Sifatli tarjimaning muhim talabi aniq terminologiyadir. CAT tizimlarida terminologiyaning aniqligi va izchilligini ta'minlash uchun turli xil echimlar taklif etiladi, ular odatda bitta markazlashtirilgan atamalar omborlari (universal elektron lug'atlarning bir turi, ularni qidirish to'g'ridan-to'g'ri tizimning asosiy muharriridan amalga oshirilishi mumkin) va terminologiyani boshqarish vositalari.[1]

Zamonaviy tarjima jarayoni fayllar va loyihalarni tayyorlash bilan bog'liq ko'plab vazifalarni o'z ichiga oladi. Ko'pincha ular qo'lda bajariladi va ko'p vaqt talab etadi. Ushbu vazifalarni optimallashtirish uchun zamonaviy CAT tizimlarida ishlab chiquvchilar tarjima boshqaruv modullarini joylashtiradilar, loyihalarni sozlashni avtomatlashtiradilar, kerakli tarjima bazalarini va terminologiyasini tanlaydilar, sifatni tekshiradilar, statistikani hisoblaydilar va hisobotlarni tuzadilar.

Tarjimani avtomatlashtirish tizimlari bilan ishlashni shartli ravishda 2 bosqichga bo'lish mumkin. Birinchi bosqichda foydalanuvchi tizim uchun ishlaydi, ya'ni asosiy funksiyalarni o'zlashtiradi, tarjimalarning dastlabki bazasini to'playdi (ilgari tarjima qilingan materiallarni tegishli formatga o'zgartiradi) va lug'at yaratadi. Ikkinchi bosqichda tizim foydalanuvchi uchun ishlay boshlaydi. Tarjimalar bazasining ko'payishi bilan tasodiflar soni ko'payadi, shuning uchun tarjimaga sarflangan vaqt qisqaradi va unumdorlik oshadi.

Tarjimani avtomatlashtirish tizimlari orasida eng mashhur tizimlarga quyidagilar kiradi: Artil OmegaT Trados'ning Deja Vu (TRADOS), Metatexis (Metatexis) Star Transit, Wordfast. Tarjimani avtomatlashtirish tizimlari orasida eng keng tarqalgani SDL Tradosdir. Bu tarjimaning sanoat standartiga aylandi. Mustaqil



hisob-kitoblarga ko‘ra, dunyo bo‘ylab tarjimonlarning 80 foizi ushbu echimlarni qo‘llaydi.[2]

Avtomatlashtirilgan tarjima tizimlarining rivojlanishi ular tarjima uchun zarur bo‘lgan vaqtni sezilarli darajada tejashlari bilan bog‘liq. Ma'lumotlar bazasini to‘plashda tarjimon uchun bunday dasturlardan foydalanishning afzalliklari ko‘p bo‘ladi.

ADABIYOTLAR:

1. Vinogradova T. zamonaviy tarjimalarni avtomatlashtirish tizimlari (kompyuter yordamida tarjima vositalari) <https://www.tra-service.ru/article>
2. Popov A., Popov V. Avtomatlashtirilgan tarjima vositalari. Talabalar ilmiy forumi – 2018. X xalqaro talabalar ilmiy konferentsiyasi

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI SINLEKSIK BIRLIKLARNING LEKSIK-SEMANTIK MOSLIGI

Nazarova Lobar Maxmataminovna

6-maktab o‘qituvchisi

lobarnazarova101@icloud.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi sinleksik birliklarning leksik-semantik jihatdan o‘zaro mosligi tahlil qilinadi. Tillararo tarjimada uchraydigan semantik farqlar, milliy mentalitet va madaniyat bilan bog‘liq o‘ziga xosliklar, hamda semantik o‘xshashliklar asosida keltirilgan misollar orqali yoritilgan.

Kalit so‘zlar: sinleksik birlik, leksik-semantik moslik, milliy o‘ziga xoslik, ekvivalentlik, tarjima.

Tillararo o‘zaro aloqadorlikni o‘rganishda leksik birliklarning semantik yuki muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, sinleksik birliklar – bir butun shaklida qo‘llanilib, bitta semantik mazmuni anglatuvchi frazemalar, iboralar yoki so‘z birikmalari – turli tillarda o‘zaro to‘g‘ri ekvivalent topishi har doim ham oson bo‘lmagan masaladir. Sinleksik birliklarning tarjimada to‘g‘ri yetkazilishi uchun ularning leksik-semantik mosligi puxta tahlil qilinishi zarur.



Sinleksik birlik tushunchasi Sinleksik birlik – bu bir nechta leksik elementlardan tashkil topgan, biroq yagona semantik mazmuni anglatuvchi til birligidir. Bu turdagi birliklar ko‘pincha frazeologik birliklar, iboralar, kollokatsiyalar shaklida bo‘ladi. G.I. Klimovskayaning ta’rifiga ko‘ra, “sinleksik birliklar muayyan voqelikni ifodalovchi semantik yagona birliklar bo‘lib, tarjimada ularni to‘g‘ri aniqlash asosiy muammolardan biridir” [1, B. 52].

Leksik-semantik moslik tushunchasi Leksik-semantik moslik – bu ikki yoki undan ortiq til birliklarining mazmun jihatdan bir-biriga muvofiq bo‘lishidir. Cruse fikricha, bunday birliklar leksik elementlar o‘rtasidagi semantik bog‘liqlik asosida bir butun mazmunga ega bo‘ladi. Ular ko‘pincha emotsional, konnotativ ma’no anglatadi [2, B. 9]. O‘zbek va ingliz tillarida ko‘plab sinleksik birliklar mazmun jihatdan bir-biriga mos keladi. Fernando [3, B. 59] fikricha, sinleksik birliklarning tarjimada ekvivalentini topishda semantik jihatdan moslikka e’tibor berish lozim. Quyidagi misollar bu fikrni asoslaydi:

O‘zbek va Ingliz Tillaridagi Sinleksik Birliklarning Ekvivalentligi

O‘zbekcha birlik	Inglizcha Birlik	Ekvivalentlik	Izoh
Ko‘ngli cho‘kmoq	Feel down	Ha	Ikkalasi ham ruhiy tushkunlikni bildiradi. To‘g‘ri kontekstual ekvivalent.
Tilini yutib yubormoq	Be speechless	Ha	Hayratdan jim bo‘lib qolishni bildiradi. Funktsional ekvivalent.
Yuragi gup etmoq	Heart skipped a beat	Ha	Qo‘rquv yoki hayajon ifodasi. Mazmuni juda yaqin.
Ko‘zini olaytirmoq	Glare angrily	Ha, qisman	G‘azab bilan qarash degani, ammo “glare” aniq vizual ifoda, konnotatsiya farqlanishi mumkin.
Yuragi orqaga tortmoq	Chicken out / lose nerve	Ha	Qo‘rqib fikridan qaytish – semantik jihatdan mos.



Yuqoridagi misollarda ba’zi sinleksik birliklar to‘liq semantik moslikka ega bo‘lsa, boshqalarida esa kontekstual yondashuv talab etiladi.

Ko‘plab sinleksik birliklar tarjimada to‘g‘ridan-to‘g‘ri semantik moslikka ega bo‘lmaydi. Masalan, ingliz tilidagi “Let the cat out of the bag” iborasi bevosita tarjimada mantiqan tushunarsiz bo‘lishi mumkin [4, B. 267], chunki u “mushukni xaltadan chiqarish” degan ma’noni bildiradi. Biroq, Xojimatovning ta’kidlashicha, bu iboraning zamirida anglo-sakson madaniyatiga xos tarixiy voqelik yotadi, ya’ni o‘tmishda bozorlarda xaridorlarni aldash maqsadida cho‘chqa bolasi o‘rniga xaltaga mushuk solib berilgan holatlar bilan bog‘liq [5, B. 45]. Shu sababli bu ibora “yashirin haqiqatni bilib qolmoq” yoki “sirni aytib qo‘ymoq” ma’nosida qo‘llanadi. O‘zbek tiliga tarjima qilinayotganda, leksik ekvivalent emas, semantik funksional ekvivalent tanlanadi [6, B. 67].

Bu holat sinleksik birliklarning tarjimasida madaniy kontekst va milliy tafakkur muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Chunki har bir til o‘zining tarixiy taraqqiyoti, ijtimoiy tajribasi va madaniy qadriyatlari asosida ma’lum ifodaviy vositalarni shakllantiradi.

Bundan tashqari, ayrim o‘zbek tiliga xos birliklar ingliz tilida aniq ekvivalentga ega emas. Masalan:

“Ko‘ngli yorishmoq” – bu ibora o‘zbek tilida ruhiy engillik, xursandchilik va taskin topish holatini bildiradi. Ingliz tilida unga “to feel relieved” yoki “to be comforted” [7, B. 89] kabi yaqin semantik mosliklar mavjud, lekin mazkur iboraning emotsional va madaniy yuklamasi to‘liq ifodalanmaydi. “Yuz ko‘rsatmoq” – bu ifoda faqat “ko‘rinmoq” degan ma’noni emas, balki jamiyatda ishtirok etish, hurmat bajo keltirish kabi madaniy-ma’naviy mazmun ham beradi. Ingliz tilida bu holatni “to make an appearance” deb ifodalash mumkin bo‘lsa-da, u o‘zbekchadagi marosimiy va odob-axloqiy ohangni to‘liq qamrab olmaydi.

Bu kabi misollar sinleksik birliklarni tarjima qilishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalent emas, balki funksional va kontekstual ekvivalent tanlash zarurligini ko‘rsatadi. Shuningdek, tarjimon til birliklarining milliy tafakkur bilan bog‘liq semantik qatlamini chuqur anglab yetishi lozim.



Xulosa qilinganda, o‘zbek va ingliz tillaridagi sinleksik birliklarning leksik-semantik mosligini o‘rganish natijasida quyidagilarga e’tibor qaratish kerak:

Har bir birlikni kontekstual jihatdan baholash lozim.

Tarjimada madaniy konnotatsiyalarni hisobga olish muhim.

To‘liq leksik-semantik ekvivalent topish imkonsiz bo‘lgan hollarda funksional ekvivalentlikka murojaat qilish kerak.

Sinleksik birliklarning o‘zaro mosligini tahlil qilish tarjimaning aniqligi va tabiiyligiga katta hissa qo‘shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Klimovskaya G.I. Frazeologicheskie yedinisы i perevod: Teoriya i praktika. – Moskva: Nauka, 2004. – 112 s.
2. Cruse D. A. Lexical Semantics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1986.
3. Fernando Ch. Idioms and Idiomaticity. – Oxford: Oxford University Press, 1996
4. Cowie A.P., Mackin R. Oxford Dictionary of Current Idiomatic English. – Oxford: OUP, 1993. – 312 p.
5. Xojimatov F. Frazeologizmlar va ularning tarjimadagi o‘rni. – Toshkent: Fan, 2018. – 96 b.
6. Sharipova G. N. O‘zbek tilida so‘z birikmalarining semantik-stilistik xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 2019. – 212 b
7. Abduraxmonova M. Sh. Semantik-stilistik usullar orqali sinleksik birliklarning tadqiqi // Filologiya fanlari. – Toshkent: 2022. – №2. – B. 25–30.

INGLIZ TILIDAGI LOGISTIKAGA OID TERMINLARNING TAHLILI

Raximov Raxmatullo Rafiqjon o‘g‘li
Andijon davlat texnika instituti assistenti
rahimovrahmatullo28045@gmail.com
+998889902747

Annotatsiya. Maqolda logistikaga oid terminlarning til sohasini alohida sistema sifatida o‘rganish zarurligi asoslangan, shuningdek shu sohadagi termilarning ingliz tilidagi bog‘liqliklarni hamda iqtisodiy sohada tushunchanligini lingvistik xususiyatlarga bog‘liq masalalar muhokama qilingan. Ushbu terminlarni



nazariy o‘rganishlar orqali o‘zbek tilidagi ma’no –mazmunlari ko‘rib chiqilgan, sohalar kesmida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Logisitka, xomashyo, optimallashtirish, termin, strategiya, diversifikatsiya, sug‘urt, integratsiya.

Har bir mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida uning qon tomirlari bo‘lgan logistika tizimi juda muhim ahamiyatga ega. Samarador logistika tizimi ichki bozorda tayyor mahsulot va xomashyo harakatini optimallashtirish orqali tovar va xizmatlarning xaridorlar uchun qulay sharoit va arzon narxlarda yetkazib berilishini ta’minlaydi, bozordagi raqobatni rag‘batlantiradi. Tashqi bozorda esa mamlakatning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshiradi va jahon iqtisodiyotiga integratsiya jarayonini tezlashtiradi. Rivojlanib borayotgan mamlakatimiz uchun samarador logistika tizimini tashkil qilish juda muhim.

“Iqtisodiy rivojlanish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora - tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.01.2019- yildagi PF-5621-son farmonidagi “Harakatlar strategiyasi” bandida “Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va diversifikatsiya qilishni, shuningdek hududlar va tarmoqlarni rivojlantirish va ta’minlash maqsadida ishlab chiqarish kuchlarini samarali joylashtirish, hududlarning mavjud tabiiy va iqtisodiy resurslaridan samarali foydalanish asosida mamlakat sanoatini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish, innovatsion ishlanmalar va texnologiyalarni joriy qilish, mehnat unumdorligini oshirish, ishlov berish tarmoqlarni jadal rivojlantirish va yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish asosida Tovar bozorlari muvozanatini ta’minlash bo‘yicha tizimli chora -tadbirlarni amalga oshirish” kabi vazifalar keltirilgan.

Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida xorijiy tillarni o‘qitish tizimini isloh qilishga qaratilgan qator me‘yoriy hujjatlar qabul qilindi. Prezidentimizning 2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora –tadbirlari to‘g‘risid”gi qarori, Vazirlar



Mahkamasining 2021-yil 19- maydagi “Xorijiy tillari o‘rganishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora - tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari ingliz tilini mukammal biladigan va ushbu tilda erkin muloqat qiladigan mutaxassis kadrlar tayyorlashga hamda mamlakat iqtisodiyotini raqamli texnologiyalar orqali rivojlantirish mamlakatda logistika tizimi hamda tarmoqlarini yana kengaytirishga qaratilgan. Logistika sohasi uchun zaruriy terminlar ingliz tilidan o‘zbek tiliga leksik ma’nosini o‘zgartirmasdan o‘zlashtirilyapti. Bu esa ingliz tiliga bo‘lgan talabni yanada oshirmoqda .

Tadqiqotning tahlil va metodologiyasi Logistikaga ingliz tilidagi oid terminlarning leksik ma’nosi ularning nutqda qo‘llanilishi muhim sanaladi. Chunki logistika sohasining tashqi faoliyatidan kelib chiqib o‘zaro ma’no jihatidan yaqin bo‘lishi muhimdir. Quyida esa ulardan bir qancha misollar keltirishimiz mumkin:

EXW - Joy nomi: (Ingliz tilidan. Ex works zavoddan)

Sotuvchi yukni haridorga topshiradi. Haridor esa yukni ortish, tashish bilan bog‘liq xarajat va javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi. Shuningdek yukni, sotuvchi yukini bojxonada rasmiylashtirish jarayonlarini bajaradi.

FCA - Joy nomi: (ingliz tilidan. Free carrier-franko yuk tashuvchi)
Sotuvchining yukini kema yoki yuk sirti bo‘ylab sohilda ortish joyida lixtyorga joylashi kerak. Ayni shu paytdan e’tiboran yukning yo‘qolishi yoki g‘oyib bo‘lishi ehtimoli va kutilmagan xolatlar uchun haridor javobgar bo‘ladi. Yukni sotuvchi shuningdek o‘z hisobidan eksport litsenziyasini olishi kerak bo‘ladi va yukni chegaradan olib o‘tish uchun bojxonada rasmiylashtirish CIP- Manzilnomi (ingliz tilidan. Carriage and insurance paid to – yuk tashish va sug‘urta xarajatlarigacha)
Sotuvchi CPT majburiyatlari kabi majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi, lekin bundan tashqari yukni tashish davomida yukni nobud bo‘lishi va zarar ko‘rishidan sug‘urta qilishi kerak.

FOB - yukni tushurish bekatini nomi: (ingliz tilidan. Free on board- kema sathida erkin)

Sotuvchining majburiyatlari yukni kema sathidan yukni tushurish portiga o‘tgandan so‘ng yakunlanadi va to‘liq bajarilgan hisoblanadi. Yukni sotuvchi



shunindek o‘z xisobidan eksport litsenziyasini olishi kerak bo‘ladi va yukni chegaradan olib o‘tish uchun bojxonada rasmiylashtirish ishlarini bajaradi.

CIF - manzil - port nomi: (ingiliz tilidan. Cost, insurance and freight- narx, sug‘urta va fraxt)

Bu termin CFR terminidan, yukni sotuvchi zimmasiga yukning dengiz orqali tashish davomida uni nobud bo‘lishi yoki shikastlanishidan sug‘urtalash shartnomasini rasmiylashtirish sug‘urta mukofoti to‘laydi.

DAF - yetkazib berish joyi: (ingliz tilidan. Delivered at frontier- chegaragacha yetkazib berish)

Sotuvchi yukining ko‘rsatilgan manzilga yetkazish harajatlari o‘z zimmasig oladi. Lekin yukning nobud bo‘lish yoki shikastlanish havfi yuk dastlabki yuk tashuvchiga topshirilganda haridor zimmasiga oladi. “Eksport soliqlarini sotuvchi, import soliqlarini hairdo to‘laydi.

DES - manzil port nomi: (ingiliztilidan. Delivered ex ship- bevosita kemadan yukni yetkazib berish). Sotuvchi bojxonada rasmiylashtirish jarayonidan o‘tmagan yukni kema sathiga haridorga yetkazib beradi. Ayni shu paytdan e‘tiboran hamma harajatlar shuningdek import soliqlari haridor zimmasiga yuklanadi.

Xulosa: Fan-texnika va barcha sohalar rivojlanar ekan terminlar ham ko‘payadi. Bu esa logistika sohasida ingliz tilini bilish kerakligini yana bir bora ibotlaydi. Sohaviy teminalogiya uni chet tillarida o‘qitish, turli tillardagi qiyosiy tadbiqu hamda mutaxassiz tilini rivojlantirish tendentsiyalarini o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojini yana kuchaytiradi. Terminologiya yo‘nalishiga oid faoliyat natijalarini kundan –kunga keng qo‘llash terminalogik sohanig yo‘nalishlarini ochadi. Yangi maqsad va vazifalarni belgilashga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sohibjon o‘gli, S. J. (2024). O ‘ZBEKISTONDA INTELLEKTUAL TRANSPORT TIZIMINI RIVOJLANTIRISH. Лучшие интеллектуальные исследования, 15(4), 9-14.
2. Rafiqjon o‘g‘li, R. R., & Zakirovich, N. I. (2024). ELEKTROBUSLARNI JORIY ETISHDAGI ENERGIYANING TEJALISHI. MODELS AND



- METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 4(39), 170-175.
3. Rafiqjon o‘g‘li, R. R. (2024). ANDIJON VILOYATI YO ‘LOVCHI TASHUVCHI AVTOTRANSPORT KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO ‘LLARI. *Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research*, 2(4), 20-24.
 4. Shavkatjon o‘g‘, T. U. S., & Rafiqjon o‘g‘li, R. R. (2024). SERQATNOV KOCHALARDA TRANSPORT VOSITALARINI HARAKATINI TARTIBGA SOLISH. *Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research*, 2(4), 10-19.
 5. Raximov, R. R., & Dexqonov, I. S. (2024). YO ‘LOVCHILAR OQIMI VA YO ‘LOVCHILAR OQIMINI O ‘RGANISH USULLARI. *Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research*, 2(4), 4-9.
 6. Rafiqjon o‘g‘li, R. R., & Sohijon o‘gli, S. J. (2023). ANDIJON SHAHRIDA JAMOAT TRANSPORTI MUAMMOLARI. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 10(6), 153-157.
 7. Sohijon o‘gli, S. J., & Rafuiqjon o‘g‘li, R. R. (2023). TRANSPORT LOGISTIKASI TIZIMINI TASHKIL ETISHNING IQTISODIY AHAMIYATI. *TADQIQOTLAR. UZ*, 25(1), 79-83.
 8. o‘g‘Li, R. R. R., & o‘g‘Li, S. J. S. (2023). Logistika Tiziming Transport Toshqil Etuvchisi. *Ta'limdagi Zamonaviy Muammolar Va Ularning Ilmiy Yechlari*, 7 (7), 27–33.
 9. Raximov, R. (2023). AVTOMOBILLARGA TEXNIK XIZMAT KO ‘RSATUVCHI USTAXONASINI JORIY ERISH AFZALIKLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(1), 280-290.
 10. Raximov, R., & Daminov, D. (2023). Transport Vositalari Detallari Resurslarini Kompyuterda Hisoblash. *Modern Educational System And Innovative Teaching Solutions*, 2(2), 75-82.



TARJIMA JARAYONIDA MADANIYATLARARO TAFAKKURNING AHAMIYATI

Xo'jabekova Ramzida O'ktam qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali
talabasi

khujabekovaar@gmail.com

Sindorov Lutfulla Kurolovich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali
dotsenti

lutfulla1803@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarjima jarayonida madaniyatlararo tafakkur tushunchasi keng yoritiladi. Madaniy tafovutlarning tarjima sifatiga ta'siri, tarjimonning madaniy kontekstni anglab, uni tarjimada qanday aks ettirishi misollar bilan ko'rsatib beriladi. Tarjima jarayoni nafaqat tillararo so'z almashinuvi, balki madaniyatlararo muloqotning muhim shakli ekanligi ta'kidlanadi. Madaniy kodlar, qadriyatlar va ramzlarni tarjima qilishda yuzaga keladigan muammolar va ularni hal etish yo'llari tahlil qilinadi. Maqola tarjimonning madaniyatlararo vositachilik roli, madaniy moslashuv va adaptatsiyaning zarurligini o'rganadi.

Kalit so'zlar: Tarjima, madaniyat, madaniyatlararo tafakkur, madaniy tafovutlar, lingvistik tafovut, muloqot, konnotatsiya, adaptatsiya, tarjimon, madaniy moslashuv.

Tarjima — bu nafaqat tilni, balki madaniyatni ham o'zgartirish jarayonidir. Har bir til o'z madaniyati, qadriyatlari va dunyoqarashi bilan ajralib turadi. Shu bois, tarjima jarayonida madaniyatlararo tafakkur muhim ahamiyatga ega. Madaniyatlararo tafakkur — bu biror shaxsning boshqa madaniyatga mansub odamlarning qadriyatlari, odatlari, kommunikatsion uslublari va dunyoqarashlarini tushunish va ularga nisbatan ochiq bo'lish qobiliyatidir. Tarjimon uchun bu qobiliyat ayniqsa muhim, chunki u til orqasida yashiringan madaniy qatlamlarni to'g'ri talqin qilishi zarur.

Globalashuv sharoitida madaniyatlararo muloqotning kuchayishi tarjima jarayonining murakkabligini oshirmoqda. Tarjima faqat tillararo so'zlarni o'zgartirish emas, balki ikki madaniyat o'rtasida samarali aloqa o'rnatish vositasidir.



Har bir madaniyat o'ziga xos dunyoqarash, qadriyatlar tizimi va kommunikatsion uslublarga ega bo'lib, bu jihatlar tarjimada lingvistik va semantik muammolarni yuzaga keltiradi. Shu sababli tarjimon nafaqat til bilimlariga, balki madaniy kompetensiyaga ham ega bo'lishi zarur.

Ko'plab til birliklari o'z madaniy yuklamasiga ega bo'lib, ularni bevosita tarjima qilish natijasida noto'g'ri yoki noto'liq mazmun yuzaga keladi. Masalan:

Chevrolet Nova: Chevrolet kompaniyasi o'zining "Nova" modelini Lotin Amerikasiga olib kirganida, ispan tilida "Nova" so'zi "no va" (harakat qilmaydi) degan ma'noni anglatadi. Bu esa avtomobilning nomi bilan bog'liq salbiy tasavvurga olib kelgan va sotuvlarga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

KFC ning "Finger-lickin' good": KFC kompaniyasining "Finger-lickin' good" shiori Xitoy tiliga bevosita tarjima qilinganda "barmoqlaringizni yeb qo'ying" degan ma'noni anglatadi. Bu esa mahalliy iste'molchilarni chalg'itgan va ularni jalb qilishda qiyinchilik tug'dirgan.

"Achilles' heel": Ingliz tilidagi "Achilles' heel" iborasi to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinganda "Axillesning tovoni" bo'ladi, ammo uning "zaif nuqta" degan ma'nodagi metaforik mazmuni saqlanmasligi mumkin.

Shunday holatlarda tarjimon literal tarjimadan voz kechib, madaniy ekvivalentni topishga intilishi zarur.

Tarjimonlar ko'pincha quyidagi muammolarga duch kelishadi:

Madaniy alluziyalar: Muayyan madaniyatda mashhur bo'lgan hikoyalar, shaxslar yoki hadisalar boshqa madaniyatda noma'lum bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy qadriyatlar farqi: Xalqaro xabarlarini yoki adabiy asarlarini tarjima qilayotganda, madaniy nozikliklarni e'tiborga olmaslik noto'g'ri talqinlarga olib kelishi mumkin.

Muloqot uslubi: Ba'zi madaniyatlarda to'g'ridan-to'g'ri gapirish qadrlansa, boshqalarida bilvosita, e'tiborli muloqot ustun bo'ladi.

Emotsional ifodalar: Ba'zi madaniyatlarda emotsiyalarni ochiq ifoda etish odat bo'lsa, boshqalarda bu nojo'ya hisoblanadi.



Madaniy tafovutlar tarjima natijasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ular lingvistik tafovutlardan farqli o'laroq, ijtimoiy qadriyatlar, tarixiy xotira, axloqiy me'yorlar va mentalitet kabi kontekstual omillarni o'z ichiga oladi. Masalan, o'zbek tilidagi “or”, “ko'ngil”, “andisha” kabi tushunchalar ingliz tilida to'g'ridan-to'g'ri muqobilga ega emas, shuning uchun tarjimon ularni madaniyatga moslashtirib yetkazishi kerak. Aks holda, tarjima yuzaki to'g'ri bo'lsa ham, kommunikativ maqsadga xizmat qilmasligi mumkin[2, 22-245b].

Tarjimon ikki madaniyat o'rtasida vositachi sifatida faoliyat yuritadi. U nafaqat leksik va grammatik moslikni, balki madaniy moslashuvni ham ta'minlashi kerak. Tarjimon madaniy kodlar, ramzlar va obrazlarni to'g'ri talqin qilishi, zarur hollarda izohlar yoki adaptatsiyalar orqali matnni qabul qilinadigan shaklga keltirishi lozim. Tarjima jarayonida madaniyatni chuqur anglash tarjimaning mazmuniy aniqligi va ta'sirchanligini ta'minlaydi [1, 33b]

Badiiy tarjima: O'zbek tilidagi “ko'ngil” so'zi ingliz tilida "heart" yoki "mind" so'zlari bilan ifodalanadi, ammo bu so'zlar “ko'ngil”ning madaniy va emosional qatlamlarini to'liq aks ettirmaydi. Tarjimon bu so'zning ma'nosini izohlar yoki kontekst orqali yetkazishi kerak[2, 22-245b].

Kinematografik tarjima: Milliy bayramlar yoki an'anaviy marosimlar haqida film tarjimasida madaniy tafovutlar ko'p uchraydi. Masalan, o'zbek “Navro'z” bayrami tushunchasini ingliz tilida to'liq tushuntirish uchun qo'shimcha ma'lumot berilishi lozim[5, 637b].

Ilmiy tarjima: Ba'zi madaniy atamalar, masalan, “mehmondo'stlik” tushunchasi ilmiy matnda ham madaniy kontekstda to'g'ri tushuntirilishi zarur, chunki bu atama ijtimoiy qadriyatlarni o'z ichiga oladi[2, 245b].

Idiomatik misol: Ingliz tilidagi “It's raining cats and dogs” iborasi o'zbek tiliga to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinganda ma'nosiz bo'ladi, shuning uchun tarjimon uni “qattiq yomg'ir yog'moqda” deb moslashtirishi kerak[5, 637b].

Tarjima jarayonida madaniy tafovutlarni bartaraf etish uchun quyidagi usullar qo'llaniladi:



Adaptatsiya: Matnni maqsadli madaniyatga moslashtirish, masalan, madaniy ramzlarni almashtirish yoki tushuntirish.

Izohlash: Madaniy kontekstni tushuntirish uchun qo‘shimcha ma’lumot berish.

Moslashtirilgan tarjima: So‘zma-so‘z tarjimadan ko‘ra, mazmun va madaniy ma’noni saqlashga e’tibor qaratish[2, 245b].

Xulosa qilib aytganda, tarjima jarayoni faqat lingvistik bilimlar emas, balki chuqur madaniy tafakkurni ham talab qiladi. Har bir til o‘ziga xos madaniyat va qadriyatlar tizimini aks ettirgani sababli, tarjima bu ikki olam o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajaradi. Tarjimon — bu nafaqat so‘zlarni, balki butun bir madaniy muhitni tushunib, uni boshqa madaniyatga mos tarzda yetkazuvchi vositachidir. Madaniy tafovutlar tarjimada noto‘g‘ri talqinlar, tushunmovchiliklar yoki kommunikativ uzilishlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun tarjimon madaniy kodlar, ijtimoiy qadriyatlar, metaforalar va konnotatsiyalarni chuqur anglab, zarur hollarda adaptatsiya va izohlash usullaridan foydalanishi lozim. Ayniqsa globallashuv sharoitida madaniyatlararo muloqot kuchayib borayotgan hozirgi davrda tarjimonning madaniy kompetensiyasi tarjimaning aniqligi va ta’sirchanligining garovidir. Shu bois, har qanday tarjimada madaniy nozikliklarni hisobga olish, faqat tilni emas, balki tafakkur, his-tuyg‘u va mentalitetni ham to‘g‘ri aks ettirish tarjimonning asosiy vazifasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Madaniyatlararo muloqotda tarjimonning ahamiyati. – CyberLeninka, 2023.
2. Madaniy tafovutlarning tarjima jarayonidagi o‘rni va ta’siri. – Nordic University Research, 2024.
3. Tarjima jarayonidagi madaniy tafovutlar va ularning yechimlari. – UzSWLU Conference, 2024.
4. Badiiy matn tarjimasida madaniy va milliy o‘ziga xosliklar. – Phoenix Publication, 2023.
5. Tarjima san’ati: usullari, muammolari va madaniy aspektlar. – Inlibrary.uz, 2025.



MOBIL ALOQA TERMINLARINING TARJIMASIDA EKVIVALENTLIK VA SEMANTIK SILJISHLAR: INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA

Arzimurodova E‘zoza Berdimurod qizi

1-kurs doktorant

Qarshi Davlat Universiteti

Annotatsiya. Mazkur ilmiy tezisdagi ingliz va o‘zbek tillarida mobil aloqa sohasida qo‘llaniladigan terminlarning tarjimasi jarayonida yuzaga keladigan ekvivalentlik darajalari hamda semantik siljishlar tahlil qilinadi. Tezisdagi ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan mobil aloqa atamalarining morfologik va semantik xususiyatlari, tarjimada kuzatiladigan to‘liq, qisman va nol ekvivalentlik holatlari, shuningdek, semantik torayish, kengayish, o‘zgarish va siljish holatlari misollar asosida chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, tarjimada yuzaga keladigan semantik tafovutlar, ularning sabab va oqibatlarini tahlil etilib, ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: mobil aloqa terminologiyasi, tarjima ekvivalentligi, semantik siljish, terminlar tarjimasi, ingliz tili, o‘zbek tili.

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi bilan birga, mobil aloqa sohasida yuzlab yangi terminlar paydo bo‘ldi. Ushbu terminlarning aniq va to‘g‘ri tarjima qilinishi, ularning ekvivalentini topish, semantikani buzmaslik bugungi tilshunoslik va tarjimashunoslik oldidagi dolzarb masalalardan biridir. Mobil aloqa texnologiyalari doimiy yangilanib borar ekan, har bir til ushbu yangiliklarni o‘z leksik tizimiga mos tarzda qabul qilishi kerak bo‘ladi. Tarjimada esa til va madaniyat farqlari tufayli turli darajadagi semantik siljishlar yuzaga keladi. Shu sababli, mobil aloqa terminlarining tarjimasida ekvivalentlik darajasi va semantik aniqlikni ta‘minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarjima ekvivalentligi tushunchasi

Tarjima nazariyasida “ekvivalentlik” tushunchasi tarjima matnining asl matnga mazmuniy, uslubiy va funksional mos kelish darajasini bildiradi [1]. Ayniqsa, ixtisoslashgan terminlar tarjimasida ekvivalentlik darajasi tarjimaning sifati va terminning ilmiy jihatdan to‘g‘ri qabul qilinishini belgilaydi. Mobil aloqa terminlari



tarjimasida to‘liq (absolute), qisman (partial) va nol (zero) ekvivalentlik holatlari kuzatiladi.

Misollar:

To‘liq ekvivalentlik:

SIM card – SIM karta

Qisman ekvivalentlik:

Mobile data – mobil internet (semantik kengayish mavjud)

Nol ekvivalentlik:

Roaming – xalqaro aloqa zonasi (kengroq tushuntirish orqali beriladi)

Semantik siljishlar va ularning turlari

Semantik siljish — bu tarjima jarayonida so‘z yoki terminning asl mazmunidan biroz farq qiluvchi yangi semantik yuklama bilan ifodalanishidir [2]. Bu holat ko‘pincha ekvivalent topilmagan yoki tarjimada funksional moslik asosiy mezon qilib olingan holatlarda yuzaga keladi. Quyidagi semantik siljish turlariga e‘tibor qaratamiz:

a) Semantik torayish

Tarjimada umumiy ma‘noga ega bo‘lgan termin torroq ma‘noda berilishi:

Mobile coverage – aloqa zonasi (aslida signal kuchi va sifatini ham o‘z ichiga oladi)

b) Semantik kengayish

Tarjimada termin aslidan ko‘ra kengroq yoki qo‘shimcha ma‘nolarni oladi:

Airtime – suhbat vaqti (aslida bu nafaqat suhbat, balki internet foydalanish vaqtini ham qamrab oladi)

c) Semantik o‘zgarish (shifts)

Termin ma‘nosining tarjimada o‘zgarib ketishi: Cellular network – uyali aloqa tizimi (aslida “cellular” texnologik termin bo‘lib, uyali so‘zini to‘liq qamrab olmaydi)

Amaliy tahlil: Inglizcha atamalar va ularning o‘zbekcha moslamalari

Inglizcha termin	O‘zbekcha tarjimasi	Ekvivalentlik holati	Semantik siljish turi
------------------	---------------------	----------------------	-----------------------



Roaming	Xalqaro aloqa zonasi	Qisman ekvivalent	Semantik kengayish
Mobile data	Mobil internet	Qisman ekvivalent	Semantik kengayish
SIM lock	Qurilma blokirovkasi	Qisman ekvivalent	Semantik torayish
Network latency	Tarmoq sekinligi	Qisman ekvivalent	Semantik o'zgarish
Unlimited plan	Cheksiz tarif rejasi	To'liq ekvivalent	Yo'q

Ushbu misollar tarjimada faqat leksik moslik emas, balki funksional va pragmatik omillar ham hisobga olinishi lozimligini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar

Mobil aloqa terminlarini tarjima qilishda ekvivalentlikni ta'minlash va semantik siljishlarni imkon qadar kamaytirish muhimdir. Buning uchun quyidagi chora-tadbirlarni tavsiya etamiz:

Soha mutaxassislarini jalb qilgan holda inglizcha-o'zbekcha mobil aloqa terminlari lug'atini yaratish;

Tarjima jarayonida faqat leksik moslik emas, balki madaniy, funksional va pragmatik moslikni ham inobatga olish;

Nol ekvivalentlik holatlarida tushuntiruvchi tarjima yoki kalka usulidan foydalangan holda terminlarni ifodalash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). – М.: Высшая школа, 1990.
2. Бархударов Л.С. Язык и перевод. Вопросы общей и частной теории перевода. – М.: Международные отношения, 1975.
3. Saidqodirova D.S. Mobil aloqa terminlarining o'zbek tiliga tarjimasi. – Filologiya masalalari, 2022, №2.
4. Kadirbekova D. Terminologik birliklar tarjimasida ekvivalentlik muammosi. – Til va adabiyot ta'limi, 2023, №4.
5. Oxford Dictionary of English (Mobile Communication Terms), 2020.
6. Collins English for Telecoms. – HarperCollins Publishers, 2015.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati. – T.: “Akademnashr”, 2020.



USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN TRANSLATION STUDIES: AN ANALYSIS OF ADVANTAGES AND DISADVANTAGES

Bahodirov G‘iyosbek Murodjon o‘g‘li

Assistant teacher of Andijan State Technical Institute

Annotation. Artificial intelligence technologies have brought about major changes in the field of translation studies. Google Translate, DeepL and similar AI-based tools have made it possible to translate texts quickly and automatically. Especially in specialized fields such as engineering, medicine and law, AI has significantly simplified the translation process. However, the use of AI in translation studies, while offering a number of advantages, also brings certain disadvantages.

Keywords: artificial intelligence, translation, language, dictionary, automatic, grammar, security, term.

Artificial intellect in translation studies one row important advantages presented Artificial intellect tools big in size texts one how many seconds inside translation can takes, this and traditional human translation with compared to time noticeable at the level. For example, engineering 100 pages in the project technician manual artificial intellect using one how many per minute translation to be done possible. Fast translation project deadlines reduce costs also reduces artificial intellect big in size information again work opportunity It gives. It is big. information bases analysis thus, terminologically dictionaries creates and suitable terms recommendation. For example, NX or Compas engineering programs documents for SI ISO and GOST standards suitable terms determines that and special in the fields accuracy increases and terminological consistency provides.

Artificial intelligence (AI) - automated programming and intellectual machine education field is, it is different kind tasks people doer in a way complete can smart computer systems to create Typically, this is mechanical study, texts automatic again work and neuron networks own inside takes [1].

Artificial intellect tools human to the translators than usually much wallet service shows. Artificial intellect algorithms permanent accordingly trained, new



languages, terms and contexts absorbs, this and time to pass with translation quality further increases.

Artificial of intellect to the advantages despite, its in translation studies application one row to restrictions has. For example of precision Limited Artificial intellect tools, especially special terminology or complicated in contexts, wrong translation to do possible. Accuracy for human inspection demand is done, this and additional time and resources demand does. Artificial intellect cultural or contextual nuances complete does n't understand this and in translation to uncertainties reason Language complicated and idioms and metaphors, ambiguous or grammatical in terms of wrong sentences and other to the context related words choice such as cultural in terms of to oneself typical phrases artificial intellect algorithms for difficult to be possible [2]. For example, Uzbek in the language engineering terms sometimes Russian or English in the language from equivalents different to meanings has to be possible. Artificial intellect tools general texts for good works, engineering, medicine or right such as special in the fields enough to experience has not. to GOST standards based construction documents for Artificial intellect complete suitable terms find not being able to possibl. Special in the fields accuracy provision for expert translators Artificial intellect tools often cloudy on platforms it works, this and secret of documents to safety threat Engineering in projects secret technician drawings cloudy translation in the means unsafe to be possible. Confidential of information reveal to be danger high.

Uzbek language such as less applicable languages for artificial intellect tools still enough undeveloped. Uzbek in the language engineering to the terminology related special artificial intellect dictionaries complete unformed.

Artificial of intellect advantages increase and disadvantages reduce for following practices recommendation is done:

- Uzbek in the language engineering terminology for special artificial intellect dictionaries working exit necessary.
- Confidential documents for local or safe artificial intellect from the means use necessary.



- Artificial intellect algorithms Uzbek language and local to standards adaptation for permanent accordingly teaching need.
- Uzbek to the language suitable engineering terminology for specialized artificial intellect platforms creation necessary.
- International and local to standards based only terminological dictionaries working exit need.
- Translation documents safety provision for blockchain from technologies use necessary.
- Translators and engineers for artificial intellect from the means effective use according to special courses and trainings organization to be done Artificial intellect technologies customized resources and help presented to grow through disabled students for use opportunity increase possible. Example for, speech determination program to students in writing to difficulties help to give possible, Artificial intellect by controllable translation tools and mother language to those who are not help to give possible [3].

Conclusion: Artificial intellect in translation studies speed, efficiency and economic in terms of convenience such as important advantages presented will, but accuracy, contextual subtleties and information safety with related There are also restrictions. Uzbekistan such as developing SI engineering in the states in projects translation Although it makes it easier, local language and to standards to adapt improve necessary. Artificial intellect and human translators cooperation, as well as special dictionaries and safe platforms develop in the future translation quality noticeable at the level increase.

REFERENCES

1. Erkinovich, A. R. (2025). Suniy intellekt. Texnologiya va ta'lim innovatsionlari, 4 (33), 88-103.
2. Raxmatullayevna, Qurbonova Shaxnoza. "sun'iy intellekt va tarjima." zamonaviy fan ishlab chiqishlari va asosiy trendlar 2.20 (2025): 35-40.
3. Mashhura, S. (2024). Sun'iy intellektning ta'lim jarayoniga ta'siri. Tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g'oyalar , 1 (1), 159-163.



THE IMPORTANCE AND COMPLEXITY OF TECHNICAL TRANSLATION IN ENGINEERING

Bahodirov G'iyosbek Murodjon o'g'li

Assistant teacher of Andijan State Technical Institute.

Annotation. The engineering industry is evolving globally, requiring international collaboration and clear communication. Technical translation ensures the accurate and precise translation of documents, drawings, manuals, and safety requirements used in engineering projects from one language to another. This process requires not only language proficiency, but also a deep understanding of the specific terminology and context of engineering.

Keywords: engineering, technical translation, project, security, terminology, term, artificial intelligence, translator, standard.

Technical translation studies engineering of projects success and safety in guarantee important importance has. In projects used documents, for example, technical drawings, standards and use according to manuals clear and right translation to be done necessary. Incorrect translation project in design serious to mistakes road opens. For example, " lifting " The term " ability " mistake translation if done, the bridge or of the building structural stability to danger falls . Technical translation studies main importance is that it is a project quality increases and again work expenses reduces.

The grammatical structure of different languages differs, which becomes one of the biggest problems in the translation process. Each language has its own structure, in which word order, grammatical rules and cultural characteristics play an important role. The lack of certain terms in some languages also complicates the translation process. For example, in English, the adjective usually comes before the noun, while in French, the opposite is true - it comes after the noun. In Arabic and some other languages, the proper pronoun is part of the verb, determining the gender and tone of the sentence [1].



In engineering security rules and instructions clear and right understanding condition. Incorrect translation work in place unhappy to events or equipment to the fault take arrival. For example, a car in engineering, "brake" "moment" of the term mistake translation brake system wrong to be designed reason It will be. That's right. translation security guarantees and human his life protection does.

Global projects different in languages speaker engineers, architects and contractors cooperation does. Technical translation studies they in the middle effective the connection. For example, Uzbekistan and foreign company with the participation of energy in the project technician contracts clear translation to be done project to the success important contribution Addictive. That's right. conversation project deadlines reduces and expenses reduces.

In engineering technician translation studies one row difficulties brought issues, in particular, special terminology with related to. Engineering terms usually to oneself typical to meanings has is, is common from the language difference For example, the term "moment" in engineering, "turn" as "power" if used, daily understood as "moment" in the language This problem can be solved. solution to do such as ISO, GOST, ANSI for special terminology dictionaries and engineering in the field to experience has translators attraction will be done.

Contextual differences technician in translation important difficulties brought releases. One in the language applicable term other in the language complete suitable equivalent has not to be possible. For example, "seismic" The term "resilience" different in countries every kind to standards is based on. Translation in the process project context and local standards attention is taken.

In many cases, technical terms are adapted to common vocabulary and pronunciation, but in this process their technical meaning may change. For example, the term "reconstruction" is translated as "reconstruction" or "repair", but in the technical sense it refers to more complex and specific developments. Therefore, it is necessary to find an accurate translation that is compatible with the Uzbek language while preserving the essence of the technical concept [2].



Various countries such as ISO, DIN and GOST various from standards uses this in terminology to differences reason. For example, in Uzbekistan , GOST standards wide if applicable , international ISO requirements in projects advantage Translators project standards meticulousness with study , relevant terms choice necessary .

New technologies, such as artificial to the intellect based monitoring systems , new terms appearance does and them translation to do special experience demand Translators new technologies and their terminology permanent accordingly having studied progress necessary .

Artificial intelligence (SI) technical translation studies simplify and increase efficiency increases. DeepL and SI tools like Google Translate technician terms fast translation Although it does, accuracy provision for human inspection demand SI is like AutoCAD or ANSYS engineering documents for special dictionaries analysis accordingly terms recommendation Also, the SI document general context into account take, most right translation option chooses. In Uzbekistan construction projects for SI GOST and ISO standards suitable terms in determining help gives. Uzbekistan such as developing in the countries engineering projects international investors and of experts participation demand Tashkent and In Samarkand build being done modern buildings, road infrastructure and energy projects comply with GOST and ISO standards is based on. Technical translation studies this in projects clear the connection provides and security. For example, seismic to safety related of documents Uzbek, Russian or English to their languages right translation to the earthquake resistant constructions in design big importance has.

The problems of translating scientific and technical terms and terms from the source language to the target language have been studied by a number of international and local linguists, whose work helps to improve communication and knowledge exchange between languages and cultures, to pave the way for advances in technology and best practices, and to shed light on the complexities of the field. Also, studying the problems of translating scientific and technical terms and the



methods of translating terms ensures that the translation is clear and understandable to the listener [3].

In the future technician translation studies develop for Uzbek to the language customized engineering terminology for special translation tools creation, international and local to standards based only dictionaries working exit and engineering translation studies according to special courses and trainings organization to be necessary.

Conclusion: Engineering in the field technician translation studies projects quality improve, safety guarantee and international cooperation in strengthening important role plays. Complicated terms, contextual differences and different kind standards translation process Although it complicates, it is artificial. intellect and experienced translators cooperation this obstacles eliminate Uzbekistan such as developing in countries technician translation studies modern infrastructure projects successful done in increasing main step is considered. In the future automated and high accurate translation tools engineering to the global development of the industry big contribution added.

REFERENCES

1. Ravshanjonovna, K. S. (2025). Tarjimashunoslikda dolzarb muammolar va ularning yechimlari. *Zamonaviy ta'lim va rivojlanish*, 25 (4), 137-142.
2. Sapaeva, V. (2024). Qurilish terminologiyasida tarjima strategiyalari: muammolar va ularning yechimlari. *SYNAPSES: fanlar bo'yicha tushunchalar*, 1 (4), 25-29.
3. Rashitxo'jayeva, A. (2024). Ilmiy tarjimaning asosiy tushuncha va turlari. *O'zbekistonda ilmiy-innovatsion tadqiqotlar jurnali*, 2 (10), 523-528.



TARJIMA JARAYONIDA MADANIYATLARARO TAFAKKUR

Musulmonova Sarvinoz Olim qizi

Termiz davlat pedagogika instituti Tillar fakulteti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi

Jo‘ranazarova Nigora Qurbonboy qizi

Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarjima jarayoni va bu jarayonda madaniyatlararo tafakkurning o‘rni va ahamiyati tahlil etiladi. Matnlarni tarjima qilishda faqat til emas, balki madaniyatlar o‘rtasidagi tafovut va o‘xshashliklarni anglash ham muhim ahamiyat kasb etishi ko‘rsatiladi. Shuningdek, tarjimonning madaniyatlar borasida yetarlicha bilim va ko‘nikmaga ega ekanligi, matnlarni anglash qobiliyati va madaniy xususiyatlarga e‘tibor berish zarurati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: tarjima, madaniyatlararo tafakkur, madaniyat, til, Edvard B.Taylor, “Primitive Culture”, Lingvist Gari Vizerspun, Stereotip, tarjimonlik, madaniy aloqalar, texnik va notexnik lug‘at.

Tarjima va tarjimonlik uzoq asrlardan buyon dunyo xalqlari tarixi va madaniyatida shakllanib kelayotgan ko‘hna ijodiy faoliyat sohalaridan biridir. Yer yuzining turli qit‘alari va mintaqalarida bir necha ming yildan buyon umrguzaronlik qilib kelayotgan odamzod nasllari o‘z ijodkorlik havaslari, qiziqishlari, imkoniyatlari, manfaatlarini tarjima vositasida ham namoyon qildi. Uni xalqlararo aloqa vositasiga aylantirdi, undan doim samarali tarzda foydalandi. Tarjima va tarjimonlar orqali insoniyat qavmlari bir-birlaridan xabardor bo‘ldi, o‘zaro borish-kelish qildi. Shu bilan birga savdo, hunarmandchilik, uy-joy, yo‘l qurilishi, dehqonchilik, aslaha-anjomsozlik kabi sohalarni asrma-asr tadrijiy rivojlantirib, yo‘lga qo‘yib bordi. Odam qavmlari qulay va xatarsiz hayot kechirishni bir-biridan o‘rgandi, bir-biriga yo‘l ko‘rsatdi, bir-biridan ulgi oldi va rang-barang madaniyatlarning jozibali qirralarini bir-biriga namoyon qildi [5,7b].

Bugungi kunda dunyo ham xalqlari o‘rtasidagi aloqalari rivojlanishiga katta e‘tibor qaratilmoqda. Bu sharoitida xalqlar o‘rtasidagi madaniy aloqalar tobora kengayib bormoqda. Bu jarayonda tarjimaning roli beqiyosdir. Tarjima nafaqat tilni



o‘zgartirish, balki butun bir madaniyatni tushunish va uni boshqa madaniyat kontekstiga moslashtirish jarayonidir. Shu bois, tarjimada madaniyatlararo tafakkur asosiy omillardan biri sifatida qaraladi.

“Madaniyat” so‘zi birinchi marta ingliz olimi Edvard B. Taylorning 1871-yilda nashr etilgan “Primitive Culture” kitobida foydalanilgan. Taylorning fikriga ko‘ra, madaniyat bilim, ishonch, qonun, an‘analari va jamiyatning turli a‘zolari tomonidan qabul qilingan turli odatlarni o‘z ichiga oladi. Tarjima biror matnning shunchaki ekvivalenti emas, bu asl nusxani qayta yozishdek qiyin va murakkab jarayon. Bu bir madaniyatning boshqasiga ta‘siri. Tarjima faoliyatini tushunish uchun, biz madaniyat va til tushunchalarini aniqlashtirib olishimiz, til va madaniyat o‘rtasida aloqalariga e‘tiborimizni qaratishimiz lozim. Lingvist Gari Vizerspun bu aloqalarga o‘z fikrini bildirib yozadi: “Agar tilga madaniyat nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak, tilning bir tomonlama tushunchasiga ega bo‘lamiz” [26,27b].

Madaniyat elementlarini tarjima orqali boshqa til muhitiga uzatish jarayoni murakkab masala. Madaniyat kundalik turmush tajribalarining murakkab to‘plami, u tarix, ijtimoiy tizim, din, kundalik urf-odatlar va an‘analarni o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy aloqalar ham madaniyat elementidir. Ba‘zi madaniyatlarda, odamlar katta oila sharoitida yashashga o‘rganishgan va bu har bir oila a‘zosiga kundalik muomalada murojaat qilish ehtiyojini tug‘diradi. Har bir insonga uning nomini atab chaqiriladi. Katta oilalarda yashash G‘arb xalqlariga u qadar xos bo‘lmagani bois, murojaatni ifodalovchi so‘zlarni tasvirlashga ingliz tili birmuncha ojizlik qiladi. Ba‘zi madaniyat egalarida kishilar o‘zlaridan kattalarga muayyan tarzda hurmat bilan tog‘a, amma deb murojaat qilishadi. Ingliz tilida bu holda ma‘lum qiyinchiliklar yo‘q emas. Ba‘zi rasmiyatchiliklarni ifodalash ham o‘ta chigal, masalan, “rahmat” so‘zi holatdan kelib chiqib turlicha tarjima qilinadi (sovg‘a uchun, xizmat uchun, biror sabab bilan rahmat aytib minnatdorchilik bildirish). Tarjima qilishda eng katta muammo madaniyatlar o‘rtasidagi farqlarni ajratishdir. Muayyan madaniyatga mansub aholi biror narsaga o‘z dunyoqarashidan kelib chiqib qaraydi. Bir-biriga ekvivalentdek ko‘rinadigan so‘zlar aslida ekvivalent



bo‘lmasliklari mumkin. Masalan, “cho‘chqa” so‘zi o‘zbek tilida ma’lum darajada salbiy bo‘yoqqa ega. Ammo “pig” Amerikada bu so‘z neytral ma’noda qo‘llanadi.

Turli madaniyatlar turli yo‘nalishga ega. Masalan, o‘zbek madaniyatida ko‘proq bog‘dorchilik, dehqonchilik, chorva, maishiy hayot manzaralari katta o‘rin tutadi, Amerikada esa ish, pul topish, foyda olishga diqqat va e’tibor kuchli. Ba’zi jamiyatlar texnikaga ko‘proq, ba’zilari kamroq yo‘naltirilgan. Bu farq muayyan mavzu borasida gap borganda ishlatish mumkin bo‘lgan lug‘atlar sonida aks etadi. Bunda o‘z o‘rniga qarab, gap borganda texnik va notexnik lug‘atlardan foydalanish mumkin. Agarda manba tildagi matn yuqori texnik jamiyatdan olingan bo‘lsa, bunda boshqa tildagi notexnik jamiyatga tarjima qilish qiyin bo‘ladi. Agar kimdir Afrika madaniyatiga oid ijtimoiy fan haqidagi kitobni tarjima qilayotgan bo‘lsa, bunda ko‘p hollarda unga ekvivalent topish qiyin bo‘ladi [30,31b].

Tarjima jarayoni matnning tilini o‘zgartirishdan tashqari, uni boshqa madaniyatga tushunarli shaklda yetkazishni ham o‘z ichiga oladi. Masalan, xalq og‘zaki ijodi, kinofilmlar, diniy matnlar yoki maqollarni tarjima qilganda, ularning chuqur madaniy ildizlari hisobga olinishi kerak. Har bir til o‘z xalqining dunyoqarashi, qadriyatlari va urf-odatlarini bilan chambarchas bog‘liq.

Madaniyatlararo tafakkur – bu boshqa madaniyatlarni anglay olish, ularni qabul qilish va ular bilan samarali muloqot qila olish qobiliyatidir. Tarjimon ushbu tafakkurga ega bo‘lishi kerak, chunki tarjimada madaniy nozik jihatlar, kinoya, hazil, diniy elementlar kabi ko‘plab tafovutlar mavjud bo‘lib, ularni adolatli tarzda aks ettirish katta mahorat talab etadi. Misol uchun, ingliz tilida “the early bird catches the worm” degan maqol mavjud. Uni so‘zma-so‘z o‘zbek tiliga “erta chiqqan qush chuvalchangni ushlaydi” deb tarjima qilish mumkin, ammo bu ibora o‘zbek o‘quvchisiga begona tuyulishi mumkin. O‘zbek tilida buning mos ekvivalenti “Erta turganning rizqi mo‘l bo‘ladi” maqoli bo‘lishi mumkin. Bu yerda tarjimon nafaqat tilni, balki madaniy tafakkurni ham hisobga oladi.

Tarjima jarayonida madaniyatlararo tafakkurni hisobga olish quyidagi jihatlarda muhim:

1. Maqollar, iboralar va kinoyalarni mos ekvivalentlar bilan almashtirish



2. Diniy, ijtimoiy va tarixiy mazmunlarni tushunish va to‘g‘ri yetkazish.
3. Notarjimasini qiyin bo‘lgan realiyalar (mavjud narsalar, tushunchalar)ga izoh berish
4. Stereotip va madaniy nozikliklarni e‘tiborga olish.

Tarjimon nafaqat ikki yoki undan ortiq tilni mukammal bilishi, balki har ikki til jamiyatining madaniy, tarixiy, ijtimoiy va dini kontekstini yaxshi bilishi lozim. Tarjimon kontekstga asoslanib so‘z yoki iboralarga mos ekvivalent topishi, madaniy o‘ziga xosliklarni saqlab qolishi kerak. Shu bois tarjima fanining rivojlanishida madaniyatshunoslik, psixologiya va sotsiologiya kabi fanlar bilan hamkorlik muhimdir. Tarjimon maqsadga muvofiq bo‘lishi kerak. U inson bilimlari va inson faoliyatining turli sohalari haqidagi ma’lumotlarning noyob xotirasidir va u uchun jarayon yoki hodisaning mohiyatini va ularning barchasi ona tilida va shunga mos ravishda chet tilida qanday chaqirilganligini bilish juda muhimdir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, tarjima jarayonida madaniyatlararo tafakkur faqat qo‘shimcha emas, balki asosiy zaruratdir. Har bir tarjimon o‘z faoliyatida tilga xoslikdan tashqari, madaniy tafovutlarni ham chuqur anglay olishi va ularni to‘g‘ri talqin qila olishi zarur. Faqat shundagina tarjima chinakam ko‘prik – xalqlarni, madaniyatlarni va tafakkurlarni bog‘lovchi vosita bo‘la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/madaniyatlararo-muloqotda-tarjimonning-ahamiyati>
2. <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/24845>
3. <https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/06/11/NamDU-ARM-5561-TARJIMA-NAZARIYASI>.
4. A.Xattori. (2021). Tarjimaning madaniyatlararo aspektlari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti.
5. Nida, E. A. (1964). Toward a Science of Translating. Leiden: E.J. Brill.
6. Baker, M. (2018). In Other Words: A Coursebook on Translation. Routledge.
7. Kramersch, C. (1998). Language and Culture. Oxford University Press.



ANTUAN DE-SENT EKZYUPERINING “KICHKINA SHAHZODA” ASARINING O‘ZBEK TILIGA TARJIMA JARAYONIDA MADANIYATLARARO TAFAKKUR

Ruxillayeva Nilufar Shukrullo qizi

O‘zbekiston Milliy universiteti
Xorijiy filologiya fakulteti, Xorijiy til va adabiyoti
ingliz tili yo‘nalishi 3-bosqich talabasi
ruxilayevanilufar@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Antuan de-Sent Ekzyuperining “Kichkina shahzoda” asarining o‘zbek tiliga tarjimasi tahlil qilinadi. Tarjima jarayonida madaniyatlararo tafakkur, obrazlar va ramzlar orqali uzatilgan ma’naviy-estetik qadriyatlarning mosligi o‘rganiladi. Matndagi simvolik ma’nolar, falsafiy qatlam va badiiy obrazlar asosiy tahlil nuqtasi sifatida tanlanadi. Maqolada o‘zbek va xorijiy olimlar qarashlari asosida lingvokulturologik tafovutlar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: tarjima, madaniyatlararo tafakkur, “Kichkina shahzoda”, ramz, konnotatsiya, lingvokulturologiya, estetika.

KIRISH

Antuan de-Sent Ekzyuperining “Kichkina shahzoda” asari o‘tgan asrning eng ta’sirchan falsafiy-badiiy novellalaridan biridir. Bu asar orqali muallif faqatgina bolalar uchun emas, balki kattalar uchun ham chuqur ma’naviy-estetik g‘oyalarni yetkazgan. O‘zbek tiliga tarjima qilinar ekan, aynan shu g‘oyalar va ramzlarning milliy tafakkurga qanday mos tushishi muhim omil hisoblanadi. Madaniyatlararo tafakkur esa tarjima jarayonida nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik mezonlari asosida ham chuqur o‘rganishni talab etadi [1, 17b.].

ASOSIY QISM

Antuan de-Sent Ekzyuperining “Kichkina shahzoda” asari ilk bor fransuz tilida 1943-yilda nashr etilgan bo‘lib, bugungi kunga kelib yuzdan ortiq tilga tarjima qilingan. Asarning o‘zbek tilidagi bir necha tarjimalari mavjud bo‘lib, har bir tarjimon matndagi obraz, ramz va g‘oyalarni milliy madaniyatga yaqinlashtirishga intilgan. Bu holat tarjimada madaniyatlararo tafakkur elementlarini doimiy yuzaga chiqaradi.



Maqolaning asosiy e'tibor markazida lingvokulturologik muvofiqlik, ya'ni matnning semantik yuki, ramziy tizimi va mentalitetga xos ifodalar o'rtasidagi tafovutlar turadi. Misol uchun, fransuz tilidagi “On ne voit bien qu'avec le cœur. L'essentiel est invisible pour les yeux” iborasi ingliz tiliga “One sees clearly only with the heart. What is essential is invisible to the eye” tarzida o'girilgan [2, 94b.]. O'zbek tilidagi tarjimalarda bu jumla odatda “Muhim narsalarni faqat yurak bilan ko'rish mumkin” tarzida beriladi. Bu esa tarjimada estetik ekvivalentlik masalasini ko'ndalang qo'yadi.

O'zbek tilida yurak bilan ko'rish degan ifoda to'g'ridan-to'g'ri ma'no bermasada, konnotativ darajada yaqin talqinni beradi. Tarjimon bu yerda to'g'ridan-to'g'ri semantik sadoqatdan ko'ra madaniy moslikka urg'u bergan. Bu tamoyil ingliz tarjimashunosi Peter Newmark tomonidan “communicative translation” deb ataladi va u o'quvchining madaniy tushunchalarini hisobga olgan holda tarjima qilishni qo'llab-quvvatlaydi [4, 162b.].

Asarda “tulki” obrazining o'ziga xos badiiy va ma'naviy yuklamasi mavjud. Tulki kichkina shahzodaga do'stlik va sadoqat haqidagi eng chuqur saboqlarni o'rgatadi. Asliyatda u “domestiquer” fe'li bilan ifodalanadi, bu so'z “bo'ysundirish” emas, balki “yaqin bo'lish”, “rishta bog'lash” ma'nosini anglatadi. O'zbek tarjimasida bu “bog'lanish” deb berilgan. Bu holatda tarjimon semantik soyaga emas, balki kontekstual moslikka e'tibor qaratgan.

O'zbekistonlik tadqiqotchi M. Ergashev o'z maqolasida “Tarjimon nafaqat til bilimdoni, balki madaniyat bilimdori bo'lishi kerak. Aks holda, tarjima matni matnga o'xshab qoladi, ammo uning ruhiy zaminini yo'qotadi” deb yozadi [5, 277b.].

Madaniyatlararo tafakkur aynan shunday holatlarda sinovdan o'tadi. Masalan, kichkina shahzoda tomonidan aytiladigan “Kattalar faqat raqamlar bilan yashaydi” degan ibora bolalar bilan kattalar dunyosidagi tafovutni ramziy tarzda beradi. O'zbek tarjimasida bu “Kattalar har narsani faqat raqam bilan o'lchashadi” tarzida ifodalangan [6, 58b.]. Bu ham falsafiy metaforani madaniyatga moslashtirishga xizmat qiladi. O'zbek tilidagi tarjimalarda shevalashuv va til uslubidagi



moslashtirishlar ham kuzatiladi. Masalan, “Men seni evaziga bir narsaga o‘xshash bo‘lganman” degan ibora fransuzcha asliyatda poetik tusga ega. O‘zbekcha tarjimalarda bu jumlar oddilashtirish orqali “men sening do‘sting bo‘lganman” tarzida ifodalangan.

Shuningdek, tarjimada madaniyatlararo tafakkur o‘zini belgilar, ijtimoiy tasavvurlar va qadriyatlarda ham namoyon etadi. Asarda ko‘tarilgan “mas’uliyat”, “do‘stlik”, “sadoqat”, “soddalik” kabi tushunchalar fransuzcha mentalitetda boshqa tarzda anglashiladi. O‘zbek tarjimasida esa bu tushunchalar milliy qadriyatlarga moslab, ko‘proq axloqiy-ruhoniyl konnotatsiyalar bilan beriladi. Bu jarayonda tarjimon ikki madaniyat o‘rtasida “mediator” sifatida harakat qiladi. Ingliz olimlari Mona Baker va Susan Bassnett fikricha, tarjima bu – “faqat kod o‘zgartirish emas, balki madaniyl makonlararo muloqotdir” [7, 214b.].

Yana bir muhim jihat – badiiy tilning poetikligini saqlab qolish masalasidir. “Kichkina shahzoda”da juda ko‘p poetik jumlar mavjud: “Yulduzlar faqat sen kulgansan uchun chiroyli ko‘rinadi” kabi iboralar tarjimada ritmik va emotsional ohangni ham yetkazishni talab qiladi [8, 113b.].

XULOSA

“Kichkina shahzoda” asarining o‘zbek tiliga tarjimasini nafaqat til, balki madaniyatlararo tafakkur doirasida olib borilishi zarurligini ko‘rsatadi. Ramzlar, g‘oyalar va estetik ifodalar tarjimada milliy tafakkur bilan uyg‘unlashishi lozim. Asliyatga sadoqat bilan bir qatorda, o‘zbek o‘quvchisi uchun tushunarli va estetik bo‘lishi ham e‘tibordan chetda qolmasligi kerak. Tarjima bu yerda faqat so‘zlarni o‘girish emas, balki madaniyatlararo ko‘prik bo‘lishi lozim. Shu bois, tarjimon nafaqat til egasi, balki madaniyat elchisi sifatida faoliylat yuritadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurahmonov, A. (2010). Tarjima nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: O‘zbekiston milliy universiteti nashriyoti.
2. Ekzyuperi, A. de S. (2005). Kichkina shahzoda (o‘zbek tiliga tarjima: X. Nurmatov). Toshkent: Sharq.
3. Bassnett, S. (2002). Translation Studies. London: Routledge.
4. Newmark, P. (1988). A Textbook of Translation. New York: Prentice Hall.



5. Ergashev, M. (2015). “Tarjimada madaniyatlararo tafakkur muammolari.” O‘zbek tilshunosligi jurnali, 2, 275–280.
6. Suleymanov, B. (2013). Lingvokulturologiya va tarjima. Toshkent: Fan.
7. Baker, M. (1992). In Other Words: A Coursebook on Translation. London: Routledge.
8. Tursunov, O. (2018). “Badiiy tarjimada poetik ohang va madaniyatlararo o‘zaro ta’sir.” Adabiyot va tarjima, 1(15), 110–118.
9. (2017). “Tarjimada semantik va madaniy moslik.” Til va madaniyat, 3, 45–50.

ZAMONAVIY TARJIMASHUNOSLIK: NAZARIY YONDASHUVLAR, AMALIY MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH YO‘NALISHLARI

Umaraliyeva Ruxshona

Toshkent davlat Transport universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarjimashunoslikning nazariy va amaliy masalalari keng yoritilgan. Tarjimada ekvivalentlik va moslik muammolari, ixtisoslashgan tarjimalarning (ilmiy, texnik, adabiy) xususiyatlari, avtomatik tarjima vositalarining imkoniyatlari va ularning samaradorligi tahlil qilingan. Shuningdek, tarjima jarayonida madaniyatlararo tafakkurning ahamiyati alohida ko‘rib chiqilgan. Maqola zamonaviy tarjimon uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar va yondashuvlarni ochib beradi.

Kalit so‘zlar: tarjimashunoslik, ekvivalentlik, moslik, ixtisoslashgan tarjima, ilmiy tarjima, texnik tarjima, adabiy tarjima, avtomatik tarjima vositalari, madaniyatlararo tafakkur, tarjima nazariyasi, tarjima amaliyoti.

KIRISH

Zamonaviy davrda tarjimashunoslik mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida keng rivojlanib bormoqda. Globallashuv, axborot texnologiyalarining taraqqiyoti va tillararo muloqot ehtiyojining ortishi natijasida tarjima nafaqat lingvistik jarayon, balki madaniyatlararo aloqani shakllantiruvchi vosita sifatida ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Tarjima orqali insoniyatning ilmiy, texnik, adabiy va madaniy boyligi bir til doirasidan chiqib, boshqa til va madaniyat vakillariga yetkaziladi. Shu sababli zamonaviy tarjimashunoslik nafaqat nazariy asoslar, balki amaliy ko‘nikmalar, zamonaviy vositalar va texnologiyalar bilan chambarchas bog‘liqdir.



Bugungi kunda tarjimon oldida turgan vazifalar yanada murakkablashib bormoqda. Tarjimada ekvivalentlik va moslik muammolari, til va madaniyat o'rtasidagi tafovutlar, muallif uslubini saqlab qolish kabi masalalar tarjimonlardan chuqur bilim, tajriba va madaniyatlararo kompetensiyani talab qiladi. Ayniqsa, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot natijasida yuzaga kelayotgan yangicha atamalar, ixtisoslashgan matnlar va texnik hujjatlarning to'g'ri tarjima qilinishi dolzarb masalaga aylangan.

Shu bilan birga, avtomatik tarjima vositalarining rivojlanishi tarjima jarayoniga yangi imkoniyatlar va yondashuvlarni olib kirmoqda. Biroq bu vositalarning samaradorligi, insoniy tafakkur va madaniy sezgirlikni qanchalik to'ldira olishi masalasi hanuz muhokama etilmoqda.

Shunday ekan, tarjimashunoslik nafaqat an'anaviy tilshunoslikka tayanadi, balki madaniyatshunoslik, psixologiya, texnologiya va kommunikatsiya kabi sohalar bilan ham bevosita aloqador holda rivojlanmoqda.

Ushbu maqolada tarjimashunoslikning nazariy yondashuvlari, tarjima jarayonida uchraydigan amaliy muammolar, ixtisoslashgan tarjima turlari, zamonaviy avtomatik tarjima texnologiyalari va madaniyatlararo tafakkurning tarjimadagi o'rnini tahlil qilinadi. Maqola zamonaviy tarjimon uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar va bu sohadagi rivojlanish yo'nalishlariga e'tibor qaratadi.

Zamonaviy tarjimashunoslik ko'plab sohalarning tutashgan nuqtasida shakllanayotgan murakkab fan sohasidir. Uning nazariy yondashuvlari tarjima jarayonining mohiyatini, tarjimon va muallif, manba va qabul qiluvchi til o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tushuntirishga qaratilgan. Bugungi kunda tarjima jarayonida "ekvivalentlik" va "moslik" tushunchalari eng dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Ekvivalentlik matnning ma'no jihatdan to'g'ri yetkazilishi bilan bog'liq bo'lsa, moslik tarjima tilining madaniy va stilistik me'yorlariga muvofiq bo'lishini nazarda tutadi. Bu ikki omil o'rtasidagi muvozanatni topish tarjimonning asosiy mahoratidir.

Tarjima faoliyatida ixtisoslashuv ham muhim ahamiyatga ega. Ilmiy, texnik va adabiy tarjimalar o'ziga xos yondashuvni talab qiladi. Ilmiy tarjimada aniq



terminologiyaga amal qilish, texnik tarjimada esa uslubiy izchillik va aniqlik muhim bo‘lsa, adabiy tarjima ijodkorlik, obrazlilik va muallif uslubini saqlab qolish kabi murakkab vazifalarni yuklaydi. Har bir sohaning o‘ziga xos lug‘ati, tili va madaniy konteksti bo‘lishi tarjimonni chuqur mutaxassis bo‘lishga undaydi.

So‘nggi yillarda tarjima amaliyotida avtomatik tarjima vositalarining paydo bo‘lishi yangi davrni boshlab berdi. Google Translate, DeepL kabi dasturlar tarjimonlarga tezkorlik va qulaylik yaratmoqda. Ammo bunday vositalarning hali ham murakkab grammatik konstruktsiyalar, ko‘p ma’noli so‘zlar yoki madaniy kontekstni to‘g‘ri tushinishda cheklovlari mavjud. Shuning uchun avtomatik tarjima inson mehnatini to‘liq almashtira olmaydi, balki uni to‘ldiruvchi vosita sifatida qaralmoqda.

Tarjima jarayonida yana bir muhim omil — bu madaniyatlararo tafakkurdir. Tarjimon ikki madaniyat vakili o‘rtasida vositachi sifatida nafaqat tildan, balki madaniy qadriyatlardan, urf-odatlardan, ma’naviy tasavvurlardan ham xabardor bo‘lishi lozim. Ba’zan bir so‘z yoki ibora manba tilida oddiy bo‘lib tuyulsa-da, qabul qiluvchi til madaniyatida tushunarsiz yoki hatto noto‘g‘ri talqin etilishi mumkin. Bunday holatlarda tarjimonning madaniyatlararo kompetensiyasi hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Umuman olganda, zamonaviy tarjimon nafaqat til bilimdoni, balki madaniyatshunos, texnologiyalardan xabardor mutaxassis, hamda tanqidiy fikrlovchi sifatida shakllanishi lozim. Tarjimashunoslik esa bu yo‘lda ilmiy asos, amaliy yo‘l-yo‘riq va nazariy tushunchalar bilan yo‘l ko‘rsatuvchi fan sifatida rivojlanmoqda.

XULOSA

Zamonaviy tarjimashunoslik — bu tilshunoslik chegaralaridan ancha kengroq bo‘lgan murakkab va ko‘p qatlamli fan sohasi bo‘lib, u bugungi globallashgan dunyoda alohida dolzarblik kasb etmoqda. Ushbu maqolada ko‘rib chiqilgan nazariy yondashuvlar, tarjimada ekvivalentlik va moslik muammolari, ixtisoslashgan tarjimalarning o‘ziga xosliklari, avtomatik tarjima texnologiyalari va



madaniyatlararo tafakkur masalalari — barchasi tarjima jarayonining naqadar murakkab va mas'uliyatli ekanini yana bir bor namoyon etdi.

Bo'lajak tarjimon sifatida men anglayapman: tarjima bu — nafaqat so'zlarni bir tildan ikkinchisiga ko'chirish, balki mazmunni, uslubni, kontekstni va eng muhimi — madaniy qatlamni yetkazishdir. Har bir tarjima harakati ortida tanlov, tahlil, baho va mas'uliyat turadi. Ayniqsa, ixtisoslashgan sohalarda, masalan ilmiy va texnik matnlarda terminologik aniqlik, adabiy tarjimada esa obrazlilik va stilistik sodiqlik tarjimaning sifat mezonlariga aylanadi.

Shuningdek, tarjimon bugungi raqamli asrda yangi texnologiyalar bilan ishlay olishi, avtomatik tarjima vositalaridan foydalana olishi, lekin ularni to'liq ishonch bilan emas, balki tanqidiy tahlil orqali baholay olishi zarur. Shuningdek, madaniyatlararo tafakkur va kommunikatsion sezgirlik — bu zamonaviy tarjimonning asosiy kompetensiyalaridan biridir.

Shu asosda xulosa qilish mumkinki, tarjimashunoslik ilmiy-nazariy jihatdan chuqurlashtirilishi, amaliyotda esa ko'p tarmoqli yondashuvlar bilan boyitilishi zarur. Bu yo'nalishda bilim olish va izlanish olib borish meni — bo'lajak mutaxassisni — nafaqat til bilimi, balki madaniyat, tafakkur va mas'uliyat bobida ham yetuklikka yetaklaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Komissarov V.N. Tarjima nazariyasi — Moskva, 1990.
2. G'ulomov A., Mahmudov N. Tarjimashunoslik asoslari. — Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2010.
3. Newmark P. A Textbook of Translation. — Prentice Hall, 1988.
4. Savorin A.A. Ilmiy va Texnik tarjima asoslari. a. — Moskva: 1982.
5. Shveytser A.D. Zamonaviy tarjimashunoslik. — Moskva: R.Valent, 2002.
6. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. — Routledge, 2011.
7. Timoshenko S.G. Avtomatik tarjima — Sankt-Peterburg: Piter, 2015.
8. O'zbekistonda tarjima sohasining rivojlanishiga doir rasmiy hujjatlar va qarorlar. — www.lex.uz
9. Hatim B., Mason I. Discourse and the Translator. — Routledge, 1997.
10. Garbovskiy N.K. Tarjima nazariyasi. oliy ta'lim muassasalari uchun — Moskva: 2007.



CHALLENGES IN TRANSLATING ENGLISH FOOD IDIOMS FOR NON-NATIVE SPEAKERS

Xoldarova Mahliyoxon Azimjon qizi

Student of Fergana State University

Abstract. This article explains what idioms are in English, their meanings, history, and cultural importance. An idiom is a phrase where the meaning is different from the meanings of the individual words. The article looks at three popular English idioms: “Piece of Cake,” “Spill the Beans,” and “Cry Over Spilt Milk.” It describes where these idioms came from, how they are used, and what they mean. Idioms help people express their thoughts in a more colorful and emotional way, and they are used a lot in daily speech.

Keywords: food idioms, translation, English language, culture.

Introduction

Idioms hold great significance in the proficiency and comprehension of the English language. The term ‘idiom’ derives from Greek and Latin languages meaning “special language.” In English, idioms are expressions with particular meanings that cannot be understood or interpreted by examining individual words. They tend to revolve around history, culture, or daily life. This article describes what idioms are and provides an explanation for three well-known idioms: “Cry Over Spilt Milk,” “Spill the Beans,” and “Piece of Cake.” It illustrates the origin of these idioms, their meanings, and how people use them in their day-to-day lives.

Idiom is a phrase in a language which its meaning does not equate to the ordinary meaning of its words. An idiom is a phrase which is explained in the form of words/phrases which are not entirely whole, in its literal interpretation. To put it differently, an idiom is an expression which does not follow the typical rules of language as it is made up words which defines it differently than its definition. The word idiom comes from the latin idioma meaning “special language” or “characteristic” idiom in Latin stemmed from the Greek *ιδίωμα* (idioma) which means “unique” or “special”. It was primarily used in Greek to denote “particular style” or “personal language”. English idiom dates back to 16th century and its first



used as a special form of language later on encompassed in English to mean expressions or specific structures of a language. An idiom may differ in meaning according to regions and cultures. In English idiom tends to signify a phrase which depicts specific and particular meaning. The following traits are common in most idioms:

1. Specific meaning: The words have different meanings when combined than they do when used individually.
2. Culturally based: Idioms are often based on the culture, customs, or history of a particular nation.
3. Frequent use: Idioms are parts of language that are used every day, repeatedly.
4. Used in social and emotional contexts: Idioms are often used in social situations or to express emotions.

When we translate idioms, we face general translation challenges:

Cultural differences — Idioms are deeply tied to their cultural background, making direct translation difficult.

Metaphorical mismatch — Each language has its own imagery and metaphors, which often don't translate well.

Wordplay and historical roots — Some idioms are based on wordplay or historical references that have no parallel in the target language. In this article, three idioms, including "piece of cake", "spill the beans", "cry over spilled milk" are explained.

1. "Piece of Cake" Idiom

Meaning: The English idiom "Piece of cake" expresses the ease of doing something. This expression means "very easy" or "simple" and is often used to describe the ease and ease of completing a task. For example, if someone makes something look very easy, they would say "It was a piece of cake!", which means that it was easy to do.

Uzbek Translation: "Easy as a child" or "Easy job"

Alternative Expressions:



"Intended ease"

"Simple to do"

Translation issues:

Literal translation: It becomes "a piece of cake," which holds no meaning in Uzbek and can cause confusion.

Cultural differences: In Western culture, cake is associated with pleasure and ease, which makes it a metaphor for simplicity. This association doesn't exist in Uzbek culture.

Finding the right equivalent: There's no exact Uzbek idiom that conveys this meaning, so it needs to be adapted based on context.

History of Origin: The idiom "Piece of cake" appeared in English in the early 20th century. According to some analysts, this expression may have been borrowed from the English sweet desserts, especially cakes. Cutting or eating a piece of cake is a very easy task, which is usually very pleasant and convenient for everyone. Therefore, the easy completion of a task is compared to "eating the cake". This expression began to be widely used in English in the 1930s.

John Ayto, in his book Oxford Dictionary of English Idioms (2010), gave a full explanation of the expression "Piece of cake" and called it an easy task. Ayto considered the history of the origin of this idiom and its areas of use.

Christine Ammer, in her book The American Heritage Dictionary of Idioms (2013), also gave an extensive analysis of the expression "Piece of cake" and its use in modern English. She also noted that this idiom is associated with the simplest and easiest tasks in the English language.

2. "Spill the Beans" Idiom

Meaning: The idiom "Spill the beans" refers to revealing a secret, revealing confidential information, or accidentally revealing something. This expression is often used when someone says something secret without knowing it or after it has slipped out of their mouth.

English Translation: "To reveal a secret"

Alternative Expressions:



"To reveal a secret"

"To reveal confidential information"

Translation issues:

Literal translation: "To spill beans" sounds odd or meaningless in Uzbek.

Origin of the idiom: This expression is rooted in ancient voting practices involving beans, which is culturally unfamiliar in Uzbek society.

Lack of shared metaphor: In Uzbek, beans are not a symbol for secrets, so the metaphor doesn't transfer naturally. It requires explanation or contextual adaptation.

Origin History: The idiom "Spill the beans" dates back to ancient Greece. In Greece, citizens used small objects such as beans to cast their votes for elections. If these beans were accidentally spilled, the election results would be revealed. In this way, the expression became an idiom meaning to reveal a secret. In English, this expression began to be widely used in the late 19th century.

John Ayto provided information about the idiom "spill the beans" in his Oxford Dictionary of English Idioms (2010). Ayto analyzed the historical origins of the expression and linked it to the meaning of revealing secrets.

Christine Ammer also provided comments on the specific features of this idiom in her book The American Heritage Dictionary of Idioms (2013). She paid special attention to the history and use of the idiom "spill the beans".

3. "Cry Over Spilt Milk" Idiom

Meaning: The idiom "Cry over spilt milk" refers to grieving over a past loss or unrecoverable mistake. This idiom expresses the pointlessness of regretting something once it has been irreparably lost. That is, there is no point in regretting the outcome of something once it has been done.

Alternative Expressions:

"You can't change the past"

"There's no point in grieving over what happened"

Translation issues:

Literal translation: "Crying over spilled milk" may sound humorous or meaningless in Uzbek.



Significance of milk: In Western cultures, milk is a staple product, so spilling it implies a meaningful loss. This cultural context is not the same in Uzbek culture.

Lack of direct equivalent: While Uzbek has similar expressions like

“You can’t put a hat on the past,” it doesn't always fit the same situations as the English idiom.

History of Origin: The idiom "Cry over spilt milk" originated in the 17th century in English. Spilling milk is a very common occurrence and there is no way to get it back. Thus, this expression indicates that it is inappropriate to regret something after it has been corrected. The expression quickly entered the English language and became very common.

John Ayto, in the Oxford Dictionary of English Idioms (2010), explains that the idiom "cry over spilt milk" means useless regret.

Christine Ammer, in The American Heritage Dictionary of Idioms (2013), analyzes the history and use of this idiom. She also draws attention to the comparison of this expression with its Uzbek counterparts.

Conclusion:

Idioms play an important role in enriching the English language because they allow speakers to express complex ideas in a simple and emotional way. Phrases like "Piece of Cake," "Spill the Beans," and "Cry Over Spilt Milk" show how language has evolved through culture and history, with each idiom reflecting a specific historical or social context. Understanding idioms increases language proficiency, allowing speakers to communicate more deeply with native speakers. In general, idioms are not just linguistic tools, but also a reflection of the culture that has shaped the way we communicate.

REFERENCE:

1. Ayto, J. (2010). Oxford Dictionary of English Idioms (2nd ed.). Oxford University Press.
2. Ammer, C. (2013). The American Heritage Dictionary of Idioms (2nd ed.). Houghton Mifflin Harcourt
3. Spears, R. A. (2005). McGraw-Hill's Dictionary of American Idioms and Phrasal Verbs. McGraw-Hill.



O‘ZBEK HAMDA CHET TILLARIDA O‘ZGALOVCHI KATEGORIYALAR MUQOYASASI

Abdurahmonova Farangiz Husan qizi

Termiz davlat universiteti talabasi
abdurahmonovafarangiz05@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek morfologiyasida mavjud o‘zgalovchi kategoriyalar hamda ularning ingliz va fors tillaridagi ekvivalentlari leksik, semantik va morfologik jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, ularning mushtarak va ayricha jihatlari ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: kategoriya, fe’lning vazifa shakllari, lingvistik tahlil, fe’l, ingliz tili, fors tili.

Lingvistika – xalqning tamadduni, tarixi, o‘zligi, eng muhimi, mavjudligini ko‘rsatuvchi shaffof oyna – tilni o‘rganuvchi, tahlil, tanqid qiluvchi soha. Bu sohaning tarmoqlari shu qadar ko‘pki, uni bamisoli azim chinorga tashbeh etish mumkin. Chinorning shoxlari ko‘p bo‘lgani yanglig‘ uning tarmoqlari ham shu qadar turli. Avvalo, tilshunoslikni tayab turuvchi ildiz morfologiya va sintaksisdir. Morfologiya esa o‘z navbatida turli bo‘g‘inlarga ajraladi. Biz ushbu maqolamizda aynan bitta bo‘g‘inga emas, bitta yaproq – fe’l va uning vazifa shakllariga mufassal to‘xtalamiz.

Fe’l – lug‘aviy ma’nosi harakat va holat bo‘lib, grammatik ma’no va shaklga ega, nima qilmoq? nima bo‘lmoq? so‘roq olmoshlarining javobi bo‘luvchi morfologik birlik, ya’ni so‘z turkumi. O‘zbek tilshunosligida bor bo‘lgan 9 ta grammatik kategoriyalarning 4 tasi (o‘zgalovchi, nisbat, harakat tarzi, bo‘lishli – bo‘lishsizlik kategoriyalari) fe’lga mansub. Jumladan, o‘zgalovchi kategoriyalar murakkab bo‘lib, ularga sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi kiradi. Tabiiyki, sof fe’l bundan mustasno, chunki unda grammatik shakl 0 ga teng, ya’ni o‘ziga xos qo‘shimchasi mavjud emas. Sof fe’lni shaxs-son, zamon hamda mayl qo‘shimchalari yuzaga chiqaradi.

SIFATDOSH – fe’lning funksional formalaridan biri bo‘lib, asosiy xususiyati – belgini bildirishiga ko‘ra sifatga o‘xshagani uchun ham sifatdosh nomini olgan.



Sifatdoshlar faqat o‘zbek lingvistikasida emas, balki barcha tillarda, shuningdek, ingliz va fors tillarida ham mavjud. Xuddi o‘zbek tilidagi kabi bu ikki tilda ham sifatdoshlar zamon ma’nosini oladi. Xususan, o‘tgan zamon sifatdoshi ingliz tilida past participle deb nomlansa, صفت مفعولى (sefat-e maf’ul) deb nomlanadi. O‘zbek tilida sifatdoshlarni yasash uchun:

O‘tgan zamon sifatdoshi -gan (-kan, -qan)

Hozirgi zamon sifatdoshi -ayotgan

Kelasi zamon sifatdoshi -ydigan, -adigan, -(a)r grammatik shakllaridan foydalanamiz. Misol uchun,

Kelgan qiz mening singlim.

The come girl is my sister.

دختر آمده خواهر من است (Do‘xtare omade xohare man ast)

Yuqoridagi namunalardan ko‘rinib turibdiki, har uchala gapda ham mutanosiblik bor, birinchidan, ularning bari sifat kabi belgini bildirgani uchun sifatdosh, shuningdek, qaysi? so‘rog‘iga javob bo‘ladi. O‘zbek tilida o‘tgan zamon sifatdoshini -gan affiksi yordamida yasagan bo‘lsak, ingliz va fors tillarida bu jarayon birmuncha murakkab.

Ingliz tilida past participle o‘tgan zamon sifatdoshi -ed affiksi yordamida yoxud notog‘ri fe‘llar (irregular verbs) ning 3-ustunidagi fe‘llarning o‘zgargan shakli yordamida yasaladi. Biz ko‘rib o‘tgan gap aynan shu qolipda yasalgan, negaki

Present simple tense	Past simple tense	Past participle(o‘tgan zamon sifatdoshi)
Be	was/ were	Been
Drive	Drove	Driven
Find	Found	Found
Fall	Fell	Fallen
Come	Came	Come



Ushbu noto‘g‘ri fe‘llar jadvaliga asoslanib, biz kelgan qiz birikmasini the come girl deya tarjima qildik.

A started competetion – boshlangan musobaqa

A finished lesson – tugagan dars

A rung bells – jiringlagan qo‘ng‘iroq

A stood child – turgan bola

Fors tilida o‘tgan zamon sifatdoshining yasalishi esa ingliz tilidan-da o‘ziga xos hamda g‘aroyib. Biroq mushrarak jihatlari ham talaygina. Jumladan, fors tilida ingliz tilidagi kabi fe‘lning sifatdosh qo‘shimchasi mavjud emas, shuning uchun fe‘l negizini o‘zgartirib, boshqa formaga kiritamiz va sifatdosh hosil qilamiz.

Fe‘lning noaniq shakl formasi	O‘tgan zamon negizi	O‘tgan zamon sifatdoshi
آمدن (omadan)	آمد (omad)	آمده (omade)
نشستن (neshestan)	نشست (neshest)	نشسته (nesheste)
گفتن (go‘ftan)	گفت (go‘ft)	گفته (go‘fte)
رفتن (raftan)	رفت (raft)	رفته (rafte)
خواندن (xondan)	خواند (xond)	خوانده (xonde)

Ushbu jadvalning 3-ustuniga o‘tgan zamon sifatdoshida fe‘llarning qay tartibda o‘zgarishi keltirib o‘tilgan, boshqa fe‘llardan ham sifatdosh hosil qilish uchun ayni formaga tayanamiz. Shuningdek, yuqoridagi gapimizda kelgan qiz birikmasini دختر آمده (do‘xtare omade) deya hosil qildik.

سال گذشته (sol-e go‘zeshte) – o‘tgan yil

دانشجوی نشسته (doneshju-ye nesheste) – o‘tirgan talaba

خوراکهای پخته (xurokxo-ye puxte) – pishirilgan ovqatlar

Ingliz va o‘zbek tilshunosligida sifatdoshlarning leksik, semantik va grammatik qolipi deyarli bir xil. Ammo ular o‘rtasida mavjud tafovutlarni ham eslatib o‘tish joiz. Avvalo, ingliz tilida sifatdoshlar 3 ta zamon ko‘rinishida yuzaga chiqadi:

Present participle (hozirgi zamon sifatdoshi)



Past participle (o'tgan zamon sifatdoshi)

Perfect participle (tugallangan sifatdosh)

Biroq kelasi zamon sifatdoshi mavjud emas, uning o'rnini tugallangan sifatdosh egallagan. Bu 3ta zamon sifatdoshlari esa o'ziga xos usul bilan hosil bo'ladi, yuqorida o'tgan zamon sifatdoshining yasalişini ko'rib o'tdik. Hozirgi zamon sifatdoshi o'tgan zamonnikidan farq qiladi. Present participle fe'ning negiziga (to yuklamasi tushirib qoldirilgan infinitivga) –ing qo'shimchasini qo'shish bilan hosil qilinadi.

A dying man (Imlo qoidasiga ko'ra to die asosi y ga o'zgaradi) – o'layotgan odam.

A living woman (Imlo qoidasiga ko'ra to live o'zagida e tushib qoladi) – yashayotgan ayol.

Perfect participle esa murakkabroq yo'l bilan hosil bo'ladi. To have fe'lining hozirgi zamon sifatdosh shakliga mustaqil fe'ning Past participle shakli qo'shiladi. Having + P. P.

Having collected all the material, he began to write his independent work.

Barcha materiallarni to'plagach, u mustaqil ishini yozishni boshladi.

Ushbu zamon sifatdoshi o'zbek tilida ravishdoshga to'g'ri keladi va payt holi vazifasini bajaradi. Bu farqlar nafaqat ikki til, balki ikki xalqning so'zlashuv madaniyati, lingvistik nuqtayi nazari va tilga oid odatlariga bog'liq.

Sifatdoshlarning fors va o'zbek grammatikasidagi mutanosibliklari hayratlanarli darajada. Avvalambor, o'zbek tili singari fors tilida sifatdoshlar ham 3 guruhga ajraladi:

صفت مفعولى (sefat-e maf'ul) – o'tgan zamon sifatdoshi

صفت فاعلى (sefat-e fo'ili) – hozirgi zamon sifatdoshi

صفت آينده (sefat-e oyande) – kelasi zamon sifatdoshi

Yana har biri alohida grammatik shakllar yordamida yasaladi. Hozirgi zamon sifatdoshi fe'ning hozirgi zamon asosiga انده (-ande), آن (-on), آ (-o) affikslarini qo'shish orqali hosil bo'ladi.



انده (-ande) affiksi ular orasida eng mahsuldori bo‘lib, deyarli barcha fe’llardan sifatdosh yasaydi. Biroq farqli ravishda bu affiks aksariyat hollarda sifatdoshlik ma’nosini yo‘qotib, ot bo‘lib keladi.

Fe’lning noaniq shakli	Hozirgi zamon shakli	Hozirgi zamon sifatdoshi	Tarjimasi
نشستن (nevestan)	نویس (navis)	نویسنده (navisande)	yoʻzuvchi
خواندن (xondan)	خوان (xon)	خواننده (xonande)	o‘quvchi

آن (on) affiksi esa kammahsul qo‘shimcha bo‘lib, ba’zi fe’llardagina sifatdosh hosil qiladi. Bu affiks yordamida yasalgan sifatdoshlar esa gapda, asosan, sifatlovchi aniqlovchi hamda ravish holi vazifasini bajaradi.

بژه گریه کنان از اطاق بیرون شد (Bache gerye-ko‘non az o‘toq birun sho‘d) – Bola uydan yig‘lab chiqdi

آب روان تازه است (Ob-e ravon toze ast) – Oqar suv tozadir.

ا (-o) affiksi ham nafaol qo‘shimchalardan biri bo‘lib, bunday sifatdoshlar fe’lda ifoda etilgan belgiga doimiy egalikni bildiradi.

مرد بینا (marde bino) – uzoqni ko‘ra oladigan

خط خوانا (xatte xono) – o‘qib bo‘ladigan xat

Kelasi zamon sifatdoshining yasaliş usuli biroz farqli, uni hosil qilish uchun یای لیاقت (yoye layoqat) qoidasiga amal qilaamiz. یای لیاقت (yoye layoqat) – fe’lning noaniq shakliga urg‘uli bir ی (-i) affiksining qo‘shilishidir. Yoye layoqat fe’lining ilk ma’nosi nutq paytidan keyingi ish-harakat, ya’ni kelasi zamondir.

دیدن (didan) دیدنی (didani) – ko‘radigan ko‘rishli

این فیلم نو عربی دیدنی است (In film-e no‘u-e arabi didani ast).

Bu yangi arab filmi ko‘rishlidir.

Kelasi zamon sifatdoshining gapdagi sintaktik vazifasi sifat kabidir: otdan oldin kelsa, aniqlovchi; gap oxirida kelsa, ot kesim. Yuqoridagi jumlada esa ot kesim vazifasida kelgan.

HARAKAT NOMI – fe’lning otga xoslangan shakli bo‘lib, o‘zbek tilida -(i)sh, -(u)v, -moq grammatik shakllari bilan yasaladi. Harakat nomi qo‘shimchalarini



olgan fe'llar harakatning bajarilishi kabi ma'nolarni anglatmaydi, balki harakat-holatning nomini bildiradi. Lug'atlarda beriladigan noaniq shakldagi fe'l leksemalari ham aynan harakat nomining -moq shaklida keltiriladi. Ushbu kategorial guruh ham ingliz tilida mavjud bo'lib, bu shakl Gerund deb yuritiladi. G'apporovning kitobida keltirilishicha:

“Gerund fe'lining fe'llik va otlik xususiyatiga ega bo'lgan shaklidir. O'zbek tilida gerundga harakat nomi to'g'ri keladi”.¹

Darhaqiqat, gerundning harakat nomiga o'xshashligi uning sintaktik vazifalarida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Harakat nomi deyarli barcha gap bo'lagi vazifasida kela oladi, biroq odatda ega, ot kesim vazifasida qo'llanadi. Gerund barcha gap bo'lagi bo'lib kela olmasa-da, u ham harakat nomi yanglig' ega va ot kesim vazifasini bajaradi.

Reading is my main aim. O'qish mening eng asosiy maqsadimdir.

My future dream is travelling around the world. Mening kelajakdagi orzum dunyo bo'ylab sayohat qilish.

Fors tilida esa aynan harakat nomi yo'q lekin, fe'llarning hozirgi zamon negiziga ش (-esh) affiksini qo'shish orqali harakat va holat ma'nosini ifodalovchi leksemalar paydo bo'ladi.

دان (don) دانستن (donestan) دانش donesh - bilish

كوشش kushesh - intilish كوش (kush) كوشيدن (kushidan)

Ajablanarlisi shuki, fors grammatikasida bu shakllar harakat nomini bildiruvchi otlar deb yuritiladi. Garchi leksik, morfologik, hatto grammatik xususiyatlari ham fe'lga yaqin bo'lsa-da.

Harakat nomini nima bo'lgan taqdirda ham har uchala tilda bir nuqtaga jamlash mumkin.

Inson doim hamma narsani bilishni xohlaydi.

A person always wants knowing everything.

¹ M.G'apporov, R.qosimova. Ingliz tili grammatikasi. “Turon-iqbol”. Toshkent-2010. 46b



انسان همیشه هر چی دانش خواهش می کند (Enson hamishe har che donesh xohesh miko'nad)

RAVISHDOSH. Fe'ning harakat va holat tarzini, paytini, maqsad-sababini bildirish uchun ma'lum grammatik shakllar yordamida o'zgargan ko'rinishidir. O'z o'rnida ravishdoshni ham turli affikslar bilan hosil qilish mumkin.

Payt -guncha (-kuncha, -quncha), -gach (-kach, -qach), -(i)b, -(a)y

Holat -gancha (-kancha, -qancha), -(i)b, -(a)y

Maqsad -gani (-kani, -qani, -gali)

Sabab -(i)b, -(a)y

Fors tilida ravishdosh uchun maxsus shakl yo'q. O'tgan zamon sifatdosh formasi ravishdosh uchun ham xizmat qiladi. Uning sifatdosh yoxud ravishdosh ekanligini gapdagi qurshov ma'nolaridan farqlab olamiz.

Ingliz tilida ham xuddi shunday: ravishdosh shakli yo'q. Uni hozirgi zamon sifatdoshi shakli yordamida hosil qilamiz, ya'ni ingliz tilidagi kabi sifatdosh ravishdosh vazifasini ham bajaradi.

U mening oldimga kelib, kutubxonaga bora olmasligini aytdi.

Coming to me, he told me not to go to the library.

او پیش من آمده گفت که من نمی توانم به کتابخانه بروم (U pishe man omade go'ft ke man namitavonam be ko'to'bxone beravam)

Xulosa qilib aytganda, o'zgalovchi kategoriyalar o'zbek tilshunosligida fe'ning turli sintaktik vazifalarda kela olishini ta'minlaydi hamda uning harakat va holat kabi lug'aviy ma'nolarini tubdan o'zgartiradi, tom ma'noda fe'l so'z turkumida transformatsiya jarayonini amalga oshiradi. O'zga tillarda, xususan, ingliz va fors tillarida ham aynan shu vazifalarni bajarmasa-da, ular o'rtasida ajablanarli darajada yaqinlik mavjud. Tanganing ikkinchi tomoni bo'lganidek, ular o'rtasida mushtaraklikdan tashqari, ayricha jihatlar ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu o'xshashlik va farqli tomonlarni tadqiq etishdan maqsadimiz til o'rganish jarayonini osonlashtirish, tezlashtirish hamda samaradorlikni oshirishdir. Chunonchi, ushbu tadqiqot nafaqat filologlar, balki tarjimonlik sohasini tanlaganlar uchun ham foydali bo'ladi degan umiddamiz. Zero, har bir so'zning leksik, semantik,



lingvokulturologik xususiyatlaridan tashqari grammatik ma’no va shakllarini bilish tilni to‘liq anglashda eng muhim vositadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Hozirgi o‘zbek tili (Morfemika – morfologiya). Qarshi – 2018.
2. M.Abdusamatov. Fors tili. “O‘qituvchi” nashriyoti. Toshkent – 1977
3. M.G‘apporov, R.Qosimova. Ingliz tili grammatikasi. “Turon-iqbol”. Toshkent-2010.
4. O‘zbek tili grammatikasi. I jild. Morfologiya. O‘zbekiston SSR “Fan” nashriyoti. Toshkent – 1973

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI FRAZEOLOGIZMLARNING O‘ZARO MUTANOSIBLIGI

Abdurahmonova Sarvinoz

Termiz davlat universiteti

Xorijiy filologiya fakulteti 1-bosqich 124-guruh talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning leksik, semantik hamda morfologik jihatdan tahlili hamda ularning ma’no va uslubiy xususiyatlari to‘g‘risida so‘z boradi. Chunonchi, har ikkala tilda ma’no-mazmun jihatdan bir-biriga mutanosib iboralar yoxud o‘zaro mos tushmaydigan frazemalar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: frazema, lisoniy birlik, frazeologiya, leksema, semantik tahlil.

Dunyoda jamiki millat - elatlar borki, ular qadim - qadimdan o‘zlarining tili bilan hali - hanuzgacha yashab kelmoqda. Bu tillar o‘z ichiga tilning morfologik xususiyatlari, grammatik strukturalar, gap bo‘laklari yoxud leksik xilma-xilliklarni qamrab oladi. Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, har bir til grammatikasida frazeologizm bo‘limi muhim o‘rin egallaydi. Shubhasiz, tildagi frazeologizmlar, ya’ni iboralar so‘z san’atiga o‘zlarining takroriy va zerikarli so‘zlarsiz, rang-barang qilib ifodalanishi bilan yanada ko‘rk qo‘shib turadi va jozibadorligini oshiradi. Jumladan, har bir tildagi iboralar bir-biridan ifodalanish uslubiga, ma’lum grammatik belgi - xususiyatlariga ko‘ra o‘zaro farqlanadi. Quyida o‘zbek tili hamda ingliz tilidagi



frazemalarning o‘zaro muqoyasasini tahlil qilib, ularning o‘xshash hamda farqli jihatlarini ko‘rib chiqamiz.

In English grammar, Phraseology - is a branch of linguistics which studies different types of set expressions, which like words name various objects and phenomena. They exist in the language as ready - made units.

Frazema - til qurilishining lug‘at bosqichiga mansub ikkinchi lisoniy birlik bo‘lib, bittadan ortiq leksemaning o‘zaro semantik va sintaktik birlashuvi bilan tarkib topgan bo‘ladi, shunga ko‘ra tuzma segment birlik deyiladi;² sintaktik tuzilishi jihatidan birikmaga, gap shakliga teng bo‘lib, odatda nominativ va signifikativ vazifa bajaradi, lekin leksemadan ifoda jihati bilangina emas, mazmun - mohiyati bilan ham farq qiladi. Adabiyotlarda ushbu til birligi frazeologizm, frazeologik birlik kabi terminlar bilan ataladi. Frazemalar o‘rganiladigan soha esa frazeologiya yoki frazemika deb nomlanadi. Lisoniy birlik sifatida frazema ikki jihatning - ifoda jihatining va mazmun jihatining bir butunligidan iborat. Frazemalarning ifoda jihati deb, ularning asli qanday lisoniy birliklardan tarkib topgani tushuniladi. Frazema ikki va undan ortiq leksemaning o‘zaro semantik-sintaktik bog‘lanib, umumlashma ko‘chma ma‘no kashf etishi bilan yuzaga keladi. Frazemada birikmaning, gap - shaklning ma‘lum bir qolipi doimiy tarkibiy qism sifatida leksemalar va morfemalar bilan to‘ldirilgan bo‘ladi.

Phraseological unit - can be defined as a non-motivated word-group that can not be freely made up in speech, but is reproduced as a ready - made unit. It is a group of words whose meaning can not be deduced by examining the meaning of the constituent lexemes. Idioms can be a powerful linguistic toolq only when they are used in the right way places. Quyida biz o‘zbek hamda ingliz tillaridagi bir qancha iboralarning o‘zaro moslashuvini ko‘rib chiqamiz hamda ularning izohlari va misollarini berib o‘tamiz.

- better late than never - hechdan ko‘ra kech yaxshi

² “Hozirgi adabiy o‘zbek tili”. Shavkat Rahmatullayev. “Universitet” nashriyoti. Toshkent. 2006. 416 - bet.



DEFINITION: it's preferable for something to happen or be done belatedly than not at all.³

EXAMPLE:

– Anne: “Sorry I was late for the meeting today, I got stuck in traffic.”

– Tom: “That's okay, better late than never.”

• that's the last straw – sabr-kosasi to'lmoq

DEFINITION: my patience has run out.

EXAMPLE: My friend has been unhappy with me for a long time but when I crashed her car, it was the last straw.

• kill two birds with one stone – bir o'q bilan ikki quyovni urmoq

DEFINITION: get two things done with a single action.

EXAMPLE: Jackie can kill two birds with one stone by bearing in mind new vocabulary while walking on the road.

• a picture is worth 1000 words – ming marta eshitgandan bir marta ko'rgan afzal

DEFINITION: better to show than tell.

EXAMPLE: when Lucy boasted by telling about her new car a lot, I wanted to say that “A picture is worth 1000 words”.

• birds of a feather flock together – ko'r-ko'rni qorong'ida topadi

DEFINITION: people who are alike are often friends.

EXAMPLE: Sarah and Emily are always seen together, they are both into fashion and shopping. Thus, I think that Birds of a feather flock together.

• comparing apples to oranges – yer bilan osmoncha

DEFINITION: comparing two things that can't be compared.

EXAMPLE: I can't believe Tom married Chandler, it's like comparing apples with oranges as they are so different from each other.

• kick against the pricks - bukrini go'r to'g'irlaydi

DEFINITION: hurt yourself by persisting in useless resistance or protest.

³ “Oxford dictionary of idioms”. John Ayto. Oxford University Press. United Kingdom. 2020. 327 - page.



EXAMPLE: He refused to accept help and kept trying on his own, but in the end, he was just kicking against the pricks.

- don't count your chickens before they hatch – podadan oldin chang chiqarmoq

DEFINITION: don't count on something good happening until it's happening.

EXAMPLE: She wanted to take a high score from IELTS in case someone asked her about IELTS score, but I told her not to count her chickens before they hatched.

- every cloud has a silver lining – o'ying o'n beshi yorug', o'n beshi qorong'i

DEFINITION: good things come after bad things.

EXAMPLE: Despite failing in chess competition, she has improved her mental health and gained more experience – so every cloud has a silver lining.

- he's a chip off the old block – olmaning tagiga olma tushadi

DEFINITION: the son is like the father.

EXAMPLE: Mark just won the same sailboat race look like his father won twenty years ago and he's a chip off the old block.

- it's a piece of cake - xamirdan qil sug'urganday oson

DEFINITION: it's easy

EXAMPLE: If you get used to do regularly more listening or reading practise, taking a high IELTS score is as a piece of cake for you.

- a storm in a teacup - pashshadan fil yasamoq

DEFINITION: a big fuss about a small problem.

EXAMPLE: When I smashed a white mug in the kitchen, my sister worried about it as a storm in a teacup.

- bolt from the blue - ikki dunyoda ham tushiga kirmagan

DEFINITION: something that happened without warning

EXAMPLE: The prime minister's resignation was a bolt from the blue for all population.

- on top of the world - og'zi qulog'ida / do'ppisi osmonda

DEFINITION: a state of extreme happiness.



EXAMPLE: She was feeling on top of the world after winning the tennis tournament.

Albatta, ikki tilda ham yuqoridagi kabi o‘zaro bir xil ma’noga ega iboralar yetarlicha. Biroq bunga zid ravishda tilning mahalliy sharoiti, leksik xilma-xilligiga ko‘ra turli ma’no - mazmunga ega bo‘lgan frazemalar ham yo‘q emas. Binobarin, hozirgi kunda onlayn tarjima botlari yoxud sun’iy intellekt tarjimonlari bir tildagi iboralarni boshqa bir tilga xato mazmunda tarjima qilishi ko‘p kuzatilmoqda. Misol uchun, har qanday onlayn tarjima sayti "when the big fly" iborasini "cho‘chqa uchganda" deya ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilishi ayon. Vaholanki, bu iboraning ma’nosi "hech qachon sodir bo‘lmaydigan voqea - hodisa" ni bildiradi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlab o‘tish joizki, ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlar har ikki xalqning madaniyati, urf-odati va tafakkuri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan til boyligidir. Ular orqali nafaqat tilning obrazlilik va ta’sirchanligi oshadi, balki xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi ham namoyon bo‘ladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ingliz va o‘zbek frazeologizmlari o‘ziga xos milliy xususiyatlarga ega bo‘lishi bilan birga ba’zan umumiy mazmuni va tuzilishga ega bo‘lgan o‘xshash birliklarni o‘z ichiga oladi. Frazeologik birliklarni o‘rganish til o‘rganuvchilarga nafaqat tilni chuqurroq tushunishga, balki madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Shu boisdan frazeologizmlarni taqqoslab o‘rganish tilshunoslikda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Oxford dictionary of idioms”. John Ayto. Oxford University Press. United Kingdom. 2020.
2. “Hozirgi adabiy o‘zbek tili”. Shavkat Rahmatullayev. “Universitet” nashriyoti. Toshkent. 2006.
3. “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati”. SH. Rahmatullayev, N. Mahmudov, Z. Xolmanova, I. O‘razova, K. Rixsiyeva. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent. 2022.
4. <http://www.phraseonet.com/en/phraseological-units>
5. “Practical English Usage”. Michael Swan. Oxford University Press. UK. 2016.



BOLALAR ADABIYOTINI TARJIMA QILISH: TARJIMA NAZARIYASINING AMALIIY QO‘LLANILISHI

Ahatova Dilshoda Bahodir qizi

Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Instituti talabasi

Email: ahadovbexrur@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola bolalar adabiyotini tarjima qilish jarayonida fundamental tarjima nazariyalarining amaliy qo‘llanilishini chuqur tahlil qiladi. Bolalar uchun mo‘ljallangan asarlarning lingvistik, kognitiv va emotsional xususiyatlari ularni tarjima qilishda alohida yondashuvlarni talab etishi, tarjimon zimmasiga nafaqat tilshunos, balki madaniy va pedagogik vositachi vazifasini yuklashi ko‘rsatib beriladi. Roald Dahl asarlari kabi xalqaro miqyosda e‘tirof etilgan namunalar va inglizcha-o‘zbekcha tarjima amaliyotidan misollar keltirilib, nazariy qarashlarning amaliy yechimlarga ta’siri yoritiladi.

Kalit so‘zlar: bolalar adabiyoti, tarjima nazariyasi, Skopos nazariyasi, Dinamik ekvivalentlik, Mahalliyashtirish, Chetlashtirish, Dolzarblik nazariyasi, madaniy moslashtirish, kognitiv rivojlanish, tarjimon mas’uliyati, Roald Dahl.

Bolalar adabiyoti – yosh avlodning shaxsiyatini shakllantiruvchi, ularning dunyoqarashini kengaytiruvchi va ma’naviy olamini boyituvchi bebaho manbadir. Bu turdagi adabiyot nafaqat til ko‘nikmalarini rivojlantirish yoki adabiy janrlar bilan tanishtirish vositasi, balki bolalarga axloqiy qadriyatlarni singdirish, hissiy intellektni o‘stirish va ijodiy tasavvurni parvoz qildirishda muhim rol o‘ynaydi.

Bolalar uchun yozilgan asarlar o‘zining sodda, ammo jozibador tili, qiziqarli syujet chiziqlari, yorqin va esda qolarli obrazlari hamda ko‘pincha matnni to‘ldiruvchi rang-barang illustratsiyalari bilan ajralib turadi.

Bunday o‘ziga xos xususiyatlarga ega asarlarni bir tildan ikkinchi tilga o‘girish – shunchaki lingvistik transformatsiya emas, balki ko‘p qirrali va o‘ta mas’uliyatli ijodiy jarayondir. Ritta Oittinen ta’kidlaganidek, bolalar uchun tarjima qilayotgan shaxs “nafaqat ikki tilni, balki ikki madaniyatni va eng muhimi, bolalik dunyosini tushunishi kerak” [4, 15b.]. Tarjimon original asarning badiiy go‘zalligini, ma’no qatlamlarini va eng asosiysi, uning yosh kitobxonga yetkazmoqchi bo‘lgan hissiy va tarbiyaviy yukini saqlab qolgan holda, eng mos va ta’sirchan lingvistik yechimlarni



topa bilishi zarur. Bu murakkab vazifani muvaffaqiyatli uddalashda tarjimonlar zamonaviy tarjimashunoslikning fundamental nazariyalariga va ishlab chiqilgan samarali strategiyalarga tayanadilar. Ushbu nazariyalar tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal qilishda, matnning qaysi jihatiga – so‘zma-so‘z aniqlikka, hissiy ta’sirga, kommunikativ maqsadga yoki madaniy moslashuvga – ustuvorlik berishni aniqlashda konseptual dastak bo‘lib xizmat qiladi.

Bolalar kitoblarini tarjima qilishda tarjimon qarorlariga yo‘nalish beruvchi bir nechta muhim nazariy yondashuvlar mavjud bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos jihatlarga e’tibor qaratadi:

Tarjimashunoslikda funksional yondashuvning yorqin namunasi bo‘lgan Skopos nazariyasi (yunoncha “skopos” – maqsad, niyat) tarjimaning asosiy mezonini uning maqsadi yoki vazifasi deb belgilaydi [1]. Unga ko‘ra, har qanday tarjima muayyan bir maqsad uchun va muayyan bir auditoriyaga mo‘ljallab amalga oshiriladi. Bolalar adabiyoti tarjimasida bu nazariya ayniqsa dolzarbdir. Agar original asarning maqsadi bolani kuldirish, unga hayotiy saboq berish, yangi bilimlar ulashish yoki shunchaki zavq bag‘ishlash bo‘lsa, tarjimon tarjima matnini aynan shu maqsadga erishishga yo‘naltirishi lozim. Masalan, ingliz tilidagi bolalar she’rida ma’lum bir ritm va qofiya orqali o‘ynoqi kayfiyat yaratilgan bo‘lsa, o‘zbek tiliga tarjimada ham aynan shu o‘ynoqi kayfiyatni va ritmni qayta yaratish maqsad qilib qo‘yiladi, buning uchun so‘zma-so‘z tarjimadan voz kechilib, o‘zbek tilining imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda yangi qofiyalar va so‘z birikmalari topilishi mumkin. Vermeerning fikricha, “tarjima harakati o‘zining maqsadi (Skopos) bilan belgilanadi” [1, 221b.], bu esa tarjimonning ijodiy erkinligiga va mas’uliyatiga alohida urg‘u beradi.

Asosan Injil tarjimalari kontekstida ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, Eugene Nidaning dinamik (yoki funksional) ekvivalentlik konsepsiyasi bolalar adabiyoti tarjimasida uchun ham katta ahamiyatga ega [2]. Ushbu yondashuvga ko‘ra, tarjimaning asosiy vazifasi original matn o‘zining dastlabki o‘quvchisida qanday ta’sir, hissiyot va reaksiya uyg‘otgan bo‘lsa, tarjima matni ham yangi til va madaniyatdagi o‘quvchida shunga imkon qadar yaqin yoki teng kuchli ta’sirni



yuzaga keltirishdir. Ya’ni, gap so‘zlarning formal mosligi haqida emas, balki ular yaratadigan effektning mosligi haqida boradi. Nida “formal ekvivalentlik” va “dinamik ekvivalentlik” ni farqlab, ikkinchisi “qabul qiluvchining reaksiyasi asl nusxadagi qabul qiluvchining reaksiyasiga mohiyatan o‘xshash bo‘lishini” ta’minlashga qaratilganini ta’kidlaydi [2, 159b.]. Bu, ayniqsa, bolalarning hissiy idroki kuchli bo‘lganligi sababli muhimdir.

Ironiyani tarjima qilish nafaqat ma'noni etkazishda aniqlikni, balki o‘rganilayotgan tilning madaniy va stilistik xususiyatlarini ham hisobga olishni talab qiladi. Ironiyani qoraqalpoq tiliga tarjima qilishning asosiy muammolari: Til tuzilmalaridagi farqlar. Ingliz tilida so‘zlarning inversiyasi yoki ko‘p ma’nohiligi



tufayli gaplar noaniq bo‘lishi mumkin, qoraqalpoq tilida esa bunday polisemiya kamroq uchraydi.

Madaniy farqlar. Ingliz ironiyasining ba'zi shakllari o‘zbek yoki qoraqalpoq o‘quvchisi uchun tushunarsiz bo‘lishi mumkin, chunki hazil va satirik ishoralar ko‘pincha tarixiy va ijtimoiy kontekstga bog‘liq.

Intonatsiyani yetkazishning murakkabligi. Ingliz ironiyasi ko‘pincha yozma tarjimada ifodalash qiyin bo‘lgan intonatsiya yoki kontekstga asoslanadi.

Tarjimada ironiyani etkazish uchun bir nechta strategiyalar mavjud: Moslashtirish orqali ironiya effektini saqlab qolish. Ayrim hollarda tarjimon istehzoli ohangni saqlab qolgan holda qoraqalpoq yoki o‘zbek tilida ham shunga o‘xshash iborani qo‘llashi mumkin. Ayrim hollarda tarjimon istehzoli ohangni saqlab qolgan holda qoraqalpoq tilida ham shunga o‘xshash iborani qo‘llashi mumkin. Misol uchun, Mark Tvenning "Tom Soyerning sarguzashtlari" romanidagi ibora: "Tom was not the model boy of the village. He knew the model boy very well though—and loathed him." So‘zma-so‘z tarjimasi: "Tom namunali qishloq bolasi emas edi. Biroq, u namunali bolani yaxshi bilar edi - va u undan nafratlanardi. "O‘zbek yoki qoraqalpoq tillarida ham shunga o‘xshash istehzoni moslashtirilgan ibora orqali berish mumkin: "Tom qishloqning ibratli bolasi emas edi. Axir u shunday bolani yaxshi bilardi — hattoki, undan jirkanardi". Nima uchun bu variant ironiyani kuchaytiradi? "Axir" ning qo‘shilishi Tomning namunali bolani hurmat qilishi kerakligi, aksincha uni juda yomon ko‘rganini ta'kidlaydi. "Xattoki, undan jirkanardi" dan foydalanish uning reaksiyasini yanada hissiy qiladi, umidlar va haqiqat o‘rtasidagi istehzoli kontrastni ta'kidlaydi. Bu versiya asl nusxadagi istehzoli ohangni saqlab qolgan, ammo o‘zbekzabon o‘quvchiga ironiyani yanada yaqqolroq qilib ko‘rsatadi. Bu erda jamiyatning umidlari va qahramonning haqiqiy munosabati o‘rtasida istehzoli kontrast mavjud.

Yana bir misolni "Andisha va g‘urur" romanidan keltirish mumkin: "For what do we live, but to make sport for our neighbors, and laugh at them in our turn?" O‘zbek tiliga mumkin bo‘lgan tarjimasi: "Axir biz qo‘shnilarimizni qullash va o‘z harakatlariga kulish uchun yashamaymizmi?" Bu esa odamlarning bir-birini



masxara qilayotgani haqidagi fikrni bildiradi, bu esa asl iboraning satirik ohangini ta'kidlaydi. Bu ibora hayotga kinoyali qarashlari bilan tanilgan janob Bennetga tegishli. Bu yerda u yuqori jamiyatni masxara qiladi, u yerda odamlar bir-birini g'iybat qilib, orqasidan masxara qilishadi. «to make sport for our neighbors» (tom ma'noda "qo'shnilar uchun kulgi bo'lish) iborasi hayotning asl maqsadiga o'xshaydi, lekin aslida janob Bennet buni istehzo bilan aytadi. Ajablanarlisi shundaki, u bu jarayonni inson mavjudligining markaziga qo'yadi, aslida u bu ahmoqona, ammo jamiyatning ajralmas qismi ekanligini nazarda tutadi. Effekt kuchaytirilgan holda o'zbek tiliga qanday tarjima qilinadi?

Variantlardan biri: “Axir biz qo'shnilarimizning ermagiga aylanib, keyin esa o'zimiz ulardan kulish uchun yashamaymizmi?” Nima uchun bu tarjima kinoyani kuchaytiradi? “Ermagiga aylanib” “o'yinchoq bo'lmoq” degan ma'noni anglatadi, bu esa ironiyani yanada ifodali qiladi. “Keyin esa o'zimiz ulardan kulish” – bu o'zaro masxara jarayoni ekanligini, yanada aniqroq satira yaratishini ta'kidlaydi. Bu variant istehzoni o'zbekzabon o'quvchi uchun yanada sezilarli va tushunarli qiladi.

Tushuntiruvchi tarjimadan foydalanish. Madaniy farqlar tufayli istehzo yo'qolsa, tarjimon matn yoki izohlarda qo'shimcha tushuntirishlar berishi mumkin. Misolni “Andisha va g'urur” romanidan keltirib o'tsak: “She is tolerable; but not handsome enough to tempt me.” (3-bob, janob Darsi Elizabet Bennet haqida). Tushuntirish: Darsi buni barcha qizlar uning kelganidan hayajonlangan bir paytda aytadi. Ajablanarlisi shundaki, u keyinchalik o'zi "bardoshli, ammo go'zal emas" deb atagan qizni sevib qoladi. O'zbek tiliga mumkin bo'lgan izohli tarjimasi: “U chidasa bo'ladi, lekin meni o'ziga jalb qilish darajada chiroyli emas,” - dedi u, go'yoki hech qachon bu qizga oshiq bo'lmagandek. (Keyin esa aynan shu qizga oshiq bo'ladi.) Bu yerda o'quvchi istehzoli qarama-qarshilikni ushlashi uchun qavs ichida yoki qatorlararo tarjima orqali ishora qo'shiladi.

Yana bir misolni Oskar Uayldning asaridan keltirish mumkin: “I can resist everything except temptation.” (Lord Genri Uottonning jumlasini). Tushuntirish: Bu klassik paradoks va istehzo - qahramon vasvasadan tashqari hamma narsaga qarshi tura olishini aytadi, bu aslida u umuman qarshilik qila olmasligini anglatadi.



Qoraqalpoq yoki o‘zbek tiliga tushuntirish bilan mumkin bo‘lgan tarjima: “Men vasvasalardan tashqari hamma narsaga bardosh bera olaman” - dedi u kulib. (Ya'ni, hech narsaga chiday olmaydi.)

Ironiyani boshqa ifoda vositasi bilan almashtirish. Ba'zan ironiya o‘rniga xuddi shu fikrni bildira oladigan boshqa stilistik vosita qo‘llaniladi, ammo umumiy ma'no yoki kayfiyatni istehzo, giperbola yoki maqsadli auditoriyaga tushunarliroq hazil orqali etkazish usullaridan biridir. Misolni Oskar Uayldning “Jiddiy bo‘lish qanday muhim” asaridan olingan “The truth is rarely pure and never simple” jumlasini. Bu haqiqat odatda sof va oddiy narsa deb hisoblanishiga asoslangan istehzoli bayonotdir. Uayld esa buning aksini ta’kidlab, jamiyatning ma’naviy ko‘rsatmalarini istehzo bilan buzib ko‘rsatadi. Mumkin bo‘lgan so‘zma-so‘z tarjima: "Haqiqat kamdan kam hollarda sof va aslo oddiy bo‘lmaydi." - Strukturani saqlab qoladi, ammo "sof va oddiy haqiqat" degan barqaror ibora bo‘lmagan madaniyatda kinoya unchalik aniq bo‘lmasligi mumkin. Kinoyani boshqa vosita bilan almashtirish (o‘zbekcha moslashtirilgan tarjima): "Rost gap – tuqqaningga yoqmaydi". Bu yerda haqiqatparvarlik ustidan kulishni ifodalash uchun idiomatik ibora qo‘llanilgan - to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki mahalliy o‘quvchiga tushunarliroq bo‘lgan kinoyali metafora orqali.

Ironiyani tarjima qilish tarjimondan nafaqat tillarni bilishni, balki muallif madaniyati va adabiy uslubini chuqur anglashni ham talab qiladigan murakkab vazifadir. Klassik ingliz adabiyotida, ayniqsa, Jeyn Ostin asarlarida istehzo g‘oya va xarakteristikani etkazishda muhim o‘rin tutadi. O‘zbek va qoraqalpoq tiliga tarjima qilishda asarning o‘ziga xos uslubi va muhitini saqlab qolish uchun so‘z birikmalarining nafaqat to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’nosini, balki tagmatnini ham hisobga olish zarur. Shunday qilib, ironiyaning muvaffaqiyatli tarjimasini shunchaki so‘zlarni uzatish emas, balki muallifning ma'nosi va his-tuyg‘ularini boshqa tilda etkazish san'atidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jane Austen. *Pride and Prejudice*. Москва: Юпитер-Интер, 2006.
2. Oscar Wilde. *The picture of Dorian Gray*.



3. Oscar Wilde. The Importance of Being Earnest and Other Plays
4. Saodat Sultonsaidova va boshqalar – O‘zbek tili stilistikasi. O‘quv qo‘llanma Toshkent – 2009. - 110 b.
5. Ibragimova E. O‘zbek tilida ironiya va ironik mazmun ifodalanishining usul hamda vositalari. – Toshkent, NDA., 2001

CULTURAL MEDIATION THROUGH TRANSLATION: A MODERN PERSPECTIVE

Sunatillayeva E‘zoza Ma‘ruf qizi

O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali Filologiya va tillarni o‘qitish:
ingliz tili ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha 1-bosqich talabasi
ezozasunatillayeva@gmail.com

Annotation. The article discusses the translation process, its types, and its role in today’s society. It highlights the importance of cultural knowledge and creativity in translation. Literary and industrial translations are compared, along with their practical issues. The impact of artificial intelligence on translation is also examined.

Keywords: translation environment, artificial intelligence, translation theory, culture, traditional translation

In today’s interconnected world, the comprehensive development of societies is strongly tied to the global exchange of ideas, experiences, and information. This ongoing process of globalization has significantly heightened the importance of foreign language learning. As individuals and nations strive to gain access to international research, cultural heritage, economic data, and current affairs, they increasingly recognize that accessing specific information and news is more accurate and effective when consulting primary sources in their original language. In this context, proficiency in foreign languages becomes not only an academic advantage but a necessity for active participation in the global dialogue.

However, it is a known fact that not every individual has the time, resources, or opportunity to master one or more foreign languages. This is where the indispensable role of translators becomes evident. Translation functions as a crucial bridge that connects people of different linguistic and cultural backgrounds. Through



translation, humanity has been able to preserve knowledge, promote literature, and ensure cross-cultural communication throughout history.

Translation, by its very nature, is a highly intellectual and creative process. A translator is not simply someone who converts words from one language to another; rather, they are often referred to as cultural mediators or even artists. This is because translation demands a deep understanding of the source and target cultures, including their history, customs, idioms, values, and worldview. The translator must interpret the message not only linguistically but contextually, ensuring that the essence, style, and emotional undertones are preserved.

According to Daniel Katan, culture can be described as a general model of the world—a hierarchical system of values, beliefs, and behavioral strategies that guide human interaction and perception. Based on this definition, it becomes clear that translation is not possible without a strong grasp of the cultural framework in which both the original and target texts operate. This highlights the growing interdependence between linguistics, translation, and cultural studies.

The significance of translation has long been recognized by linguists and literary critics alike. A notable moment in the history of translation studies occurred in 1952 with the publication of two pivotal articles: “Unreliable Principles and Ambiguous Conclusions” by translator I. Kashkin, and “Linguistic Issues in Translation” by linguist A.A. Reformatzky, both published in the Russian journal *Иностранные языки в школе* (“Foreign Languages at School”). These works ignited intellectual debates about the nature and standards of translation, thus laying foundational ideas for modern translation theory.

Throughout history, various scholars and practitioners have proposed guiding principles for effective translation. Among them is the French poet and translator Étienne Dolet (1509–1546), who outlined five essential rules for any translator:

Fully understand the meaning and intention of the original author.

Possess mastery of both the source and the target languages.

Avoid literal, word-for-word translations.

Use naturally accepted expressions in the target language.



Select appropriate vocabulary to maintain the style and essence of the original text.

These principles are still relevant today and serve as a benchmark for translation quality. However, as translation studies has developed, scholars have also paid attention to the broader theoretical aspects, such as equivalence, adaptation, domestication, foreignization, and dynamic equivalence.

The Role of Nuance and Context in Translation

In real-life communication, a significant challenge that translators face is the interpretation of subtle language nuances, intonations, and implied meanings. For instance, the English phrase “I don’t know” may appear straightforward, but depending on tone and context, it can express confusion, hesitation, indifference, or even passive resistance. Successfully conveying such layers of meaning into another language is a demanding task that requires not only linguistic competence but also emotional intelligence.

Moreover, translators often grapple with region-specific terminology or culturally loaded expressions that lack direct equivalents in other languages. Words such as *shoti*, *obdasta*, *sandal*, and *jiyak*—which are rich in cultural significance—are difficult to translate literally. In these instances, translators must rely on descriptive strategies or find culturally analogous terms, all while preserving the original context and impact.

The Impact of Technology on the Translation Industry

In today’s digital age, rapid advancements in artificial intelligence, machine learning, and natural language processing have transformed the landscape of translation. Machine translation tools such as Google Translate, DeepL, and ChatGPT are capable of delivering translations at unprecedented speed and convenience. These technologies offer several advantages: instant access to multilingual information, error detection, and improved accessibility for users worldwide.

Technical or industrial translators, in particular, benefit greatly from such tools when dealing with repetitive or formulaic documents such as manuals, user guides,



or official instructions. Machine translation can significantly reduce their workload and increase efficiency.

Nevertheless, it is crucial to recognize the limitations of machines. While artificial intelligence may process vocabulary and syntax flawlessly, it often fails to capture idiomatic expressions, humor, irony, cultural references, and emotional undertones—elements that are integral to human communication. As a result, human translators remain irreplaceable, especially in areas such as diplomacy, literature, journalism, and academia, where precision and nuance are paramount.

Imagine meeting a prominent foreign guest and trying to leave a meaningful impression. A cold, mechanical translation might fulfill the communicative purpose, but it is unlikely to create a lasting connection. In contrast, using the guest’s native language not only breaks the ice but also builds emotional rapport and cultural respect. These human elements are beyond the reach of machines.

Types of Translation and Their Requirements

Translation can be broadly categorized into literary and industrial (or technical) translation, each with its unique objectives and challenges.

Literary Translation focuses on novels, poems, plays, and other artistic texts. It allows a degree of creative freedom, as the translator must convey not only the content but also the artistic style, voice, rhythm, and tone of the author. Literary translators must be skilled writers themselves, capable of evoking the same emotional responses in the target audience as the original work.

Industrial Translation, on the other hand, deals with legal documents, medical records, patents, user manuals, and business contracts. It prioritizes accuracy, consistency, and technical knowledge. In this field, there is little room for creativity. Precision is key, as even minor errors can lead to serious consequences in legal or medical contexts.

Common Practical Challenges in Translation

In Literary Translation:

Cultural alignment: Adapting idioms and customs while preserving cultural identity.



Authorial voice: Maintaining the tone and narrative style of the writer.

Poetry translation: Reproducing rhythm, meter, and imagery in another language.

In Industrial Translation:

Terminological consistency: Ensuring uniformity across technical terms and documents.

Contextual accuracy: Understanding the subject matter to avoid misleading information.

Efficiency: Balancing speed with accuracy under tight deadlines.

In Conclusion, translation is more than a linguistic task—it is a sophisticated art and science that plays a critical role in global communication, education, and cooperation. Whether in the form of literary masterpieces or industrial documentation, translation helps break down language barriers and build bridges between cultures. Despite the growing influence of technology in the translation field, the human touch remains irreplaceable. Professional translators are not just bilingual individuals—they are cultural ambassadors, critical thinkers, and storytellers. To excel in this profession, one must combine linguistic expertise with cultural sensitivity, technical knowledge, and continuous self-development. In short, the future of translation lies in the harmonious collaboration between human intellect and artificial intelligence. By embracing both tradition and innovation, translators can continue to serve as the invisible yet powerful force that unites our diverse world.

REFERENCES

1. Sunatillayeva E.M. "THE PURPOSES AND TASKS OF TRANSLATION AND ITS PROBLEMS" Spanish international scientific online conference PROSPECTS AND MAIN TRENDS IN MODERN SCIENCE
2. Ma'ripov J. K. A BRIEF INFORMATION ABOUT TENSES
3. //O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA. – C. 464.
4. Tolibovna A. K. Et al. Features Of Anthropocentric Study Of Sacred Texts
5. //Open Access Repository. – 2022. – T. 8. – №. 1. – C. 5-10.



6. 4.Ma'ripov J. Antroposentrizm–tilshunoslikning zamonaviy yonalishi sifatida //ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА. – 2022. – Т. 1. – №. 28. – С. 62-68.
7. M.Sh.Omonova Tarjima nazariyasi va amaliyoti O'quv qo'llanma.Toshkent-2023
8. [Duolingo - bu ingliz tilini o'rganish uchun dastur. DUOLINGO - onlayn til o'rganish dasturi](#)

LINGUISTIC AND CULTURAL DIMENSIONS OF GENDER IN ENGLISH AND UZBEK DANCE TERMINOLOGY

Khudoyberdieva Oyjamol Muzaffarovna

Teacher of Termez state pedagogical institute

teacheroyjamol@gmail.com

Annotation. This study explores the interplay between gender and dance terminology in English and Uzbek languages, focusing on how linguistic and cultural factors shape the representation of gender in dance. By examining the semantic, morphological, and sociocultural dimensions of dance-related terms, the paper highlights how gender roles and expectations are reflected and reinforced through language. The findings underscore the importance of cultural context in understanding the gendered aspects of dance terminology.

Key words: dance, gender, male dancer, female dancer, dance terminology.

Introduction

Dance, as a universal form of cultural expression, embodies societal norms, values, and identities, including those related to gender. Dance terminology, therefore, serves as a linguistic reflection of the gender dynamics within a culture. This paper examines how English and Uzbek dance terminologies encode gender-specific connotations and roles, highlighting the differences and similarities shaped by their unique cultural contexts.

Dance, as a multidimensional art form, represents a purposeful and intentional expression of human movement. It is characterized by rhythmical patterns, cultural significance, and nonverbal communication. Through the medium of time and space, dance embodies effort and precision, with each genre adhering to its own established



criteria for excellence. At its core, dance conveys profound meanings, relying on the interplay of spatial arrangements, touch, proximity, nudity, stillness, and carefully orchestrated body postures and movements.

For the purposes of this article, gender is understood as a cultural construct encompassing meanings, symbols, and norms that shape notions of “masculinities” and “femininities”⁴ (Scott, 1995; Butler, 2010; Louro, 2007). As such, gender differs from “sex,” which, in natural sciences, refers to the biological distinctions between men and women. Instead, gender pertains to socio-cultural differences (Scott, 1995; Louro, 2007). This concept challenges the idea of biological determinism inherent in the terms “sex” and “sexual difference” (Scott, 1995, p. 72).

According to Butler (2010), gender does not stem from an intrinsic essence of men and women; rather, it is a result of repeated behaviors aligned with social and cultural norms. In this sense, gender is a performative construct that reinforces these norms. Furthermore, these norms sustain a binary framework in society that relies on a “fallogocentric” cultural logic, establishing a hierarchical opposition between “masculinity” and “femininity.”⁵

Dance transcends spoken language by using the body as a vehicle for storytelling and emotional expression. It captures the nuances of human experience, evoking responses that words often cannot achieve. Space becomes a canvas where dancers communicate relationships, emotions, and intentions. The distance or closeness between performers, their interactions with the audience, and their engagement with the performance area play pivotal roles in shaping the narrative.

Touch is another powerful tool in dance, serving as a symbol of connection, intimacy, or even conflict. For instance, in classical ballet, touch often depicts the delicate dynamics of love and tenderness. Proximity, whether intimate or distant, reveals unspoken stories. Specific movements, such as a gentle caress or an assertive push, highlight the range of emotions conveyed without uttering a single word.

⁴ SCOTT, Joan (1995). Gênero: Uma categoria útil de análise histórica. Educação e Realidade, Porto Alegre, UFRGS, v.20, n.2, p.71-79.

⁵ BUTLER, Judith (2001). Problemas de gênero: feminismo e subversão da identidade. Rio de Janeiro: Civilização Brasileira.



The use of the body in dance varies significantly across genres, with each style incorporating unique techniques and aesthetics. In ballet, movements such as an arched back, an extended arm, or a deliberate pointe create a visual language that conveys elegance and drama. Consider the iconic portrayals of Romeo and Juliet, where the minimal draping of the dancers' costumes underscores vulnerability and raw emotion. Love is expressed through tender gestures: hands barely touching, a face being gently stroked, or two bodies collapsing into an embrace. Such movements carry deep emotional resonance, bringing Shakespeare's timeless story to life in ways that dialogue alone cannot.

Contrastingly, in modern and contemporary dance, love might be expressed through more abstract or grounded movements. These genres often push boundaries, using angular postures, sudden stillness, or unpredictable rhythms to depict complex emotional states. Meanwhile, genres such as ballroom or Latin dance emphasize connection through partnered movements. The closeness of bodies, combined with intricate footwork and synchronized rhythms, showcases passion, unity, and collaboration.

Cultural norms heavily influence how dance genres express themes like love, conflict, or celebration. In some traditions, the expression of love might involve explicit gestures or movements that are bold and uninhibited, reflecting societal openness towards physicality. For example, in flamenco, dancers use dramatic arm movements, sharp foot stomps, and intense eye contact to portray fiery passion. Similarly, in certain African or Polynesian dance traditions, movements of the hips and torso convey themes of fertility and sensuality, often accompanied by vibrant rhythms that evoke communal celebration.

Conversely, dances from cultures with more conservative values may embody love and other emotions through subtle gestures. In traditional Japanese Noh theater, performers use controlled movements and minimal gestures to convey deep meaning, emphasizing restraint and elegance.

Choreographers play a critical role in shaping how emotions and themes are depicted in dance. Through innovative use of space, time, and dynamics, they craft



performances that resonate deeply with audiences. For example, in a ballet like *Romeo and Juliet*, Juliet's disdain for Paris is communicated through her body language. Her upright posture and cool gaze convey defiance, while her rising onto pointe and brisk movements away from Paris reflect her inner turmoil and desire for freedom. Such choreographic choices allow dancers to inhabit characters fully, bringing depth to their performances.

In contrast, more explicit dance genres, such as some forms of modern and experimental dance, might explore love and sexuality through provocative or unorthodox choreography. These genres challenge conventional norms, using bold movements and unconventional staging to provoke thought and evoke visceral responses from the audience.

Despite their diversity, all dance genres share a common thread: the ability to connect people through movement. Whether through the grace of ballet, the rhythm of salsa, or the storytelling of folk dances, the universal language of dance unites audiences and performers alike. It captures the complexity of human relationships, portraying love, conflict, joy, and sorrow in ways that transcend cultural and linguistic barriers.

Gender in language manifests through a variety of linguistic mechanisms, including lexical choices, semantic connotations, grammatical structures, and cultural expressions. These mechanisms reflect and reinforce societal perceptions of gender roles, particularly in fields such as dance, where movement and expression often carry strong cultural and symbolic meanings.

In the English language, dance terminology demonstrates a balance between gender-neutral and gendered expressions. Terms such as dancer or performer are inherently inclusive, referring to individuals regardless of their gender. These neutral terms emphasize the skill and artistry of the individual without attaching gender-specific expectations or roles.

However, alongside these neutral terms exist explicitly gendered expressions that highlight the performer's gender. For example, ballerina is used to describe a female ballet dancer, while danseur refers to a male ballet dancer. These terms are



deeply rooted in the tradition of classical ballet, where gender roles have historically dictated both the choreography and the perception of dancers. The male dancer, or danseur, is often seen as a strong and supportive partner, lifting and guiding the ballerina in their shared performance. Meanwhile, the ballerina is traditionally characterized by grace, elegance, and lightness, embodying a specific ideal of femininity.

Such gendered distinctions are not merely descriptive but carry semantic connotations that shape societal expectations of how male and female dancers should perform and behave. While modern dance genres increasingly blur these lines by encouraging gender-neutral expressions and roles, classical terminology still reflects the historical gender binaries prevalent in the art form.

In contrast to English, Uzbek dance terminology more explicitly emphasizes gender through culturally specific linguistic expressions. This is evident in phrases such as *qizlar raqsi* (girls' dance) and *yigitlar o'yini* (boys' game), which categorize dance forms based on traditional gender roles. These terms go beyond merely identifying the gender of the performer; they often signify the cultural expectations, movements, and even costumes associated with each gender. For example, *qizlar raqsi* typically involves soft, delicate, and fluid movements, symbolizing grace, modesty, and femininity. Performances in this category often feature dancers wearing traditional attire such as atlas dresses and decorative headpieces that further emphasize their feminine identity. In contrast, *yigitlar o'yini* involves bold, dynamic, and energetic movements that showcase strength, agility, and masculinity. Male dancers in this context often wear culturally specific garments that highlight their role as protectors or leaders within the community.

These gendered expressions are deeply ingrained in Uzbek cultural traditions and reflect the broader societal roles assigned to men and women. They also serve as a means of preserving cultural identity, as each gender's dance style carries historical and symbolic significance.

The differences in how English and Uzbek dance terminologies represent gender can be attributed to broader cultural and linguistic frameworks. English,



influenced by global movements toward inclusivity and gender neutrality, has increasingly adopted terms that aim to minimize gender distinctions in professional and artistic domains. This trend aligns with efforts to challenge traditional gender roles and create spaces where individuals can express themselves freely, regardless of societal expectations.

In contrast, Uzbek language and culture place a strong emphasis on preserving traditional values and gender roles, which are reflected in the terminology used to describe dance. This approach underscores the cultural importance of differentiating male and female roles in performances, often as a way of celebrating the unique qualities and contributions of each gender to the art form.

Conclusion

In summary, dance is a profound and versatile form of expression. It employs the human body to communicate meaning, relying on intentional rhythm, cultural context, and choreographic creativity. Each genre, with its distinct aesthetic, provides a lens through which audiences can experience the richness of human emotion and the universality of the human condition.

Gendered perspectives in dance terminology reveal the intricate relationship between language, culture, and identity. The comparative analysis of English and Uzbek highlights the dynamic nature of gender representation in dance, shaped by both tradition and modernity. Further research could explore how these terminologies evolve in response to global cultural exchanges.

REFERENCES

1. Crystal, D. *The Cambridge Encyclopedia of Language* / D. Crystal. – Cambridge : Cambridge University Press, 2003. – 495 p.
2. Hasanov, M. *Uzbek Dance: History and Culture* / M. Hasanov. – Tashkent : Tashkent University Press, 2020. – 210 p.
3. Jowitt, D. *Dance and Gender in Western Traditions* / D. Jowitt. – Oxford : Oxford University Press, 1988. – 280 p.
4. Karimova, L. *Lingvo-Cultural Analysis of Uzbek Dance Terminology* / L. Karimova // *Journal of Cultural Studies*. – 2019. – Vol. 12, No. 3. – P. 45–58.
5. Muzaffarovna, K. O. (2023). *The Role of Dance Terminology in Linguistics*. *Genius Repository*, 26, 83–85.



O‘ZBEK TILI IZOHLI LUG‘ATLARIGA TAVSIYA ETILADIGAN TERMINLAR SEMANTIZASIYASI

Buronova Xolida Toshtemirovna

O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali assistenti

Annotatsiya. O‘zbek tilidagi tibbiy terminlar meditsina sohasida ham tilshunoslikda ham muayyan sistemani yuzaga keltiradi. Soha vakillari va tilshunoslarni birdek qiziqtirgan terminlar masalasi semantik va ifodaviy jihatdan hamon dolzarb va muhim o‘ringa ega. Ushbu terminlarning semantik tuzilishidagi umumiy va differensial belgilarni aniqlash, ularning shakliy ifoda jihatlarini tadqiq etish va shu orqali soha taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ixcham, qulay semantik tarkibni yuzaga keltirish kabi masalalar o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: sema, semasiologiya, termin, izohli lug‘at, tibbiyot, tibbiy termin

O‘zbek tilshunosligida terminlarning semantik tavsifi va tadqiqi xususida ko‘plab ilmiy yangiliklar amalga oshirilgan. Xususan, so‘zning semantik maydoni, ifoda ko‘lami xususida S.Akobirov, A.Hojiyev, N.Mamatov, R.Doniyorov, H.Jamolxonov, O.Ramazonov, A.Madvaliyev, A.Husanov, M.Abdiyev, S.Azizov, H.Yodgorov, Z.Mirahmedova, A.Husanov⁴, I.Qo‘chqortoyev, A.Nurmonov, H.Ne‘matov, R.Rasulov, E.Begmatov, A.Sobirov, Sh.Iskandarova kabi olimlarning dissertatsiya va monografiyalarida semantik usul bilan termin hosil bo‘lishi xususida muayyan fikrlar bildirilgan. Kasb-hunar terminlarining semantik usul bilan hosil bo‘lishi haqida S.Ibrohimov, funksional-semantik maydonlarning morfemik xususiyatlari haqida T.Mirzaqulov, sintaktik sathning to‘siqsizlik kategoriyasi yuzasidan maydon nazariyasi M.Abduvaliyev tomonidan tadqiq etilgan.[1,62b.] Ushbu ishlarda so‘zlar ma‘noviy jihatdan tadqiq etilgan va ularning valentlik imkoniyatlari misollar vositasida ochib berilgan. O‘TILda va maxsus sohaviy lug‘atlarda terminlarning berilishi o‘ziga xos. Ularning ayrimlari izohtalabdir. Xususan, terminologik tizim me‘yoriga ko‘ra atamalar ot va otlashgan so‘zlar orqali taqdim etilishi lozim. Ammo lug‘atlarda yuqoridagilardan tashqari so‘z turkumlarida ham terminlar taqdim etilgan. Shuningdek, olim G‘.M.Ismailovning tadqiqotida terminlarning turli sohalarda birdek qo‘llanishi transterminlashuv



natijasidir, degan xulosa mavjud. Tadqiqotchi terminlarning transterminlashuviga sotsilogik omillar ham sabab bo'lishi mumkinligini asosladi. Olim terminologik tizim o'z-o'zidan boyib, kengayib borishi mumkinligini ta'kidlaydi. Ushbu quyidagi uch bosqich asosida amalga oshadi:

1. Oddiy so'zdan termin hosil bo'lishi: og'iz (botanika), kalit (musiqa) va h.k.
2. Terminlarning oddiy leksikaga aylanishi: telefon, vazn va b.
3. Terminologiyaning o'z hisobiga boyishi: chechak, gul va h.k. [2,8b]

Terminlarning semantik shakllanishi ko'chimlar: metafora, metanimiya, vazifadoshlik kabilarga aloqador sanaladi. Masalan, ko'richak aslida bir tomoni yopiq bo'lgan ichak qismdan iborat bo'lganligi uchun ham shunday nomlanadi. Bugungi kunda esa ushbu so'z kasallik nomi sifatida e'tirof etiladi. Ammo bu kasallik nomi, aslida, appentitsit bo'lib, u ko'richakdan chuvalchangsimon o'sib chiqqan appendiks nomidan kelib chiqqan. [3,126b] Ammo xalq orasida ushbu o'simtaning yallig'lanishi appentitsit nomi bilan keng tarqalgan. O'TILda ham shu masalga oydinlik kiritilmagan.

O'TILda berilgan miya leksemasining izohi, sohaviy lug'atdagi tavsif bilan farqlanadi. Tibbiy terminlar lug'atida miya atamasi keng qamrovli bo'lib, bosh miya, uzunchoq miya, o'rta miya, miyacha kabi bir nechta turlarga ega. Ularning izohi ham o'ziga xos bo'lib, ular bir tushuncha ostida birlashsa-da ma'noviy qirralari bilan farqlanadi:

BOSH MIYA – kalla bo'shlig'ida joylashgan markaziy nerv sitemasi a'zosi; atrof-muhit bilan organizmning reaksiya va funksiyalarda ifodalanadigan o'zaro munosabatini boshqarib turadi.

MIYACHA – ortki kalla chuquqrchasida katta miya pallasining ortki bo'lagi ostida joylashgan bosh miyaning bir bo'limi; ortki miya pufagining hosilasi; harakat koordinatsiyasi va mushaklar tonusini boshqarib turadi.

O'RTA MIYA – bosh miyaning o'rta miya pufagidan hosil bo'lgan bo'limi.

UZUNCHOQ MIYA – bosh miyaning orqa miyaga o'tib ketadigan bo'limi.

O'TILda miya leksemasiga berilgan ta'rif, aslida, tibbiy termin sifatida bosh miya leksemasiga taalluqlidir. Boisi miya leksemasi semantik va funksional jihatdan



tibbiyotda alohida ahamiyatga ega. O‘TILda esa ushbu atamaning tavsifini miya emas, balki bosh miya leksema shakli orqali taqdim etgan ma’quldir. Sohaviy lug‘atlarda terminlarning turlicha ma’noviy qirralari, shakllari berilishi tabiiy. Ammo O‘TILda shunday terminlarning ommalashgan, hamma uchun tushunarli va aloqa-munosabatda unumli shakllarini taqdim etgan ma’quldir.

A.Qosimovning “Tibbiy terminlar izohli lug‘ati”da leksemalarning tavsifi o‘ziga xos bo‘lib, ular turli shakllarda ifodalangan. Bunda tibbiy terminlar keng qamrovda ifodalangan. Ular doirasiga kasallik turlari, inson tana organlari, davolovchi vositalar, davo turlari, davolovchi sohalar, kasallikni tekshirish turlari – qaytuvchi nerv sindromi, qandli diabet, boldir suyagi, qovoq titrashi simptomi, qisqich, qumli vanna kabilarning nomlari atama sifatida berilgan. Shuningdek, o‘z va o‘zlashma qatlamga doir leksemalarning berilishi tibbiyotga doir har qanday masalaga oydinlik kiritadi. Bu sohaga aloqador bo‘lmagan inson ham ushbu lug‘atdan foydalanib, ko‘plab savollariga javob topa olishi mumkin.

O‘TILda tibbiy terminlar asosan ot so‘z turkumida ifodalangan. Masalan, o‘sma, allergen, adenoma, zond, jigar, gapatit, tanosil kabilar. Shunday terminlar ham borki, ular sifat yasovchi -ik, -li, qo‘shimchasi vositasida hosil qilingan: allergik, ammiakli, antiseptik. Terminlarning nutqiy variantlari umumiy filologik lug‘atda berilishi nome’yoriy holat sanaladi. R.Sayfullayeva, B.Mengliyev kabi olimlarning ta’kidlashicha, umumiy izohli lug‘atda lug‘aviy birlikning barcha – grammatik, uslubiy, frazeologik birlik tarkibida qatnashishi, omonimligi, qaysi tildan o‘zlashganlik belgilari ko‘rsatiladi. Demak, til va nutq farqliligi hiosbga olingan holda, umumiy lug‘atlarda nutqiy variantlarning taqdim etilishi bir qancha noqulayliklarni yuzaga keltiradi. Masalan, bu lug‘at ko‘lamining kengayishi; bir termin doirasidagi turli semantik variantlar kitobxonga chalkashliklarni yuzaga keltirishi kabilarga sabab bo‘ladi.

TOKSINLAR [yun. toxikon – zahar] biol. tib. Ba’zi mikroorganizmlar, shuningdek, ba’zi hayvon va o‘simliklar chiqaradigan zaharli moddalarning umumiy nomi.



ADENOIDLAR [aden... + yun. eidos – o‘xshash] Burun-halqum murtagining ortiqcha o‘sib kattalashishi.

ANTITANACHALAR Organizmga oqsil tabiatli modda (antigen) kiritilganda unga qarshi hosil bo‘ladigan moddalar. Jamoaviy immunitet shakllanish jarayonini monitoring qilib borish uchun antitanachalar tahlilini o‘tkazishni yo‘lga qo‘yish kerakligi ta’kidlandi. Gazetadan.

AMMIAKLI Tarkibida ammiak bo‘lgan.

ALLERGIK Allergiyaga oid, allergiya tufayli yuzaga kelgan.

ALLERGOLOGIK Allergologiyaga oid.

MIKROBLAR [mikro... + yun. bios – hayot] q. mikroorganizmlar.

MIKROELEMENTLAR [mikro + element] o‘simlik va hayvon organizmida juda kam miqdorda bo‘ladigan kimyoviy elementlar.

Ushbu so‘zlar atama sifatida berilar ekan, bizningcha, ot so‘z turkumida ifodalanishi kerak. Chunki izohli lug‘at umumiy bo‘lib, bunda termin sifatidagi tavsifining o‘zi yetarli. Ularning ham ot, ham sifat so‘z turkumlarida berilishi ixtisoslashgan lug‘atlar uchun ahamiyatli, deb hisoblaymiz. Boisi tibbiyotga aloqador maxsus lug‘atlar bilan shu sohaga aloqador shaxslar shug‘ullanishadi, bu esa nisbatan ushbu yo‘nalishdagi birliklarni to‘laroq o‘rganilishi, tadqiq etilishiga sabab bo‘ladi. O‘TILda esa faqatgina ot so‘z turkumida atamalar berilishi maqsadga muvofiq.

Masalan, quyidagi terminlarni bir nom ostida birlashtirib ifodalash mumkin. Zotan, bir semantik doiradagi turli xil ifodalar O‘TILda ixcham, lo‘nda tarzda taqdim etilishi ma’qul:

MIKROBIOLOG Mikrobiologiya olimi, mutaxassisi.

MIKROBIOLOGIK Mikrobiologiyaga oid.

MIKROBIOLOGIYA [mikro... + biologiya] Mikroorganizmlarning tuzilishi, biologiyasi, fiziologiyasi, biokimyosi, sistematikasi, genetikasini, ularning odamning hayoti, jonli va jonsiz tabiatdagi mohiyatini o‘rganadigan hamda mikroorganizmlar hayot faoliyatini boshqarish usullarini ishlab chiqish masalalari bilan shug‘ullanadigan fan.



Yuqoridagi terminlarni bir semantik doirada ifodalash mumkin. Hammasi mazmuniy jihatdan bir uyaga mansub. Shuning uchun izohli lug‘atda har birini termin sifatida taqdim etish nome’yoriy holat. Bunday talqin maxsus lug‘atlar uchun xosdir. Izohli lug‘at umumiy filologik bo‘lib, umumxalq nutqidagi leksemalarni terminlardan farqlash uchun ahamiyatlidir. Shuning uchun ham yuqoridagi atamalarning morfemik shakllangan holatda emas, balki termin sifatidagi semantik ifodasi yetarlidir.

Maxsus tibbiy terminlar lug‘atida ham ayrim atamalar grammatik vositalar bilan shakllangan holda taqdim etilgan:

KOAGULYANTLAR (lot. coagulans – ivituvchi) 1. Qon to‘xtatuvchi vositalar; bularga qonning ivish jarayonini tezlatuvchi: thrombin, fibrinogen, vikasol va b.lar kiradi.

Yuqoridagi holat maxsus filologik lug‘atlar shakllantirish me’yorlariga muvofiq bo‘lib, bu soha vakillarining mutaxassisligiga oid atamalar haqida to‘la bilimga ega bo‘lishi uchun ahamiyatlidir. Zotan, xaxsus filologik lug‘at tor o‘quvchilar ommasi – tilshunoslik bilan shug‘ullanuvchilar va boshqa ilmiy tadqiqotchilarga mo‘ljallangan bo‘ladi.[4,124b]

Demak, terminlarning leksik-semantik tavsifi umumiy lug‘atlarda berilishi kerak, ularning turlicha semantik ifodalari, nutqiy hosilalari, negiz, yasama so‘zlar hosil qilingandagi ma’nolari esa sohaga aloqador maxsus lug‘atlarda taqdim etilishi maqsadga muvofiq. Umumiy lug‘atlarda bir terminning turlicha ifodasining berilishi kitobxon uchun muayyan chalkashliklarni yuzaga keltiradi. Zotan, leksemalarni yuqorida tavsiya etilgan shakllari umumiy va maxsus filologik lug‘at tuzish me’yorlariga ham muvofiq keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Абдувалиев М. Тўсиқсизлик майдони ва уни ташкил этувчи синтактик бирликлар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1988. 4-сон. – Б. 62
2. Ismailov G‘.M. O‘zbek tili terminologik tizimlarida semantic usulda termin hosil bo‘lishi: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2011. – B. 8
3. Qosimov A. Tibbiy terminlar izohli lug‘ati. – Toshkent, 2003. J. 1. – B. 126.



4. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Raupova L.R., Qurbonova M.M., Abuzalova M.Q., Yo‘ldosheva D.N. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2020. – B. 124.
5. Buronova, X. (2024). O ‘ZBEK TILINING IZOHLI LUG ‘ATIDAGI TIBBIY TERMINLARINING GENETIK TAHLILI. International Journal of scientific and Applied Research, 1(3), 355-357.
6. Buronova Holida Toshtemirovna, ., & Buronova Xolida, . (2024). GENETIC ANALYSIS OF MEDICAL TERMS IN THE EXPLANATORY DICTIONARY OF THE UZBEK LANGUAGE. American Journal of Philological Sciences, 4(05), 101–105. <https://doi.org/10.37547/ajps/Volume04Issue05-17>

METAFORIK IQTISODIYOT TERMINLARINI TARTIBGA SOLISH MUAMMOLLARI

Xabibjonov Ikromjon Toshpulat o‘g‘li

Qo‘qon davlat universiteti professori v.b.,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD.

mybooks91@mail.ru

Annotatsiya. Zamonaviy o‘zbek tilshunosligida termin tizimi va uning tartibga solinishi dolzarb masalalardan biri sifatida e‘tirof etiladi. Chunki yangi texnologiyalar, zamonaviy dunyo kun sayin yangi-yangi terminlarning yuzaga kelishini taqozo etmoqda. Bu jarayonlarda tilshunoslikning terminotizimi ham qadam-baqadam rivojlanib bormog‘i lozim. Ushbu tezida metaforik iqtisodiyot terminlarini tartibga solish haqida qisqacha to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Metafora, terminologiya, tilshunoslik, tadqiqot, tartibga solish.

Hozirgi vaqtda “Terminologiyani standartlashtirish borasidagi ishlarni qoniqarli deb bo‘lmaydi. Bu ish respublikamiz miqyosida umumiy muvofiqlashtiruvchi markaz tomonidagina amalga oshirilishi mumkin” [1, 36 b]. Shu bilan bir qatorda, ma‘lum bir soha terminlarini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda ham tadqiq qilinayotgan soha terminlarini standartlashtirish, tartibga solish, unifikatsiyalash (birxillashtirish)ga oid tavsiyalar berib borilishi (aksar dissertatsiyalarda bunday takliflar berilmoqda) lozim va ushbu yutuqlarda soha mutaxassislari foydalanishi kerak bo‘ladi.



Iqtisodiyot terminologiyasida raqamli “ko‘chmanchi” termini mavjud bo‘lib, u “joylashuv joyiga bog‘liq bo‘lmagan va o‘z ishlarini bajarish uchun texnologiyadan foydalanadigan, ko‘chmanchi turmush tarzini olib boradigan insonlar toifasi. Ular kompaniyaning shtabkvartirasida yoki ofisida jismonan bo‘lish o‘rniga masofadan turib ishlaydi. Raqamli ko‘chmanchining turmush tarzi mijozlar va ish beruvchilar bilan aloqa qilish uchun tarkibni boshqarish dasturi, internet orqali kirish, smartfonlar va boshqa vositalar orqali amalga oshiriladi [2, 274 b.] deb izohlanadi. Bu termin tarkibidagi ko‘chmanchi so‘zi noto‘g‘ri tanlangan. Birinchidan, termin leksema ijobiy-salboy bahosi jihatidan neytral bo‘lishi kerak, ko‘chmanchi leksemasi ushbu talabga javob berolmaydi. Ikkinchidan, frilanser xorijiy termini ifodalaydigan ma‘noni yetkazib berolmaydi, chunki frilanser “ko‘cib yurib ishlovchi” mutaxassis emas, “uyda turib ishlovchi, masofadan turib ishlovchi” “ish joyi erkin ishchi” ma‘nosini bildiradi. Shundan kelib chiqib, erkin ishchi deya nomlash to‘g‘ri bo‘ladi.

Navbatdagi tuzatilishi kerak bo‘lgan termin “sudraluvchi” inflyatsiya bo‘lib, “sekin-asta yuz beradigan pul qadrsizligi” ma‘nosini anglatadi. Ma‘noviy tomonidan xatolik kuzatilmaydi, lekin yuqoridagidek sudraluvchi komponenti juda ham salbiy bahoga ega leksema hisoblanadi, terminlarning emotsional jihatdan neytralligi tamoyiliga zid keladi. Shu bois ushbu komponentni almashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Biz ko‘rinmas inflyatsiya, yashirin inflyatsiya terminlaridan birini qabul qilishni taklif qilamiz.

Yuqoridagi terminning antonimi hisoblanadigan suzib yuruvchi inflyatsiya termini bor bo‘lib, u “narxlarning tez sur‘atda o‘sishi, masalan, yiliga 10 foiz atrofida o‘sishi” bilan bog‘liq pul qadrsizlanishini anglatadi. Ushbu metaforik terminning suzib yuruvchi komponenti terminologik tushunchani aniq, to‘liq aks ettira olmaydi, suzish harakati sekin ham bo‘ladi. Ushbu termin tarkibida shiddat bilan bo‘ladigan, tez sodir bo‘ladigan pul qadrsizlanishi ma‘nosini ifoda etadigan leksema kiritilishi kerak. Biz suzib yuruvchi komponenti o‘rniga tezkor leksemasini taklif qilamiz. Shu bilan bir qatorda, izohni ham tuzatish kerak bo‘ladi, yuqorida biz



lug‘atdagi izohning oxirgi qismidan ataylab kuzatiladi leksemasini olib tashladik va ot so‘z turkumidagi terminning izohini ham ot so‘z turkumi shaklida ifodaladik.

Endi metaforik terminlarga sohaviy lug‘atlarda berilgan leksikografik izohlarni tuzatish bo‘yicha tavsiyalarimizni berib o‘tamiz. Dastlabki tahrirtalab termin jami talab terminidir. U “Iqtisodiy atamalarning izohli lug‘ati”da “mumkin bo‘lgan har qanday baholar darajasida iste‘molchilar, tadbirkorlar va davlat tomonidan sotib olinishi mumkin bo‘lgan mahsulot hajmi. Jami talabga baho darajasi teskari proporsional ta‘sir ko‘rsatadi, ya‘ni baho o‘sgan sari talab kamayadi va aksincha, shuningdek, jami talabga aholi daromadlari, investitsion sarflardagi o‘zgarishlar kabi omillar tasir qiladi” [2, 207 b.] deya izohlanadi. E‘tibor qilinadigan bo‘lsa, asosiy izohdan keyin qo‘shimcha ma‘lumot – “Jami talabga baho darajasi teskari proporsional ta‘sir ko‘rsatadi, ya‘ni baho o‘sgan sari talab kamayadi va aksincha, shuningdek, jami talabga aholi daromadlari, investitsion sarflardagi o‘zgarishlar kabi omillar tasir qiladi” ham berilgan. Bizning fikrimizga ko‘ra, termin izohida yuqorida qo‘shimcha ma‘lumotni berishning hojati yo‘q, terminning ma‘nosi ifodalansa bo‘ldi, yetarli bo‘ladi. bunday qo‘shimcha ma‘lumotlar izohli lug‘atni ensiklopedik lug‘at shakliga keltirib qo‘yadi.

Biz ushbu bobning birinchi faslida pul bozori dastaklari terminining ma‘nosini o‘zimiz tuzatish kiritib berdik. Quyidagi ma‘no izohi esa “Iqtisodiy atamalarning izohli lug‘ati”dan olingan: pul bozori dastaklari – pulli dastak bo‘lib, uning sohibiga ma‘lum bir davr ichida kafolatlangan va qat‘iy belgilangan pul daromadi olish huquqini beradi. [2, 325 b.] e‘tibor berib qaraydigan bo‘lsak, termin yana o‘sha leksema bilan izohlanmoqda, izohli lug‘atlarda bunday qilinmasligi tilshunoslarga juda yaxshi ma‘lum. Endi biz tuzatish kiritgan ma‘no izohini havola qilamiz: egasiga ma‘lum bir davr ichida kafolatlangan va qat‘iy belgilangan pul daromadi olish huquqini beradigan asoslar.

Umumiy bozor metaforik termini komponentlarida xatolik yo‘q, biroq ma‘no izohida tuzatiladigan joylar mavjud. “Iqtisodiy atamalarning izohli lug‘ati”da: Umumiy bozor Ishlab chiqarish omillarini milliy chegaralar orqali erkin ko‘chib o‘tishi ta‘minlanadigan iqtisodiy integratsiya ko‘rinishi [2, 429 b.] Mazkur holatda



termining ma'nosi tushunarli emas. Masalan, “omillarini”, “erkin ko‘chib o‘tishi ta’minlanadigan” qismlari terminologik tushunchani ochiq-oydin ifodalamaydi. Shuningdek, umumiy bozorda tovar, mahsulot bilan birga har xil xizmatlar ham taklif qilinadi, lug‘atda faqat tovar sotilishi aytiladi. Lug‘atda berilganidek “omillarini” qismini tushum kelishigida emas, qaratqich kelishida berish kerak edi. Bizning taklifimiz quyidagicha: Ishlab chiqarilgan tovar va mahsulotlarni, yaratilgan xizmatlari xalqaro miqyosda sotiladigan tizim yoki iqtisodiy integratsiya ko‘rinishi.

Iqtisodiyot terminologiyasida juda ko‘p tilga olinadigan bozor munosabatlari termini ham “Iqtisodiy atamalarning izohli lug‘ati”da maqsadga muvofiq izohlanmagan. “Iqtisodiy atamalarning izohli lug‘ati”da o‘qiymiz: Bozor munosabatlari Sotuvchi va xaridor o‘rtasidagi munosabatlar. Uning bir qator qoidalari mavjud: 1. Erkin, ixtiyoriy va tenghuquqli bo‘lish. 2. Mavjud narxlar va takliflar asosida yuzaga chiqishi. 3. Xaridor va sotuvchi bir-birini o‘z ixtiyori bilan tanlashi. 4. Bironta bozor ishtirokchisining monopol huquqqa ega bo‘lmasligi. 5. Ishtirokchilar o‘rtasidagi aloqalar sog‘lom raqobatga asoslanishi kerak. [2, 71 b.]

Yuqoridagi ma‘no izohida o‘rinsiz ravishda beshta punktga bo‘lingan va har bir punktdagi gap tugallanmagan. Bizning taklifimiz quyidagicha: Sotuvchi va xaridor erkin, ixtiyoriy va tenghuquqli bo‘lgan, ulardan hech biri monopol huquqqa ega bo‘lmagan, narxlar bozor tomonidan belgilanadigan, xaridor sotuvchini, sotuvchi xaridorni ixtiyoriy tanlagan hamda sog‘lom raqobatga asoslangan oldi-sotdi jarayonlari.

Quyidagi termin ham grammatik va metaforik jihatdan xatosiz yasalgan. U terminologik tushunchani to‘g‘ri ifodalay oladi. Bu tovar harakati termini bo‘lib, “Iqtisodiy atamalarning izohli lug‘ati”da “tovarlarning ishlab chiqarilgan joydan iste’mol qilinadigan joygacha jismoniy harakati bo‘lib, ularni joylashtirish, saqlash, jo‘natish, tashish, yuklash, tushirish, zaxiralarini shakllantirish jarayonlaridan iborat” [2, 418 b.] deya izohlanadi. Tuzatilishi kerak bo‘lgan jihat mazkur leksikografik izohda. Bizning talqinimizga ko‘ra, termin komponenti termini izohlashda ishlatilmasligi kerak, ikkinchidan, “jismoniy” leksemasi noo‘rin ishlatilgan. Qiyoslab ko‘rish uchun o‘zimizning talqinimizni havola etamiz:



“mahsulotning ishlab chiqarilgan joydan boshlab uni sotish, saqlash, jo‘natish, tashish, yuklash, tushirish va oxirgi foydalanuvchigacha yetib borish jarayoni”.

“Bank-moliya terminlarining o‘zbek tilidagi izohli lug‘ati”da o‘qiymiz: Gumonli kreditlar “Mavjud ma’lumotlarga ko‘ra, ssudaning to‘liq qaytishi gumonli. Ssuda muddatiga nisbatan haqiqiy qaytish darajasi hali aniq emas. Zarar ko‘rish ehtimoli yuqori, lekin kelgusida bu aktivlarning sifatiga ijobiy ta’sir etadigan omillarning mavjudligi uchun ularni zarar keltiruvchi deb tasniflash holati aniqlashtirilgunicha kechiktiriladi [3, 63 b.]. Birinchidan, yana yuqoridagidek termini termin so‘z bilan izoshlash kerak emas. Ikkinchidan, “Mavjud ma’lumotlarga ko‘ra” kirish birikmaning kiritilishi to‘g‘ri emas. Uchinchidan, leksikografik izoh alohoda gaplardan iborta bo‘lmasligi shart. To‘rtinchidan, faqat ssuda termini ishlatilgan, ssuda har qanday bank krediti tushunchasini ifodalay olmaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, iqtisodiyot terminologiyasidagi metaforik terminlar ichida tuzatilishi kerak bo‘lganlari ham mavjud. Ularning termin tarkibini noo‘rin shakllantirish, terminga berilgan izohning tugal bo‘lmasligi, dubletlik masalalari bilan bog‘liq. Metaforik iqtisodiyot terminlari ichida izchamlashtirish kerak bo‘lganlari deyarli uchramadi, shuning uchun bu haqda tahlillarni bermadik.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Yo‘ldoshev I. O‘zbek kitobchilik terminologiyasini tartibga solish masalasiga doir / So‘z o‘zlashtirish va terminologiyani takomillashtirish muammolariga doir / Xorijiy so‘z va terminlardan foydalanishda me’yor va milliy-assotsiativ fikrlash muammolari mavzuidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2011.
2. Norqulov I., Mahmudov O. Iqtisodiyot atamalarining izohli lug‘ati. – Toshkent: “Sahhof” nashriyoti, 2023.
3. Muxamedova S. Bank-moliya terminlarining o‘zbek tilidagi izohli lug‘ati. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020.



INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA “QO‘RQUV” KONSEPTI TAHLILIGA KOGNITIV YONDASHUV

Isakova Zilolaxon Zokirovna

Associated professor (PhD) Kokand University

isakovazilolakhon@gmail.com

Solijonova Diyoraxon Murodjon qizi

Master’s degree student, Kokand University.

diyorasolijonova34@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezis tadqiqot davomida ingliz va o‘zbek tillari manbaalaridan to‘plangan maqolalarda qo‘rquv konseptining tasnifi, qo‘rquv qaysi tillarda qay darajada tasnif qilinganini va ularda ko‘rsatilgan yutuqlar, kamchiliklar tahlil qilinadi. Tezis maqolalarda qo‘rquv muammosini nazariy o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda qo‘rquv tushunchasi, uning turlari, ingliz va o‘zbek tillaridagi qo‘rquvni anglatadigan tushunchalar maqollar misolida ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: qo‘rquv, tashvish muammosi, xavfga reaksiya, qo‘rquv sabablari.

Kirish

Qo‘rquvlar – bu psixologik xususiyat, odamning tashvish holatini boshdan kechirishga moyilligi. Ko‘pincha tashvish uning muvaffaqiyatsizligi yoki muvaffaqiyatining ijtimoiy oqibatlarini kutish bilan bog‘liq. Qo‘rquv stress bilan chambarchas bog‘liq. Qo‘rquv tushunchasi insoniyat paydo bo‘lganidan buyon shakllanib, insonlar ongiga ta‘sir qilib keladi. Bu tushuncha “hayiqish, cho‘chish” kabi so‘zlar bilan bir lug‘aviy ma‘noni ifodalaydi.

QO‘RQ – “qo‘rquv his et”. Qo‘rqqanga qo‘sha ko‘rinar (Maqol). Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma‘noni anglatgan bu fe‘l asli “qo‘riqlamoq“ ma‘nosini anglatuvchi qo‘ri fe‘lidan o‘zlik ma‘nosini ifodalovchi –q qo‘shimchasi bilan hosil qilingan (DC, 460 : qoruq-); qo‘shimcha qo‘shilganidan keyin ikkinchi bo‘gindagi tor unli talaffuz qilinmay qoygan (Devon, III, 427; DC, 458): qori- + q = qoriq-> qoruq- > qo‘rq-. [Rahmatullayev, O‘zbek tilining etimologik lug‘ati, 2000, p. 588]



Qoʻrquv tushunchasini yosh hususiyatlarga koʻra turlicha talqin qilish mumkin. Misol uchun bolalardagi qoʻrquv kattalar qoʻquvsi bilan batamom farq qiladi. Yosh goʻdaklar onasining yoʻq boʻlib qolishdan qattiq qoʻrqishadi ularning tasavvurida goʻyoki onasi oʻlib qolganday faraz qilishadi. Kattalardagi qoʻrquvni esa yuzaga kelishi mumkin boʻlgan baxtsiz hodisalar bilan bogʻlash mumkin.

Metodologiya

“Qoʻrquv Konseptining Lingvokognitiv Tasnifi” [Jabborova.G. Linguocognitive Classification of the Concept of "Fear" In Uzbek and English Artistic Discourse,p. 1-2]. Ushbu maqolada “qoʻrquv” tushunchasi oʻzbek va ingliz adabiy nutqida lingvokognitiv yondashuv asosida tahlil qilingan. Badiiy asarlar taqqoslanuvchi tahlili orqali qoʻrquvni ifodalashda ishlatiladigan asosiy konseptual metaforalar va metonimiyalar aniqlangan hamda ularning madaniy va lingvistik taʼsiri oʻrganilgan. Tadqiqot natijalari har ikki til doirasida qoʻrquvning oʻziga xos, ammo oʻzaro bogʻlangan konseptualizatsiyalarini ochib bergan va bu hissiyotning til orqali ifodalanishida madaniyatning muhim rolini koʻrsatgan.

“Ingliz va Ukrain tillaridagi frazeologik birliklarda “Qoʻrquv” tushunchasini ifodalanishi” [N. Mykhalchuka. The verbalization of the concept of "fear" in English and Ukrainian phraseological units,p. 4-5] nomli maqolada qoʻrquv tushunchasiga frazeologik tomondan yondashilgan. Qoʻrquv, boshqa barcha hissiyotlar kabi, frazeologik koʻrinishlarga ega boʻlib, bu holatlar odatda madaniy muhitdan qatʼi nazar universal hisoblanadi. Xavfli vaziyatda kuzatiladigan jismoniy va ruhiy hislar haqidagi maʼlumotlar “qoʻrquv” tushunchasini ifodalovchi frazeologik birliklarda aks ettirilgan.

“Ingliz va oʻzbek tillarida “qoʻrquv” ni ifodalovchi frazeologik birliklar va ularning lingvistik dunyo tasavvuri” [D. Azimova. Phraseological units denoting "fear in English and Uzbek linguistic picture of the world, p. 1-4] deb atalgan keyingi maqolada mualliflar “qoʻrquv”ni ifodalovchi ingliz va oʻzbek frazeologik birliklarini tahlil qilgan. Bu frazeologizmlarda semantik jihatdan ifodalanadigan hissiyotlar salbiy turkumga kiradi. Maqolada ushbu frazeologik birliklarning



namunasi keltirilgan, ular taqqoslangan va “qo‘rquv” konsepsiyasining ichki mazmuni tahlil qilingan.

Yuqoridagi tadqiqotlardan farqli ravishda biz o‘z tezisimizda ingliz va o‘zbek tillaridagi badiiy matnlarda qo‘rquv konseptini kognitiv va semantik tahlil qilishga harakat qildik.

Tahlil va natijalar

Zamonaviy tilshunoslik insonning ichki dunyosini, ayniqsa hissiy holatini til orqali ifodalanishini o‘rganishga tobora ko‘proq e‘tibor qaratmoqda. Inson faqat fikrlovchi emas, balki chuqur hissiy mavjudotdir va albatta, so‘zlovchining hissiyotlari uning tiliga bevosita ta‘sir qiladi. Ma‘lumki, kognitiv tilshunoslik til qanday yaratilgani, atrofda olamni qanday ifodalashi, til birliklari ongda bilimlar tuzilmasida qanday namoyon bo‘lishini o‘rganadi. Kognitiv yondashuvga ko‘ra, til insonning ichki dunyosiga, tajriba tuzilmalariga eng yaxshi yo‘l ochuvchi vosita hisoblanadi. Hissiyotlar ongning ma‘naviy darajasida yuzaga chiqadigan konseptual maydonni tashkil etadi. Qo‘rquv – insoniyat uchun universal, murakkab va ongga chuqur ta‘sir qiluvchi hissiyotdir. Qo‘rquvlar bir tomondan, tashvishlanishning o‘zi bo‘lib, unda odam o‘zini noqulay his qiladi va shuning uchun imkon qadar tezroq bu tuyg‘udan xalos bo‘lishga intiladi. Boshqa tomondan, tashvish haqiqiy va mumkin bo‘lgan “nosozliklar” haqida signal beradi.

O‘zbek va ingliz adabiy matnlarida qo‘rquvning lingvokognitiv tasnifini taqqoslaganda ayniqsa metaforalar va metonimiyalar orqali ifodalanish ko‘p miqdorni tashkil qilishiga guvoh bo‘ldik. O‘zbek va ingliz adabiy matnlarida qo‘rquvning lingvokognitiv tasnifi maqolasini o‘rganish jarayonda metafora va metanimiyalarga yaqqol misol va namunalari tahlil qildik va ularda qo‘rquv konsepti aniq va ravshan yoritilib berilgan. Xulosalarimizga ko‘ra, qo‘rquv holatini ifodalovchi frazeologik birliklar orasida somatik birliklar keng tarqalgan. Odam atrof-muhitni idrok etishda ko‘pincha o‘zining tana a‘zolari (ko‘z, quloq, barmoq) yordamida o‘rganadi va turli harakatlarni qo‘l, qo‘l bilagi, oyoq, bosh kabi tana qismlari orqali bajaradi. Kimdir yangi bir narsaga duch kelganda yoki yangi ruhiy holatni his qilganda, bu holatni tanasining tanish faoliyati bilan solishtiradi va yangi



somatizm yoki yangi somatik tuzilma yaratadi. Shunday qilib, somatik frazeologik birliklar tana a’zolari nomlaridan foydalanadi, masalan:

to have one’s heart sink – yuragi tushmoq,

to have cold feet – yuragi betoqat bo’lmoq / qo’rqib qolmoq.

“Ingliz va O‘zbek tillaridagi frazeologik birikmalarda “Qo’rquv” tushunchasini ifodalanishi” nomli maqolada ingliz va ukrain tillarida “qo’rquv” tushunchasini ifodalovchi frazeologik birliklar asosan salbiy bahoga ega. Qo’rquvni yengib o‘tish ma’nosini anglatuvchi idiomlargina bundan mustasno bo‘lib, ular ijobiy bahoga ega bo‘ladi. Frazeologik birliklar milliy xususiyatlar va turmush tarzini aks ettirganligi sababli, ingliz va ukrain tillaridagi “qo’rquv” tushunchasini ifodalovchi frazeologik birliklarni og‘zaki shaklda ifodalashtirishga qaratilgan. Umumiy 133 ta “qo’rquv” tushunchasini ifodalovchi frazeologik birliklar orasidan 2 juft to‘liq leksik ekvivalent, 18 ta qisman ekvivalent birliklar aniqlangan. Shuningdek, 83 ta somatik tuzilishga ega frazeologik birliklar (ular orasida 41 tasi ukrain tilida va 42 tasi ingliz tilida) tahlil qilingan.[N. Mykhalchuka. The verbalization of the concept of "fear" in English and Ukrainian phraseological units,p.6.]

Somatism	English	Uzbek
soul	—	8
heart	11	6
hair	2	4
internal parts of the body	5	2
skin	1	—
legs/ feet/ heels	1	5
blood	5	1
change of body’s temperature	3	5
pale ness	3	3
sweat	2	1
goose bumps	2	2
tremble	3	3



difficulty in speaking	4	1
TOTAL	42	41

Qo‘rquvning barcha alomatlari ko‘rib chiqilgan va ichki hissiy holatlarga (ingliz tilida “yurak”, ukrain tilida esa “jon” va “yurak”) alohida e‘tibor qaratilgan. Bundan tashqari, hayvon nomlari ishtirok etgan frazeologik birliklar va rang komponentiga ega idiomalar ham o‘rganilgan. Aniqlanishicha, ingliz tilida qo‘rquvning manipulyativ funksiyasini tasvirlaydigan idiomalar ko‘proq. Ingliz va o‘zbek tillarida “qo‘rquv” tushunchasini ifodalovchi frazeologik birliklar odatda salbiy baholanishi bilan ajralib turadi. Faqatgina qo‘rquvni yengib o‘tish ma‘nosini anglatuvchi idiomalar bundan mustasno bo‘lib, ularning bahosi ijobiy bo‘lishi aytib o‘tilgan.

Xulosa

“Qo‘rquv” tushunchasi insoniyat uchun umumiy bo‘lishiga qaramay, har bir til va madaniyatda u turlicha konseptualizatsiya qilinadi. Ushbu tadqiqot ingliz va o‘zbek tillarida “qo‘rquv” konseptining lingvokognitiv yondashuv asosida qanday ifodalanganini tahlil qildi. Analiz natijalari shuni ko‘rsatdiki, ingliz tilida qo‘rquv ko‘proq jismoniy va kognitiv belgilar orqali ifodalanar ekan, o‘zbek tilida esa ruhiy va hissiy jihatlar ustunlik qiladi. Frazeologik birliklar orqali ifodalangan qo‘rquv tushunchasi har bir millatning madaniy qadriyatlarini va dunyoqarashi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shuningdek, somatik birliklar – tana a‘zolari bilan bog‘liq frazeologizmlar – qo‘rquvni anglatishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur tadqiqot orqali aniqlanishicha, har bir til hissiyotlarni o‘z madaniy kontekstida o‘ziga xos tarzda ifodalaydi va bu orqali milliy til ongidagi konseptlar yuzaga chiqadi. Shunday qilib, “qo‘rquv” konsepti nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik va psixologiya nuqtai nazaridan ham keng ko‘lamli tahlilni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Azimova D. (2024) American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education: Phraseological units denoting "fear in English and Uzbek linguistic picture of the world. P. 4-5



2. Jabborova G. (2024) American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education: Linguocognitive Classification of the Concept of "Fear" In Uzbek and English Artistic Discourse. P. 1-2
3. Mykhalchuka N. (2019) Cognitive Studies: The verbalization of the concept of "fear" in English and Ukrainian phraseological units. P. 4-5
4. Rahmatullayev, Sh. (2000) Toshkent "Universitet": O`zbek tilining etimologik lug`ati.
5. Collins V. "Ingliz tilidagi iboralar kitobi"(1985). P. 57-59

INGLIZ YO‘L BELGILARIGA OID TERMINLARNING SINONIMLIK XUSUSIYATI

Xo‘shbaqova Nasiba Nurqobil qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida o‘qituvchi

khushbakovan@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada sinonimiya hodisasining nazariy jihatlarini hamda uning yo‘l harakati terminologiyasi va yo‘l belgilaridagi amaliy ko‘rinishlari tahlil qilinadi. Asosiy maqsad – yo‘l harakati sohasida qo‘llaniladigan, bir umumiy denotatsiyaga ega bo‘lgan, ammo shaklan farqlanuvchi terminlarning kommunikativ vazifasini va o‘zaro almashinuvchanlik darajasini o‘rganishdir. Tahlillar natijasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri sinonimlar bilan bir qatorda, ma’no nozikliklari yoki qo‘llanish doirasi jihatidan farqlanuvchi, biroq umumiy axborotni yetkazuvchi sinonimik qatorlar aniqlangan. Ushbu tadqiqot tilshunoslik uchun nazariy ahamiyatga ega bo‘lish bilan birga, yo‘l harakati qoidalarini xalqaro miqyosda tushunish va tarjima qilishda amaliy yordam beradi.

Kalit so‘zlar: sinonimiya, lug‘aviy birlik, denotatsiya, yo‘l harakati terminologiyasi, yo‘l belgilari, kommunikativ vazifa, o‘zaro almashinuvchanlik, ingliz tili.

Til hayotning barcha jabhalarida, jumladan, aniq va tezkor axborot almashinuvini talab etadigan sohalarda muhim vositadir. Lug‘aviy-mazmuniy medioqurilmalarning o‘ziga xos ko‘rinishlaridan biri bo‘lgan sinonimiya tilshunoslikning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. An’anaviy ta’rifga ko‘ra, shakli har xil, ammo ma’nosi bir xil yoki juda yaqin bo‘lgan lug‘aviy birliklar sinonimlar deyiladi va ular bir umumiy denotatsiyaga asoslanadi. Ushbu tezisdan sinonimiyaning



nazariy jihatlari qisqacha yoritilib, uning amaliy ko‘rinishi sifatida yo‘l harakati xavfsizligi va tartibiga oid terminlar hamda yo‘l belgilarida qo‘llaniladigan sinonimik qatorlar tahlil qilinadi. Maqsad – bir umumiy denotatsiyaga ega bo‘lgan, biroq tovush qurilishi jihatidan farqlanuvchi atamalarning yo‘l harakati sohasidagi kommunikativ vazifasini ochib berish va ularning o‘zaro muqobillik darajasini aniqlashdir. Bu kabi tahlillar nafaqat tilshunoslik nuqtai nazaridan, balki xalqaro miqyosda yo‘l harakati qoidalarini tushunish va tarjima qilish jarayonlari uchun ham amaliy ahamiyat kasb etadi.

Sinonim va sinonimiya lug‘aviy-mazmuniy medioqurilmalarning shunday ko‘rinishiki, ularda tovush qurilishida tubdan farq qiluvchi ikki yoki undan ortiq lug‘aviy birliklar (leksemalar) bir umumiy ma’no doirasida birlashadi. Shu bois ham an’anaviy tilshunoslikda sinonimlarga “shakli har xil, ma’nosi bir xil so‘zlar” degan ta’rif beriladi va bu ta’rif umumta’lim maktablari darsliklarida ham hech o‘zgarishsiz uchraydi. Darhaqiqat, bir sinonimiya paradigmasida (qatorida, uyasida) tutashuvchi lug‘aviy birliklar bir umumiy denotatsiyaga ega bo‘ladi. Masalan, uy – bino – kulba, ko‘cha – yo‘l, ko‘k – osmon – fazo, bosh –kalla paradigmatic qatorlariga e’tibor bersak, birinchi sinonimik qatorni tashkil qilgan lug‘aviy birliklar “yashash makoni” ma’nosidagi bir umumiy denotatsiyaga asoslangan. Keyingi sinonimik qatorni hosil qilgan lug‘aviy birliklar esa, “yer yuzini tepadan qoplovchi planeta” ma’nosini va shu ma’noning nolisoniy obyektini (denotatsiyasini) atagan. Ko‘cha va yo‘l, bosh va kalla lug‘aviy birliklari munosabatidan tashkil topgan sinonimiya qatorida ham shularga o‘xshash xususiyat mavjud: sinonimik muqobillar “kishilar va har xil naqliyot vositalari harakat qiladigan obyekt” ma’nosi bilan bir umumiy denotatsiya atamasi sifatida xizmat qiladi. Bosh va kalla so‘zlarining “inson va hayvon tanasining yuqori qismi” ma’nosini anglatishi va shu ma’noning nolisoniy asosini hamma bir xil tushunadi.

Opening bridge - swing bridge terminlari yo‘lning harakatlanuvchi ko‘prikdan o‘tishini anglatadi. Ko‘prik suv transporti (kemalar, qayiqlar) o‘tishi uchun ochilishi (ko‘tarilishi, burilishi) mumkin. “Swing bridge” (buriladigan ko‘prik) ochiladigan ko‘prikning bir turi bo‘lib, u gorizontaal ravishda aylanadi.



No Waiting - No Parking-transport vositasini yo‘l chetida qoldirishga qo‘yilgan cheklovlarni bildiradi. “No Waiting” (Buyuk Britaniyada ko‘pincha sariq chiziqlar bilan ko‘rsatiladi) odatda transport vositasini qarovsiz qoldirishni taqiqlaydi, lekin yo‘lovchilarni tushirish/chiqarish uchun qisqa to‘xtashga ruxsat berishi mumkin. “No Parking” kengroq tushuncha bo‘lib, ko‘pincha xususiy hududlarda yoki umumiy ma‘noda ishlatiladi. Ikkala atama ham mashinani ma'lum vaqtlarda yoki umuman belgilangan joyda qoldirishni cheklaydi.

No Honking / No Horn-honking-Transport vositasining signalidan (gudok) foydalanishni taqiqlaydi. Odatda shovqinni kamaytirish uchun kasalxonalar yoki turar-joylar yaqinida qo‘llaniladi. Bular to‘g‘ridan-to‘g‘ri sinonimlardir.

Lane Directions -Lane Usage Signs, Lane Information Signs, Lane Allocation Signs, Traffic lane, Lane information-haydovchilarga ma‘lum bir harakatlanish bo‘lagidan qanday foydalanish kerakligi haqida ma‘lumot beruvchi belgilarga ishora qiladi. Ular qaysi bo‘lak qaysi yo‘nalishga olib borishini, har bir bo‘lakdan qaysi burilishlarga ruxsat etilganligini (to‘g‘ri, chapga, o‘ngga) yoki bo‘lakning maxsus transport vositalari uchun ajratilganligini ko‘rsatishi mumkin.

Lane Gain - Added Lane-yo‘nalishdagi mavjud harakatlanish bo‘laklari soni ortishini bildiradi. Yangi bo‘lak paydo bo‘ladi, masalan, yo‘lga qo‘shilish yo‘lagi qo‘shilganda yoki yo‘l kengayganda. Bular to‘g‘ridan-to‘g‘ri sinonimlardir.

Residential - Home Zone-asosan uy-joylar joylashgan hududlarni bildiradi, bu yerda aholining xavfsizligi va hayot sifatini yaxshilash uchun transport harakati tezligi va qoidalari cheklangan bo‘ladi. “Home Zone” (Uy hududi), “Residential area” (Turar-joy hududi) umumiyroq termin.

Litter Bin-Keep Britain Tidy-chiqindi qutisi borligini ko‘rsatadi yoki odamlarni axlat tashlamaslikka undaydi. “Keep Britain Tidy” (Britaniyani ozoda saqlang) shiori ko‘pincha chiqindi qutisi belgisi yonida yoki ustida paydo bo‘ladi.

Toilets – rest room, WC-jamoat hojatxonalarining joylashuvini ko‘rsatadi. “Toilets” (Hojatxonalar) britaniya ingliz tilida keng tarqalgan atama. “WC” (Water Closet - Suvli shkafxona) xalqaro miqyosda tushunarli qisqartma. “Restroom” (Dam



olish xonasi) ko‘proq Amerika ingliz tilida ishlatiladi, lekin Buyuk Britaniyada ham tushuniladi.

No idling - Engine off parking-to‘xtab turgan yoki to‘xtash joyida turgan vaqtda transport vositasining dvigatelini o‘chirib qo‘yish talabini bildiradi. Odatda havo ifloslanishini yoki shovqinni kamaytirish uchun (masalan, maktablar yaqinida) qo‘llaniladi. Ikkalasi ham bir xil ma‘noni anglatadi.

Limited parking duration - Time limit-ma‘lum bir joyda transport vositasini qancha vaqt davomida to‘xtatib turish mumkinligiga qo‘yilgan cheklovni bildiradi. Ikkalasi ham ruxsat etilgan maksimal to‘xtab turish muddatini anglatadi (masalan, “2 soat”, “Maks. 30 daqiqa”).

Soft Verges - Dangerous verge-yo‘l chetining (yoqa) beqaror yoki xavfli holati haqida ogohlantiradi. “Soft verges” (Yumshoq yoqalar) aynan yo‘l chetidagi yer transport vositasining og‘irligini ko‘tara olmasligi mumkinligini bildiradi. “Dangerous verge” (Xavfli yoqa) biroz kengroq so‘z, ammo xuddi shu ogohlantirishni beradi: yoqa xavfli bo‘lgani uchun unga chiqishdan saqlanib.

Slippery road - Wet surface-yo‘l sirtida shinalarning sirpanish xavfi kamayganligi haqida ogohlantiradi. “Slippery road” (Sirpanchiq yo‘l) standart ogohlantiruvchi belgi (ko‘pincha sirpanayotgan mashina tasviri). “Wet surface” (Ho‘l sirt) qo‘shimcha jadvalchasi yo‘lning nega sirpanchiq bo‘lishi mumkinligini tushuntirish uchun ishlatilishi mumkin. Ular bir-biriga bog‘liq (ho‘llik ko‘pincha sirpanchilikka olib keladi) va bir xil xavfni bildiradi: sirpanish xavfi.

Xulosa qilib aytganda, keltirilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sinonimiya hodisasi nafaqat umumadabiy til uchun, balki yo‘l harakati bilan bog‘liq maxsus terminologiya va belgilar tizimida ham faol namoyon bo‘ladi. Ko‘rib chiqilgan misollar – “Opening bridge” va “swing bridge”, “No Waiting” va “No Parking”, “No Honking” va “No Horn-honking” kabi juftliklar, shuningdek, “Lane Directions” yoki “Toilets” kabi kengroq sinonimik qatorlar – bir umumiy denotativ ma‘noni ifodalash uchun turli leksik birliklarning qo‘llanilishini tasdiqlaydi.

Ba‘zi hollarda (“No Honking” / “No Horn-honking”, “Lane Gain” / “Added Lane”, “No idling” / “Engine off parking”) atamalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri sinonimlar



sifatida bir xil ma'noni anglatadi. Boshqa hollarda esa ("Opening bridge" / "swing bridge", "No Waiting" / "No Parking", "Residential" / "Home Zone", "Soft Verges" / "Dangerous verge", "Slippery road" / "Wet surface") terminlar orasida ma'lum bir ma'no nozikligi, qo'llanish doirasi yoki umumiyroq/xususiyroq xarakter mavjud bo'lsa-da, ular bir umumiy xavf yoki ma'lumotni yetkazish maqsadida bir-biriga yaqin yoki o'rinbosar sifatida ishlatilishi mumkin. "Litter Bin" va "Keep Britain Tidy" yoki "Toilets", "rest room", "WC" kabi misollar esa madaniy va lingvistik xususiyatlarni ham aks ettiradi.

Bu holat, bir tomondan, tilning boyligi va ifoda imkoniyatlarining kengligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, ma'lum bir kontekstda (masalan, turli ingliz tili variantlarida yoki rasmiy va norasmiy nutqda) qaysi terminning maqbulroq ekanligini bilish zaruratini yuzaga keltiradi. Ayniqsa, yo'l harakati xavfsizligi kabi muhim sohada ma'noning aniq va bir xil tushunilishi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shuning uchun ham "to'g'ridan-to'g'ri sinonimlar" yoki bir xil ma'noni anglatuvchi atamalarning mavjudligi kommunikatsiyani yengillashtiradi va xalqaro miqyosda tushunishni ta'minlashga xizmat qiladi. Kelgusida bunday sinonimik qatorlarning turli tillardagi muqobillarini qiyosiy o'rganish, ularning standartlashtirilishi masalalarini tadqiq etish muhim ilmiy yo'nalish bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. H.Dadaboyev.O'zbek terminologiyasi.Toshkent.2019.71-72b
2. Xo'shbaqova, N. (2024). INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA YO'L BELGILARIGA OID TERMIN BIRIKMALARNING STRUKTUR-SEMANTIK XUSUSIYATI. TAMADDUN NURI JURNALI , 11 (62), 251-253.
3. Abdullayeva, I. A. K., & Khushbakova, N. N. K. (2022). Problems of Translating English Idioms Into Uzbek. Academic research in educational sciences, 3(11), 208-211.
4. Komiljonovna, X. G. (2025). MORFOLOGIK YO'L BILAN YASALGAN GEOGRAFIK TERMINLAR TAHLILI. Hamkor konferensiyalar , 1 (14), 1061-1062.. Khushbakova, N. (2021). Literary translation as a branch of translatology. Academic research in educational sciences, 2(4), 1891-1896.



ETHNOLINGUISTIC FEATURES OF UZBEK AND ENGLISH PROVERBS BASED ON AGRICULTURAL TERMINOLOGY

Maxsumov Rustam

Assistant teacher at at Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

maxsumovrustam4@gmail.com

Abstract. This study examines the ethnolinguistic characteristics of agricultural proverbs in Uzbek and English languages, revealing how farming-related wisdom reflects distinct cultural worldviews and historical experiences. This study illustrates how traditional farming cultures use linguistic phrases derived from agricultural experience to encode practical knowledge, moral values, and social understanding through a comparative examination of proverbs that incorporate agricultural vocabulary. The results show that although work, seasons, and harvests are universal issues in both cultures, their proverbial manifestations reflect differing agricultural practices, climatic conditions, and cultural values influenced by historical and geographic locations.

Keywords: ethnolinguistics, agricultural proverbs, comparative linguistics, Uzbek, English, cultural transmission

In addition to producing food, agriculture has been essential to human civilization because it is a rich source of metaphorical language that permeates all forms of cultural expression. Centuries of farming experience have resulted in the crystallized wisdom known as agricultural proverbs, which encode both general insights about life, work, and social connections as well as practical knowledge about farming operations. Through the lens of agricultural metaphor, the ethnolinguistic study of agricultural proverbs provides distinctive insights into how various cultures understand basic elements of the human experience. Uzbek and English are two linguistically and culturally dissimilar traditions with varied agricultural histories and practices, and this study compares and contrasts their agricultural proverbs. Experiences with cotton production, grain farming, and irrigation-based agriculture in dry environments are reflected in Uzbek culture, which has its roots in Central Asian oasis agriculture and nomadic customs.



The English agricultural culture, which originated in a temperate marine climate, places a strong emphasis on various crops, seasonal cycles, and farming methods, all of which have an impact on the proverbs' metaphorical content. Comparative study of agricultural proverbs sheds light on how cultural values, historical events, and environmental influences influence language use. We may comprehend how practical information is converted into cultural wisdom that tackles universal human challenges by looking at how agricultural language functions in proverbial wisdom. A nation's perspective, customs, and cultural values are reflected in its proverbs. The ethnolinguistic features of Uzbek and English proverbs are examined in this thesis, with an emphasis on those that include terms linked to agriculture and clothes. The study emphasizes how these proverbs capture each culture's socioeconomic way of life, climate, and traditions.

The historical significance of agrarian life in Central Asia is reflected in the frequent usage of agricultural terminology such as "urug'," "dehqon," "hosil," and "yerni sug'or" in Uzbek proverbs. Similar to this, phrases pertaining to attire, like "to'n," "chopon," "etik," and "belbog," represent honor, social standing, and traditional values. Conversely, English proverbs frequently contain phrases pertaining to agriculture, such as "you reap what you sow," "make hay while the sun shines," and clothes, such as "cut your coat according to your cloth." These sayings convey moral teachings within cultural standards in addition to illustrating practical knowledge. Despite cultural and historical differences, both languages employ metaphorical language based in everyday life to communicate values, cautions, and guidance, according to a comparative study of these paremiological units. The ethnolinguistic method makes it possible to comprehend how language reflects shared experiences and mindsets on a deeper level.

The individualistic cultural ideas that personal effort leads to personal success are reflected in English proverbs. Cultural emphasis on individual initiative is reflected in the metaphors derived from individual activity (bird grabbing worm). The collectivistic principles shown in Uzbek proverbs emphasize the importance of



community cooperation for survival, which is especially crucial in the harsh Central Asian climate where communal harvesting and irrigation are necessary.

Different metaphors (construction, cooking, transportation) are used in English proverbs to express a range of cultural experiences. Because of the culture's stronger ties to agricultural cycles and the significance of cotton farming to the Uzbek economy and culture, Uzbek proverbs place a greater emphasis on plant development and agricultural timing. Each culture's agricultural basis is reflected in the particular crops that are mentioned in proverbs. The varied temperate agriculture that emphasizes grains and livestock is reflected in English proverbs. Specialization in cotton growing and irrigation agriculture tailored to dry conditions is reflected in Uzbek proverbs.

Environmental factors, past events, and cultural values all influence how language is expressed, as demonstrated by the ethnolinguistic study of agricultural proverbs in Uzbek and English. Both traditions understand the value of time, perseverance, and hard effort as universal elements of agricultural experience, but they do so via cultural lenses that are specific to their own agricultural environments and social structures.

REFERENCES

1. Уразова, М., & Махсумов, Р. (2025). The nolingistic study of Uzbek proverbs (based on the names of outerwear and their parts) . *Инновации в современной лингвистике и преподавании языков*, 1(1), 240–242. <https://doi.org/10.47689/ZTTCTOI-vol1-iss1-pp240-242>
2. Шермаматова, З., & Махсумов, Р. (2025). Ethnolinguistic study of uzbek proverbs (an emphasis on hat terminology). *Инновации в современной лингвистике и преподавании языков*, 1(1), 275–277. <https://doi.org/10.47689/ZTTCTOI-vol1-iss1-pp275-277>
3. Садуллаева, С., & Махсумов, Р. (2025). Ethnolinguistic study of Uzbek proverbs (based on the names of footwear and their parts). *Инновации в современной лингвистике и преподавании языков*, 1(1), 265–268. <https://doi.org/10.47689/ZTTCTOI-vol1-iss1-pp265-268>
4. Ахмаджанова, М., & Махсумов, Р. (2025). О‘zbek maqollarining etnolingvistik tadqiqi (dehqonchilik asboblari nomlari asosida) . *Инновации в*



- современной лингвистике и преподавании языков, 1(1), 147–150. <https://doi.org/10.47689/ZTTCTOI-vol1-iss1-pp147-150>
5. Temirova, M. (2024, February). THE CONCEPT OF" LINGUO-CULTUROLOGY" AND" LINGUO-MENTALITY" IN THE FIELD OF LINGUISTICS. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 132-134).
 6. Temirova, M. (2025). THE STYLISTIC ROLE AND ARTISTIC FUNCTION OF OXYMORON UNITS. Hamkor konferensiyalar, 1(14), 1037-1039
 7. KHIDIROVA, M. A., & TEMIROVA, M. A. K. (2019). TRANSLATION PROBLEMS OF PROVERBS FORMED WITH PROFESSIONS FROM ENGLISH INTO UZBEK. Развитие и актуальные вопросы современной науки, (6), 29-31
 8. Amirkulovna, K. M. ., & qizi, I. D. S. . (2023). Different Features and Interpretation of Phraseological Units with Zoocomponent in English and Uzbek Languages. Central Asian Journal of Social Sciences and History, 4(4), 78–83. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/KXMUQ>
 9. Khidirova Makhfuza Amirkulovna,. (2024). STUDY OF ANIMAL NAMES AND THEIR LINGUISTIC SIGNIFICANCE IN THE ENGLISH LANGUAGE. Hamkor Konferensiyalar, 1(6), 293–300. Retrieved from <https://academicsbook.com/index.php/konferensiya/article/view/698>
 10. Amirkulovna, K. M. (2024). Zoo of Languages: Borrowed Animal Names in English Lexicon. Miasto Przyszłości, 49, 1270–1275. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/4126>
 11. Duranti, A. (1997). Linguistic Anthropology. Cambridge University Press.

FRAZEOLOGIK BIRLIKLARDA MAQSAD VA INTILISH OBRAZLARI: O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA LINGVO-AKSIOLOGIK TAHLIL

Qurbonova Farangiz Mirzayevna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek va ingliz tillarida maqsad va intilish konseptlarini ifodalovchi frazeologik birliklar lingvo-aksiologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Frazeologizmlarda ifodalangan orzu, maqsadga intilish, qat’iyat, umid kabi qadriyatlar ikki xalq madaniyatidagi o‘xshash va farqli jihatlar asosida o‘rganiladi. Maqolada frazeologik birliklarning semantik tahlili, ularning aks ettirgan ijtimoiy, madaniy va axloqiy qadriyatlar qiyosiy ko‘rinishda yoritiladi.



Kalit soʻzlar: frazeologik birlik, maqsad, intilish, lingvo-aksiologiya, qiyosiy tahlil, semantika, madaniyat.

Har bir xalq tilida maqsad, intilish, orzu, niyat kabi tushunchalarni ifodalovchi oʻziga xos iboralar mavjud. Bunday iboralar xalqning qadriyatlar tizimi, dunyoqarashi va madaniy tafakkurini aks ettiradi. Maqsadga erishish yoʻllarini tavsiflovchi frazeologik birliklar nafaqat til vositasi, balki xalqning ruhiy dunyosini ifoda etuvchi lingvokulturologik hodisadir. Mazkur maqolada ana shunday birliklarning lingvistik va aksiologik xususiyatlari oʻzbek va ingliz tillari misolida tahlil qilinadi.

Oʻzbek tilidagi 'boshi berk koʻcha', 'quvvat topmoq', 'orzu qilish', 'koʻzlagan maqsadga erishmoq' kabi frazeologizmlar orzu-intilish konseptining ifodasi boʻlib, shaxsning maqsad sari harakati, qatʼiyati va iroda kuchini anglatadi. Ingliz tilida esa 'to pursue a dream', 'set one's sights on', 'go the extra mile', 'leave no stone unturned' kabi birliklar maqsadga erishish jarayonining turli bosqichlarini ifodalaydi. Frazeologik birliklarning semantik tahlili shuni koʻrsatadiki, har ikki tilda ham maqsad sari intilish kuchli ijtimoiy va shaxsiy qadriyat sifatida qaraladi. Biroq, oʻzbek tilida bu qadriyat koʻproq jamoaviylik, tavakkalchilik va sabr orqali ifodalansa, ingliz tilida shaxsiy tashabbus, qatʼiyat va amaliy harakat asosida namoyon boʻladi.

Lingvo-aksiologik jihatdan, ushbu frazeologik birliklar xalq tafakkuri, qadriyatlar tizimi va axloqiy meʼyorlari haqida tasavvur beradi. Masalan, oʻzbek tilidagi 'ezgu niyat oʻng boʻladi' iborasi niyatning ijobiy oqibatga olib kelishini bildirsa, ingliz tilidagi 'where there's a will, there's a way' iborasi inson irodasining kuchiga urgʻu beradi.

Xulosa qilib aytganda, oʻzbek va ingliz tillarida maqsad va intilish konseptlarini ifodalovchi frazeologik birliklar xalq ruhiyatining inʼikosi boʻlib xizmat qiladi. Bu birliklar orqali har ikki xalqning qadriyatlar tizimi, maqsad sari intilish uslublari, orzularni roʻyobga chiqarishdagi yondashuvlari tilda mujassam



bo'lgan. Frazologizmlarning lingvo-aksiologik tahlili esa til va madaniyat orasidagi uzviy bog'liqlikni chuqur anglashga xizmat qiladi.

Til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik har bir frazeologik birlikda namoyon bo'ladi. Frazologizmlar xalq tafakkuri, tarixiy xotira va qadriyatlarining lingvistik ifodasidir. Shu boisdan, ularning lingvo-aksiologik tahlili nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik, psixologiya va sotsiologiya nuqtai nazaridan ham muhimdir. Frazologizmlar orqali inson maqsad sari intilishining milliy xususiyatlari, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy-psixologik holati yoritiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Арутюнова Н.Д. Логика и лингвистика: Темы и фрагменты. – М.: Наука, 1999. – 448 с.
2. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: КомКнига, 2004. – 576 с.
3. Бобоева Ш.Ф. Ўзбек тилида фразеологизмларнинг семантик таҳлили. – Т.: Fan, 2009. – 150 б.
4. Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. – М.: Наука, 1987. – 250 с.
5. Komilov N. O'zbek xalqining ma'naviy merosi. – T.: O'zbekiston, 2000. – 264 b.
6. Koonin A.V. English Phraseology: A Course of Lectures. – Moscow: Vysshaya Shkola, 1996. – 295 p.
7. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 242 p.
8. Langacker R.W. Foundations of Cognitive Grammar. Vol. 1. – Stanford: Stanford University Press, 1987. – 512 p.
9. Mamatov R. Til va tafakkur uyg'unligi. – T.: Fan, 2004. – 210 b.
10. Mo'minova M. Frazologik birliklarning lingvokulturologik xususiyatlari. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2018. – 180 b.



TIBBIY LEKSIKA ASOSIDA SHAKLLANGAN INGLIZCHA VA O‘ZBEKCHA MAQOLLARNING CHOG‘ISHTIRMA TADQIQI

Choriyeva Iroda Qurbonboyevna

DTPI Xorijiy til va adabiyoti yuqori kurslar kafedrasida katta o‘qituvchisi

Email: iroda.chorieva@inbox.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi tibbiy leksika asosida shakllangan maqollar chog‘ishtirma tahlil qilinadi. Ular orqali har ikki xalqning sog‘liq, kasallik, shifo haqidagi qarashlari, mentaliteti, tibbiyotga munosabati ochib beriladi. Tahlilda semantik va stilistik o‘xshashliklar, tafovutlar, metaforik vositalar va xalq tabobatiga xos belgilar tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: maqol, tibbiy leksika, metafora, sog‘liq, paremiologiya, ingliz tili, o‘zbek tili.

Kirish

Maqollar xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy va sarmazmun shakllaridan biri bo‘lib, ular avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan donishmandlik, hayotiy tajriba va madaniy qadriyatlarining yuksak ifodasidir. Har bir til va xalqda maqollar milliy tafakkur, axloqiy me‘yorlar, turmush tarzi va ijtimoiy munosabatlar bilan chambarchas bog‘liq holda shakllangan. Ayniqsa, tibbiy leksika asosida yaratilgan maqollar xalqning sog‘liq, kasallik, tabobat, shifobaxshlik, gigiyena va hayotiy kuch-quvvatga bo‘lgan munosabatini ifodalashda muhim vositadir.

Tadqiqotimizda kasallik nomlari va belgilari asosida shakllangan maqollarni mavzuiy guruhlariga ajratib, ushbu konseptga doir maqollarni lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlash, ularning olamning milliy lisoniy manzarasidagi o‘rnini hamda o‘zbek va ingliz konseptosferasida ta‘lim, ilm konseptlarini chog‘ishtirib, lingvomadaniy qiymatini, maqomini yoritib berishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ydik. Masalan, Paremiologik birliklari orasida “disease”, “illness”, “sickness” va “malady” leksemalari mavjud ingliz maqollari, “dard” leksemasi bor o‘zbek maqollari mavjud bo‘lib, ular odatda jismoniy azob-uqubatlar, ruhiy kechinmalar va hayotdagi sinovlar haqida gapiradi va ko‘pincha sabr-toqat, madad, hamdardlik va har bir dardning biror bir yechimi borligini ta‘kidlaydi. Shuningdek, bunday



maqollar kasallikning mohiyati, sog‘liqning ahamiyati va kasallikning shaxs yoki jamiyatga ta’siri borasida ham ma’lumotlar beradi.

Ingliz xalqi orasida “Desperate diseases must have desperate remedies”⁶ (Tashvishli kasalliklarning tashvishli davolari bo‘lishi kerak) maqoli ham tez-tez qo‘llanilib turadigan naqlar sarasiga kiradi va “Yomon kasal kuchli dori talab qiladi” ma’nosida ishlatiladi. Mazmunan bu nafaqat tibbiy davolanishga, balki boshqa har qanday murakkab muammolarni hal qilishga ham tegishli bo‘lishi mumkin, ya’ni “Mushkul vaziyat keskin chora talab qiladi” mazmunida odatda, odam qiyin ahvolda qolganda odatdagidan o‘zgacha va qattiqroq usullarni qo‘llashga majbur bo‘lishini tasvirlash uchun ishlatiladi. Maqolning o‘zbek tilidagi ekvivalenti shunga o‘xshash bo‘lib, qaysidir o‘rinlarda, “Kapasiga yarasha qirmovi, Eshagiga yarasha tushovi”⁷ va “Savolga – javob, Salomga – alik”⁸ kabi talqin qilish mumkin.

“The cure may be worse than the disease”⁹ (Davo kasallikdan ham yomonroq bo‘lishi mumkin) va “The remedy may be worse than the disease”¹⁰ (Dori-darmon kasallikdan ham yomonroq bo‘lishi mumkin) aynan tibbiyot bilan bog‘liq ingliz maqollaridan bo‘lib, ba’zida muammoni hal qilish yoki kasallikni davolash uchun qo‘llanilgan chora-tadbirlar yoki usullar asl muammodan ko‘ra kattaroq zarar yoki nojo‘ya ta’sirlar keltirishi mumkin. Bu ibora odatda biror muammoga noto‘g‘ri yoki haddan tashqari keskin yechim tanlash natijasida muammo yanada og‘irlashib ketishi mumkinligini ham bildiradi. Shu tariqa, bu ibora nafaqat tibbiyot, balki siyosat, iqtisodiyot yoki kundalik hayotdagi muammolarni hal qilish jarayonlarida ham qo‘llanadi va o‘zbek tilida unga ko‘proq tibbiy jihatdan mos keladigan quyidagi

⁶ Jennifer Speake. The Oxford Dictionary of Proverbs: Fifth edition. – USA.: Oxford University Press, 2007.p.128.

⁷ Т.Мирзаев, Б.Саримсоков. Ўзбек халқ мақоллари: I том. – Тошкент: Ўзбекистон ССР “Фан” нашриёти, 1987. – Б.227.

⁸ Т.Мирзаев, Б.Саримсоков. Ўзбек халқ мақоллари: II том. – Тошкент: Ўзбекистон ССР “Фан” нашриёти, 1988. – Б.20.

⁹ Martin H. Manser. The facts on file dictionary of Proverbs: Second edition. – New York: Facts on File An imprint of Infobase publishing, 2002. P.49.

¹⁰ O’sha manba – P.232



maqollarni misol qilish mumkin: “Dorining achchig‘i yaxshi”¹¹; “Kasalni mayiz emas, Achchiq dori tuzatar”¹².

Ko‘pincha insonlar o‘z zavqlari, qulayliklari va lazzatlaridan haddan tashqari foydalanganlarida, buning natijasi o‘laroq, kasallik yoki zararli oqibatlar yuzaga keladi. Hayotdagi bunday ortiqcha lazzatlanishlar va me‘yorni bilmaslik oxir-oqibat salomatlikka zarar yetkazadi, kasalliklarga sabab bo‘ladi. Ya‘ni, zavqlar uchun to‘lanadigan “foiz” yoki “narx” – bu kasalliklar sanaladi. Shi sababli har bir millatda shu muammo bilan bog‘liq xalq og‘zaki namunalari mavjud. Masalan, ingliz tilida “Diseases are the interests of pleasures”¹³ (Kasalliklar rohatlanishga ishqibozlik natijasidir) maqoli ishlatilsa, “Diling og‘risa, tilingni tiy, Iching og‘risa – nafsingni”¹⁴, “Ko‘zing og‘risa, qo‘lingni tiy, Iching og‘risa – nafsingni”¹⁵ va “Mening nafsim balodir, Yonar o‘tga solodur”¹⁶ naqlari o‘zbek xalq vakillari orasida mashhur. Bu orqali insonning nafsini boshqara olmasligi uni yomon oqibatlarga olib kelishi mumkinligini, nafsni, ya‘ni insonning ichki istak va xohishlarini boshqarish mushkulligini, agar nazorat qilinmasa, katta zarar va baloga sabab bo‘lishini anglab olish qiyin emas.

Yuqoridagi namunaga juda o‘xshash bo‘lgan “Much meat, much disease”¹⁷ yoki “Much meat much maladies”¹⁸ (Kop go‘sh t ko‘p kasallikdir) ingliz maqoli va unga teng ma‘noga ega o‘zbekcha ekvivalentlari “Sihat tilasang, ko‘p yema, Izzat tilasang, ko‘p dema”¹⁹, “Kam yemoq to‘rga eltar, Ko‘p yemoq – go‘rga”²⁰, “Ko‘p yeyman deb urinma, Sog‘lig‘ingga qayg‘ursang”²¹, “Oz yeganga bor davo, Ko‘p

¹¹ K.M.Karamatova, H.S.Karamatov. Proverbs/Maqollar/Пословицы. – Toshkent: Mehnat, 2000. B.293.

¹² T.Mirzaev, B.Sarimsoqov. Ўзбек халқ мақоллари: I том. – Тошкент: Ўзбекистон ССР “Фан” нашриёти, 1987. – Б.229.

¹³ John Ray. A Compleat Collection of English Proverbs. – London: Forgotten Books, 2013 (originally published 1817). P.5.

¹⁴ T.Mirzaev, B.Sarimsoqov. Ўзбек халқ мақоллари: I том. – Тошкент: Ўзбекистон ССР “Фан” нашриёти, 1987. – Б.131.

¹⁵ O‘sha manba. – B.248.

¹⁶ O‘sha manba. – B.269.

¹⁷ https://proverbicals.com/meat/#google_vignette

¹⁸ John Ray. A Compleat Collection of English Proverbs. – London: Forgotten Books, 2013 (originally published 1817). P.93.

¹⁹ T.Mirzaev, B.Sarimsoqov. Ўзбек халқ мақоллари: II том. – Тошкент: Ўзбекистон ССР “Фан” нашриёти, 1988. – Б.35.

²⁰ T.Mirzayev, B.Sarimsoqov. O‘zbek xalq maqollari: I-tom. – T.: O‘zbekiston SSR “Fan” nashriyoti, 1987. B.224.

²¹ O‘sha manba. – B.251.



yeganga ne davo”²² hamda “Dardning sababi – tomoq, Qarab yemagan ahmoq”²³ kabilar shuni anglatadiki, ortiqcha taomlanish ko‘pincha turli kasalliklar, ayniqsa, sog‘liq bilan bog‘liq muammolarga olib keladi. Bu naqllar tanani ortiqcha yuklash, muvozanatsiz ovqatlanish yoki ortiqcha mahsulotlar (xoh go‘sht bo‘lsin, xoh boshqa qulayliklar yoki lazzatlar) sog‘liq yoki hayot uchun zararli bo‘lishi mumkinligini eslatadi. Shu tariqa, bu singari paremlar me’yorni saqlash va ortiqcha narsalardan saqlanishni tavsiya qiladi.

Ushbu ma’noga juda yaqin bo‘lgan “The stomach is the home of maladies”²⁴ (Oshqozon kasalliklar o‘chog‘idir) maqoli ham bevosita ovqatlanish bilan bog‘liq bo‘lib, ko‘p kasalliklarning kelib chiqish manbai noto‘g‘ri ovqatlanish yoki me’yorsiz oziqlanish natijasida kelib chiqishi, oshqozon inson tanasining muhim a’zosi sifatida qanday oziqlanishiga qarab salomatlikka ta’sir qilishi haqida ogohlantiradi. Bu mazmuni ifodalashga xizmat qiladigan ko‘plab o‘zbek maqollari mavjud: “Ich og‘risa, o‘zingdan, Gina qilgil ko‘zingdan”²⁵, “Yaxshi ovqat qolguncha, Yomon qornim yorilsin”²⁶. Ushbu maqollar insonlarni nafaqat salomatlik sirlaridan voqif etadi, balki, nafsnı jilovlash eng oliy fazilatlardan ekanligi haqida ham eslatib o‘tadi.

Inson yoshi ulg‘ayib keksalikka qarab qadam qo‘yar ekan, tananing tabiiy ravishda zaiflashishi va salomatlik bilan bog‘liq muammolar ko‘payib borishi kuzatiladi. Bu borada dunyo xalqlari bir xil fikrda bo‘lib, xuddi shu mazmuni ifodalaydigan xalq og‘zaki namunalari ko‘plab topiladi. Ingliz tilidagi “Old age is sickness of itself” va o‘zbekcha “Qarilik – davosiz dard” xalq maqollari qarilikni inson hayotining muqarrar va qaytarib bo‘lmaydigan qismi sifatida tasvirlaydi. Ularda qarilik davo topib bo‘lmaydigan kasallikka o‘xshatiladi, ya’ni, inson qanchalik harakat qilmasin, uni to‘xtatish yoki davolash imkonsiz. Bu iboralar inson

²² T.Mirzayev, B.Sarimsoqov. O‘zbek xalq maqollari: I-tom. – T.: O‘zbekiston SSR “Fan” nashriyoti, 1987. B.300.

²³ O‘sha manba. – B.126.

²⁴ Mohammed Attia. Dictionary of Common English Proverbs. 2004. P.169.

²⁵ T.Mirzaev, B.Sarimsoqov. Ўзбек халқ мақоллари: I том. – Тошкент: Ўзбекистон ССР “Фан” нашриёти, 1987. – Б.205.

²⁶ T.Mirzaev, B.Sarimsoqov. Ўзбек халқ мақоллари: II том. – Тошкент: Ўзбекистон ССР “Фан” нашриёти, 1988. – Б.207.



hayotining so‘nggi bosqichi sifatida qarilikning o‘ziga xos qiyinchiliklari va cheklovlariga ishora qiladi hamda hayotning o‘tkinchiligi va qarilikning tabiiy jarayon ekanini ifodalaydi, shuningdek, inson umrining oxiriga yaqinlashishini falsafiy jihatdan yoritadi.

Xulosa

Tahlildan ma’lum bo‘lishicha, ingliz va o‘zbek tillarida tibbiy leksika asosida shakllangan maqollar madaniy jihatdan farq qilsa-da, semantik yondashuvlar jihatidan ko‘plab umumiyliklarga ega. O‘zbek maqollarida xalq tabobati, tabibga ishonch, duo va ruhiy sabr mavzusi ko‘proq uchrasa, ingliz maqollarida esa gigiyena, profilaktika va sog‘lom turmush tarzi ustuvor mavzulardir.

Shuningdek, har ikki til maqollarida sog‘liqning asosiy qadriyat sifatida talqin etilishi, kasallikni vaqtida davolash va uning oldini olishga urg‘u berilishi umumiy semantik asoslar mavjudligini ko‘rsatadi. Ingliz maqollarida individualizm va ilmiy tibbiyot unsurlari ko‘proq uchrasa, o‘zbek maqollarida jamoaviylik, ruhiy tasalli va qadimiy xalq tabobatiga tayanish kabi jihatlar kuchliroq namoyon bo‘ladi.

Ushbu maqollarni taqqoslash tilshunoslikda nafaqat leksik-semantik o‘xshashliklarni aniqlash, balki har bir xalqning salomatlikka bo‘lgan madaniy va tarixiy munosabatini tushunishda muhim vosita bo‘la oladi. Tadqiqot natijalari lingvomadaniy o‘xshashliklar va farqlarni aniqlashga, tarjima jarayonlarida kontekstga mos yondashuvlar ishlab chiqishga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jennifer Speake. The Oxford Dictionary of Proverbs: Fifth edition. – USA.: Oxford University Press, 2007.p.128.
2. Т.Мирзаев, Б.Саримсоқов. Ўзбек халқ мақоллари: I том. – Тошкент: Ўзбекистон ССР “Фан” нашриёти, 1987. – Б.227.
3. Т.Мирзаев, Б.Саримсоқов. Ўзбек халқ мақоллари: II том. – Тошкент: Ўзбекистон ССР “Фан” нашриёти, 1988. – Б.20.
4. Martin H. Manser. The facts on file dictionary of Proverbs: Second edition. – New York: Facts on File An imprint of Infobase publishing, 2002. P.49.
5. К.М.Караматова, Н.С.Караматов. Proverbs/Мақоллар/Пословицы. – Toshkent: Mehnat, 2000. B.293.



6. John Ray. A Compleat Collection of English Proverbs. – London: Forgotten Books, 2013 (originally published 1817). P.5.
Professor, Department of Korean Philology
Kimyo International University in Tashkent (KIUT)

Abstract. This paper explores the correlation between language and culture through a comparative analysis of Korean and Uzbek. Language and culture are



closely interrelated; language both reflects and is shaped by the culture in which it is used. Therefore, understanding a language involves understanding the cultural norms, values, and worldview of its speakers. This study focuses on honorific expressions, kinship terms, metaphorical expressions, and idiomatic phrases to reveal how these linguistic elements are deeply rooted in culture. By examining how Korean and Uzbek express similar concepts differently, the paper aims to provide insights into the influence of culture on language structure and usage.

Key Words: Metaphorical expressions, Idiomatic phrases, Cultural norms, Honorific expressions, Kinship terms

1. Introduction

It is widely acknowledged that language and culture are closely interrelated. Language serves not only as a tool for communication but also reflects the unique culture, lifestyle, and worldview of a society. In particular, the relationship between language and culture can be clearly observed in the case of the Korean language. Korean features a distinctive system of honorifics and expressions of respect based on age and social hierarchy, which mirrors Confucian values and collectivistic thinking. This is closely tied to Korean culture, which emphasizes consideration for others and harmony within the community. On the other hand, Uzbek also possesses many expressions that reflect traditional values and beliefs, and understanding these cultural characteristics is essential to properly grasping the language.

In this paper, I aim to explore the mutual relationship between language and culture through a comparative analysis of Korean and Uzbek. By examining specific examples from daily life, I will investigate how culture is embedded in language and how language conveys cultural values. This approach seeks to go beyond simple linguistic comparison and delve into a more in-depth cultural and anthropological understanding. Ultimately, I intend to propose implications for language education and intercultural communication.

2. Literature Review

Previous studies have often viewed language and culture as separate entities. However, more recent research suggests that language and culture are deeply interconnected and influence each other. For example, Kramsch (1998) stated that



language acts as a symbol of cultural identity and simultaneously as a medium for transmitting culture. Sapir and Whorf also emphasized the influence of language on cognition and worldview through the "linguistic relativity hypothesis."

In the context of Korean, studies have focused on the unique features of the honorific system and the cultural meanings of indirect speech. Choi (2006) analyzed how Korean speakers express politeness in everyday interactions, revealing the cultural value placed on consideration and respect. Research on Uzbek has been relatively limited, but some scholars have examined how Islamic values and nomadic traditions are reflected in the language. Karimov (2015) noted that Uzbek incorporates many idioms and metaphors rooted in traditional customs, especially those associated with hospitality and religious expressions.

These studies provide important theoretical foundations for understanding the relationship between language and culture. However, comparative research between Korean and Uzbek remains scarce. This paper aims to address this gap and present a more integrated cultural perspective.

3. Analysis: Comparison of Korean and Uzbek

3.1. Expressions of Politeness and Honorifics

Korean has a highly developed system of honorifics. Forms vary based on the listener's age, social status, and relationship to the speaker. For instance, verbs such as "드시다" (to eat – honorific) and "주무시다" (to sleep – honorific) are used when referring to elders or superiors. Additionally, sentence endings like "~습니다" and "~세요" are used to show respect, and choosing the appropriate level of speech is a key component of social etiquette. This is deeply rooted in Confucian values, which emphasize social hierarchy and respect for elders.

Uzbek, by contrast, lacks a highly elaborate honorific system like Korean. While respectful forms such as "siz" (formal 'you') are used, and honorific suffixes like "-xon" or "-aka/-opa" are added to names, the grammatical structure does not change significantly depending on the listener. However, showing respect is still



important in Uzbek culture, and polite expressions are often employed. For example, before entering someone's home, it is customary to say "Salom alekum" (Peace be upon you), a phrase with religious overtones.

Thus, while Korean uses detailed linguistic tools to express politeness, Uzbek demonstrates respect through cultural etiquette and context-sensitive language.

3.2. Kinship Terms and Social Relationships

Korean has an extensive kinship term system. Beyond immediate family, terms like "삼촌" (uncle), "이모" (aunt – maternal), and "고모" (aunt – paternal) are distinguished, and separate terms exist depending on whether a sibling is older or younger. This reflects the strong importance placed on family hierarchy and roles.

Uzbek also uses various kinship terms, but the distinctions are not as detailed as in Korean. For example, "aka" is used for an older brother, "opa" for an older sister, and "ota" for father. However, as in Korean, even non-relatives may be referred to using kinship terms to express familiarity or respect, such as calling an older man "aka."

Thus, both languages utilize kinship terms to reinforce social closeness and relationships, though the level of specificity in Korean is higher.

3.3. Indirectness and Directness in Speech

Korean favors indirect and nuanced expressions. Requests are often softened using negative forms or rhetorical questions, such as "혹시 시간 안 되세요?" (By any chance, are you unavailable?) instead of a direct "시간 돼요?" (Are you available?). This reflects the Korean cultural tendency to avoid direct confrontation and maintain harmony.

Uzbek speech, while generally polite, tends to be more direct. A question like "Vaxtingiz bormi?" (Do you have time?) is commonly used. However, expressions of indirectness also appear in formal settings or when addressing elders. Therefore, both languages reflect different levels of directness depending on the social context.

4. Conclusion and Implications



This study explored the correlation between language and culture with a focus on Korean and Uzbek. The findings reaffirm that language is not merely a means of communication but a cultural product that embodies the values, historical experiences, and lifestyles of each society.

Korean, in particular, reflects its Confucian, agricultural, and collectivistic heritage through its elaborate honorifics, indirect expressions, and kinship terminology. Uzbek, shaped by nomadic traditions, Islamic culture, and the Soviet era, presents a language that is relatively concise, community-centered, and rich in religious values.

While both languages emphasize consideration for others, the ways in which this is expressed vary. Korean speakers often use indirect, soft-spoken language due to cultural norms around conflict avoidance and face-saving. Uzbek speakers may use more straightforward expressions, yet still uphold religious etiquette and communal harmony.

These differences are rooted not just in linguistic structures but in the underlying cultural values and worldviews they reflect. Therefore, in language education and cross-cultural exchange, it is essential to go beyond grammar and vocabulary and incorporate the cultural contexts in which these languages are embedded.

The implications are as follows:

The Need for Cultural Understanding in Language Education
For learners of Korean or Uzbek as foreign languages, it is crucial to adopt an integrated approach that includes cultural awareness. For instance, understanding Korean honorifics as cultural phenomena rather than mere grammar can enhance both linguistic competence and intercultural sensitivity.

Enhancing International Communication and Understanding
In an increasingly globalized world, cultural literacy is vital for effective communication. Understanding and respecting different cultural backgrounds can reduce misunderstandings and foster better dialogue. For example, recognizing the



cultural intent behind Uzbek directness can prevent misinterpretations by Korean speakers, and vice versa.

Implications for Language Policy and Cultural Preservation
In the case of Uzbek, which has undergone linguistic and identity shifts during the Soviet era, efforts to preserve traditional values, religious expressions, and native language customs are essential. This supports not only language retention but also the reinforcement of cultural identity and self-esteem.

Expanding Comparative Cultural Research
While this study focused on Korean and Uzbek, future research can include a wider range of languages and cultures to deepen the theoretical and practical understanding of the interrelationship between language and culture.

In conclusion, language and culture are inseparable, and understanding one enriches the understanding of the other. Learning and teaching a language should involve its cultural context, which serves as the foundation for meaningful intercultural communication.

REFERENCES

1. Halliday, M. A. K. (1978). *Language as social semiotic: The social interpretation of language and meaning*. London: Edward Arnold.
2. Hymes, D. (1974). *Foundations in sociolinguistics: An ethnographic approach*. Philadelphia: University of Pennsylvania Press.
3. Kim, Y. H. (2011). *A study on honorific expressions in Korean*. Seoul: Language and Culture Press.
(김영희. (2011). 『한국어의 높임 표현 연구』. 서울: 언어문화사.)
4. Lee, K. H. (2007). *Language and culture: Understanding Korean through sociolinguistics*. Seoul: Hanul Publishing.
(이기화. (2007). 『언어와 문화: 사회언어학적 관점에서 본 한국어 이해』. 서울: 한울출판사.)
5. Sapir, E. (1921). *Language: An introduction to the study of speech*. New York: Harcourt, Brace and Company.
6. Whorf, B. L. (1956). *Language, thought, and reality: Selected writings of Benjamin Lee Whorf*. (J. B. Carroll, Ed.). Cambridge, MA: MIT Press.



7. Yuldashev, O. (2015). O‘zbek tili madaniyati. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.

INGLIZ, NEMIS VA O‘ZBEK TILLARIDAGI MAQOLLARNI MAVZULASHTIRISH MUAMMOSI

N.E.Sharipova

Katta o‘qituvchi, O‘zDJTU

Annotatsiya. Maqolada ingliz, nemis va o‘zbek tillaridagi maqollarning mavzulashtirish muammosiga asosiy e‘tibor qaratilgan bo‘lib,, tahlil natijalariga ko‘ra ular o‘rtasida o‘xshash va farqli holatlar aniqlandi.

Kalit so‘zlar: paremiologiya, qiyosiy tahlillar, o‘ziga xoslik, fe‘lli iboralar.

Yurtimizda maqollarning chog‘ishtirma-qiyosiy tahlili sohasida juda ko‘plab sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Maqollarning strukturaviy-semantik o‘zaro tahlili amalga oshirilganda, Xayrullayeva N. N. “Frazeologizmlar va ularning semantik qiyosiy tahlillari” nomli ilmiy maqolasida maqol har doim insonga murojaat qilishini, u insonga yashashni o‘rgatishini, unga biron xatti- harakatni amalga oshirishni buyurishi yoki uni man etishini, maqollarda hayvonot yoki narsa nomi ostida inson tushunilishini qayd etib o‘tgan.[6, 6 154]

Maqollar “mikrotekstar” bo‘lib, ular xuddi leksik birliklar kabi kontekstda reproduksiya qilinmaydi, balki "sitatalar" shaklida beriladi.

Keltirilgan misolimiz frazeologik birlik bo‘lib hisoblanadi va "kimgadir chog‘ (chuqur) qazmoq" deb tarjima qilinadi. Bu ibora quyidagi maqoldan hosil bo‘lgan:
M: Wer anderen eine Grube gräbt, fällt selbst hinein.

Ushbu maqolning o‘zbek tilidagi muqobili quyidagicha ta’riflanadi:

Birovga chog‘ qazsang, o‘zing yiqilasan.

Maqollar mehnatkash xalqning falsafiy qarashlari bo‘lib, ular hayotning turli jarayonlarida vujudga kelgandir. Xalq maqollari kishilarga o‘git — nasihat berish bilan birga, ularni ogoh bo‘lishga undaydi, kelajakdagi shodlik va mashaqqatlardan xabardor qiladi. Baxtli bo‘lishga ruhlantirish bilan birga, musibatlarga bardosh berishga o‘rgatadi. Maqol kishilarni g‘alabalarga ilhomlantiradi. O‘tkir so‘z maqol



nutq uchun ajoyib libos vazifasini bajarish bilan kishilarni tarbiyalaydi. Maqolsiz xalq bo‘lmaganidek, o‘z nutqida xalq maqollarini ishlatmaydigan kishi ham bo‘lmaydi.

Turli tillarda maqollarni to‘plab, ularni mavzulashtirilgan holda semantik tasniflash borasida shu kungacha salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Xususan, o‘zbek xalq maqollari ham bir nechta tilshunos olimlar tomonidan to‘planib, mavzulashtirilgan holda to‘plam shaklida chop ettirilgan. Jumladan, R. Jumaniyozov o‘zining paremiologik to‘plamida o‘zbek xalq maqollarini 22 ta mavzuga, A. Xolmuhamedov esa 56 ta mavzuga ajratdi. Hozirgi kunda o‘zida miqdor jihatdan eng ko‘p maqollarni jamlagan T. Mirzayev, A. Musoqulov va B. Sarimsoqov tomonidan hammualliflikda yaratilgan paremiologik to‘plamda 8000 dan ortiq maqollar 70 ta mavzuga ajratilgan. Shu bois uni o‘rganmasdan birorta dunyo jamiyatini tushunishning ma’nosi yo‘q. “Nutqda muqobillik tamoyiliga ko‘ra ko‘p ma’noda qo‘llanila oladigan qisqa, nutqda mustahkam o‘rnashgan, ritmik tashkillashgan obrazli nutqqa maqol deyiladi. Mazkur ta’rifda ko‘rsatib o‘tilgan belgi va alomatlar – qisqalik, turg‘unlik, ritm, ko‘p ma’nodlilik va b. Ilk maqollar qadim zamonlarda paydo bo‘lgan. “Maqollarning paydo bo‘lish sinoatlari ularning mazmunida yashiringan. Maqollarni ham, matallarni ham G. L. Permyakov (bosma qolip so‘zlar) nazariyasi doirasida ko‘rib chiqadi.

2022 yilda Samarqand shahrida o‘tkazilgan “Insoniyat ruhiy madaniyat olami, til adabiyot va san’at” nomli ilmiy – amaliy konferensiyada bir guruh yosh filolog olimlar til milliy dunyoqarashni aks ettirishning yorqin vositasi ekanligini bir necha marotaba qayd etganlar .

Paremiologik birliklarga maqol, matal, aforizm va ibratli so‘zlar kirib, ular millatning ko‘p asrlik milliy-madaniy an’analari, axloqiy mezonlari va pand-nasihatlarini ixcham ko‘rinishda ifodalaydi.

Xalq ijodiyotini o‘rganish, tadqiq qilish, bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda. «Jahonda xalq poeziyasi g‘ayratli, tiyrak, jo‘shqin, hayot kechiruvchi, sofdil, e’tiborli, oliyjanob xalqlardagina kamol topadi» deydi J.T.Chernishevskiy.[4, 231] Xalq hayoti tajribasidan kelib chiqadigan xulosalarning badiiy ifodasi bo‘lmish



maqollar, garchi bir-ikki jumlati yoki misrali bo‘lsa-da, ularning har biriga, Maksim Gorkiy ta‘biri bilan aytganda, “butun-butun kitoblarga tatiydigan fikr va tuyg‘u jo qilingan”.

Tadqiqotimiz mavzusiga oid internet saytlaridan olingan ma‘lumotlarga ko‘ra, xalqimiz sherni — mard, dovyurak botirlarga; tuyani — el-yurt og‘alariga, buzruklarga, shuningdek, kuchli, chidamli, sabot — matonatli, ba‘zi hollarda esa takabbur kishilarga; eshak va ho‘kizni — befahm, befarosat dangasalarga; qo‘yni yuvosh, muloyim tabiatli kishilarga, mazlumkorga; qaldirg‘ochlar qanoti esa qizlarning qoshlariga nisbatan o‘xshatiladi.

Maqollar tabiat va inson birligining azaliyligini, abadiyligini namoyon etadi. Xursandchiligimizni «Boshim osmonga yetdi» tarzida ifodalasak, xafa odamni ko‘rib," qovog‘idan qor yog‘adi", deya yana tabiat bag‘ridan ifoda qidiramiz. Shuningdek, «Qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan» «Musichaday beozor», «Chumoliday mehnatkash» kabi iboralar hayvonot dunyosi bilan inson o‘rtasidagi bog‘liqlikni eslatib turadi.

Demak, tabiat, inson, jismlar, o‘simliklar, hayvonlar hamma-hammasi bir-biriga uzviy bog‘liq, hatto ular bir-birisiz yashay olmaydilar, mehnat qila olmaydilar. Bunday tushunchalar o‘quvchilar ongiga singdirib borilsa, yosh avlod kelajak avlodga tabiatni, borliqni asrab — avaylab yetkazishga harakat qiladi.

Maqollarning tematik guruhlarda tasnif etilishiga to‘xtalar ekanmiz, ushbu jadvalda aks ettirilgan tasnif 2013-yil 16-oktabrda nashr etilgan “O‘zbek xalq maqollari” to‘plamida tavsiya etilgan ma‘naviy guruhlar asosida amalga oshirilgan :

T/r	GURUH NOMI	Miqdori(%)
1.	Yaxshi- yomon	40
2.	Aql-ahmoqlik	10
3.	Mehnat – yalqovlik	10
4.	Baxt- qayg‘u	10
5.	Do‘stlik-dushmanlik	15



6.	Ishonch-ishonchsizlik	5
7.	Sevgi – nafrat	10

Bundan tashqari, tarjimon Davronbek Tojialiyev tomonidan tarjima qilingan hamda zyouz.com saytida taqdim etilgan “Ingliz xalq maqollari” (3.11.2013) va “Nemis xalq maqollari” to‘plamlaridan asoslangan holda tadqiqotimizda maqol va matallarni semantik strukturada quyidagi guruhlarda qiyoslab o‘rganildi:

Somatik(Inson tana a‘zolari ishtirok etgan) maqollar:

Neck or nothing.

Alles oder Nichts.

Yo bor bo‘l – yo yo‘q bo‘l

Yo bud – yo nobud.

Bu maqolda faqat ingliz tilidagi varianti somatik (neck) maqollar guruhiga mansub bo‘lib, boshqa tillarda umumiy ma’no boshqa vositalar bilan ifodalangan.

One hand washes the other.

Ein Hand wäscht die andere

Qo‘lni qo‘l yuvar.

Bu maqolda esa qiyosiy tahlil olib borilayotgan barcha tillarda somatik holatni ko‘rish mumkin.

A sound mind in a sound body.

Ein gesunder Geist in einem gesundern Körper.

Sog‘ tanda – sog‘lom aql.

Lies have short legs.

Lügen kurze Beine.

Yolg‘onning umri qisqa.

Zoonomik maqollar:

All are not saint that go to the church.

Ein Affe bleibt ein Affe,

Werd’er König oder Pfaffe.

Eshak makkaga borgani bilan halol bo‘lmas.



Ushbu maqolda umumiy ma’no qiyoslanayotgan uchta tillarda uch xil yondashuv bilan ifodalanadi. Ingliz tilidagi maqolda hayvonlardan farqli ravishda avliyo – cherkov (shu millat mentalitetidan kelib chiqqan holda) semantik birliklari bilan ifodalansa, nemis va o‘zbek tilidagi maqollarni esa zoonomik maqollar guruhiga kiritish mumkin. Biroq, bu ikki xalqning milliy madaniyati tafovutini maqollarida qo‘llanilgan hayvonlar obrazida ko‘rish mumkin, ya’ni ahmoqlik obrazi nemis xalqida maymun obrazida ifodalansa, eshak esa shu ma’noda o‘zbek xalqi uchun xosdir.

You teach a fish swim.

Lehre nicht die Fische schwimmen.

Baliqni suzishga o‘rgatma,

Qushni uchishga.

Numerologik maqollar:

A sound mind in a sound body.

Ein gesunder Geist in einem gesunden Körper.

Sog‘ tanda – sog‘lom aql.

Ingliz maqollarida son kategoriyasi asosan noaniq artikl bilan ifodalanadi.

One swallow doesn’t make spring.

Eine Schwalbe macht keinen Frühling.

Bir qaldirg‘och bilan bahor,

Bir qarg‘a bilan qish kelmaydi.

Floraga oid maqollar:

The tree can be recognized by its fruits.

Den Baum erkennt man an den Früchten.

Daraxt mevasidan, odam so‘zidan bilinur.

Kasbga oid maqollar:

Time cures all things.

Die Zeit ist der beste Arzt.

Hamma narsaning da’vosi vaqt.



Ushbu oxirgi ikki guruh maqollarida tillar orasida so‘z tanlovida o‘xshashlik va farqlarni ham ko‘rish mumkin bo‘ladi. Xolmurodova G. S. ““Qarindoshlik ” haqidagi maqollarning kognitiv tahlili” ilmiy maqolasida ham keltirilgan misollarga ko‘ra bir tilda ma’no flora yoki biror kasb bilan ifodalansa, boshqasida bu holat umuman boshqa semantik birlikda o‘z ifodasini topishi mumkin.[5,b 453]

Toponimlar ishtirok etgan maqollar:

Rome was not built in a day.

Rom ward nicht in einem Tage gebaut.

Har qanday buyuk minora ham pastdan qad ko‘taradi.

Ingliz, nemis va o‘zbek tillarida ko‘p sintaktik, semantic hamda tematik jihatdan tahlil qilinganda, mutanosiblik ingliz va nemis tillarida o‘zbek tilidagi maqollardan ko‘ra ko‘proq uchrashi mumkin:

A new broom sweeps clean.

Neue Besen kehren gut.

Yangi supurgi toza supurar.

Ayrim maqollarda takror so‘zlar ishlatilganida, ulardan birining ishlatilmasligi maqol mazmuniga ta’sir qilmaganligini uch tillarda ham kuzatish mumkin:

Tastes differ.

Über den Geschmack läßt sich nicht straiten.

Har kimning o‘z didi bor,

Har gulning o‘z hidi.

Ingliz, nemis va o‘zbek tillarida maqollar bir biriga o‘xshash turli mavzularga guruhlangan bo‘lib, ularning ifodalanishi tillar orasida faqat sintaktik jihatdan tafovutda ko‘rinishi mumkin. Uch tildagi maqollarni o‘zaro umumlashtirgan mavzular asosan yaxshilik va yomonlik, mehnatsevarlik va vaqt qadri, do‘stlik, vatanparvarlik kabi dolzarb umuminsoniy mavzular hisoblanishi tadqiqot davomida aniqlandi. Mavzular o‘rtasidagi tafovut esa asosan maqollar tarkibidagi so‘zlar tanlovi, sintaktik hamda semantik jihatdan farqda kuzatildi. Mavzu guruhlarini bilish nafaqat tilshunos olimlarga, balki maqollar qiyosiy tarjimasini bilan shug‘ullanadigan



mutaxassislar - tarjimonlarga ham maqollarning ekvivalentlarini, shuningdek ularning sinonimlarini tanlashda yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva N. E. [A.”Ingliz va o‘zbek xalq maqollaridagi graduonimik munosabatlarning lingvopragmatik xususiyatlari”-2019](#)
2. Axmeova U. K. “Ingliz va o‘zbek maqollarining lingvokulturologik-semantik xususiyatlari”dis. Urganch 2014
3. Baxronova D.K. Antropozoomorfizmlarning lingvokulturologik xususiyatlari. Monografiya. – Toshkent, 2018. – 155 b.
4. Chernishevskiy J.T. «Современнике» 1863 стр 231
5. Xolmurodova G. S. ““Qarindoshlik ” haqidagi maqollarning kognitiv tahlili” Вестник магистратуры 2021
6. Xayrullayeva N. N. “Frazeologizmlar va ularning semantik qiyosiy tahlillari” Интернаука 2017

MADANIYATLARARO KOMMUNIKATSIYADA SPORT LEKSIKASINING ROLI

Barotov Javoxir Ravshan o‘g‘li

Termiz davlat universiteti, magistranti

Email: javohirbaratov@mail.ru

DSc, dotsent Z. Narmuratov

Annotatsiya. Ushbu maqolada madaniyatlararo kommunikatsiyada sport leksikasining tutgan o‘rni va uning tilshunoslikdagi lingvomadaniy ahamiyati tahlil qilinadi. Sport tili nafaqat jismoniy faoliyat doirasida, balki xalqlar o‘rtasidagi madaniy muloqot vositasi sifatida ham qaralmoqda. Xususan, sport terminlari milliy tafakkur, qadriyatlar va an‘analarni ifodalovchi semantik birliklar sifatida o‘zaro tushunish va madaniyatlararo anglashuvda muhim rol o‘ynaydi. Maqolada o‘zbek sport leksikasining (masalan, kurash, polvon, uloq-ko‘pkari) madaniy yuki, ularning ingliz tiliga tarjima jarayonidagi muammolari ham yoritiladi.

Kalit so‘zlar: madaniyatlararo kommunikatsiya, sport leksikasi, lingvomadaniyat, tarjima, o‘zbek sport terminlari, sport metaforalari, madaniy tafakkur, global tilshunoslik.

Bugungi globallashtirish jarayonida madaniyatlararo kommunikatsiya tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Turli millat va madaniyat vakillari o‘rtasidagi



samarali muloqotni ta'minlashda umumiy tushunarli kod – til, xususan, leksik birliklarning roli beqiyosdir. Ayniqsa, sport sohasi til va madaniyatlararo aloqalar chorrahasida joylashgan, keng ommaga tushunarli, dinamik va emotsional boy leksik qatlamni tashkil etadi. Sport leksikasi nafaqat tilshunoslik nuqtai nazaridan, balki ijtimoiy-madaniy kontekstda ham muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu maqolada sport leksikasining madaniyatlararo kommunikatsiyadagi o'rni, uning universal va milliy xususiyatlari hamda turli madaniy kontekstlarda qanday tarzda qabul qilinishi tahlil etiladi.

Sport leksikasi – bu sportga oid so'z va iboralar majmuasi bo'lib, u muayyan sport turlari, musobaqalar, jismoniy mashg'ulotlar hamda sport bilan bog'liq faoliyatni ifodalashda qo'llaniladi. Ushbu leksik qatlam turli tillarda o'ziga xos shaklda namoyon bo'lib, asosan, umumiy sport terminlari, ma'lum bir sport turiga xos atamalar, musobaqa va bahslarga oid tushunchalar hamda jismoniy tarbiya bilan bog'liq lug'at boyligini o'z ichiga oladi. Ingliz tilidagi sport leksikasi jahon bo'ylab keng qo'llaniladigan xalqaro leksika hisoblanadi. Olimpiada sport turlarining ko'pchiligi ingliz tilidan tarqalgan yoki uning ta'sirida global terminologiyaga aylangan. Masalan, "track and field" (atletika), "swimming" (suzish), "gymnastics" (gimnastika) kabi atamalar turli tillarga asosan bir xil ma'noda kirib kelgan. O'zbek tilidagi sport leksikasi esa asosan kirilgan xalqaro atamalarni o'zlashtirish orqali shakllangan. Ayniqsa, zamonaviy sport terminlari ingliz va rus tillaridan kirib kelib, o'ziga xos o'zbeklashtirilgan ko'rinishlarini olgan. Masalan, "chempionat", "olimpiada", "medallar" kabi atamalar sport sohasida keng qo'llaniladi. Ammo ayrim sport turlari o'zbek tiliga to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinmay, shu tillardagi mavjud atamalar asosida qo'llaniladi. Masalan, "volleyball" — voleybol, "basketball" — basketbol kabi so'zlar o'zbek tilida ham shunday aytiladi.[1]

Sport leksikasining madaniyatlararo kommunikatsiyadagi ahamiyatiga to'xtaladigan bo'lsak, Sport — bu nafaqat jismoniy faollik yoki raqobat, balki global muloqotning samarali vositasidir. Har qanday sport musobaqasida, ayniqsa xalqaro arenalarda, ishtirokchilarning til va madaniyat jihatidan farqli bo'lishiga qaramay, sport tili ularni bog'lovchi umumiy ko'priikka aylanadi. Sport leksikasi bu



kontekstda yagona kommunikativ platformani yaratadi. Masalan, “goal”, “penalty”, “match”, “score” kabi terminlar deyarli barcha tillarda o‘xshash shaklda ishlatiladi. Bu so‘zlar madaniy chegaralardan mustasno bo‘lib, sportchilar va tomoshabinlar o‘rtasidagi anglashuvni yengillashtiradi. Sport tilining madaniyatlararo ahamiyati, shuningdek, ommaviy axborot vositalarida, reklamalarda va ijtimoiy tarmoqlarda ham yaqqol ko‘rinadi. Sport atamalarining tushunarli va emotsional kuchga ega bo‘lishi ularni global darajadagi kommunikatsion vositaga aylantiradi.[2]

Til o‘rganishda mavzuning konteksti va o‘quvchiga yaqinligi muhim ahamiyat kasb etadi. Sport mavzusi talabalar va o‘rganuvchilar uchun doimo qiziq va motivatsion yo‘nalish bo‘lib kelgan. Sport leksikasi orqali o‘rganuvchilar nafaqat yangi so‘zlarni, balki madaniy tafakkurni, xalqaro sport axborotlarini ham o‘zlashtiradi. Masalan, ingliz tilida futbol yoki basketbol bo‘yicha maqolalarni o‘qish, videolarni ko‘rish orqali lug‘at boyligi bilan birga talaffuz, grammatik struktura va madaniyatlararo elementlar ham o‘zlashtiriladi. Bundan tashqari, sport matnlari ko‘pincha zamonaviy, jonli va emotsional uslubda yozilgani sababli, til o‘rganish jarayonini jonlantiradi va interaktiv qiladi. Bu esa interkultural kompetensiyani shakllantirishda samarali vosita bo‘ladi.[3,4,5]

Sport terminlarini tarjima qilishda lingvistik moslikdan tashqari, madaniy moslik ham muhim hisoblanadi. Ba’zi atamalar bir madaniyatda ijobiy yoki oddiy ma’noda ishlatilsa, boshqa madaniyatda u tushunarsiz yoki salbiy tusga ega bo‘lishi mumkin. Shuning uchun tarjimonlar sport kontekstida terminlar va frazalarning mazmunini chuqur tushunishi, ularning funksional va madaniy yuklamasini hisobga olgan holda tarjima qilishi zarur. Xalqaro sport musobaqalarida tarjima xatoliklari ko‘pincha noto‘g‘ri tushunish yoki madaniy mojarolarga sabab bo‘lgan holatlar kuzatilgan. Bu esa sport leksikasining nafaqat til, balki madaniyatlararo kompetensiyadagi rolini ham ko‘rsatadi.[6,7]

Sport tadbirlari, ayniqsa universitetlar, maktablar yoki xalqaro tashkilotlar doirasida o‘tkaziladigan musobaqalar, turli millat vakillari o‘rtasida integratsiyani kuchaytiradi. Bunday tadbirlarda ishtirok etayotganlar sport orqali bir-birining madaniyatini o‘rganadi, umumiy til va qadriyatlar atrofida birlashadi. Sport



terminlari esa bu muloqotda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Sport bu ma’noda global til sifatida ko‘riladi — u madaniy farqlarni yo‘q qilishga yordam beradi.[8,9]

O‘zbek sport leksikasining madaniyatlararo kommunikatsiyadagi o‘rni haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak. O‘zbek tilida shakllangan sport terminlari nafaqat sportchilar o‘rtasida, balki xalqaro miqyosda O‘zbekiston madaniyatini tanituvchi muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, milliy sport turlari va ularga oid terminologiya xorijiytlarga o‘ziga xos madaniy tafakkurni yetkazishda yordam beradi.[10]

1-jadval

O‘zbekcha atama	Mazmuni/ Madaniy yuki	Inglizcha tarjimasi	Izoh/Kommentariya
Kurash	Milliy sport turi, qadimiy xalq an’anasi	Uzbek wrestling	UNESCO nomoddiy madaniy meros ro‘yxatiga kiritilgan.
Qamchi otish	Ot sporti elementlari bilan bog‘liq qadimiy mashq	Whip throwing	Harbiy sport sifatida rivojlangan, epchillik va aniqlikni talab qiladi.
Polvon / Polvonlik	Kuchli sportchi, ayniqsa kurash ustasi	Strongman / Wrestler	Polvonlik timsoli O‘zbek madaniyatida g‘urur va vatanparvarlik timsoli.
Chavandozlik	Ot ustida yurish san’ati	Horsemanship	Asosan kokpar va uloq kabi o‘yinlarda qo‘llaniladi.
Uloq-ko‘pkari	Jamoaviy ot sporti, an’anaviy musobaqa	Buzkashi (Kokpar)	Markaziy Osiyoga xos sport o‘yini, diplomatlar va sayyohlar e’tiborini tortadi.

O‘zbek sport leksikasi milliy madaniyat va qadriyatlarning til orqali ifodasidir.

Ushbu leksik birliklar tarjima qilinayotganda nafaqat leksik, balki madaniy kontekst ham hisobga olinishi kerak.



Tarjimada ekvivalent topilmaganda transliteratsiya yoki ta’riflovchi tarjima usullaridan foydalaniladi.

Xulosa qilib aytganda, sport leksikasi madaniyatlararo kommunikatsiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida til va madaniyat o’rtasidagi uzviy bog‘liqlikni namoyon etadi. Sport tili orqali xalqaro maydonda nafaqat jismoniy faoliyat, balki xalqning urf-odatları, qadriyatları va madaniy tafakkuri ham targ‘ib qilinadi. Ayniqsa, o‘zbek sport leksikasi — kurash, chavandozlik, uloq-ko‘pkari, polvonlik kabi terminlar orqali o‘zbek xalqining milliy g‘ururi, tarixiy tajribasi va ijtimoiy an‘analari til vositasida ifodalanadi. Ushbu leksik birliklarning boshqa tillarga tarjima qilinishida madaniy konnotatsiyalarni saqlab qolish, ularni to‘g‘ri anglash va yetkazish zarur. Bu esa tarjimonlardan nafaqat lingvistik, balki madaniy kompetensiyani ham talab etadi. Madaniyatlararo muloqotda sport tili orqali xalqlar o’rtasida o‘zaro tushunish, hurmat va hamkorlik mustahkamlanadi. Shu sababli, sport leksikasini lingvomadaniy jihatdan chuqur o‘rganish va tarjima jarayonida ehtiyotkorlik bilan yondashish zamonaviy tilshunoslik va tarjima nazariyasi uchun muhim vazifalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Kenjabayev J.A. Ingliz va o‘zbek tilida olimpiada sport turlariga oid leksikaning umumiy tavsifi /Academic Research in Educational Sciences. Volume 5 | Issue 10 | 2024. – B. 31.
2. Beard, A. (1998). The language of sport. Routledge.
3. Bobyreva, N. N. (2023). Investigating the role of English language tools used in sports communication using linguistic methods and its use in academic dictionaries. *Research in Applied Linguistics*, 14(1), 45–54. https://rals.scu.ac.ir/article_19584.html
4. Garipova, A. N., & Pavitskaya, Z. I. (2024). Communicative approach as an effective means of forming intercultural competence of students majoring in sports. *Science and Sport*, 12(2). <https://sciencesport.ru/en/journals/tom-12-nos2-2024/articles/communicative-approach-effective-means-forming-intercultural>
5. House, J. (2015). Translation as communication across languages and cultures. Routledge.



6. Kramersch, C. (1993). Context and culture in language teaching. Oxford University Press.
7. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). Metaphors we live by. University of Chicago Press.
8. Maguire, J. (1999). Global sport: Identities, societies, civilizations. Polity Press.
9. Miller, L. (2015). Sports communication as a way to develop critical competencies in the L2 classroom. RELC Journal, 46(2), 193–207. <https://doi.org/10.1177/0033688215572004>
10. Wierzbicka, A. (1997). Understanding cultures through their key words: English, Russian, Polish, German, and Japanese. Oxford University Press.
11. Akramova, Z. (2022). O‘zbek tilidagi sport terminlarining madaniy xususiyatlari. Til va madaniyat, 4(2), 45–53.
12. Yusupova, S. (2023). Kurash va uning lingvomadaniy xususiyatlari. O‘zbek tili va adabiyoti, 2(1), 33–39.

ФРАЗЕОЛОГИЗМЫ В КОНТЕКСТЕ РУССКОГО И АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКОВ

Мамадаминова Жамила Турабоевна

Магистрант кафедры практического английского языка Термезского государственного педагогического института

Аннотация. В статье представлен сравнительный анализ фразеологизмов русского и английского языков. Автор исследует общие и отличительные черты в их семантике, структуре и происхождении. Работа подчёркивает роль культурного компонента в формировании фразеологических единиц и рассматривает проблемы достижения эквивалентности при переводе.

Ключевые слова и фразы: фразеологизмы, межкультурная коммуникация, Культурные особенности, Интерпретация значений, Идиоматические выражения, Образование идиом, Сравнительный анализ, английский язык, русский язык, Синтаксис и семантика, Стратегия перевода.

1. Введение

Фразеологизмы представляют собой устойчивые выражения с неделимым значением, часто не совпадающим с суммой значений их компонентов. Они играют важную роль в языке, отражая культурные,



исторические и ментальные особенности народа. Актуальность темы обусловлена глобализацией и усилением межъязыковой коммуникации, где понимание и корректный перевод фразеологизмов становятся необходимыми для успешного взаимодействия. Целью настоящего исследования является сравнительный анализ фразеологических единиц в русском и английском языках с точки зрения их структуры, семантики и культурной обусловленности.

Задачи исследования:

- рассмотреть теоретические подходы к определению и классификации фразеологизмов;
- сопоставить структурные и семантические особенности фразеологизмов;
- выявить культурные различия и переводческие трудности.

Методы исследования: сопоставительный, описательный, компонентный анализ.

2. Теоретические основы

В русской лингвистике классификация фразеологизмов, предложенная В.В. Виноградовым, включает три группы: фразеологические сращения (напр., «бить баклуши») [1], единства («держать камень за пазухой»), и сочетания («лить слёзы»). В английской традиции А.В. Кунин делит фразеологизмы на идиомы, устойчивые выражения и пословицы, подчёркивая их семантическую целостность [2].

Русские фразеологизмы часто более образны и варьируемы (напр., «за нос водить»). Английские — фиксированы: «to kick the bucket» (умереть). Образность русских выражений зачастую коренится в быту и истории, английские же отражают городскую и прагматическую среду.

3. Сравнительный анализ

Структурно русские фразеологизмы допускают грамматические вариации, в отличие от английских, где порядок слов стабилен («to let the cat out of the bag»). Семантически русские выражения ориентированы на образность («как корова на льду»), английские — на ситуацию («to bark up the



wrong tree»).

Культурные различия определяют значение и употребление: напр., русское «работать спустя рукава» и английское «to rain cats and dogs» иллюстрируют разные культурные реалии. Прямые эквиваленты встречаются редко («бить баклуши» — «to twiddle one’s thumbs»), чаще требуется описательный перевод («кот заплакал» — «a drop in the bucket»)[3].

4. Практическое применение

В художественных и публицистических текстах фразеологизмы усиливают выразительность и передают культурную специфику. Перевод требует стратегий: замены эквивалентом («to pull someone’s leg» — «водить за нос»), калькирования, описания или нейтрализации. Например, «держать камень за пазухой» можно перевести как «to have a chip on one’s shoulder» или описательно.

В преподавании языков фразеологизмы требуют отдельного внимания, поскольку знание устойчивых выражений обогащает речь и снижает вероятность межкультурных недоразумений.

5. Заключение

Фразеологизмы отражают менталитет и историко-культурный опыт носителей языка. Русские выражения характеризуются большей образностью и гибкостью, английские — структурной стабильностью. Различия обуславливают сложности перевода и подчеркивают значение культурного контекста. Перспективы дальнейших исследований включают расширение анализа на другие языковые пары и разработку методик преподавания фразеологии.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Виноградов В.В. Основы русской фразеологии. — М.: Наука, 1977.
2. Кунин А.В. Англо-русский фразеологический словарь. — М.: Русский язык, 1984.
3. Ковалёва Л.П. Сравнительная фразеология: русский и английский языки. — СПб.: Филологический факультет СПбГУ, 2001.



4. Бабушкин А.П. Языковая картина мира как проблема лингвистики. — Воронеж: ВГУ, 1996.

O‘ZBEK VA INGLIZ MAQOLLARIDA “YOLG‘IZLIK” VA “HIJRON” KONSEPTLARINING IFODALANISHI

Sobirjonova Muxlisa Sobirjonovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o‘qituvchisi

m.sobirjonova11@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0001-2468-9215>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz maqollarida "yolg‘izlik" hamda "hijron" tushunchalarining ifodalanish uslublari va ularning lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilingan. Ikkala til madaniyatidagi bunday frazeologik birliklar orqali insoniy tuyg‘ular, ruhiy kechinmalar va ijtimoiy qadriyatlarning aks etishi ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: yolg‘izlik, hijron, maqollar, lingvomadaniyat, frazeologiya, konseptual tahlil

Kirish

Maqollar xalq tafakkuri, ruhiyati va hayotiy tajribasining ifodasidir. Ular orqali milliy ongda shakllangan asosiy konseptlar – “yolg‘izlik”, “hijron”, “baxt”, “oila”, “vatan” kabi tushunchalar ifodalanadi. Ushbu maqolada aynan “yolg‘izlik” va “hijron” konseptlarining o‘zbek va ingliz maqollarida qanday aks etishi tahlil qilinadi. Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, bu konseptlar inson ruhiy holatini anglashda muhim rol o‘ynaydi va madaniyatlararo farqlarni yoritib beradi.

Ushbu tadqiqotda qiyosiy-lingvistik, konseptual-semantik, hamda lingvomadaniy tahlil usullari qo‘llanildi. Asosiy maqsad — o‘zbek va ingliz tillarida “yolg‘izlik” va “hijron” tushunchalarining qanday semantik va madaniy shakllarda ifodalanganini aniqlashdan iborat.

1. Maqollar korpusini tuzish:

Dastlab, har ikki tildan turli yozma manbalar (maqollar to‘plamlari, lug‘atlar, internet resurslari) asosida 30 tadan ortiq maqol tanlab olindi. Ular semantik



yondashuv asosida “yolg‘izlik” va “hijron” konseptlariga mansubligi bo‘yicha tasniflandi.

2. Semantik tahlil:

Tanlangan maqollar strukturaviy va leksik jihatdan tahlil qilinib, ularning tashqi (denotativ) va ichki (konnotativ, metaforik) ma’nolari aniqlashtirildi. Ayniqsa, sinonimik, antonimik va metaforik bog‘liqliklarga e’tibor qaratildi.

3. Konseptual tahlil:

Maqollar orqali ifodalangan asosiy konseptlar (masalan: “yolg‘iz — zaif”, “hijron — azob” yoki “yolg‘izlik — erkinlik”) aniqlanib, ular asosida har bir tildagi konseptual maydon tuzildi. Bu jarayonda G. Lakoff va M. Johnsonning Konseptual metafora nazariyasi asos qilib olindi.

4. Lingvomadaniy qiyos:

O‘zbek va ingliz tilida “yolg‘izlik” va “hijron” konseptlariga bo‘lgan madaniy qarashlar, psixologik yondashuvlar, va ijtimoiy stereotiplar maqollar orqali qiyosiy jihatdan tahlil qilindi. Bu bosqichda maqollar nafaqat til birliklari, balki madaniyat mahsuli sifatida ko‘rib chiqildi.

5. Natijalarni sistemalashtirish:

Tahlil yakunida har bir til uchun konseptual xarita (semantic field) tuzilib, undagi asosiy komponentlar (emotion, imagery, evaluation) ajratib olindi. O‘zaro o‘xshash va tafovutli jihatlar diagramma orqali ko‘rsatildi.

1. “Yolg‘izlik” konsepti

O‘zbek tilida “yolg‘izlik” salbiy tusda qo‘llanadi, jamiyatdan ajralish, yordamdan mahrumlikni bildiradi:

“Yolg‘iz daraxt bo‘ronga chidamaydi.”

“Yolg‘iz — yovga yem.”

Bu maqollar yolg‘izlikni zaiflik, himoyasizlik sifatida tasvirlaydi.

Ingliz tilida esa yolg‘izlik ba’zan ijobiy (meditativ) ma’noga ega bo‘lishi mumkin:

“Loneliness is not being alone, it is feeling alone.”

“Better alone than in bad company.”



Bunday maqollar yolg‘izlikni o‘zini anglash, xotirjamlik bilan bog‘laydi.

2. “Hijron” konsepti

O‘zbek tilida hijron – sog‘inch, dard, sadoqat bilan bog‘langan:

“Hijron yurakni kuydirar.”

“Yor yo‘qsa, ko‘ngil tor.”

Hijron tushunchasi ko‘proq muhabbat va oila kontekstida tilga olinadi.

Ingliz tilidagi maqollarda esa hijron “ajralish”, “masofa” asosida ifodalanadi:

“Absence makes the heart grow fonder.”

“Out of sight, out of mind.”

Bu maqollardan biri hijronni mehrni oshiruvchi holat deb tushunsa, ikkinchisi aksincha, unutishga olib boradi. Bu esa madaniy tafovutlarni ko‘rsatadi.

Xulosa

O‘zbek va ingliz maqollarida “yolg‘izlik” va “hijron” konseptlari turlicha metaforik tasvirlanadi. O‘zbek tilida ular asosan salbiy, og‘riqli kechinma sifatida ifodalansa, ingliz tilida ayrim hollarda neytral yoki ijobiy tusga ega. Bu farqlar madaniyatlararo tafakkurdagi muhim elementlar sifatida e‘tiborga loyiq. Kelgusida ushbu konseptlar poetik matnlar va zamonaviy media orqali ham tahlil qilinishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduazizov A. (2010). Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: O‘qituvchi.
2. Lakoff G., Johnson M. (1980). Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press.
3. Matisoff J.A. (1986). Conceptual metaphor in language. Annual Review of Anthropology.
4. Сапаева З.Ж. (2022). Фразеологизмларнинг маданий хосияти. – Тошкент: Фан.
5. Unbabel Blog (2021). Translation of Emotions in Idioms.
6. Englishproverbs.net – English Proverbs Dictionary.



TIL REGISTRINING TURISTIK KONTEKSTDAGI O‘ZGARISHI VA TARJIMAGA TA’SIRI

Maxmudov Xudoyshukur Alisherovich

“Roman-german filologiyasi” kafedrası o‘qituvchisi

Ma’mun Universiteti, Xorazm, Xiva

Madrimova Shirinasaloy Otabek qizi

Filologiya fakulteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada til registrining turistik matnlardagi o‘ziga xosligi va uning tarjimaga ta’siri o‘rganildi. Turistik matnlarda ishlatiladigan registrnlarning pragmatik jihatdan auditoriyaga ta’siri tahlil qilindi. Ingliz tilidagi reklama uslubidagi samimiy va chaqiruvchan ohangning o‘zbek tilidagi tarjimada qanday o‘zgarishi va bu o‘zgarishlarning matnning kommunikativ samaradorligiga ta’siri ko‘rsatildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, tarjimada til registrining noto‘g‘ri tanlanishi yoki rasmiylashtirilishi matnning asl maqsadiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun tarjimonlar turistik matnlarni tarjima qilganda, nafaqat leksik va grammatik jihatlarni, balki pragmatik va stilistik xususiyatlarni ham hisobga olishlari zarur.

Kalit so‘zlar: til registri, turistik matn, tarjima, pragmatika, kommunikativ maqsad, ohang, madaniy moslik, stilistik xususiyatlar, reklama uslubi, tarjimon strategiyasi

Kirish

Bugungi kunda turizm sohasi global miqyosda kengayib borayotgan bir paytda, til nafaqat aloqa vositasi, balki madaniy axborot uzatish, tashviqot va auditoriyani jalb qilish vositasiga ham aylangan. Ayniqsa, turistik matnlarda tilning registri – ya’ni kontekst va auditoriyaga mos uslubiy shakli – muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat saytlarida rasmiy ohangda yozilgan matnlar, reklama materiallarida esa samimiy va ishoniruvchi uslubda yozilgan matnlar uchraydi. Har bir matn o‘ziga xos kommunikativ vazifani bajaradi va shunga mos til registri tanlanadi. Bunday matnlar tarjima qilinayotganda, ularning til registrini to‘g‘ri aks ettirish tarjimon uchun jiddiy vazifaga aylanadi. Ingliz tilidagi norasmiy yoki reklama ohangidagi matnlar o‘zbek tiliga tarjima qilinganda, ko‘pincha ular rasmiy yoki betaraf uslubga



o‘tib ketadi. Bu esa matnning asl maqsadini – o‘quvchiga ta’sir qilish, uni jalb qilish yoki ishontirishni – susaytirishi mumkin.³⁰

Mazkur maqolada turistik matnlarda uchraydigan til registrlari va ularning ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima jarayonida qanday o‘zgarishi o‘rganiladi. Ayniqsa, tarjimada ohang, xushmuomalalik va kommunikativ niyat kabi pragmatik omillar qanday ifodalanishini tahlil qilish ko‘zda tutiladi. Tadqiqot quyidagi savollar asosida olib boriladi:

Ingliz tilidagi turistik matnlarda qanday til registrlari qo‘llaniladi?

Bu registrlar tarjimada qanday aks ettiriladi?

Registr o‘zgarishining tarjimaning pragmatik ta’siriga qanday oqibati bo‘ladi?

Tadqiqotdan ko‘zlangan maqsad — tarjimada til registrining to‘g‘ri saqlanishiga doir strategiyalar ishlab chiqish va turistik matnlar tarjimasining samaradorligini oshirishga ilmiy asos yaratishdir.

Metodologiya

Ushbu tadqiqot sifat tahliliga asoslangan bo‘lib, til registrining turistik kontekstdagi ifodalanishi va tarjimada qanday o‘zgarishini aniqlashga qaratilgan. Maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi rasmiy turizm saytlaridan, reklama materiallaridan hamda sayyohlik bloglaridan olingan real matnlar korpusi asosida tahlil olib borildi. Har bir inglizcha matn va uning o‘zbek tilidagi tarjimasi o‘zaro taqqoslanib, ularning registr xususiyatlari, ohang, muomala darajasi va kommunikativ maqsadlar bo‘yicha tahlil qilindi.

Tahlil jarayonida pragmatik yondashuv asosida ish yuritildi, ya’ni matnlar faqat lug‘aviy yoki grammatik jihatdan emas, balki ular orqali yetkazilayotgan xabar, tinglovchi/foydalanuvchi bilan muloqot uslubi va muloqot maqsadi nuqtayi nazaridan baholandi. Til registrlari rasmiy, norasmiy, neytral va reklama (ishontiruvchi) kabi toifalarga ajratildi. Shuningdek, tarjima jarayonida registrning saqlanish darajasi, o‘zgarish sabablari va bunday o‘zgarishlarning pragmatik oqibatlari tahlil qilindi. Ushbu metodologiya orqali turistik matnlarda til registrining

³⁰ Saparova, M. (2024). O‘zbek tili tezaurusida ot so‘z turkumiga oid so‘zlarning ma’noviy kategoriyalashtirish masalasi. «Acta Nuuz», 1(1.4), 351-354.



tarjima jarayonida qanday muammolar yoki yutuqlar bilan namoyon bo‘lishi aniqlanadi. Bu yondashuv, tarjima amaliyotida matnning kommunikativ samarasini saqlash uchun muhim bo‘lgan lingvistik va pragmatik mezonlarni aniqlash imkonini beradi.

Natijalar

O‘rganilgan turistik matnlar va ularning tarjimalari asosida quyidagi asosiy natijalar aniqlandi:

Til registrining o‘zgarishi:

Ingliz tilidagi turistik matnlarda ko‘pincha norasmiy, samimiy, va auditoriyani faol jalb qilishga qaratilgan ishontiruvchi registrlar qo‘llanilgan. Masalan, “Join us for an unforgettable adventure!” jumlasini bevosita chaqiradi va motivatsiya qiladi. O‘zbek tilidagi tarjimalarda esa ko‘p hollarda bu ibora rasmiy va neytral shaklga o‘zgartirilgan: “Bizning xizmatlarimizdan foydalaning”, bu esa chaqiruvchanlik xususiyatini yo‘qotgan.³¹

Ijobiy baholovchi so‘zlar va ularning ta’siri

Inglizcha matnda “breathhtaking”, “amazing”, “exclusive” kabi kuchli ijobiy baholovchi so‘zlar keng qo‘llanilgan. Masalan, “Discover breathtaking landscapes” iborasi hissiyot uyg‘otadi. O‘zbek tarjimasida bu ko‘pincha yumshoqroq ifodalarga almashtirilgan: “Hayratlanarli manzaralarni kashf eting” o‘rniga “Go‘zal manzaralarni kashf eting” shaklida berilgan, bu esa matnning ta’sirini kamaytiradi.³²

Murojaat shakllarining o‘zgarishi

Ingliz tilida ko‘proq “you” shakli ishlatiladi, bu auditoriya bilan bevosita aloqani ta’minlaydi. Tarjimada esa passiv yoki neytral shakllar ko‘paygan, masalan, “You can enjoy...” o‘rniga “Marhamat, bahramand bo‘ling” yoki “Bahramand bo‘lishingiz mumkin” tarzida ifodalangan. Bu aloqaning samimiyligini pasaytiradi.

Madaniy moslik va pragmatik xususiyatlar

Ba’zi inglizcha metaforalar yoki frazeologik birikmalar o‘zbek tilida madaniy

³¹ Hacıoğlu, N. (2000). Turizm pazarlaması. Nobel Akademik Yayıncılık. Pp-67-69

³² Mahkamovich, A. A., & O‘G, K. D. R. Z. (2024). XORAZM VILOYATIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYALARNI JALB QILISH. Science and innovation, 3(Special Issue 24), 310-314.



jihtadan moslashtirilgan, ammo til registrining samimiy va ishonitiruvchi unsurlari yo‘qolgan. Masalan, “hidden gem” (noyob joy) iborasi tarjimada “kam ma’lum joy” sifatida berilib, reklamaning jozibadorligi susaygan.

Kommunikativ samaraning kamayishi

Natijada, tarjima qilingan matnlar asl inglizcha reklama matnlaridagi auditoriyani faol jalb qilish qobiliyatining 30-40% kamayishini ko‘rsatdi. Bu esa turistik xizmatlarni targ‘ib qilishda samaradorlikning pasayishiga olib keladi.

Tahlil va muhokama

Yuqoridagi natijalar shuni ko‘rsatadiki, turistik matnlarda til registrining saqlanishi yoki o‘zgarishi tarjima sifati va matnning funksional samaradorligi uchun muhim ahamiyatga ega. Ingliz tilida ishlatilgan reklama registri auditoriyani jalb qilish, hissiy ta’sir o‘tkazish va harakatga undashga xizmat qiladi. Biroq tarjima jarayonida bu registrlar ko‘pincha rasmiylashtirib yuborilgan, bu esa o‘quvchiga mo‘ljallangan ta’sirni kamaytirgan.³³

Bu holat tarjimonlarning til registrini yetarlicha anglamasligi yoki madaniy me’yorlarga moslashtirishda ehtiyotkorlik bilan yondashmasliklari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Tarjimon, nafaqat so‘zma-so‘z tarjimani, balki matnning pragmatik funksiyasini ham saqlashga intilishi kerak. Bu esa o‘z navbatida tarjimada stilistik moslik, auditoriyaga mos ohang, va kommunikativ maqsadni inobatga olishni talab qiladi.

Shuningdek, tarjimalarda o‘zbek tilining o‘ziga xos uslubiy imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalanilmasligi kuzatildi. O‘zbek tilida ham samimiy, chaqiruvchan ohanglar mavjud bo‘lsa-da, ular ko‘plab tarjimalarda ishlatilmagan.

Umuman olganda, bu tahlil shuni ko‘rsatadiki, turistik matnlarni tarjima qilishda til registrining to‘g‘ri tanlanishi va mos ifodalanishi muhim. Bu nafaqat matnning axborot yetkazish vazifasini, balki u orqali yuzaga keladigan hissiy va pragmatik ta’sirni ham saqlab qolishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

³³ Aytaj, A. (2023). HISTORICAL URBAN HERITAGE PRESERVATION CHALLENGES AND ITS INTEGRATION INTO URBAN DEVELOPMENT-IN THE EXAMPLE OF BAKU CITY. Scientific Work, (2).



1. Aytaj, A. (2023). HISTORICAL URBAN HERITAGE PRESERVATION CHALLENGES AND ITS INTEGRATION INTO URBAN DEVELOPMENT-IN THE EXAMPLE OF BAKU CITY. Scientific Work, (2).
2. Mahkamovich, A. A., & O'G, K. D. R. Z. (2024). XORAZM VILOYATIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYALARNI JALB QILISH. Science and innovation, 3(Special Issue 24), 310-314.
3. Eralp, Z. (1983). Genel turizm. Ankara Üniversitesi Basın Yayın Yüksek Okulu.
4. Hacıoğlu, N. (2000). Turizm pazarlaması. Nobel Akademik Yayıncılık.
5. SAPAROVA, M. (2024). O ‘ZBEK TILI TEZAURUSIDA OT SO ‘Z TURKUMIGA OID SO ‘ZLARNING MA’NOVIY KATEGORİYALASHTIRISH MASALASI. «ACTA NUUZ», 1(1.4), 351-354.
6. Rajabboyevich, J. S. (2023). FEATURES OF COMMENTS AND ITS ANALYSIS. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(5), 65-67.

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA O‘ZLASHMA SO‘ZLARNING O‘RNI

Prof. Proxorova Olga Nikolayevna

Kazan federal universiteti professori,

Mamanova Sayyora Faxriddinovna

O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali assistenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zlashma so‘zlarning o‘zbek va ingliz tillaridagi o‘rni, ularning shakllanish omillari va til taraqqiyotidagi roli tahlil qilinadi. Har ikki tilda o‘zlashma so‘zlarning asosiy manbalari, ularning semantik va morfologik xususiyatlari solishtiriladi. Shuningdek, globalizatsiya davrida xorijiy so‘zlar oqimi, ularni qabul qilishdagi til siyosati va jamiyatning munosabati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: o‘zlashma so‘zlar, lingvistik kontakt, til o‘zgarishi, internatsionalizmlar, semantika, leksikologiya.

Har qanday tilning leksik boyligi tarixiy taraqqiyot, madaniy aloqalar va tashqi ta’sirlar bilan boyib boradi. O‘zlashma so‘zlar til tizimining tabiiy tarkibiy qismi bo‘lib, ular orqali xalq va millatning madaniy, ijtimoiy, siyosiy aloqalari aks etadi.



Ingliz tili va o‘zbek tilida ham bu jarayon faol kechgan. Ingliz tilida lotin, fransuz, yunon, nemis tillaridan o‘zlashmalar keng tarqalgan bo‘lsa, o‘zbek tilida arab, fors, rus va so‘nggi davrlarda ingliz tilidan kirib kelgan so‘zlar ustuvorlik qiladi.

O‘zlashma so‘zlar (yoki «loanwords») – bu bir tilning boshqa tildan qabul qilgan va o‘z tiliga moslashtirilgan so‘zlardir. Bu jarayon tilning o‘zgaruvchanligini, rivojlanishini va boshqa madaniyatlar bilan aloqalarini ko‘rsatadi. O‘zbek tilidagi o‘zlashma so‘zlar, asosan, texnologiya, transport, ilm-fan, madaniyat va kundalik hayot bilan bog‘liq sohalarda keng qo‘llaniladi. Bu o‘zlashmalar tilni boyitadi, lekin ba’zida ularning to‘g‘ri talaffuzini saqlash qiyin bo‘lishi mumkin. Shuningdek, o‘zlashmalarni qo‘llashda ba’zi odamlar an’anaviy o‘zbek so‘zlarini ishlatishni afzal ko‘rishadi. O‘zbek tili, tarixan, ko‘plab tillar bilan aloqa qilgan, natijada arab, fors, rus va hozirda ingliz tillaridan kirib kelgan ko‘plab o‘zlashma so‘zlarga ega. Masalan, arabcha: ilm, hikmat, ma’naviyat; forsha: sabzavot, rang, doston; ruscha: zavod, obyekt, director; inglizcha: fayl, internet, dizayn kabilar. Ushbu so‘zlar zamonaviy o‘zbek tilining faol qismi bo‘lib qolmoqda. Qolaversa, «Radio» (Ingliz tili): Ingliz tilidagi «radio» so‘zi O‘zbek tiliga ham o‘zlashgan va bu so‘z «radiostansiya» yoki «eshitish qurilmasi» sifatida ishlatiladi. «Taksi» (Ingliz tili): Ingliz tilidagi «taxi» so‘zi o‘zbek tilida ham keng qo‘llaniladi. «Telefón» (Rus tili): «Telefon» so‘zi ruscha «телефон»dan o‘zlashgan bo‘lib, O‘zbek tilida keng qo‘llaniladi. «Paket» (Ingliz tili): O‘zbek tilida «packet» so‘zi inglizchadan o‘zlashgan va «paket» shaklida ishlatiladi [1].

Ingliz tilida esa o‘zlashtirilgan so‘zlar juda keng va xilma-xildir, chunki ingliz tili tarixan juda ko‘p turli madaniyat va tillardan o‘zlashma so‘zlarni qabul qilgan. Ingliz tiliga o‘zlashgan so‘zlar, asosan, boshqa tillardan bo‘lgan ilm-fan, texnologiya, san’at va madaniyat bilan bog‘liq. Ingliz tili, ayniqsa qadimgi german tillaridan rivojlanib chiqqan bo‘lsa-da, tarixiy bosqichlarda boshqa tillardan minglab so‘zlarni o‘zlashtirgan. Masalan, «Tsunami» (Yapon tili): Ingliz tilida «tsunami» so‘zi yapon tilidan olingan va hozirda dunyo bo‘ylab keng ishlatiladi. «Pizza» (Italiya tili): Italiya tilidan olingan «pizza» so‘zi ingliz tilida keng tarqalgan va ingliz



tilida o‘zgarimas shaklda ishlatiladi. «Café» (Fransuz tili): Fransuzcha «café» so‘zi ingliz tilida ham «cafe» sifatida ishlatiladi [4].

O‘zbek va ingliz tillarida o‘zlashmalarni qabul qilishdagi farqlarni quyidagi jadvalda ko‘rishimiz mumkin.

Mezonlar	O‘zbek tili	Ingliz tili	Moslashtirish turi	Namuna
Manba tili	Arab, rus, fors, ingliz	Lotin, fransuz, yunon	Semantik va fonetik	kompyuter / computer
Fonetik moslashuv	To‘liq yoki qisman	Kam hollarda	Qisman	brend / brand
Morfologik integratsiya	Affikslar bilan	Ko‘pincha saqlanadi	Cheklangan	dizaynlashtirmoq

O‘zbek va ingliz tillaridagi o‘xshash o‘zlashma so‘zlar ham mavjud. Ba’zi so‘zlar esa ikkala tilga ham boshqa tillardan kirib kelgan:

Arab tilidan:

- O‘zbekcha: «Adabiyot» - Inglizcha: «Literature» (arabcha «adab» asosida)
- O‘zbekcha: «Hisob» - Inglizcha: «Algebra» (arabcha «al-jabr»)

Fors tilidan:

- O‘zbekcha: «Pilaf» - Inglizcha: «Pilaf» (forscha «polow»)

Rus tilidan:

- O‘zbekcha: «Sputnik» - Inglizcha: «Sputnik»

O‘zlashma so‘zlar har qanday tillarga quyidagi jihatlarda ham ta’sir ko‘rsatadi:

1. Leksik boylik: Tilning so‘z boyligini oshiradi
2. Fonetik o‘zgarishlar: So‘zlar yangi tilning tovush tizimiga moslashtiriladi
3. Grammatik o‘zgarishlar: Ba’zi so‘zlar yangi tildagi grammatik qoidalarga bo‘ysundiriladi
4. Semantik o‘zgarishlar: So‘zning ma’nosi o‘zgarishi mumkin [4].

Tilshunoslikda o‘zlashma so‘zlarni o‘rganish quyidagi jihatlardan muhim:

Tillar tarixi. Bunda tillar o‘rtasidagi tarixiy aloqalarni aniqlashda yordam beradi.



Madaniyatlararo almashinuvda esa xalqlar madaniyati va dunyoqarashi haqida ma'lumotlarni beradi. Til o'rganish – yangi til o'rganayotganlar uchun o'zlashma so'zlar tushunishni osonlashtirishi ham mumkin [2].

Zamonamizda ingliz tili global ta'sir ko'rsatgani sababli, ko'pgina tillar, shu jumladan o'zbek tiliga ham inglizcha so'zlar ko'plab kirib kelmoqda: Texnologiya so'zlari: smartfon, blog, tvit; biznes so'zlari: menejer, marketing, startap; madaniyat so'zlari: klip, bloger, trend kabi mislollarni keltirishimiz mumkin [4].

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, o'zlashma so'zlar til taraqqiyotining ajralmas omili bo'lib, ularning to'g'ri qabul qilinishi va ishlatilishi tilda uyg'unlikni ta'minlaydi. Ingliz tilida o'zlashmalar tilning universallashtirishini aks ettirsa, o'zbek tilida bu jarayon ehtiyotkorlik bilan yuritiladi. Qolaversa, o'zlashma so'zlar tillarning tabiiy rivojlanish jarayonining muhim qismi ham hisoblanadi. Ular nafaqat tilning leksik boyligini oshiradi, balki xalqlar o'rtasidagi madaniy, iqtisodiy va siyosiy aloqalarning lingvistik ko'rinishidir. O'zbek va ingliz tillaridagi o'zlashma so'zlar bu tillarning boy tarixi va dinamik rivojlanishidan dalolat beradi. Til o'rganuvchilar uchun o'zlashma so'zlarni bilish yangi so'zlarni tezroq o'zlashtirishga yordam beradi. Shuningdek, ular tillar o'rtasidagi bog'liqlikni tushunishda muhim rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Akbarov, A. (2021). O'zbek tilining leksikologiyasi. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Turaqulov, B. (2019). Tilshunoslikka kirish. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi.
3. Crystal, D. (2003). The Cambridge Encyclopedia of the English Language. Cambridge University Press.
4. Allamurodov, I. (2017). “O'zlashma so'zlarning o'zbek tilidagi o'rni va shakllanishi.” Filologiya masalalari, 2(12), 50–58.
5. Маманова С. Методика развития речевой компетентности у студентов профессионально-технических учебных заведений //Информатика и инженерные технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 417-420.
6. Mamanova S. “Bo'lajak o'qituvchilar nutqini takomillashtiruvchi muhim vositalar” Zamonaviy sharoitda oliy ma'lumotli mutaxassislarini tayyorlashning innovatsion yo'nalishlari: muammo va yechimlar respublika ilmiy-nazariy anjumani-2024-y



ITALYAN TILIDAGI MAQOLLARNING TEMATIK TASNIFI VA TARJIMADA BERILISHI

Behzod Xudoyqulov

O‘qituvchi, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti.

behzod_xudoyqulov@dtpi.uz

Annotatsiya. Maqollar – xalq og‘zaki ijodining qisqa va mazmunli asarlaridan biri bo‘lib, o‘g‘itli, tarbiyaviy mazmunga ega bo‘lgan hikmatli iboralardir. Maqollar ko‘pincha xalq hayoti, urf-odatlarini, dunyoqarashi, hayotiy tajribasi va ma'naviy qadriyatlarini aks ettiradi. Ushbu maqolada italyan tilidagi maqollarning tasnifi, tarjimada berilishi hamda ma'naviy xususiyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: maqol, xalq og‘zaki ijodi, italyan tili, tarjima, ekvivalent.

Maqollar xalqning ma'naviy madaniyati urf-odatini, kasbi, turmushi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, qisqa, ixcham ma'no jihatidan salmoqdor birliklar sifatida davr ruhiga mos keladi.

So‘z ko‘rki bo‘lgan maqol va matallardan foydalanish har bir qalam ahlining so‘z boyligini orttiradi, uning nutqini o‘tkir va ta’sirli qiladi, unga badiiy jihatdan sayqal beradi³⁴.

Maqollar, ko‘pincha, poetik shaklga ega bo‘ladi. Ular o‘zining ixcham, pishiq va puxta ishlanganligi bilan ham xalq og‘zaki ijodining boshqa turlaridan farq qiladi. Maqollar o‘zining ijtimoiy, g‘oyaviy vazifalariga ko‘ra, asosan, keng xalq ommasining, ayrim hollarda esa ba’zi ijtimoiy tabaqa yoki guruhlarining dunyoqarashlarini ifodalaydi. Shu bois maqollarning tematik ko‘lami juda keng bo‘lib, bu ko‘lamni juz’iy hayotiy voqealik doirasi bilan chegaralab bo‘lmaydi.

Ijtimoiy borliqning hech bir sohasi yo‘qki, maqollarda aks etmagan bo‘lsa. Maqollar ko‘p asrlik hayotiy tajribalar asosida yuzaga kelganligi sababli, o‘ziga xos tarbiyaviy ahamiyatga ega. Chunki har bir maqol kishilarning uzoq yillar davomidagi hayotiy tajribalari hamda turmush sharoitlarida ko‘p marotaba sinovdan

³⁴ А.Шомаксудов, И.Расулов, Р. Қўнгиоров, Х.Рустамов. Ўзбек тили стилистикаси. Тошкент. “Ўқитувчи” нашриёти. 1983 й. 71-бет.



o'tadi. Binobarin, maqollar ham shaklan, ham mazmunan juda kam o'zgarishlarga uchrab, uzoq yashash xususiyatiga ega.

Maqollar qator xususiyatlari bilan xalq og'zaki ijodining boshqa janrlaridan keskin ajralib turadi. Chunki xalq dostonlari, ertaklari, afsona va rivoyatlari, naql va latifalari voqelikni epik planda, rang-barang obrazlarning xatti-harakatlari orqali aks ettirsa, maqollar voqelikni xalqning bevosita ana shu voqelik haqidagi xulosalari, hukmlari orqali aks ettiradi. Demak, maqolda voqealarning kechishi emas, balki ular haqidagi xulosa va hukm ifodalanadi.

Maqollar fikrni aniq, lo'nda va obrazli tarzda bayon etishda nutqimiz uchun zaruriy vosita hisoblanadi. Ular har qanday shoir, yozuvchi yoki notiq uchun ulkan xazina bo'lib, ulardan ustalik bilan foydalanish yozuvchining asarini, notiqning nutqini purma'no va jozibali qiladi, aytmoqchi bo'lgan fikrini obrazli ifodalashga yordam beradi, uning badiiy jihatdan g'oyat ta'sirchan bo'lishiga olib keladi. Har bir maqolda shu maqolni yaratgan xalqning siyosini ko'rishimiz mumkin³⁵.

Jumladan italyan tili ham maqollarga boy tillardan biri hisoblanadi. Italiya xalqi o'zining boy madaniy merosi, san'ati va adabiyoti bilan mashhur. Ushbu tildagi maqollar ham hayotiy donolik, yumor va an'anaviy qadriyatlarni o'zida mujassam etadi. Quyida mashhur italyan xalq maqollarini misol keltirishimiz mumkin:

“Chi va piano, va sano e va lontano.”

So'zma so'z tarjimada: “Sekin harakat qilgan odam sog'lom va uzoq umr ko'radi.” Ma'nosi: Shoshilmaslik, sabr va ehtiyotkorlikni qadrlash haqida.

“L'appetito vien mangiando.”

So'zma so'z tarjimada: “Ishtaha ovqatlanish davomida paydo bo'ladi.”

Ma'nosi: Biror ishni boshlaganingizda, sizda ishtiyoq va kuch ortadi. Hayotda faollik va qiziqishni rivojlantirishga chaqiradi.

“Meglio soli che male accompagnati.”

So'zma so'z tarjimada: “Yomon sheriklikdan ko'ra yolg'iz bo'lgan yaxshi.”

³⁵ Tarjima nazariyasi va amaliyoti: darslik-majmua / Muall. G'. Rahimov. – Toshkent: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2016. – 116-122 b.



Ma'nosi: Yomon muhit yoki salbiy ta'sir qiluvchi odamlar bilan bo'lgandan ko'ra, yolg'iz yashash yaxshiroq ekanligini ta'kidlaydi.

Maqollar ommaviy xarakterga egaligi bilan ajralib turadi. Maqollar xalqning keng dunyoqarashi, odob va axloq namunalari, ularning fikrlarining ifodasini tasvirlab beradi.

Ba'zi bir italyan maqollarning o'zbek yoki boshqa qiyosiy tahlil qilinayotgan tilda bitta emas bir nechta ekvivalentlari uchrashi mumkin. Bunda muqobil vatiantini tanlash tilshunos yoki tarjimon zimmasidagi vazifa hisoblanadi va bu ularning tarjima mahoratiga, kontekstni kognitiv tahlil qila olish qobiliyatiga bog'liqdir³⁶.

Italyan va o'zbek tillaridagi maqollarning qiyosiy jadvali:

Italyan tildagi maqollar:	O'zbek tilidagi nuqobili:
Un amico si vede nel momento del bisogno	Haqiqiy do'st boshga kulfat tushganda bilinadi.
Meglio prevenire che curare	Davolagandan ko'ra, oldini olgan afzal.
Non dire gatto se non ce l'hai nel sacco	To'ydan oldin nog'ora chalma.
Lontano dagli occhi, lontano dal cuore	Mehr ko'zda.
Bisogna battere il ferro finché è caldo	Temirni qizig'ida bos.
Chi cerca trova	Izlagan imkon topar.
La mela non cade mai lontano dall'albero/ Tale padre, tale figlio	Olmaning tagiga olma tushadi.
Si raccoglie quello che si semina	Har kim ekkandin o'rar.
Non rimandare a domani quel che puoi fare oggi	Bugungi ishni ertaga qoldirma.
Ognuno segue le sue abitudini ³⁷ / Ognuno segue i comportamenti ai quali e' stato educato	Qush uyasida ko'rganini qiladi.

³⁶ Ro'ziyeva Farangiz. INGLIZ TILIDAGI MAQOLLARNING TARJIMASI XUSUSIDA. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION International scientific-online conference

³⁷ B.Xudoyqulov, S.Jurayeva. Italyan xalq maqollarining o'zbek tilidagi tarjimasini. International scientific journal volume 1 issue 8. 2022 y. 1352 b.



Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, maqollar har bir xalqning milliy ruhiyatini, an‘analarini, ijtimoiy va madaniy xususiyatlarini chuqur aks ettiradi. Ular orqali nafaqat xalqning o‘tmishdagi hayotini tushunish, balki bugungi kun madaniy qadriyatlarini ham o‘rganish mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. А.Шомақсудов, И.Расулов, Р. Қўнғиров, Х.Рустамов. Ўзбек тили стилистикаси. Тошкент. “Ўқитувчи” нашриёти. 1983 й. 71-бет.
2. Миртожиев, М.М. Ўзбек тили семасиологияси / М.М.Миртожиев; 2010. - 288 б.
3. О‘zbek xalq maqollari. Sharq nashriyoti. Toshkent.2013
4. Tarjima nazariyasi va amaliyoti: darslik-majmua / Muall. G‘. Rahimov. – Toshkent: «O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2016. – 116-122 b.
5. Ro‘ziyeva Farangiz. Ingliz tilidagi maqollarning tarjimasi xususida.innovative developments and research in education. International scientific-online conference
6. Xudoyqulov B., Jurayeva S. ITALYAN XALQ MAQOLLARINING O‘ZBEK TILIDAGI TARJIMASI //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B8. – C. 1352-1354.
7. <https://sapere.virgilio.it/proverbi/al-bisogno-si-conosce-l-amico-695>
8. <https://dizionario.reverso.net/italiano-inglese/I+veri+amici+si+vedono+nel+momento+del+bisogno>

SINONIMIYA HODISASI: O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SEMANTIK VA FUNKTSIONAL QIYOS

Xolboyeva Marjona Rahmon qizi

TerDU Xorijiy filologiya va tillarni o‘qitish: ingliz tili ta’lim yo‘nalishi
1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD), dotsent Xudoyqulov Abdulla Eshkuvatovich

TerDU ingliz tili va adabiyoti kafedrası mudiri

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillarida sinonimiya hodisasi qiyosiy jihatdan o‘rganiladi. Sinonimlarning semantik maydoni, uslubiy yuklamasi va kontekstual vazifasi har ikki til misolida tahlil qilinadi. Maqolada lingvistik nazariyalar, adabiy matnlar, lug‘aviy manbalar asosida dalillar keltiriladi.



Kalit soʻzlar: sinonimiya, semantik tahlil, funksional qiyos, oʻzbek tili, ingliz tili, leksikologiya, stilistika, uslubiy yuklama, konnotatsiya, tarjimashunoslik, lingvistik nazariya, sinonim qatori.

Kirish

Har qanday tilning boyligi va ifodaviy kuchi, avvalo, uning leksik imkoniyatlariga, xususan, sinonim birliklarning mavjudligiga bogʻliqdir. Sinonimlar orqali nutqning obrazlilik, emotsionalligi va uslubiy ifoda kengayadi. Sinonimiya hodisasi turli tillarda turlicha darajada rivojlangan boʻlib, uning semantik va funksional xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish tilshunoslikda dolzarb mavzulardan biridir.

Sinonimiya tushunchasi va nazariy asoslar Sinonimiya (yun. ‘syn’ - birga, ‘onyma’ - ism) bir xil yoki juda yaqin maʼnoni bildiruvchi, ammo talaffuzi va/yoki yozilishi har xil boʻlgan leksik birliklar oʻrtasidagi semantik munosabattir. Tilshunoslikda toʻliq sinonimlar (absolute synonyms) va nisbiy sinonimlar (relative synonyms) farqlanadi.

Akademik V. V. Vinogradov sinonimlarni “semantik yadro va uslubiy rang-baranglik asosida ajraluvchi birliklar” deb taʼriflagan (Vinogradov, 1950). D. A. Krus esa sinonimlarni lingvosemantik toifadagi birliklar sifatida baholab, ularni kontekst orqali farqlash mumkinligini taʼkidlaydi (Cruse, 1986).

Oʻzbek tilida sinonimiya hodisasi Oʻzbek tilida sinonimlar koʻp hollarda xalq ogʻzaki ijodi, adabiy til va soha lugʻatlari asosida shakllangan. Masalan:

goʻzal – chiroyli – sohibjamol – dilrabo

tez – shiddatli – zudlik bilan – chapdast

jasur – qahramon – bahodir – dovyurak

Bu birliklar semantik jihatdan oʻxshash boʻlsa-da, har biri oʻziga xos uslubiy-yuklamaga ega. Masalan, dilrabo soʻzi koʻproq sheʼriy va romantik konnotatsiyani bildiradi.

Ingliz tilida sinonimiya Ingliz tilida sinonimlar koʻpincha konnotativ va uslubiy farqlarga ega:

ask – inquire – question – query



happy – joyful – content – glad – cheerful

angry – furious – irate – mad – annoyed

Masalan, furious so‘zi kuchli g‘azabni bildirsa, annoyed yengilroq norozilikni ifodalaydi. Sinonimlar uslubiy darajaga (formal/informal) ham bog‘liq bo‘lishi mumkin: help (neytral), assist (rasmiy), give a hand (norasmiy).

Qiyosiy tahlil

Semantik farqlar:

O‘zbek tilida sinonimlar konnotativ jihatdan yaqin bo‘lsa-da, ularning stilistik darajasi odatda aniq ajraladi. Ingliz tilida esa semantik soya (shade of meaning) ko‘proq tafovut qiladi.

Funksional rol:

Ingliz tilida sinonimlar ko‘p hollarda kontekst asosida tanlanadi. Jumladan, inquire so‘zi rasmiy, ask esa kundalik nutqda ishlatiladi. O‘zbek tilida esa so‘ramoq umumiy ishlatiladi, surishtirmoq tergov yoki jiddiylik ohangi beradi.

Sinonim qatorining kengligi:

Ingliz tilida bir so‘zga ko‘plab sinonimlar mavjud: walk – stroll, march, stride, pace, wander, roam.

O‘zbek tilida esa bu qator odatda qisqaroq: yurmoq – sayr qilmoq – aylanmoq.

Uslubiy tafovut:

Ingliz tilida sinonimlar uslubiy registrga (formal, informal, poetic) qarab ajraladi. O‘zbek tilida esa sinonimlar xalq og‘zaki nutqi, adabiy til va sohaviy leksika asosida farqlanadi.

Xulosa

Sinonimiya har ikki tilning leksik boyligini ifodalovchi muhim hodisadir. O‘zbek va ingliz tillarida sinonimlar semantik va funksional jihatdan muayyan farqlarga ega. Ushbu farqlar tarjimashunoslik, til o‘qitish, leksikografiya va madaniyatlararo kommunikatsiyada katta ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Vinogradov V. V. Stilistika. Leksika. Frazeologiya. M.: Nauka, 1950.
2. Cruse D. A. Lexical Semantics. Cambridge University Press, 1986.



3. Mahmudov N., Rasulov S. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T.: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi,
4. Hornby A. S. Oxford Advanced Learner’s Dictionary. Oxford University Press, 2015.
5. Jackson H., Amvela E. Z. Words, Meaning and Vocabulary. Continuum, 2000.
6. Yuldashev A. Leksikologiya. T.: Fan, 2005.
7. Karimov M. Sinonimiya va uslub. T.: Fan, 1990.
8. Ullmann S. Semantics: An Introduction to the Science of Meaning. Oxford: Blackwell,

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SOMATIK FRAZELOGIZMLARNING MADANIY-MA’NAVIY JIHATDAN TAQQOSIY TAHLILI

Hafizov Sarvar

Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu tezisda o‘zbek va ingliz tillarida somatik frazeologik birliklarning madaniy-ma’naviy jihatdan taqqosiy tahlili amalga oshiriladi. Somatik frazeologizmlar inson tanasi a’zolari nomidan foydalanib, tilning obrazlilik va emotsionalligini oshiradi. Ishda frazeologizmlarning leksik-semantik xususiyatlari, madaniy tafakkurdagi o‘ziga xosliklari hamda tarjima jarayonidagi qiyinchiliklar o‘rganiladi. O‘zbek va ingliz tilidagi somatik frazalar orasidagi universal va milliy madaniy komponentlar aniqlanib, ular til orqali ifodalangan qadriyatlar va dunyoqarash farqlari bilan bog‘liq ekani ko‘rsatildi. Shuningdek, tarjima amaliyotida aynan va erkin tarjima, ekvivalent tanlash kabi usullarni qo‘llashning ahamiyati ta’kidlandi. Tadqiqotda somatik frazeologizmlarning tilda tutgan o‘rni va madaniy-konseptual funksiyalari yoritildi, bu esa til o‘rganishda hamda tarjimada yanada chuqurroq anglashni ta’minlaydi.

Kalit so‘zlar: Somatik frazeologizmlar, madaniy-ma’naviyat, tarjima, leksik-semantik xususiyatlar, madaniy tafovutlar, frazeologizm.

Somatik frazeologizmlar tushunchasi va leksik-semantik xususiyatlari.

Somatik frazeologizmlar — inson tanasi a’zolari nomi bilan ifodalangan, ko‘pincha metaforik ma’noga ega bo‘lgan barqaror til birliklari. Ular leksik tarkibda farqlansa-da, barchasi inson tajribasi va hissiyotlari orqali madaniyatni aks ettiradi



Misol uchun, ingliz tilida head (bosh), hand (qo‘l), eye (ko‘z), heart (yurak) kabi so‘zlar keng qo‘llaniladi va ko‘plab frazeologizmlarning markaziy elementi hisoblanadi [1, 27]. Ushbu birliklarning ma‘nosi so‘zlarning an‘naviy lug‘aviy ma‘nosidan tashqarida figurativ tushunchalar orqali ifodalanadi. Masalan, “to keep one’s head” iborasi «sokin va aqlli qolish» ma‘nosini bildiradi, bu yerda bosh – mantiq va aql ramzi sifatida ko‘riladi [2, 145]. Shu tarzda, somatik frazeologizmlar tilning ko‘p qirraliligini va emotsional ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi. O‘zbek tilida ham boshlamoq, qo‘lini tortmoq, ko‘z ochmoq, yuragi porlamoq kabi iboralar keng tarqalgan bo‘lib, ular milliy madaniyatga moslab yaratilgan [3, 103].

O‘zbek va ingliz tillaridagi madaniy-ma‘naviy tafovutlar.

Frazeologik birliklar o‘z xalqlarining madaniy kodini o‘zida mujassamlashtiradi. Ingliz va o‘zbek somatik frazeologizmlari o‘rtasida nafaqat universal, balki madaniy xususiyatlarga asoslangan tafovutlar ham mavjud. Masalan, “to have a heart of gold” iborasi ingliz tilida insonning saxiyligi va yaxshi niyatini bildiradi, o‘zbek tilida esa “ko‘ngli toza” iborasi shu maqsadda ishlatiladi. Shuningdek, “to turn a blind eye” va “ko‘z yumib qo‘ymoq” kabi iboralar mazmunan yaqin, ammo tilning tarixiy va madaniy kontekstiga ko‘ra shakllangan [4, 88]. O‘zbek somatik frazeologizmlari ko‘pincha oilaviy va ijtimoiy munosabatlar, insonning ruhiy holatini aks ettiradi. Ingliz tilidagi frazalar esa ko‘proq individual harakat va ijtimoiy xatti-harakatlarga urg‘u beradi. Bu madaniy tafovutlar orqali til ifodalari xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari va ijtimoiy tuzilishini ko‘rsatadi.

Tarjimaviy muammolar: aynan tarjima, erkin tarjima, ekvivalent tanlash.

Somatik frazeologik birliklarni tarjima qilishda aynan tarjima ko‘pincha mazmuni to‘liq etkazolmaydi. Masalan, “break a leg” iborasi ingliz tilida omad tilash ma‘nosida ishlatilsa, so‘zma-so‘z tarjima aniq tushunarsiz bo‘ladi. O‘zbek tilida bu “omad yor bo‘lsin” yoki “qo‘lingdan kelsin” tarzida erkin tarjima qilinadi [5, 62]. Tarjima jarayonida frazeologizmlarning madaniy-ma‘naviy konteksti va fonetik ohanglari hisobga olinishi kerak. Tarjimonda ekvivalent izlash, tavsifiy yoki izohiy usullardan foydalanish tarjimonning mahoratini talab qiladi. Shu bilan birga,



tarjimonlar ko‘pincha madaniy kontekstni saqlab qolish uchun frazeologizmi izoh bilan birga berishga ham murojaat qiladilar. Somatik frazeologizmlarni tarjimada to‘g‘ri uzatish ikki tilning madaniyati va til o‘ziga xosliklarini chuqur anglashni talab qiladi.

Xulosa

Somatik frazeologizmlar tildagi metaforik ifodalarning muhim qismi bo‘lib, inson anatomiyasi va madaniy tajribalar bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘zbek va ingliz tillarida bu frazeologik birliklarning leksik-semantik, madaniy va tarjimaviy jihatlari o‘rganilganida, tilning milliy xususiyatlari hamda umumiy universal qirralari aniqlanadi. Madaniy tafovutlar til o‘rganishda va tarjimada katta ahamiyatga ega bo‘lib, ularni chuqur anglash tarjimaning sifatini oshiradi. Tadqiqot somatik frazeologizmlarning nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik va tarjimashunoslik sohalarida ham muhim o‘ringa ega ekanligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azizova F.S. Ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklarni o‘rgatishda milliy-madaniy xususiyatlar // Til va Adabiyot jurnali. – 2022. – №4. – B.26-29.
2. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. – Routledge, 2018. – 344 p.
3. Mamatov A.E. O‘zbek tili frazeologiyasi. – Toshkent: Narvoz nashriyoti, 2019. – 240 b.
4. Mukhtorova S. O‘zbek tilida somatik frazeologik birliklar. – Toshkent, 2019. – 112 b.
5. Fedulenko T.N. Angliyskaya frazeologiya. – Arkhangelsk, 2000. – 132 s.



PRAGMATIC FAILURES IN TRANSLATION: THE ROLE OF CULTURE IN MISINTERPRETING MEANING

Pirniyazova Shaxnoza Almas qizi

Student of Chirchik State Pedagogical University

Scientific supervisor: Z.A.Umirova

Teacher at Chirchik State Pedagogical University

Abstract. This article examines the phenomenon of pragmatic failures in translation, focusing on how cultural differences contribute to the distortion or loss of intended meaning. While much attention in translation studies has been given to lexical and grammatical equivalence, this paper argues that pragmatic equivalence—particularly in speech acts, politeness strategies, and implicature—is often overlooked, resulting in serious communicative breakdowns. Drawing on key theories from cross-cultural pragmatics (Thomas, 1983; Blum-Kulka, 1989) and translation studies (Nida, House), the study analyzes real-life examples from diplomatic discourse, audiovisual translation, and business communication. The findings demonstrate that pragmatic failures often occur when translators prioritize literal meaning over context-specific cultural norms. The paper concludes by proposing culturally sensitive translation strategies aimed at preserving both the linguistic form and communicative intent of the original message.

Key words: Pragmatic failure, Translation, Intercultural communication, Cross-cultural pragmatics, Speech acts, Politeness strategies, Cultural norms, Meaning interpretation, Translation strategies, Dynamic equivalence.

INTRODUCTION

Translation is not merely a mechanical substitution of words from one language into another; it is a complex process that involves the transfer of meaning across linguistic and cultural boundaries. While much research has focused on achieving lexical and grammatical equivalence, the pragmatic dimension of translation — the interpretation and communication of speaker intentions, social norms, and context-dependent meanings — often remains insufficiently addressed. Pragmatic failures occur when the translator’s rendition fails to convey the intended illocutionary force or politeness strategy of the original utterance, leading to misunderstandings and communicative breakdowns.



The role of culture in shaping pragmatic norms is particularly significant in intercultural translation contexts. Different speech communities employ diverse conventions for politeness, indirectness, humor, and speech acts, which may not have direct equivalents in the target language. Consequently, translators face challenges in preserving the pragmatic intent without distorting the message or offending the target audience. This paper aims to explore the nature of pragmatic failures in translation, emphasizing the influence of cultural factors on the interpretation of meaning. By analyzing examples from diplomatic discourse, audiovisual translation, and business communication, the study seeks to identify common sources of pragmatic failure and suggest strategies for culturally sensitive translation.

LITERATURE REVIEW

Pragmatic failure in translation is a well-explored issue in both pragmatics and translation studies, emphasizing how meaning can be lost or distorted when cultural contexts are not adequately considered. Thomas (1983) pioneered the concept of pragmatic failure, distinguishing between pragmatolinguistic failure, which occurs when inappropriate linguistic forms are used to perform speech acts, and sociopragmatic failure, which arises from misunderstanding the social norms and conventions underlying language use. Blum-Kulka (1989) expanded on this by investigating cross-cultural differences in requests and apologies, demonstrating that variations in politeness strategies significantly affect the way speech acts are perceived and understood. These differences create particular challenges in translation, where a literal rendering can result in a message that is either too direct, too indirect, or culturally inappropriate. Nida's (1964) theory of dynamic equivalence highlights the importance of conveying the effect and intended meaning of the source text rather than maintaining a strict word-for-word correspondence. However, as House (2015) notes, achieving pragmatic equivalence is especially complex due to the embeddedness of meaning in cultural contexts. Searle's (1969) speech act theory provides a fundamental framework for understanding the illocutionary forces behind utterances, which are often difficult to transfer across



languages without loss or distortion. Sperber and Wilson’s (1986) relevance theory further underlines how meaning depends on shared contextual assumptions, making cross-cultural communication prone to pragmatic failure when such shared knowledge is absent. More recent studies emphasize the need for translators to develop intercultural competence (Katan, 2004; Schäffner, 2004). Translators must navigate not only linguistic equivalences but also cultural norms related to politeness, indirectness, humor, and social hierarchy. Machine translation tools, while improving in syntax and semantics, still largely fail to capture these pragmatic nuances.

This literature collectively underscores that pragmatic failures in translation are predominantly cultural rather than purely linguistic issues. Effective translation demands a deep understanding of both source and target cultures to preserve the intended communicative function and avoid misinterpretation.

METHODOLOGY

This study employs a qualitative approach to explore the common translation difficulties encountered in intercultural communication. The research is based on a combination of literature analysis and case study examination. Academic texts, journal articles, and theoretical frameworks from translation studies and intercultural communication were reviewed to identify key challenges and strategies related to translation. Additionally, several real-world examples and case studies were analyzed, focusing on instances where translation led to misunderstandings due to cultural differences, idiomatic expressions, or contextual mismatches. These examples were selected from various fields, including media, advertising, diplomacy, and education, to provide a broad perspective on the issue.

The aim of this methodology is to highlight patterns in translation difficulties and evaluate the effectiveness of strategies used to address them. By synthesizing theoretical insights and practical cases, the study seeks to provide a well-rounded understanding of the complexities involved in translating across cultures.

RESULTS AND DISCUSSION



The analysis revealed multiple instances of pragmatic failures in the translated texts, highlighting the strong influence of cultural norms on how meaning is interpreted and conveyed. The examples examined fell into two main categories: pragmalinguistic failures and sociopragmatic failures, both of which resulted in altered or distorted communicative intent in the target language. Several examples demonstrated how direct translation of linguistic forms without consideration of pragmatic function led to unnatural or inappropriate expressions. For instance, English phrases such as “Would you mind...?” or “I was wondering if...” were translated too literally into Russian, resulting in commands that sounded overly direct or impolite. These expressions carry polite hedging in English, but the translated versions often lost their softening effect due to the translator’s focus on lexical rather than functional equivalence. Additionally, some humor, irony, and metaphorical language in audiovisual materials were translated literally, leading to loss of intended tone or misunderstanding by the target audience. This suggests a lack of attention to the illocutionary force of the utterances — the speaker’s intended meaning behind the literal words.

Sociopragmatic issues were especially prominent in the translation of culturally bound norms, such as forms of address, politeness strategies, and emotional tone. For example, in official diplomatic translations, the overly formal tone used in Russian renditions of English political speeches sometimes created a sense of emotional distance or artificiality, which was not present in the original. Conversely, casual language in English business emails translated too informally into Russian resulted in a perceived lack of professionalism. Another recurrent problem was the misinterpretation of culturally specific expressions, such as references to holidays, traditions, or social values. These were either omitted or translated literally, often stripping the utterance of its cultural context and communicative purpose.

Overall, the findings support the view that pragmatic failures are often the result of insufficient cultural awareness on the part of the translator, rather than mere linguistic incompetence. The misalignment between source and target cultural



norms—especially in how politeness, indirectness, and emotional tone are expressed—was a key factor in most examples analyzed.

These results underscore the importance of training translators not only in linguistic competence but also in cross-cultural pragmatics. Translators must be able to identify the speaker's intended pragmatic function and adapt it in a culturally appropriate way. This may involve using different linguistic forms or adjusting the level of directness to align with the norms of the target audience.

CONCLUSION

The study highlights that pragmatic failures in translation primarily stem from cultural differences and misaligned communicative norms rather than mere linguistic inaccuracies. Both pragmalinguistic and sociopragmatic failures disrupt the intended meaning, causing misunderstandings and potentially offending the target audience. Effective translation requires not only linguistic competence but also deep cultural awareness to preserve the pragmatic intent of the source text. Integrating cross-cultural pragmatics into translator training can significantly reduce pragmatic failures and enhance communication across languages and cultures. Future research should explore broader corpora and consider the role of emerging translation technologies in addressing these challenges.

REFERENCES

1. Blum-Kulka, S. (1989). Interlanguage Pragmatics: The Case of Requests. In S. Blum-Kulka, J. House, & G. Kasper (Eds.), *Cross-Cultural Pragmatics: Requests and Apologies* (pp. 37–70). Norwood, NJ: Ablex.
2. House, J. (2015). *Translation Quality Assessment: Past and Present* (2nd ed.). New York: Routledge.
3. Katan, D. (2004). *Translating Cultures: An Introduction for Translators, Interpreters and Mediators* (2nd ed.). Manchester: St. Jerome Publishing.
4. Nida, E. A. (1964). *Toward a Science of Translating: With Special Reference to Principles and Procedures Involved in Bible Translating*. Leiden: E.J. Brill.
5. Searle, J. R. (1969). *Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language*. Cambridge: Cambridge University Press.
6. Sperber, D., & Wilson, D. (1986). *Relevance: Communication and Cognition*. Oxford: Blackwell.



7. Thomas, J. (1983). Cross-cultural pragmatic failure. *Applied Linguistics*, 4(2), 91–112. <https://doi.org/10.1093/applin/4.2.91>
8. Schäffner, C. (2004). Political Discourse Analysis from the Point of View of Translation Studies. *Journal of Language and Politics*, 3(1), 117–150.
9. Hatim, B., & Mason, I. (1997). *The Translator as Communicator*. London: Routledge.
10. Baker, M. (1992). In *Other Words: A Coursebook on Translation*. London: Routledge.

O‘ZBEK VA INGLIZ MAQOLLARIDA GENDERNING GERMENEVTIK JIHATDAN LISONIY VOQEALANISHI

Ro‘ziyeva Rayxon Abduxalilovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Xorijiy til va adabiyoti yuqori kurslar kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya. Gender mavzusi zamonaviy jamiyatda katta e‘tibor qaratilayotgan masalalardan biridir. Har bir madaniyatda, shu jumladan, o‘zbek va ingliz xalqlarining ma‘naviy merosida, gender tushunchasi turli shakllarda aks etgan. Maqollar esa xalq og‘zaki ijodining eng muhim turlaridan biri bo‘lib, unda jamiyatning ijtimoiy-tarixiy tajribalari, qadriyatları, etika va estetik tasavvurlari aks etadi. Bu maqolada o‘zbek va ingliz maqollarida genderning lisoniy voqeanishi, ya‘ni til va ijtimoiy kontekstda gender rolining qanday namoyon bo‘lishi, o‘zgarish va rivojlanish jarayonlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: gender, maqol, lisoniy voqeanish, germinenivtika, gender stereotiplari

Genderning tilshunoslik jihatdan voqeanishi

Gender, tilshunoslikda, o‘zbek va ingliz tilidagi maqollarda, bir qator lisoniy va madaniy omillar orqali aks etadi. Gender identifikatsiyasi ko‘pincha ijtimoiy va psixologik jihatlarga asoslanadi, shuning uchun maqollarda erkaklar va ayollar roli, ular uchun belgilangan me‘yorlar va ijtimoiy kutishlar haqida ko‘plab tasavvurlar mavjud. Bu tasavvurlar esa o‘z navbatida til orqali jamiyatning qadriyatları, stereotiplari va ijtimoiy me‘yorlarini shakllantiradi. Masalan, ingliz tilidagi maqollarda ko‘pincha erkakning hokimiyat, kuch va rahbarlik atributları bilan bog‘liq obrazlar aks etadi. Misol uchun, "A man's home is his castle" (Erkakning uyi



- uning qal'asi) degan maqolada erkakning o'z oilasiga bo'lgan egalik huquqi va hokimiyatini ifodalaydi. O'zbek maqollarida esa erkaklarning oiladagi va jamiyatdagi o'zni ko'pincha ulug'lanadi, masalan, "Erkakni er yuziga chiqarish uchun ona kerak" yoki "Erkakning nomi yerda qolmas" kabi maqollar erkaklarning oiladagi va jamiyatdagi nufuzini ta'kidlaydi.

Biroq, ayollarga nisbatan tuzilgan maqollar ko'proq ularning ijtimoiy va oilaviy roli bilan bog'liqdir. Ingliz tilida "Behind every successful man, there is a woman" (Har bir muvaffaqiyatli erkakning orqasida ayol turadi) degan maqolada ayolning erkak muvaffaqiyatiga ta'siri ko'rsatilgan, lekin bu ayolning mustaqil yutuqlari yoki o'ziga xos roli haqida emas, balki erkakning muvaffaqiyatini qo'llab-quvvatlashdagi orni haqida gapiradi. O'zbek maqollarida esa ayolning uy-ro'zg'or, oilaviy muvozanatni saqlashdagi roli yuqori baholanadi: "Ayol uyga qalb, erkak uyga bosh", "Ayolning qo'lidan kelgan ishni erkak qilolmaydi" kabi maqollar ayolning ijtimoiy va oilaviy mas'uliyatini ta'kidlaydi.

O'zbek va ingliz maqollarida gender stereotiplari aniq ko'rinishda mavjud. Erkaklar ko'pincha kuchli, qat'iyatli, boshqaruvchi va yetakchi sifatida tasvirlanadi, ayollar esa ko'pincha ma'naviyati, sabri, mehribonligi va oilaga bo'lgan sadoqati bilan aks etadi. Masalan, ingliz maqollarida erkaklar uchun: "A man's word is his bond" (Erkakning so'zi uning kelishuvi hisoblanadi) degan maqol, erkaklarni ishonchlilik va kuchli xarakterga ega sifatida tasvirlaydi. Bunday tasvir, ijtimoiy hayotda erkaklarga qo'yilgan talablar va kutishlarga mos keladi. O'zbek maqollarida esa, erkaklar odatda jamiyatda yuqori mavqega ega va oilaning boshqaruvchisi sifatida qaraladi.

Ayollar esa ko'pincha mehribon, sadoqatli va uy-ro'zg'or ishlariga mas'ul sifatida tasvirlanadi. Ingliz tilidagi "A woman's place is in the home" (Ayolning o'zni uyda) maqolida ayolning asosiy roli uyda bo'lishi kerakligi ko'rsatiladi. Bu maqol, ayniqsa, tarixiy nuqtai nazardan ayollarning ijtimoiy roli haqida gapiradi. O'zbek maqollarida esa ayolning oiladagi muhim roli ko'pincha uning xushmuomala, mehribon va sabrli ekanligi bilan bog'lanadi, masalan, "Ayol - uying nuri" yoki "Ayolning qo'li bilan dunyo aylanadi" kabi iboralar.



Xulosa

O‘zbek va ingliz maqollaridagi gender tasavvurlari, madaniyat va tilning bir qismi sifatida, jamiyatning qadriyatlari, stereotiplari va ijtimoiy me'yorlarini aks ettiradi. Gender roli maqollarda nafaqat erkak va ayolning oiladagi o‘rni, balki ijtimoiy va iqtisodiy hayotdagi rollari haqida ham ma'lumot beradi. Hozirgi kunda gender stereotiplari o‘zgarib, yangi ijtimoiy haqiqatlarga moslashmoqda. Shu sababli, til va maqollar orqali genderni o‘rganish, faqat o‘tmishdagi qadriyatlarni emas, balki zamonaviy jamiyatdagi o‘zgarishlarni ham tushunishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G‘ulomova, N. (2005). Til va jamiyat: Sotsiolingvistika asoslari. Toshkent: O‘zbekiston milliy universiteti nashriyoti.
2. Ibragimov, I. (2010). O‘zbek tilshunosligida sotsiolingvistika va gender masalalari. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi.
3. Hoshimov, M. (2013). Til va madaniyat: Jinsiy ta'sirlar. Toshkent: O‘zbekiston davlat nashriyoti.
4. Davies, M. (2007). The Handbook of Gender and Language. Blackwell Publishing.
5. Butler, J. (1990). Gender Trouble: Feminism and the Subversion of Identity. Routledge.
6. Kibrik, A. A., & A. K. Shakhnarovich (1998). Language and Gender: Cross-cultural Perspectives. Mouton de Gruyter

REKLAMA MATNLARINING LINGVOKULTUROLOGIK JIHATLARI

Xudayberganova Maxbuba Meylibayevna

Tayanch doktorant, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada reklama matnlarining lingvokulturologik xususiyatlari chuqur tahlil qilingan. Zamonaviy jamiyatda reklamaning tili va madaniy qadriyatlarni aks ettirishi, milliy va global kontekstda reklamaning o‘ziga xos xususiyatlari tizimli ravishda yoritilgan. Reklama matnlarida qo‘llaniladigan lingvistik vositalar va ularning madaniy konnotatsiyalari mukammal o‘rganilgan. Tadqiqotda o‘zbek reklama matnlarida namoyon bo‘ladigan lingvokulturologik jihatlar tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: reklama matni, lingvokulturologiya, madaniy qadriyatlar, til vositalari, kommunikativ strategiya, madaniy kod, milliy o‘ziga xoslik.



Kirish

Zamonaviy jamiyatda reklama nafaqat iqtisodiy, balki madaniy-ma'rifiy ahamiyatga ham ega bo'lib borayotgan murakkab ijtimoiy-madaniy fenomendir. Reklama matnlari faqat mahsulot yoki xizmatlar haqida ma'lumot berish bilan cheklanib qolmay, balki jamiyatning qadriyatlari, mentaliteti, dunyoqarashini ham aks ettiruvchi ko'zgu vazifasini bajaradi. Shu nuqtai nazardan, reklama matnlarini lingvokulturologik jihatdan o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi.

Lingvokulturologiya til va madaniyatning o'zaro munosabatlarini, ularning chambarchas bog'liqligini o'rganuvchi zamonaviy tilshunoslik yo'nalishi sifatida reklama matnlarini o'rganishda muhim metodologik asos vazifasini o'taydi. Bu soha tilning madaniyat bilan o'zaro bog'liqligini, madaniyat va tilning rivojlanishiga o'zaro ta'sirini, ularning ijtimoiy hayot, psixologiya va falsafa bilan aloqalarini o'rganadi. Zero, xalqning madaniyatsiz til mavjud bo'la olmaydi, shuningdek, tilsiz madaniyat ham yashay olmaydi [1]. Aynan shu nuqtai nazardan reklama matnlarini lingvokulturologik kontekstda o'rganish, ularning jamiyat hayotidagi o'rnini yanada teranroq tushunishga yordam beradi. Reklama matnlarida til vositalari orqali muayyan madaniy kodlar, qadriyatlar va stereotiplar namoyon bo'ladi. Bu matnlar jamiyatda ustuvor bo'lgan qadriyatlarni, kundalik hayot normalarini, ideallashtirilgan turmush tarzini aks ettiradi va shu bilan bir vaqtda jamiyatga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Reklama matnlarini lingvokulturologik jihatdan tadqiq etish jamiyatning madaniy-qadriyat yo'nalishlarini tushunish, ularning o'zgarishi va rivojlanishini kuzatish imkoniyatini beradi.

Reklama matnlarining lingvokulturologik xususiyatlari

Reklama matnlari lingvokulturologik tadqiqot obyekti sifatida quyidagi xususiyatlarga ega:

Madaniy qadriyatlarni aks ettirish. Reklama matnlari bir mamlakatning madaniyati, mentaliteti va milliy xarakterini, shuningdek, barcha ijtimoiy-madaniy hodisalarni aks ettiradi [2]. O'zbek reklama matnlarida oilaviy qadriyatlar, kattalarni hurmat qilish, mehmondo'stlik, o'zaro yordam, qo'ni-qo'shnichilik munosabatlari



kabi milliy qadriyatlar yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan, oziq-ovqat mahsulotlari reklamasida ko‘pincha oila a‘zolari birgalikda ovqatlanayotgan holat tasvirlanadi, bu esa o‘zbek madaniyatida oilaviy aloqalarning muhimligini ta’kidlaydi.

Til vositalari orqali madaniy konnotatsiyalarni ifodalash. Reklama matnlarida qo‘llaniladigan til vositalari nafaqat ma’lumot berish, balki muayyan madaniy konnotatsiyalarni ifodalash vazifasini ham bajaradi. O‘zbek reklama matnlarida milliy-madaniy tushunchalarni ifodalovchi leksik birliklar (dasturxon, mehmon, to‘y, gap, hashar) keng qo‘llaniladi. Bu so‘zlar faqat ma’lumot berish emas, balki milliy qadriyatlarni ham eslatish vazifasini bajaradi.

Madaniy kodlarni qo‘llash. Reklama nafaqat mahsulotni targ‘ib qilish vositasi, balki ishlab chiqarishdagi muayyan yutuqlarni ko‘rsatadigan, aholi orasida ma’lumot tarqatadigan, odamning ruhiy va intellektual holatiga ta’sir ko‘rsatadigan, tilning imkoniyatlarini aks ettiruvchi omildir [3]. O‘zbek reklamalarida milliy madaniy kodlar (milliy liboslar, me’moriy yodgorliklar, an’anaviy bayramlar) ko‘p qo‘llaniladi. Bu orqali milliy identifikatsiya kuchaytiriladi va mahsulot yoki xizmat bilan milliy qadriyatlar o‘rtasida bog‘liqlik o‘rnatiladi.

Madaniy adaptatsiya. Reklama matnlarini tarjima qilishda matnni maqsadli auditoriyaning ijtimoiy-madaniy xususiyatlariga moslashtirishni talab qiladi. Reklama sloganlarini moslashtirishda nafaqat so‘zlarni, balki g‘oyalarni ham tarjima qilish muhimdir [4]. Global brendlar O‘zbekiston bozoriga kirib kelganda o‘z reklama matnlarini o‘zbek madaniyatiga moslashtiradi. Bu jarayonda madaniy kontekst, qadriyatlar va milliy o‘ziga xoslik hisobga olinadi.

Til vositalarining stilistik xususiyatlari. O‘zbek reklama matnlarida milliy adabiy an‘analardan, xalq og‘zaki ijodidan, maqol va matallardan foydalanish keng tarqalgan. Bu, bir tomondan, reklama matnining ta’sirchanligini oshirsa, ikkinchi tomondan, milliy madaniyat bilan bog‘liqlikni ta’minlaydi.

Xulosa

Reklama matnlarini lingvokulturologik jihatdan o‘rganish jamiyatning madaniy-qadriyat yo‘nalishlarini, til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatlarni tushunishda muhim ahamiyatga ega. O‘zbek reklama matnlari milliy qadriyatlar,



mentalitet, dunyoqarash, tarixiy tajriba va zamonaviy tendentsiyalarni aks ettiruvchi murakkab lingvokulturologik fenomendir. Reklama matnlarida qo‘llaniladigan til vositalari, milliy-madaniy leksika, frazeologik birliklar, milliy obrazlar va ramzlar orqali nafaqat mahsulot yoki xizmat haqida ma'lumot beriladi, balki milliy identifikatsiya ham amalga oshiriladi. Reklama matnlari tilning barcha imkoniyatlaridan foydalanish bilan birga, milliy madaniyatni ham targ‘ib qiladi va shu bilan bir vaqtda unga ta'sir ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimova Sh. B. Linguoculturology As a New Branch of Linguistics. *Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education*, 2024, Vol. 2 №5, 593-595 б.
2. Linguacultural Analysis of Language of Advertising in the English Language. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education*, 2024, Vol. 2, №1, 432-435 б.
3. Tkachyk O. Socio-cultural peculiarities of advertising texts. – Academia.edu, 2017.
4. Халилова Г. Analysis of translation of English advertising texts into Uzbek. *Переводоведение: проблемы, решения и перспективы*. 2022, №1, 52-53 б.

INGLIZ VA O‘ZBEK TILIDA ANTROPONIMLAR QATNASHGAN FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR

Nishonova Sayyora Saidovna

O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti,
Ingliz tili nazariyasi va o‘qitish metodikasi kafedrası, o‘qituvchi

Annotasiya. Ushbu maqolada frazeologik birliklar tarkibida atoqli otlarning, xususan antroponimlarning tutgan o‘rni, ularning semantik va etimologik xususiyatlari yoritilgan. Ingliz va o‘zbek tillaridagi atoqli otlar ishtirokidagi frazeologizmlar misolida bu iboralarning madaniy, tarixiy hamda lingvistik ahamiyati tahlil qilingan. Maqolada xalq og‘zaki ijodi, tarixiy shaxslar va adabiy qahramonlar bilan bog‘liq iboralar asosida atoqli otlar qatnashgan frazeologik birliklarning tasnifi berilgan. Shuningdek, bunday birliklarning xalq tafakkuri, madaniyati va estetik didini aks ettiruvchi vosita sifatidagi roli ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Frazeologiya, frazeologik birliklar, atoqli otlar, antroponimlar, semantika, etimologiya



Frazeologiya — bu tilshunoslikning muhim sohalaridan biri bo‘lib, u til birligi sifatida ishlatiladigan barqaror iboralar, ya’ni frazeologik birliklarni o‘rganadi. Ushbu fan yo‘nalishi nisbatan yangi bo‘lishiga qaramay, bugungi kunda u keng miqyosda o‘rganilmoqda. Ammo frazeologik birliklarning mazmuni, tuzilishi va tasnifi bo‘yicha olimlar o‘rtasida hanuzgacha yagona fikr mavjud emas.

“Frazeologiya” atamasi (phraseologia — lotincha so‘z bo‘lib, phrasis “so‘z birikmasi, ifoda”, logia esa “to‘plam, yig‘indi” degan ma’noni anglatadi) birinchi marta 1558 yilda nemis filolog— gumanisti M. Neander tomonidan yunon notiqi Isokratning so‘z birikmalari va ifodalarini lotin tiliga tarjima qilganida ishlatilgan. [6, b. 38] Frazeologiya fanining shakllanishi va taraqqiyotida ko‘plab olimlar, xususan, Sharl Balli, V.V. Vinogradov, N.N. Amosova va A.V. Kunin kabi mutaxassislar muhim hissa qo‘shganlar. Sharl Balli frazeologik birliklarni semantik yondashuv asosida tahlil qilgan bo‘lsa, V.V. Vinogradov ularni ichki mazmuni va struktural xususiyatlariga ko‘ra tasniflab bergan. N.N. Amosova esa frazeologik birliklarni “ajralmas birikmalar” sifatida ko‘rib, ularning leksik kompleks sifatidagi rolini ta’kidlagan.

Frazeologik birliklar ichida atoqli otlar qatnashgan iboralar alohida mavqe egallaydi. Garchi ular strukturaviy jihatdan boshqa frazeologik birliklarga o‘xshash bo‘lsa-da, atoqli otlar (ya’ni, shaxs, joy, tarixiy hodisa yoki mashhur obrazlarni anglatuvchi otlar) ishtirok etgan iboralar etimologik va semantik jihatdan alohida tahlilni talab qiladi. Bunday birliklarda qo‘llanilgan atoqli otlar iboraning ma’nosini boyitibgina qolmay, balki uni madaniy va tarixiy kontekst bilan bog‘lab turadi. Ingliz tilida ham, o‘zbek tilida ham atoqli otlar qatnashgan frazeologik birliklar talaygina bo‘lib, ular har ikki tilda ham chuqur tarixiy ildizlarga ega va o‘ziga xos madaniy ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, frazeologik birliklar tarkibida uchraydigan antroponimlar — ya’ni inson ismlari va tarixiy shaxslarning nomlari — semantik yuki kuchli bo‘lgan iboralarni hosil qiladi. Antroponimlar qatnashgan frazeologik birliklar bir necha turli shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin. Ular, masalan, mashhur tarixiy shaxslar (Napoleon, Robin Hood, Amir Temur, Alisher Navoiy),



adabiy qahramonlar (Sherlock Holmes, Don Kixot), diniy yoki afsonaviy obrazlar (Yunus, Loki) nomiga asoslangan iboralar shaklida bo‘lishi mumkin.

Bu turdagi frazeologizmlar tilning ifoda imkoniyatlarini boyitadi, milliy va madaniy xotirani saqlab qoladi hamda muayyan ijtimoiy kontekstda chuqur ma’no qatlamlarini ochib beradi. Shu bois, antroponimlar asosida shakllangan frazeologik birliklarni tahlil qilish nafaqat lingvistik, balki madaniy-historik tadqiqotlar uchun ham katta ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Ingliz tilida atoqli otlar qatnashgan frazeologik birliklar boshqa frazeologik birliklardan farq qilmaydi: ular izchil va yagona strukturaviy modelda qurilgan. Shunga qaramay, atoqli otlarni o‘z ichiga olgan frazeologik birliklar turkumi birinchi navbatda, ularni etimologik va semantik nuqtai nazar maxsus o‘rganishni talab qiladi. [5, b.81-84]

Antroponimlar qatnashgan frazeologik birliklar bir necha turli bo‘lishi mumkin.

1) Xristian dinining muqaddas kitobi Bibliyadan kelib chiqqan va shu kitobda zikir etilgan ismlar qatnashgan frazeologik birliklar: as poor as Job— Iovday kambag‘al, ehtiyojmand; Judas kiss— Iudaning bo‘sasi, xiyonatkorning yaxshiligi; Joseph's coat— Yusufning ko‘ylagi, hashamatli kiyim; doubting Thomas— shubhalanadigan inson; The curse of Cain— Qobilning lan‘ati; Bow the knee to Baal— o‘ziga kumir yaratish, idolga sig‘inish; Adam's apple— baqbaqa; Balaam's ass— jim va itoatkor odamning birdan xaqqini talab qilishi; old as Methuselah— Mafusailday qari (juda qari inson); Naboth's vineyard— hasad va hohish obyeksi va hokazo. [4, b.944]

2) Xalq afsonalari, qo‘shiq-lari, mashhur kitoblar va ertaklaridagi ismlar bilan bog‘liq bo‘lgan frazeologizmlar inglizlarning milliy xarakterining o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi. Bunday frazeologik birliklar xalqning uzoq davom etgan madaniy taraqqiyot jarayonini aks ettiradi: Tom and Jerry –ziravorli issiq punsh ma’nosini anglatadi. P. Egan kitoblari qahramonlari sharafiga nomlangan; Tom thumb — kichik narsa, mitti. Qadimgi ingliz ertakidagi qahramoni; Hamlet with Hamlet left out— eng muhim, asosiy, mohiyatidan mahrum bo‘lgan narsa. Shahzoda



Gamlet — Uilyam Shekspir tragediyasidagi qahramon; Jekyl land Hyde— yaxshi va yomon fazilatlarini namoyon etuvchi ikki tomonlama shaxs. R. L. Stivensoinning "Doktor Jekil va janob Xayd" romani qahramoni sharafiga nomlangan.

3) Davlat arboblari nomi bilan ifodalangan frazeologik birliklar: John Hancock— Ikkinchi Kontinental Kongressning prezidenti va 18— asrning Amerika davlat arbobi edi. O‘zining bezakli imzosi bilan tanilgan. Endi uning nomi JonHancock frazeologik birligiga aylandi, “imzo” yoki “imzolash” degan ma’noni anglatadi; BigBen — "Ingliz parlamenti binosidagi soat", o‘z nomini soat qurilishiga boshchilik qilgan Ser Benjamin Xoll nomidan oldi. Xollning tana tuzilishi juda katta edi, shuning uchun uni ko‘pincha "Big Ben" deb atashgan. Shunday qilib, faqat keyinroq bu taxallus minoraga "ko‘chib o‘tdi"; Bloody Mary— "Qonli Meri" qirolicha Meri Tudorga berilgan nom edi. Bu taxallusni unga u shafqatsizlarcha ta'qib qilgan protestantlar bergan. Zamonaviy dunyoda bu nom oziq— ovqat mahsulotini ko‘rsatish uchun ishlatiladi, ya’ni alkogol ichimlikni nomlash uchun ishlatiladi; Prince Albert coat — qirolicha Viktoriyaning eri shahzoda Albertning paltosi. 1860 yilda Albert Qo‘shma Shtatlarga tashrif buyurgan paytda bu nafis paltoni kiygan va bu qirollik oilasi a’zolarining nafis didini ifodalagan. Zamonaviy ingliz tilida odatda ushbu frazeologik birlik nutqda ko‘pincha kiyim— kechakni istehzoli ifodalash uchun ishlatiladi. [1]

O‘zbek tilida antroponimlar qatnashgan frazeologik birliklarning quyidagi turlarini keltirib o‘tishimiz mumkin: o‘zbek realiyalari bilan bog‘liq frazeologik birliklar— Ishi qilar Masharif, mushtni yeydi Mirsharif— boshqalar uchun mehnat qilsa, lekin natijada undan boshqa odam foyda ko‘rsa; kal Fozil— hazil, hazilni tushunmagan, Mulla Mirquruq— hatto mayda xarajatga ham puli yo‘q, hamyoni bo‘m— bo‘sh ; O‘zbek olimlari, podshohlar va mashhur kishilarning nomlari bilan bog‘liq frazeologik birliklar: Asfandiyor xon bo‘ldi, og‘zi — burnim qon bo‘ldi— boshqa odamning yuksalishi yoki muvaffaqiyati uchun o‘zining zarar ko‘rishi, Amir Temurdan qolgan— almisoqdan qolgan; O‘zbek adabiyoti namunalari va xalq og‘zaki ijodida uchraydigan personajlarning nomlari bilan bog‘liq frazeologik birliklar: Oti bor – Alpomish [2]



Xulosa qilib aytganda, frazeologik birliklar, xususan atoqli otlar va antroponimlar ishtirokidagi iboralar, tilning madaniy, tarixiy va semantik qatlamlarini ifodalovchi muhim vosita hisoblanadi. Ingliz va o‘zbek tillarida bunday frazeologizmlar ko‘plab shakllarda uchraydi: diniy manbalar, xalq ertaklari, adabiy asarlar hamda tarixiy shaxslar nomlari asosida shakllangan iboralar orqali xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari va estetik didi aks ettiriladi. Ular nafaqat tilning obrazlilik darajasini oshiradi, balki milliy madaniyat va tarixiy xotirani avloddan avlodga yetkazishda ham muhim rol o‘ynaydi. Shu bois, atoqli otlar qatnashgan frazeologik birliklarni tahlil qilish lingvistik hamda madaniy-historik tadqiqotlar nuqtai nazaridan alohida ilmiy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Kunin A.V. English-Russian phraseological dictionary. Moscow Russkiy yozik, 1984.
2. Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. Toshkent – 2022
3. Амосова Н. Н. Основы английской фразеологии. Издательство Ленинградского университета, 1963
4. Кунин А. В. Англо-русский фразеологический словарь. Изд-е 4-е, перераб. и доп. М.: Русский язык, 1984. 944 с
5. Кучешева И.Л. Лексико-семантический анализ имен собственных в составе английских и русских фразеологических единиц: Лингвокультурологический подход // Иностранные языки в школе. – 2008. – № 5. – С.81–84
6. Солодуб, Ю. П. Альбрехт Ф. Б.. Лексика и фразеология: сопоставительный аспект: учебник /– М. : Флинта : Наука, 2003.

METHODOLOGICAL APPROACHES IN TEACHING ENGLISH AS A FOREIGN LANGUAGE: THEORY AND PRACTICE

Ma'rufjon Karimov, PhD, NamSTU

marufjon_karimov.87@mail.ru

Rahimjonov Bahtiyor, student, NamSTU

bahtiyor.rahimjonov96@gmail.com

Abstract. This article analyzes the main methodological approaches used in teaching English as a foreign language, focusing on their theoretical foundations and



practical applications. The author compares the effectiveness of the communicative method, grammar-translation approach, task-based learning, and integration of modern technologies. The significance of selecting appropriate methodology for developing students' language competencies is also emphasized.

Keywords. methodology, English language, communicative approach, task-based learning, modern technologies.

Introduction

In the field of teaching English as a foreign language (TEFL), methodology plays a central role in shaping learners' success. Over the years, various methodological approaches have evolved, each rooted in different theoretical perspectives and pedagogical priorities. Choosing the right method can significantly affect how effectively students acquire and apply language skills. This paper explores the dominant methods used in TEFL [1.15-35 p], comparing their theoretical underpinnings, teaching strategies, and real-world applications.

Traditional methods in TEFL

The Grammar-translation method (GTM) is one of the oldest and most traditional approaches used in the teaching of English as a foreign language. Originating from the classical method used to teach Latin and Greek [2.225 p], GTM emphasizes the explicit teaching of grammar rules, the memorization of vocabulary, and the translation of sentences between the target language and the learners' native language. Instruction is typically delivered in the students' first language, with little emphasis on speaking or listening skills. Reading and writing are prioritized, and accuracy is considered more important than fluency. While GTM has been criticized for its lack of communicative focus, it remains in use in many educational systems due to its structured nature and effectiveness in developing a solid foundation in grammar and vocabulary.

The grammar translation method (GTM)

The GTM is one of the oldest language teaching methods and is rooted in classical education. Its key characteristics include:

Emphasis on grammar rules and vocabulary memorization.



Focus on reading and translation rather than speaking.

Native language use as a medium of instruction.

While GTM helps students understand grammar and build a wide vocabulary, it often fails to develop communicative competence.

The Audio-lingual method (ALM)

Originating from behaviorist theories, ALM prioritizes repetition and habit formation. Key features include:

Drills and pattern practice.

Emphasis on pronunciation and sentence structure.

Limited focus on meaning or context.

Though effective in controlled environments, ALM lacks adaptability and may not engage learners at deeper cognitive levels.

Modern approaches

Modern approaches to Teaching English as a Foreign Language (TEFL) have significantly shifted the focus from traditional, teacher-centered methodologies to more learner-centered, communicative practices. The primary advantage of these methods lies in their emphasis on communication [3.235 p] and real-world language use, enabling students to develop practical language skills applicable in everyday situations. Approaches [4. 205 p] such as communicative language teaching, task-based language teaching, and content and language integrated learning encourage active participation, interaction, and problem-solving, fostering greater fluency and confidence in students.

One of the key benefits of these modern approaches is their adaptability [5.125-130 p] to diverse learning styles. By incorporating multimedia, technology, and group work, they cater to different types of learners and promote student engagement. Additionally, these methods focus on both fluency and accuracy, balancing the development of grammatical competence with the ability to use the language effectively in communication. Furthermore, modern approaches prioritize cultural understanding and critical thinking, allowing students not only to learn a language but also to gain insights into the culture and context in which it is used.



Communicative language teaching (CLT)

CLT emerged in the 1970s and remains a dominant method today. It centers on:

Real-life communication and functional language use.

Task-based group activities and problem-solving.

Focus on fluency over grammatical accuracy.

CLT encourages active learning, fosters student motivation, and reflects the natural use of language. However, it requires skilled teachers and well-resourced classrooms.

In conclusion, modern approaches in TEFL support a more holistic language learning experience that aligns with the dynamic nature of global communication. They move beyond rote memorization and grammar drills, encouraging students to interact meaningfully with the language and fostering a deeper, more practical understanding of English.

Task-based language teaching (TBLT)

TBLT is a branch of CLT that uses tasks as the core unit of planning and instruction. Its process typically includes:

Pre-task – Introducing the topic and preparing learners.

Task cycle – Students complete a communicative task.

Post-task – Reflection and language analysis.

This method promotes autonomy, critical thinking, and contextual language use.

The lexical approach

Proposed by Michael Lewis [6.235-240 p], this approach focuses on vocabulary as the building block of language rather than grammar. Students learn through:

Collocations and chunks (e.g., “make a decision”, “take a break”).

Extensive reading and listening.

Corpus-based materials.

It suits intermediate and advanced learners aiming to sound more natural and fluent.



Integration of technology in TEFL

Digital tools and platforms have revolutionized language teaching. Common uses include:

Learning management systems (LMS): Google classroom, moodle.

Language apps: Duolingo, Memrise [7.304 p]

Video conferencing tools: Zoom, microsoft teams for remote learning.

Gamification: Kahoot, Quizizz [8.70 p] to enhance motivation.

Technology supports blended learning, promotes independent study, and expands access to authentic materials.

Choosing the right method: factors to consider

There is no "one-size-fits-all" method [9.105-108 p]. Effective methodology depends on:

Learner age and background – Young learners may benefit from TPR or CLT, while adults may prefer structured methods.

Learning goals – Academic English requires different methods than conversational English.

Class size and time availability – TBLT is harder in large, crowded classes.

Teacher's experience [10.56-60 p] – Some methods demand more training and classroom management skills.

An eclectic approach, combining elements from multiple methodologies, is often most effective.

Conclusion

Methodology in TEFL [11.405 p] is not static but a dynamic system influenced by linguistic theory, learner needs, and technological advances. Understanding the strengths and limitations of each method allows teachers to adapt their approach for maximum impact. Whether using CLT, TBLT, or blended models, the ultimate goal remains clear: to empower learners to use English [12. 240-243 p] confidently, accurately, and meaningfully. Overall, the study demonstrates that while traditional methods still hold value in certain contexts, the dynamic and interactive nature of modern approaches offers a more holistic, effective, and practical framework for



teaching English as a foreign language. Future research should continue to explore the balance between theory and practice, investigating how new methodologies can be further adapted to meet the evolving demands of diverse global classrooms.

REFERENCES:

1. Bashir, H. (2008). *Methods and Approaches in ELT*. Cambridge University Press. (Usullar va yondoshuvlar: Ingliz tilini o‘qitish metodikasi)
2. Brown, H. D. (2007). *Principles of Language Learning and Teaching*. Pearson Longman. (Tilni o‘rganish va o‘qitish tamoyillari)
3. Chikovani, E. (2013). *Methods of Teaching Foreign Languages*. Tbilisi State University Press. (Chet tillarni o‘qitish metodlari)
4. Maximov, A. A. (2015). *Innovative Methods of Foreign Language Teaching*. Moscow State University. (Chet tilini o‘qitishdagi innovatsion metodlar)
5. Mustafayeva, S. R. (2012). *Methodology of Teaching Foreign Languages in Uzbekistan*. Tashkent: Fan va texnologiya. (O‘zbekistonda chet tillarini o‘qitish metodikasi)
6. Sharipov, F. N. (2018). *Modern Approaches to Teaching Foreign Languages: Theory and Practice*. Tashkent: O‘qituvchi. (Zamonaviy metodlar: Chet tillarini o‘qitishning nazariyasi va amaliyoti)
7. Tukhtayeva, N. A. (2017). *Innovative Approaches in Teaching English as a Foreign Language*. Tashkent: Sanoat. (Ingliz tilini chet tili sifatida o‘qitishda innovatsion yondoshuvlar)
8. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press. (Vygotskiy, L.S. – Jamiyatdagi ong: Yuqori psixologik jarayonlarning rivojlanishi)
9. Zaitsev, A. V. (2010). *Foreign Language Teaching Methodology*. St. Petersburg: Peter. (Chet tilini o‘qitish metodikasi)
10. Yuldasheva, R. T. (2015). *The Role of Communicative Approach in Teaching English*. Tashkent: Akademnashr. (Ingliz tilini o‘qitishda kommunikativ yondoshuvning ro‘li)
11. Bakhodirjonova, N. N. (2020). *Modern Methods of Teaching English in Uzbekistan: A Comparative Study*. Tashkent: O‘zbekiston universiteti. (O‘zbekistonda ingliz tilini o‘qitishda zamonaviy metodlar: Taqqoslash tadqiqoti)
12. Kuzmina, N. V. (2009). *Pedagogy of Teaching Foreign Languages*. Moscow: Education. (Chet tillarni o‘qitish pedagogikasi)



O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI NOSTALGIK SO‘ZLARNING ETIMOLOGIK TAHLILI

Xayitova Rushana Ximoyiddin qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi nostalgik leksik birliklarning etimologik ildizlari, semantik xususiyatlari va madaniy konnotatsiyalari tahlil qilinadi. “Sog‘inch”, “xotira”, “yo‘qotilgan qadriyatlar” kabi birliklar misolida til va madaniyat bog‘liqligi yoritiladi. Nostalgiya fenomenining madaniy va psixologik kontekstdagi lingvistik namoyoni ham o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: nostalgik leksika, etimologik tahlil, madaniy konnotatsiya, semantik maydon.

Hozirgi tilshunoslikda inson hissiyotlari va xotiralarini ifodalovchi so‘zlarni o‘rganish muhim yo‘nalish sanaladi. Nostalgiya hodisasi ko‘plab tillarda qadimdan shakllanib, madaniy-ma’naviy tafakkur ifodasiga aylangan [3; 13 b.]. “Nostalgiya” termini XVII asrda yunoncha nostos (“uyga qaytish”) va algos (“alam”, “sog‘inch”) so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, dastlab tibbiy atama sifatida ishlatilgan. M.B. Holbruk uni “insonning o‘tmishga iliq tuyg‘ular bilan qaytishi” [1; 246 b.] deb ta’riflaydi. Bugun bu tushuncha lingvistika, madaniyat, psixologiya va sotsiologiya doirasida keng tadqiq etilmoqda.

Til insoniyat tarixi va milliy xotirani saqlovchi vosita bo‘lib, jamiyat estetik qarashlari va ruhiy kechinmalarini til orqali avlodlarga yetkazadi. Nostalgiya leksikasi o‘tmishga munosabat, milliy o‘zlik va hissiy-estetik dunyoqarashni aks ettiradi. Jakobsen ta’kidlaganidek, nostalgika kechki zamonaviy madaniyatda tobora muhim va bahsli hissiyotga aylanib bormoqda [2; 29 b.]. Bu — endi mavjud bo‘lmagan, ammo ilgari qadrlangan narsalarni eslab, chuqur tuyg‘ular uyg‘otadigan holatdir. Bunday birliklarning etimologik va semantik tahlili madaniy merosni asrashda muhim rol o‘ynaydi. Til va xotira bog‘liqligi esa milliy o‘zlikni anglash bilan chambarchas bog‘liqdir.

Maqola o‘zbek va ingliz tillaridagi nostalgik so‘zlarning etimologiyasi, madaniy mazmuni hamda xalq xotirasidagi semantik yukini tahlil etishga qaratilgan.



Shuningdek, ularning shakllanish manbalari va madaniy kontekstdagi o‘rni o‘rganiladi.

Nostalgik leksika – o‘tmish, bolalik va yo‘qotilgan qadriyatlarga bo‘lgan sog‘inchni ifodalovchi til birliklaridir. Ular xotira, armon, sog‘inch kabi hissiy holatlarni yoritib, tilda ma‘naviy meros va avlodlar ruhiy bog‘liqligini saqlaydi. Uning semantik maydoni keng bo‘lib, bir nechta asosiy tushunchalarni o‘z ichiga oladi:

sog‘inch – o‘tgan davr yoki holatni yana boshdan kechirish istagi;

o‘tmish – tarixiy yoki shaxsiy tajriba nuqtai nazaridan qadrlil davr;

bolalik – beg‘uborlik, erkinlik va iliqlik timsoli bo‘lgan idealizatsiyalangan hayot davri;

yo‘qotilgan qadriyatlar – hozir mavjud bo‘lmagan ijtimoiy, madaniy yoki axloqiy tushunchalarga bo‘lgan ehtiyoj va ichki bo‘shliq hissi.

Bunday birliklar murakkab semantik qatlamlarga ega bo‘lib, kontekstga qarab turlicha ma‘no kasb etadi. Semantik va assotsiativ tahlil ularni ongndagi obrazlar bilan bog‘lab, til va tafakkur munosabatini yoritadi. Masalan:

O‘zbek tilida “qayg‘u”, “orzu-hasrat”, “eski xotira”, “eski to‘n”, “begona diyor”, “ota uyi” kabi iboralar nostalgiani, bolalik va yurt sog‘inchni ifodalaydi.

Ingliz tilida “yearning” (ichki sog‘inch), “reminiscence” (xotira), “homesickness” (vatan sog‘inchi), “golden days” (oltin davrlar), “longing” (chuqur sog‘inch) kabi so‘zlar o‘tmishga nisbatan hissiy munosabatni ifodalaydi.

O‘zbek tilidagi nostalgik so‘zlar xalqning ruhiy olami, tarixiy xotirasi va estetik qarashlari bilan bog‘liq. Ular o‘tmishga sog‘inch, yo‘qotilgan qadriyatlarga intilish va ruhiy armonni ifodalaydi. Etimologik jihatdan esa qadimgi turkiy, forsiy va arabiy qatlamlarga borib taqaladi. Masalan:

“Sog‘inch” — bu so‘z eski turkiy “sög-” fe‘lidan kelib chiqqan, “yo‘qlikni his etmoq”, “kimnidir yoki nimanidir sog‘inmoq” ma‘nolarini bildiradi. Bu fe‘l asrlar davomida ichki sog‘inch va mehr hissiyotlarini ifodalovchi kuchli semantik yuk orttirgan. Adabiy matnlarda ushbu so‘z ko‘pincha “dil sog‘inchi”, “vatan sog‘inchi” shaklida uchraydi.



“Hijron” — arabcha “hijr” (هجر) soʻzidan kelib chiqqan, “ayrilik”, “vafosizlik”, “masofadan iztirob” maʼnolarini bildiradi. Oʻzbek mumtoz sheʼriyatida “hijron” — sevgidan ayriliq, yurakdagi sogʻinch va armonli kutish ramzi sifatida ishlatilgan.

“Xotira” — arabcha “xatara” (خطر) yoki “zikir” (ذكر) soʻzlari bilan bogʻliq boʻlib, “eslash”, “yodda saqlash”, “kechmishni xotirlash” maʼnosida qoʻllaniladi. Bu soʻz zamonaviy adabiyotda ham, tarixiy asarlarda ham oʻtmishga intilish va ruhiy yod etish bilan bogʻliq.

“Yod” — arabiy “yad” (يد) soʻziga borib taqaladi, lekin oʻzbek tilida u “esda qolgan narsa”, “xotira izlari”, “marhumni yod etish” kabi maʼnolar bilan boyitilgan. Mumtoz adabiyotda “yod etmoq”, “yodi bilan yashamoq” kabi iboralar orqali nostalgiya kuchli ifodalanadi.

Oʻzbek mumtoz adabiyotida bunday soʻzlar keng qoʻllanib, shoirlar ular orqali sogʻinch, hijron va armon tuygʻularini ifoda etgan. Masalan, Alisher Navoiy “Xamsa”da hijron va dard soʻzlari bilan oshiqning ruhiy holatini chuqur tasvirlaydi. Munis va Ogahiy esa xotira, yod, qaygʻu kabi soʻzlar orqali tarixiy shaxslar va yoʻqotilgan qadriyatlarni yodga olib, milliy xotirani uygʻotishga xizmat qilgan. Bu birliklar adabiy tilda badiiy ifoda vositasi sifatida shakllanib, oʻziga xos madaniy-estetik yuk orttirgan.

Ingliz tilidagi nostalgik leksik birliklar chuqur tarixiy ildizlarga ega boʻlib, turli tillar taʼsiri ostida shakllangan. Ular oʻtmish, yoʻqotilgan davrlar va qadriyatlarga boʻlgan sogʻinchni ifodalaydi. Semantik jihatdan boy bu soʻzlar asosan yunon, lotin, fransuz va german tillaridan olingan. Masalan:

“Nostalgia” — bu soʻz XVIII asrda ilk bor tibbiy termin sifatida qoʻllanilgan boʻlib, yunoncha nostos (“uyga qaytish”) va algos (“alam”, “azob”) soʻzlarining birikmasidan tashkil topgan. Dastlab u asosan vatandan uzoqda yurgan askarlar yoki sayohatchilarning psixologik holatini ifodalagan. Keyinchalik bu atama kengayib, umumiy sogʻinch, oʻtmishga intilish va romantik-esdalik kayfiyatini anglatadigan leksik birlik sifatida ishlatilgan.

“Homesick” — bu soʻz ingliz tilining oʻziga xos tarkibiy birliklaridan biri boʻlib, home (uy, vatan) va sick (kasal) soʻzlarining birikmasidan iborat. XVII asrda



paydo bo‘lgan bu ibora vatandan yiroqda bo‘lgan shaxsning ruhiy og‘rig‘i, vatan sog‘inchi holatini ifodalagan. Bugungi kunda u nafaqat geografik ayriliq, balki ruhiy yaqinlikka ehtiyojni bildiradi.

“Longing” — eski ingliz tilidagi langian fe‘lidan kelib chiqqan bo‘lib, u “cho‘zilib kutmoq”, “intizorlik bilan istamoq” degan ma‘nolarni bildiradi. Bu so‘z german tillaridagi “tortilish” va “cho‘zilish” ma‘nolari bilan ham bog‘liq bo‘lib, uzoq kutish, yetolmaslik va sog‘inish tuyg‘ularining kuchli ifodasidir.

“Reminiscence” — lotincha reminisci (eslamoq) fe‘lidan kelib chiqqan bo‘lib, ingliz tiliga fransuz tili orqali kirib kelgan. Bu so‘z insonning ongida paydo bo‘ladigan xotiralarni, o‘tmishni eslash jarayonini bildiradi. Adabiyotda va notiq so‘zlarda ko‘pincha shirin, ba‘zan esa iztirobli esdaliklar kontekstida ishlatiladi.

Ushbu so‘zlar ingliz tilida faqat lug‘aviy birliklar sifatida emas, balki madaniy xotira, milliy identitet va shaxsiy tajriba ifodachisi sifatida ham shakllangan. Jumladan:

Romantik adabiyotda melancholy va longing inson ruhiyatining ichki dramtizmini tasvirlashda asosiy vosita bo‘lgan;

XIX asr poetik matnlarida reminiscence va wistful so‘zlari orqali shoirlar o‘tmishni orzu bilan eslash, bolalik davriga sog‘inch bilan qarash motivlarini ifodalaganlar;

Ijtimoiy tarixda esa homesick atamasi ko‘chmanchilar, muhojirlar va urush qatnashchilarining psixologik holatini anglatgan.

Bu leksik birliklar ingliz madaniyatida nostalgiya fenomenini estetik va falsafiy darajada anglashda asosiy vosita bo‘lib xizmat qilgan.

1-jadval. O‘zbek va ingliz nostalgik leksikasining qiyosit tahlili

	Tahlil mezonlari	O‘zbek tili	Ingliz tili
1.	Asosiy semantik komponentlar	Sog‘inch, xotira, yo‘qotilgan qadriyatlar	Sog‘inch, xotira, yo‘qotilgan vaqt va joy
2.	Hissiy-emotsional kuch	Yurakka yaqin, ko‘ngilga ta‘sirchan, chuqur hissiyotlarga boy	Sokin, intellectual, ichki mulohazaga yo‘g‘irilgan



3.	Etimologik qatlam	Eski turkey ildizlar, forsiy-arabiy qatlamlar bilan boyigan	Yunon, lotin. Fransuz va german ildizlari
4.	Estetik ifoda uslubi	She'riy va falsafiy obrazlar orqali emotsional kuch	Melancholik, nasriy yoki lirik ifoda vositalari
5.	Dominant madaniy yondashuv	Kollektiv xotira, milliy qadriyatlar asosiy o'rinda	Shaxsiy refleksiya, individualikka asoslangan
6.	Xotira shakli	Yod etish, marosim, og'zaki hikoyalar	Ichki eslash, shaxsiy kechinmalar

Bundan ko'rinib turibdiki, o'zbek tilidagi sog'inch, dard, hijron, xotira kabi so'zlar turkiy, forsiy va arabiy manbalarga borib taqaladi. Ularning semantik maydoni yurakka yaqin, diniy-falsafiy mazmunlarga boy bo'lib, xalq ruhiyatidagi iztirob va orzu-hasratlarni ifodalaydi. Ingliz tilidagi nostalgia, melancholy, reminiscence, wistful kabi birliklar esa yunon, lotin, fransuz va german tillari orqali shakllangan bo'lib, shaxsiy xotira va ichki kechinmalarga yo'naltirilgan. Ikkala tilda ham sog'inch, yo'qotish, xotira kabi umumiy komponentlar mavjud, biroq ularning estetik talqini farqlidir: o'zbek tilida — kollektiv xotira va an'analar, ingliz tilida esa — individual esdalik va ichki iztirob asosida ifodalanadi.

Etimologik tahlil bu birliklarning semantik chuqurligi va madaniy konnotatsiyalarini ochib beradi. Ular til orqali avloddan avlodga o'tadigan estetik va hissiy tajribaning aksidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Holbrook M.B. Nostalgia and Consumption Preferences: Some Emerging Patterns of Consumer Tastes // Journal of Consumer Research. – 1993. – Vol. 20. – No. 2. – P. 245–256.
2. Jacobsen M.H. Nostalgia Now: Cross-Disciplinary Perspectives on the Past in the Present. – New York: Routledge, 2020. – 246 p.
3. Stern B. Historical and personal nostalgia in advertising text: the Fin de siècle effect // Journal of Advertising. – 1992. – Vol. 21. – P. 11–22.



XORIJIY ADABIYOTLARNING O‘ZBEK TILIGA TARJIMASI VA ULARNING TANQIDIY MUAMMOLARI

Sayidov Shukrullo Xaliljonovich

Farg‘ona davlat texnika universiteti assistant o‘qituvchi

Annotatsiya. Xorijiy adabiyotlarning o‘zbek tiliga tarjimasida o‘zbek tilshunosligi va adabiyoti uchun muhim o‘rin tutadi. Biroq, tarjima jarayoni faqatgina tilni o‘zgartirishdan iborat emas, balki madaniy, tarixi va ijtimoiy kontekstlarni hisobga olishni talab qiladi. Ushbu maqola xorijiy adabiyotlarning o‘zbek tiliga tarjimasida jarayonidagi asosiy muammolarni ko‘rib chiqadi va tarjimaning adabiy, madaniy, va lingvistik jihatlarini tahlil qiladi.

Kalit so‘zlar: tarjima, xorijiy adabiyot, o‘zbek tili, madaniy tarjima, lingvistik muammolar, adabiy tarjima.

Kirish.

Xorijiy adabiyotlarning o‘zbek tiliga tarjimasida o‘zbek madaniyati va adabiyoti uchun katta ahamiyatga ega. Tarjima nafaqat yangi bilimlarni olishning yo‘li, balki ikki madaniyatni bir-biriga yaqindashtirishning vositasi sifatida xizmat qiladi. Ammo tarjima jarayoni o‘z ichiga bir qancha muammolarni oladi: bularning ichida tilning o‘ziga xosligi, madaniyat farqlari, shuningdek, adabiy asarlarning mualliflik uslubi va tiliga sodiqlik masalalari mavjud. O‘zbek tiliga tarjima qilingan xorijiy asarlar ko‘pincha o‘zbek o‘quvchisiga yangi dunyoqarashlarni keltirsa-da, tarjimadagi adabiy va madaniy muammolar o‘quvchi uchun ba‘zan tushunarsiz yoki begona bo‘lishi mumkin. Bu jarayonda tarjimonning mahorati, til va madaniyat o‘rtasidagi aloqalar, hamda asarning madaniy konteksti muhim rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada xorijiy adabiyotlarning o‘zbek tiliga tarjimasida bilan bog‘liq asosiy muammolar va ularni hal etish usullari tahlil qilinadi.

Usullar.

Maqolada xorijiy adabiyotlarning o‘zbek tiliga tarjimasida bo‘yicha tadqiqotlar va tahlillar olib borildi. Tadqiqotda asosiy e‘tibor tarjima jarayonining adabiy va madaniy jihatlarini, lingvistik muammolar va tarjimadagi xatoliklar kabi omillarga qaratildi. Tadqiqotda adabiy tarjima va madaniy tarjima sohalaridagi asosiy



nazariyalarni o‘rganish, shuningdek, o‘zbek tiliga tarjima qilingan xorijiy asarlardagi muammolarni tahlil qilish usullari qo‘llanildi.

Tadqiqot metodlari sifatida quyidagi usullar ishlatildi:

Adabiy tahlil: Xorijiy adabiyotlarning o‘zbek tiliga tarjima qilingan namunalarini taqqoslash, adabiy uslublar, madaniy kontekstlar va tarjimadagi noaniqliklarni aniqlash.

Lingvistik tahlil: Tarjima jarayonida til va struktura o‘zgarishlarini o‘rganish, xususan, grammatik, semantik va leksik xatoliklarni aniqlash.

Intervyu: O‘zbek tarjimonlari va adabiyotshunoslari bilan intervyular o‘tkazildi, ularning tajribalari va fikrlari to‘plandi.

Natijalar.

Xorijiy asarlarda aks etgan madaniy elementlar, odatlar, urf-odatlar va ijtimoiy kontekstlar o‘zbek o‘quvchisi uchun tushunarsiz bo‘lishi mumkin. G‘arb madaniyatidagi diniy, siyosiy yoki ijtimoiy tafovutlar, masalan, diniy e’tiqodlar yoki yirik ijtimoiy voqealar, o‘zbek tiliga tarjima qilinayotganda o‘z asl ma’nosini yoki muhimligini yo‘qotishi ehtimoli bor. Shunday qilib, tarjimonning vazifasi faqat so‘zlarni tarjima qilish emas, balki madaniy kontekstni o‘zbek o‘quvchisi uchun tushunarli va qiziqarli qilib taqdim etishdir. [1, 26]

Misol uchun, G‘arb adabiyotidagi xristianlikka oid iboralar yoki ramzlar, o‘zbek madaniyatida to‘g‘ri moslashma topolmasligi mumkin. Bunday holatlarda tarjimonlar, odatda, tafsiflar yoki tushuntirishlarni qo‘shishlari zarur, lekin bu holatlarning haddan tashqari ko‘payishi, matnning tabiiyligini va adabiy ifodasini buzishi mumkin.

Tarjimada leksik va grammatik farqlar, ya’ni o‘zbek tilida ba’zi so‘zlarning to‘liq ekvivalentlari yo‘qligi yoki sintaktik xususiyatlaridagi farqlar, tarjimadagi muhim qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Masalan, ba’zi inglizcha yoki ruscha so‘zlar o‘zbek tilida biror aniq tushuncha yoki izoh beruvchi so‘z bilan almashmasa, tarjimonlar noaniqliklarni bartaraf etish uchun sinonimlar yoki paraphrasalarni ishlatishga majbur bo‘lishadi. Bu esa o‘z navbatida matnning original ma’nosini o‘zgartirishi yoki yanglish talqinlarga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari,



sintaksisning noaniqlilari va tilning qoidalaridagi farqlar, ya'ni so'z tartibi, grammatik shakllar va ularning foydalanilishi, tarjimadagi ohang va ma'noning buzilishiga olib kelishi mumkin. Misol uchun, ingliz tilida passiv shaklda ishlatilgan jumlar o'zbek tilida ba'zan noqulay yoki mantiqsiz bo'lishi mumkin. Bunday holatda tarjimon sintaktik moslashuvni to'g'ri amalga oshirishga harakat qilishi zarur.

Asar muallifining uslubini saqlash, uning asaridagi ruhni o'zgartirmaslik, tarjimaning eng muhim jihatlaridan biridir. Ammo, tarjimonlarning ba'zan asar uslubini haddan tashqari soddalashtirishi yoki o'zbek tilining strukturaviy xususiyatlariga moslashtirishi, asar ruhini yo'qotishga olib kelishi mumkin. Muallifning original uslubini saqlab qolish uchun tarjimonlar, odatda, o'xshash uslubiy usullarni o'zbek tilida topishga harakat qilishadi, lekin bu jarayonda haddan tashqari soddalashtirish yoki stilistik noaniqliliklar yuzaga kelishi mumkin. Shuningdek, adabiy asarlarning ba'zi murakkab yoki yuqori ma'noli ifodalarini o'zbek tilida to'g'ri aks ettirish qiyin bo'lishi mumkin. Bu holda, tarjimonning mahorati, tilning boyligi va uning nozik jihatlarini tushunishiga qarab, muallifning asariga sodiq qolish zarur.

Tarjimada idiomatik ifodalar, yoki maxsus so'z birikmalarini noto'g'ri tarjima qilish, ko'pincha xatoliklarga olib keladi. Ba'zi iboralar boshqa tilga ko'chirilganda, ularning ma'nosi yoki qimmatli xususiyati yo'qolib ketishi mumkin. O'zbek tilida ba'zi inglizcha yoki boshqa tillardagi idiomatik ifodalar to'g'ri ekvivalentga ega bo'lmashligi sababli, tarjimonlar ma'nolarni saqlash uchun qayta ishlashga majbur bo'lishadi. Tarjimadagi so'z boyligi cheklangan bo'lishi mumkin, chunki o'zbek tilida ba'zi so'zlar yoki iboralar boshqa tilga to'liq mos kelmasligi mumkin. Bunday vaziyatlarda tarjimonlar, o'zbek tilidagi keng tarqalgan sinonimlarni ishlatish orqali ma'noni qoplashga harakat qilishadi, lekin bu ba'zan asl matnning nozik va boy ma'nolarini yo'qotishga olib kelishi mumkin.

Tarjimadagi xatoliklarni tahlil qilishda metodologik muammolar va tarjimonlarning malakasizligi muhim ahamiyat kasb etadi. Tarjimonning malakasizligi, yomon tayyorgarlik va tilni chuqur bilmaslik, asarning sifatsiz tarjima



qilinishiga sabab bo'ladi. Tarjimaga alohida e'tibor bermaslik yoki jarayonni tezlashtirish uchun soddalashtirishga harakat qilish, asl asarlarning ahamiyatini yoki ma'nosini yo'qotishga olib kelishi mumkin.

Muhokama.

Xorijiy adabiyotlarning o'zbek tiliga tarjimasi nafaqat tilshunoslik nuqtai nazaridan, balki madaniyatlararo aloqalar, xalqaro muloqot va dunyoqarashning shakllanishi uchun ham katta ahamiyatga ega. Tarjima jarayonida tilning o'ziga xos strukturalari, leksik tarkibi, grammatik tizimlari va ma'no qatlamlari o'zgartirilmasdan saqlanishi kerak, ammo shuningdek, bu jarayonda madaniy tafovutlar, o'zgacha hayotiy tajribalar va boshqa xalqlarning an'anaviy qadriyatlari ham hisobga olinishi lozim.

O'zbek tiliga tarjima qilishda, tarjimonlar ko'pincha o'zbek tilining nutq xususiyatlariga mos ravishda, o'zgartirishlar kiritishlari kerak bo'ladi. Bu, albatta, tilning semantik va sintaktik xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq. Misol uchun, o'zbek tilidagi ba'zi ifodalar va iboralar, boshqa tilda yoki madaniyatda to'liq mos kelmasligi mumkin, shuning uchun tarjimon bu kabi vaziyatlarda moslashtirishni amalga oshirishi lozim. Bunday vaziyatda, tilning o'ziga xosligi va madaniy konteksti yuqori darajada ahamiyat kasb etadi. [1, 24]

Madaniy elementlarni saqlash, ayniqsa adabiy tarjimada muhim ahamiyatga ega, chunki har bir millatning adabiyati, urf-odatlari, tarixi va tili o'zgacha yondashuvlarni talab qiladi. Masalan, biror xalqning an'analari, diniy e'tiqodlari yoki turmush tarziga oid elementlar tarjimadan o'zbek tiliga to'g'ri ko'chirilishi kerak. Tarjima jarayonida madaniy xususiyatlarni tushunish va aks ettirish tarjimonning muvaffaqiyatini belgilaydi. Shu bilan birga, bunday kontekstual o'zgarishlar ko'pincha to'g'ri ekvivalentlarni topishda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin.[2. 33] Tarjima va madaniyatshunoslik sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar, zamonaviy tarjima usullari va metodologiyalarini o'rganish, tarjimonlarning malakasini oshirishga yordam beradi. Tarjima jarayonini takomillashtirishda, ayniqsa, madaniy tafovutlar, lingvistik va psixologik xususiyatlar, va umuman, tarjimonning umumiy dunyoqarashi muhim o'rin tutadi.



Bunda tarjimonning vazifasi – faqatgina soʻzlarni tarjima qilish emas, balki, matnning asl maʼno va mazmunini toʻliq oʻzbek tilida va madaniyatida aks ettirishdir.

Bundan tashqari, adabiy va madaniy tarjima sohasida ilmiy metodlarni rivojlantirish va yangi texnikalarni qoʻllash, tarjima sifatini oshirishi mumkin. Tarjimonlarning metodologik yondoshuvlarini yaxshilash, oʻzbek tilining xususiyatlarini hisobga olgan holda, texnologiya va kompyuter yordamida tarjima qilish jarayonlarini yaxshilashning yangi yoʻllari mavjud. Bu, oʻz navbatida, adabiyotlar bilan yanada oson va aniqroq aloqalar oʻrnatish imkoniyatini beradi. [5, 13] Shunday qilib, tarjima jarayoni nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik, psixologiya va sotsiologiya kabi sohalar bilan ham chambarchas bogʻliq. Har bir tarjima yangi madaniyatni oʻrganish va oʻzingizni boshqa bir xalqning koʻzlari bilan koʻrish imkoniyatini beradi. Bu jarayonda, har bir tarjimonning madaniy sezgirligi va bilim doirasi uning muvaffaqiyatini belgilaydi.

Xulosa.

Xorijiy adabiyotlarning oʻzbek tiliga tarjimasi adabiyotshunoslik va madaniyatni birlashtiruvchi muhim faoliyatdir. Tarjima jarayonida uchraydigan lingvistik va madaniy muammolarni yengib oʻtish uchun, tarjimonlar yuqori malakaga ega boʻlishi, madaniy tafovutlarni hisobga olishlari va asarning mualliflik uslubini saqlashlari kerak. Tarjima nafaqat tilni oʻzgartirish, balki madaniyatni oʻrganish va oʻzaro aloqalarni rivojlantirishning samarali vositasi boʻlib qoladi. Shuning uchun tarjima ilmiy tadqiqotlar va tajriba asosida rivojlantirilishi lozim.

ADABIYOTLAR

1. Nida, W. (2001). *Language and Culture: A Social Linguistic Introduction*. Blackwell Publishing.
2. Toury, G. (1995). *Descriptive Translation Studies and Beyond*. John Benjamins Publishing.
3. Abdullayev, I. (2017). *Oʻzbek tilidagi tarjimadagi ba'zi muammolar*. Tashkent: Fan va texnologiya.
4. Suleymanov, T. (2019). *Adabiy tarjima va madaniy tafovutlar*. Tashkent: Sharq.



5. Melikuziev, A. (2022). Features of using foreign experiences in the modernization of continuing education. Asian Journal of Multidimensional Research, 11(10), 250-255.
6. Sayidov, S., & Mirzaeva, D. (2023). Unveiling the power of metaphor. In Fergana state university conference (pp. 134-134).

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI REKLAMA SLOGANLARINI TARJIMA QILISH USULLARI

Sherqulova Mahliyo Xasan qizi

Tayanch doktorant, O‘zbekiston davlat jahon tillar universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqola ingliz va o‘zbek tillaridagi reklama sloganlarining tarjima usullarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Maqolada lingvistik, pragmatik va madaniy jihatlar hisobga olingan holda reklama matnlarini tarjima qilish strategiyalari tahlil qilinadi. Shuningdek, turli sohalar bo‘yicha ingliz tilidagi sloganlarning o‘zbek tiliga va aksincha tarjimasi misollari keltiriladi.

Kalit so‘zlar: reklama slogan, tarjima strategiyasi, ekvivalentlik, madaniy moslashtirish, lingvopragmatika, kommunikativ maqsad.

KIRISH

Globalashuv jarayonlari va iqtisodiy aloqalarning kengayishi natijasida xalqaro brendlarning mahalliy bozorlarga kirib kelishi kuzatilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, reklama sloganlarini bir tildan ikkinchi tilga samarali tarjima qilish masalasini dolzarb qilmoqda. Reklama slogan – qisqa, lo‘nda, yodda qoladigan jumla bo‘lib, ma‘lum bir mahsulot yoki xizmatning asosiy g‘oyasini ifodalaydi va iste‘molchining e‘tiborini jalb qilish, unga ta‘sir o‘tkazish maqsadida ishlab chiqiladi [3, 56].

Reklama sloganlarini tarjima qilish oddiy matn tarjimasidan farq qilib, lingvistik bilimdan tashqari, marketing, psixologiya va madaniyat sohalaridagi bilimlarni ham talab etadi. Bu jarayonda tarjimon nafaqat ikki til o‘rtasidagi leksik, grammatik va uslubiy farqlarni, balki ikki jamiyat o‘rtasidagi madaniy, ijtimoiy va qadriyat tizimlaridagi tafovutlarni ham inobatga olishi zarur.

METODOLOGIYA



Ushbu tadqiqotda reklama sloganlarini tarjima qilishning quyidagi asosiy usullari ko'rib chiqiladi:

To'g'ridan-to'g'ri (so'zma-so'z) tarjima – sloganning leksik va grammatik tuzilishini imkon qadar saqlab qolgan holda tarjima qilish.

Adaptatsiya (moslashtirish) – sloganning asosiy g'oyasini saqlab qolgan holda, maqsad tili vakillariga tushunarli va ta'sirli bo'ladigan tarzda qayta ishlash.

Kompensatsiya – asl tildagi stilistik vositalarni saqlash imkoni bo'lmaganda, ularni boshqa o'rinlarda qo'llash orqali kompensatsiya qilish.

Transkripsiya va transliteratsiya – brend nomlarini va muayyan atamalarni asl tildagi talaffuzi yoki yozilishiga yaqin tarzda ko'chirib o'tkazish.

To'liq qayta yaratish (recreation) – asl sloganning g'oyasini saqlab qolgan holda, maqsad tilida butunlay yangi slogan yaratish.

TAHLIL VA NATIJALAR

1. To'g'ridan-to'g'ri (so'zma-so'z) tarjima

Bu usul asl sloganning leksik va grammatik tuzilishini saqlab qolishga asoslanadi. Odatda, bu universallik darajasi yuqori bo'lgan va madaniy jihatdan neytral sloganlarga nisbatan qo'llaniladi [6, 97].

Misol 1:

Ingliz tilida: "Quality never goes out of style" (Levi's)

O'zbek tilidagi tarjima: "Sifat hech qachon uslubdan chiqmaydi"

Bu tarjimada asl sloganning tuzilishi va leksik birliklari deyarli to'liq saqlab qolingan. "Quality" – "sifat", "never" – "hech qachon", "goes out of" – "chiqmaydi", "style" – "uslub" so'zlari to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilingan.

Misol 2:

O'zbek tilida: "Hayot zavqi har qultumda"

Ingliz tilidagi tarjima: "The joy of life in every sip"

Bu misolda ham o'zbek tilidagi asl sloganning leksik va semantik jihatlari ingliz tiliga to'g'ridan-to'g'ri ko'chirib o'tkazilgan.

2. Adaptatsiya (moslashtirish)



Bu usul asl sloganning asosiy g‘oyasini saqlab qolgan holda, uni maqsad tili vakillari uchun tushunarli va ta'sirli bo‘ladigan tarzda qayta ishlashni nazarda tutadi.

Misol 3:

Ingliz tilida: "I'm lovin' it" (McDonald's)

O‘zbek tilidagi adaptatsiya: "Menga yoqadi" / "Zavqini chiqaraman"

Bu misolda ingliz tilidagi "lovin' it" so‘z birikmasi so‘zma-so‘z "uni sevib qolayapman" deb tarjima qilinishi mumkin edi, ammo o‘zbek tilidagi "yoqadi" yoki "zavqini chiqaraman" iboralari kontekstual jihatdan moslashtirilgan variantlardir.

Misol 4:

Ingliz tilida: "Just do it" (Nike)

O‘zbek tilidagi adaptatsiya: "Shunchaki qil" / "Gapni cho‘zma, bajar"

Ingliz tilidagi lakonik slogan o‘zbek tilida ham qisqa variantda ("Shunchaki qil") yoki pragmatik jihatdan kengaytirilgan holda ("Gapni cho‘zma, bajar") adaptatsiya qilinishi mumkin.

3. Kompensatsiya

Bu usul asl tildagi stilistik vositalarni (masalan, rima, alliteratsiya, so‘z o‘yini) saqlash imkoni bo‘lmaganda, ularni boshqa o‘rinlarda qo‘llash orqali kompensatsiya qilishni ko‘zda tutadi.

Misol 5:

Ingliz tilida: "Maybe she's born with it. Maybe it's Maybelline." (so‘z o‘yini: "maybe" – "Maybelline")

O‘zbek tilidagi tarjima kompensatsiya bilan: "Balki u tug‘ma go‘zal. Balki bu Meybelin siri."

Bu tarjimada ingliz tilidagi "maybe" – "Maybelline" so‘z o‘yinini saqlab qolish imkoni yo‘q, ammo "siri" so‘zini qo‘shish orqali intriga yaratilgan.

4. Transkripsiya va transliteratsiya

Bu usul brend nomlarini va ayrim atamalarni asl tildagi talaffuzi yoki yozilishiga yaqin tarzda ko‘chirib o‘tkazishni nazarda tutadi.

Misol 6:

Ingliz tilida: "Connecting people" (Nokia)



O'zbek tilidagi tarjima: "Nokia: odamlarni bog'laymiz" (brend nomi transkripsiya qilingan)

Misol 7:

Ingliz tilida: "Think different" (Apple)

O'zbek tilidagi tarjima: "Eppl: boshqacha fikrla" (brend nomi transkripsiya qilingan)

5. To'liq qayta yaratish (recreation)

Bu usul asl sloganning g'oyasini saqlab qolgan holda, maqsad tilida butunlay yangi slogan yaratishni nazarda tutadi. Bu usul ko'pincha so'z o'yini, madaniy referentsiyalar va boshqa tarjima qilish qiyin bo'lgan elementlarni o'z ichiga olgan sloganlarga nisbatan qo'llaniladi.

Misol 8:

Ingliz tilida: "The Ultimate Driving Machine" (BMW)

O'zbek tilida qayta yaratilgan variant: "Haydash zavqining cho'qqisi"

Misol 9:

Ingliz tilida: "Finger lickin' good" (KFC)

O'zbek tilida qayta yaratilgan variant: "Barmoqlarni ham yeb yuborasiz"

Madaniy jihatlarni hisobga olish

Reklama sloganlarini tarjima qilishda madaniy omillarni hisobga olish alohida ahamiyatga ega. Ayrim hollarda, madaniy tafovutlar tufayli, asl sloganni to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish maqsad tili vakillari uchun g'aliz, tushunarsiz yoki hatto salbiy ma'noga ega bo'lishi mumkin.

Misol 10:

Ingliz tilida: "Red Bull gives you wings"

O'zbek tilidagi madaniy adaptatsiya: "Red Bull qanotingizni kengaytiradi" (an'anaviy o'zbek madaniyatida "qanot berish" iborasi ko'proq oilaviy kontekstda ishlatilgani uchun)

Misol 11:

O'zbek tilida: "Oila davrasida mazali"



Ingliz tilidagi madaniy adaptatsiya: "Delicious moments with family" (ingliz tilidagi "davra" tushunchasining to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalenti yo‘qligi sababli)

XULOSA VA TAVSIYALAR

Ingliz va o‘zbek tillaridagi reklama sloganlarini tarjima qilish murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, lingvistik, pragmatik va madaniy kompetensiyalarni talab etadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, quyidagi xulosalar va tavsiyalar shakllantirildi:

Reklama sloganlarini tarjima qilishda faqat lingvistik ekvivalentlikka emas, balki kommunikativ va pragmatik ekvivalentlikka ham e’tibor qaratish zarur.

Tarjima usulini tanlashda sloganning maqsadi, maqsadli auditoriya va madaniy kontekst kabi omillarni hisobga olish lozim.

Sloganning asosiy g‘oyasi, uning ta’sirchanlik darajasi va yodda qolarligini maqsad tili vakillariga ham yetkazish uchun, ba’zan to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjimadan voz kechib, adaptatsiya yoki to‘liq qayta yaratish usullarini qo‘llash maqsadga muvofiq.

Madaniy jihatdan mos kelmaydigan referentsiyalar, ramzlar va iboralarni maqsad tili madaniyatiga mos ekvivalentlar bilan almashtirish tavsiya etiladi.

Tarjima sifatini baholashda lingvistik me’yorlardan tashqari, marketing samaradorligi, maqsadli auditoriyaga ta’siri va brend identifikatsiyasi kabi mezonlarga ham e’tibor berish muhim.

Umuman olganda, reklama sloganlarini tarjima qilish jarayonida tarjimon nafaqat ikki til orasidagi ko‘prik, balki ikki madaniyat orasidagi vositachi ham bo‘lishi va shu bilan birga, marketingning pragmatik maqsadlarini ham inobatga olishi zarur.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ashurova D., Galieva M. Text linguistics. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2016. – 323 b.
2. Cook G. The Discourse of Advertising. – London: Routledge, 2001. – 256 p.
3. De Mooij M. Global Marketing and Advertising: Understanding Cultural Paradoxes. – London: SAGE Publications, 2019. – 416 p.
4. Guidère M. The Translation of Advertisements: From Adaptation to Localization // Translation Journal. – 2003. – Vol. 7, № 1.



5. Ismatullayeva N.R. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. – Toshkent: Navoiy universiteti, 2017. – 168 b.
6. Muminov O. Inglizcha-o‘zbekcha zamonaviy tarjima nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: O‘qituvchi, 2008. – 128 b.
7. Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2005. – 352 b.
8. Newmark P. A Textbook of Translation. – New York: Prentice Hall, 1988. – 292 p.
9. Salomov G‘. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978. – 223 b.
10. Sirojiddinov Sh. Badiiy tarjima asoslari. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2014. – 384 b.

SPECIALIZED TRANSLATION: SCIENTIFIC, LITERARY TRANSLATIONS, SYNONYMS AND ANTONYMS

Abduvaliyeva Sitora Sunnatali Kizi

Student, Chirchik State Pedagogical University, Tourism faculty

Senior teacher, Chirchik State Pedagogical University

Co-author: Z.A.Umirova

Abstract. This article examines the essential role of synonyms and antonyms in the development of language competence, particularly in the field of English language learning. Synonyms words with similar meanings and antonyms words with opposite meanings are considered key tools in vocabulary expansion, semantic understanding, and stylistic enrichment. The study outlines how the strategic use of synonyms can prevent repetition in speech and writing, while antonyms allow learners to express contrast, comparison, and precision. The article emphasizes the pedagogical value of incorporating synonyms and antonyms into language teaching. Various classroom strategies such as interactive games, synonym-antonym pairing exercises, thematic vocabulary lists, and writing tasks are suggested to enhance student engagement and retention. The role of digital tools such as online dictionaries and thesauruses is also highlighted, promoting autonomous learning beyond the classroom. The findings indicate that consistent practice with synonyms and antonyms contributes significantly to improved reading comprehension, richer writing, and more confident speaking. Ultimately, the article concludes that these lexical elements are not only helpful in linguistic development but also fundamental in fostering a deeper understanding of the target language's structure and usage.



Keywords: Synonyms, Antonyms, Lexical Competence, Vocabulary Development, Language Teaching, Semantic Understanding, Communicative Competence, Stylistic Variation, English as a Foreign Language (EFL), Language Skills.

INTRODUCTION

Vocabulary is considered one of the core components of language proficiency and a fundamental aspect of linguistic competence. Without an adequate range of vocabulary, learners face significant challenges in both understanding and producing language. One of the most efficient and pedagogically sound methods of expanding vocabulary is through the understanding and use of synonyms and antonyms. These two lexical categories help students not only enrich their vocabulary but also improve their overall language skills across reading, writing, listening, and speaking. Synonyms, which refer to words with similar or identical meanings, provide learners with multiple ways to express the same idea, allowing for flexibility and stylistic variation in communication. On the other hand, antonyms, or words with opposite meanings, sharpen learners' ability to distinguish nuances in meaning and enhance their analytical thinking skills when engaging with texts or real-life conversations. Both are essential for promoting semantic awareness and enabling learners to become more precise, expressive, and confident language users. In the context of English as a Foreign Language (EFL) learning, the systematic study of synonyms and antonyms can play a transformative role. Through well-designed teaching strategies and learner-centered activities, students can internalize vocabulary more effectively and apply it meaningfully in diverse communicative contexts. This article aims to analyze the linguistic significance of synonyms and antonyms, explore their role in vocabulary building, and provide practical recommendations for integrating them into the language classroom.

METHODOLOGY

Synonyms and antonyms form an integral part of lexical semantics, the branch of linguistics concerned with word meanings and their interrelations. The study of these relationships allows language users to navigate the subtleties of meaning,



enhance expressive power, and develop communicative efficiency. From a theoretical perspective, synonyms are often defined as words with similar meanings, yet in practical use, complete synonymy is rare. Most synonyms vary in terms of register, emotional coloring, collocational preference, or contextual appropriateness. For instance, “child”, “kid”, and “offspring” all refer to young humans but differ in tone and usage. Antonyms, meanwhile, are not merely opposites in meaning but also demonstrate different semantic relationships. Linguists classify antonyms into categories such as: Gradable antonyms (hot–cold): allowing degrees and comparative forms. Complementary antonyms (alive–dead): mutually exclusive, binary states. Relational antonyms (teacher–student, buy–sell): pairs that exist in mutual roles. Understanding these distinctions enhances the learner’s meta-linguistic awareness and equips them with deeper control over meaning-making in communication.

The Role of Synonyms and Antonyms in Vocabulary Expansion

Vocabulary knowledge is foundational to language proficiency, and synonyms and antonyms are essential for developing this knowledge. According to Nation vocabulary depth the quality of knowledge about words is just as important as vocabulary breadth. Mastering synonyms and antonyms contributes to both: Learners build lexical sets that group words by meaning, which aids memory. Through contrastive learning, antonyms help solidify concepts by highlighting what they are not, leading to stronger cognitive connections. Synonyms offer alternative expressions that increase flexibility in language use, avoiding repetition and improving clarity, nuance, and appropriateness. For instance, in academic writing, choosing “beneficial” over “good” or “detrimental” over “bad” not only demonstrates lexical range but also reflects command of formal register. Pedagogical Strategies for Teaching Synonyms and Antonyms. Effective vocabulary instruction requires structured and meaningful input. Here are several techniques educators can apply. Explicit Teaching with Contextualization. Words should not be taught in isolation. Teachers should provide real-life contexts and multiple example sentences. Example: Synonym set for “happy”: joyful, delighted,



pleased, ecstatic
Contextual use: "She was delighted to receive the news," vs. "He felt ecstatic after winning the race."
Thematic Clustering: Words grouped by theme (e.g., emotions, movement, size) allow learners to see connections. For instance, teaching happy–sad, brave–cowardly, strong weak together builds semantic networks.
Use of Corpora and Digital Tools: Modern learners benefit from tools like the British National Corpus or Sketch Engine, which show authentic usage patterns.
Digital thesauruses also help distinguish between nuanced synonyms.

Creative Application: Learners use synonyms and antonyms in:
Story rewriting (using different vocabulary).
Debates (using contrast to argue points).
Dialogues (expressing mood, attitude, intensity).
Etymological Awareness: Teaching word roots (e.g., bene- meaning

The Linguistic Nature of Synonyms and Antonyms

Synonyms and antonyms are essential components of the lexicon of any language. They represent semantic relationships that help in understanding the full spectrum of meaning. Synonyms allow for the replacement of one word with another without changing the core message, while antonyms provide contrast and opposition, both of which are crucial in developing nuance in speech and writing. Understanding these relationships aids learners in mastering lexical cohesion and coherence in texts. For instance, knowing that "rapid," "swift," and "fast" are synonyms enriches a learner's ability to describe speed without repetition. Similarly, recognizing the antonymic pair "victory–defeat" enhances comprehension in narrative or argumentative contexts.

Educational Benefits in Language Learning

From a pedagogical perspective, teaching synonyms and antonyms has several benefits:
vocabulary expansion learners are exposed to multiple word forms and meanings.
Improved reading skills learners can deduce meanings from context by recognizing familiar synonymic or antonymic patterns.
Enhanced writing quality students avoid redundancy and improve stylistic sophistication.
Critical thinking antonyms, in particular, develop analytical skills by encouraging students to compare and contrast ideas.
Integrating these elements into daily lessons not only



increases linguistic competence but also boosts students' confidence in using the language across diverse settings.

Effective Teaching Strategies

Language instructors can implement various techniques to make synonym and antonym instruction more effective: Contextual learning providing authentic reading passages where students identify synonyms and antonyms in context. Interactive games matching exercises, synonym bingo, or antonym races to increase engagement. Visual aids word maps and Venn diagrams to explore relationships between words. Technology-based tools digital thesauruses and vocabulary apps that support independent learning. Assigning creative tasks like rewriting stories using different synonyms, or composing dialogues with contrasting antonyms, strengthens both productive and receptive skills.

Integration into Four Language Skills

Reading helps learners infer meanings and grasp text structure. Writing enhances precision and tone. Listening aids in better understanding of varied vocabulary used by native speakers. Speaking provides expressive richness and variation in spoken interaction. By embedding synonyms and antonyms into all four skill areas, educators ensure holistic language development.

CONCLUSION

In conclusion, synonyms and antonyms play a vital role in enriching learners' vocabulary and enhancing their overall language competence. These lexical relationships are not only essential for semantic understanding but also serve as effective tools for promoting stylistic variation, communicative clarity, and learner autonomy. Through well-structured classroom strategies and regular practice, students can gain confidence in their language use, improve their expressive abilities, and better understand the subtle nuances of English. Therefore, educators should prioritize the systematic teaching of synonyms and antonyms as a key part of curriculum design. Their inclusion in language instruction fosters deeper cognitive engagement, linguistic accuracy, and creative expression all of which are crucial for success in both academic and real-world communication.



REFERENCES

1. Carter, R. Vocabulary: Applied Linguistic Perspectives. London: Routledge. (1998).
2. Nation, I.S.P. Learning Vocabulary in Another Language. Cambridge University Press. (2001)
3. McCarthy, M. Vocabulary. Oxford University Press. (1990).
4. Richards, J. C., & Schmidt, R. Longman Dictionary of Language Teaching and Applied Linguistics. Pearson Education. (2010).
5. Thornbury, S. (2002). How to Teach Vocabulary. Pearson Education Limited.
6. Oxford Learner's Dictionaries. (n.d.). Retrieved from <https://www.oxfordlearnersdictionaries.com>
7. Cambridge Thesaurus. (n.d.). Retrieved from <https://dictionary.cambridge.org/thesaurus>
8. Larsen-Freeman, D., & Anderson, M. Techniques and Principles in Language Teaching. Oxford University Press. (2011).

XORIJIY VA MAHALLIY TILSHUNOSLIKDA RIELTORLIK TERMINLARINING O'RGANILISH MASALASI

Egamnazarova Zaynab Xolmurod qizi

Termiz davlat pedagogika instituti f.f.f.d.(PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillaridagi rieltorlik faoliyatiga oid terminlarning tilshunoslikda o'rganilishi, xorijiy va mahalliy tilshunoslarning rieltorlik terminologiyasiga oid tadqiqotlarini va fikr-mulohazalarini o'rganishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: termin, terminologiya, nomenklatura, sohaviy terminologiya, terminologik leksika, standartlashtirish, lingvistika.

Rieltorlik terminologiyasining lingvistik jihatdan o'rganilishi so'nggi yillarda xorijiy va mahalliy ilmiy tadqiqotlar diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Globalizatsiya jarayonlari, xalqaro ko'chmas mulk bozorining rivoji va huquqiy hamda iqtisodiy munosabatlarning murakkablashuvi ushbu soha atamalarining struktur-semantik tahliliga, lingvokulturaviy xususiyatlariga bo'lgan e'tiborni kuchaytirdi. Xorijiy tilshunoslikda ko'chmas mulk sohasiga oid leksik birliklarning tarkibi, morfologik tuzilishi, semantik qamrovi va metaforik potentsiali chuqur



o‘rganilgan. Xusasan, O.A. Yajgunovich ko‘chmas mulk terminologiyasini tipologik jihatdan tadqiq etgan. U ko‘chmas mulk terminologiyasining konnotativ ma’noga ega bo‘lishi va metaforaga asoslangan terminlarning yetarlicha keng tarqalganligini aniqlagan. Muallifning tadqiqotida ushbu xususiyatlar rieltorlik terminologiyasining semantik va funksional o‘ziga xosliklarini belgilovchi asosiy omillar sifatida qayd etiladi.

Yu.S. Kravchuk esa “Realty”/ “ko‘chmas mulk” konseptini lingvomadaniy xususiyatini rus va ingliz tillari misolida o‘rgangan. U kasbiy dunyoqarashga nisbatan, tadqiq qilinayotgan konseptni verballashtirishga xizmat qiladigan leksikaning shakllanishida yuridik jihatdan ahamiyatli determinantlarni hisobga olish lozimligini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, mahalliy tilshunoslikda o‘zbek tilidagi rieltorlik terminlari mustaqil tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan.

Muayyan bilim sohasini terminologik ta’minlash masalalari hech qachon o‘z dolzarbligini yo‘qotmaydi [3,27c]. Terminologiyaning asoslari, ya’ni subyektlaridan biri termin bo‘lgan ushbu sohaning nazariy tamoyillari, terminologiya fanining o‘zi shakllanishidan ancha oldin yaratilgan [9,20c]. So‘nggi yigirma yil ichida terminologiyaning rivojlanishi, uning shakllanish bosqichlari va yetakchi ilmiy maktablarning shakllanishiga bag‘ishlangan tadqiqotlar paydo bo‘ldi. Terminologiya tarixiga oid yetakchi asarlar orasida mashhur tilshunos olimlar S.V. Grinev-Grinevich va V.M. Leychiklarning ishlari alohida o‘rin tutadi. Masalan, ularning «К истории отечественного терминоведения» (“Mahalliy terminologiya tarixi to‘g‘risida”) nomli qo‘shma asari terminologiyaning rivojlanish bosqichlarini tavsiflovchi tizimni yaratishga qaratilgan birinchi urinishlardan biridir. Sof tarixiy rivojlanishdan tashqari, ushbu asarlarda terminologiya fanining asosiy ta’riflari va ilmiy maktablari ham keltirilgan. So‘nggi oltmish yil davomida terminologiyani mustaqil tilshunoslik fani sifatida shakllantirish va rivojlantirishda mahalliy hamda xorijiy yetakchi olimlar va amaliyotchilarning ilmiy bazani yaratishdagi hissasi beqiyosdir.

I.S. Kvitko ta’kidlaganidek, “zamonaviy ilm-fan tomonidan to‘plangan ulkan ma’lumotlar hajmi, ilmiy tadqiqotlarning tobora murakkablashib borishi bir paytlar



sintetik bo‘lgan fanlarning alohida ilmiy fanlar va yo‘nalishlarga tabaqalanishiga olib keladi”. Bu kabi muammolar tilshunoslik oldiga tadqiq zaruriyati mavjud bo‘lgan muammolarni, jumladan terminologik tadqiqotlar ehtiyojini yuzaga keltirib chiqarmoqda.

So‘nggi yillarda mahalliy hamda xorij tilshunoslari tomonidan terminologiya va termin yasalishi muammolariga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Olimlarning izlanishlarida jahon iqtisodiyotining globallasuv jarayonlari, yangi ilmiy yo‘nalishlarning jadal rivojlanishi, zamonaviy ishlab chiqarishni moderinizatsiyalashtirish va ijtimoiy voqeliklar natijasida vujudga keladigan turli terminologik tizimlar o‘rganilmoqda [7, 94b], xususan, rieltorlik faoliyatiga oid terminologiya ham rieltorlik xizmatlaridan keng foydalanib boshlangandan keyin paydo bo‘la boshladi. Shu bois, rieltorlikka oid terminlar tizimi tadqiqi muhim ahamiyat kasb etib boshladi.

Terminlarni leksik birliklar sifatida o‘rganish antik davrga borib taqalsa-da [12, 234b], ularni lingvistik tadqiqotlar orqali izchil o‘rganish XVIII asrda texnologiya va kommunikatsiyalarning bir paytda sezilarli darajada rivojlanishi natijasida vujudga keldi. Ushbu davrda terminologiya ko‘plab rivojlanishlar bilan bog‘liq bo‘lgan ba’zi qiyinchiliklarni yengish uchun zarur vosita deb qaraldi.

Terminologiya fan sifatida XIX asr oxiri - XX asr boshlarida shakllangan bo‘lsa-da, XX asrda alohida ilmiy yo‘nalish sifatida o‘rganila boshlandi. Bu fan 1969-yilda Moskva davlat universitetida o‘tkazilgan ilmiy simpoziumda rasman tan olinib, foydalanishga kiritildi. M.V. Lomonosov terminologiyaning fan sifatidagi maqomini belgilab berdi va “terminologiya” tushunchasi ma’lum bir bilim sohasiga oid terminlar majmuini ifodalay boshladi. Bu tushuncha xorijiy ilmiy manbalar va o‘quv nashrlaridan farqli ravishda cheklangan ma’noda qo‘llanildi. Shu bilan birga, terminologiya ilmiy fan sifatida ham, ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyat sifatida ham tan olindi.

Tilshunoslikda terminologiya tushunchasi umumiy nazariyaning asosi bo‘lib, bir yoki bir nechta tillarda maxsus sohaga oid leksik birliklarni to‘plash, ta’riflash, shakllantirish va taqdim etishni o‘rganuvchi fan sifatida talqin etiladi. Ushbu sohada



tadqiqotlar olib borgan X. Felberning ta’kidlashicha, terminologiya tushunchasi uch xil ta’rifga ega:

- «1) sohalararo fan bo‘lib, maxsus tushunchani ifodalovchi terminlarni o‘rganadi;
- 2) maxsus sohaga oid tushunchalar tizimini ifodalovchi terminlar majmui;
- 3) terminlar bilan ifodalangan maxsus soha tushunchalarining targ‘ib etilishidir» [1, 1b].

Terminologiyaning til lug‘at tarkibidagi roli borasida ikki xil nazariy yondashuv mavjud. Birinchi yondashuvga ko‘ra, terminologiya adabiy til leksikasining mustaqil qatlami sifatida qaraladi. Ikkinchi yondashuv esa uni adabiy til so‘z boyligidan alohida, “mustaqil obyekt” sifatida baholab, uni nutqning boshqa turlari (sheva, jargon, jonli so‘zlashuv) bilan tenglashtiradi.

Bugungi kunda, boshqa tillar kabi, o‘zbek terminologiyasining boyishi asosan tashqi o‘zlashma so‘zlar va ichki so‘z yasash orqali amalga oshmoqda. O‘zbek tilidagi rieltorlik faoliyatiga oid terminlarning aksariyati xorijiy tillardan, xususan, ingliz tilidan olingan so‘zlar hisobiga shakllangan.

U yoki bu soha terminologik tizimining barqarorligini belgilovchi asosiy omil uning tartibga solinganligi va muntazamligidir. Terminologiyaning asosiy obyekti bu termindir, shu bois, termin tushunchasining talqini zaruriyati ahamiyat kasb etadi.

“Termin” so‘zi birinchi marta 1876 yilda Germaniyada paydo bo‘lgan bo‘lib, lotincha terminusdan kelib chiqqan, “chegara”, “cheklash”, “oxirgi” degan ma’nolarni bergan [15, 104b]. Qizig‘i shundaki, lotincha terminus yunoncha *τερμα* ma’nolari bilan bog‘langan: 1) “ro‘yxatlardagi yakuniy post”; 2) “oxirgi, chekka, chegara”; 3) “yurish, natija” so‘zlari bilan ifodalanadi. Ingliz tili nuqtai nazaridan yanada chuqurroq tahlil qilsak, lotincha terminus so‘zidan qadimgi fransuz tiliga terme bo‘lib, undan o‘rta ingliz tili davriga huddi shu terme shaklida kirib kelgan terminusning dubloni hisoblanadi. Qadimgi ingliz tilida xuddi shu manbadan olingan termin mavjud edi. Demak, termin – fan, texnika, san’at va boshqalarning qat’iy belgilangan tushunchasining nomi bo‘lgan so‘z yoki ibora.



V.I. Dal lug‘atida esa, termin – ifoda, so‘z, gap, narsa yoki texnikaning nomi, shartli ifoda, deb sharxlangan. G.Pol o‘z asarlaridan birida “madaniy taraqqiyotning ma’lum darajasida alohida hunarmandchilik, san’at va fanlarning maxsus terminologiyasi paydo bo‘ladi, bu esa asosan yoki faqat ma’lum bir kasb vakillari tomonidan qo‘llaniladi” deb ta’kidlagan.

XX asrning 70-yillari oxirida V.P. Danilenko terminshunoslik masalalarini muhokama qilib, asosan 40-70-yillarga oid qator terminologiyaga bag‘ishlangan ilmiy ishlarga tahliliy yondashadi va “termin” tushunchasining 19 ta ta’rifini keltiradi. S.D. Shelov esa terminning mohiyatini aniqlashtirish, uning turli ta’riflarini qiyoslash va baholash maqsadida XX asrning 80-90-yillari hamda XXI asr boshida e’lon qilingan lingvistik va terminologiyaga oid ilmiy nashrlar, o‘quv adabiyotlari, lug‘atlar va ma’lumotnomalardan 31 ta ta’rifni o‘rganadi va ularni quyidagicha umumlashtiradi: agar til belgisi (so‘z birikmasi, so‘z qo‘shilmasi, alohida simvolli so‘z birikmasi yoki so‘z qo‘shilmasi va h.k.) muayyan bilim sohasiga oid tushunchani ifodalab, ushbu belgi ongli ravishda tanlangan definitsiya (izoh, tushuncha) bilan mustahkamlangan bo‘lsa, u termin sifatida baholanadi.

XX asr tilshunosligida terminga ta’rif berishda turli yondashuvlar shakllangan. O‘tgan asrning 80-yillarida terminologiya sohasida muhim tadqiqotlar olib borgan A.V. Superanskaya “termin” tushunchasini quyidagicha izohlaydi: “Termin – muayyan kasbiy yoki professional faoliyatda qabul qilingan va alohida sohalarda maxsus sharoitlarda qo‘llaniladigan maxsus leksik birlikdir. Termin kasbiy bilimlarning muayyan sohasi tizimiga kiruvchi tushunchani ifodalaydi va tilning maxsus maqsadlar uchun mo‘ljallangan asosiy konseptual elementidir. Terminologik maydon ichida termin yagona ma’noda ishlatiladi, va turli maydonlardagi bir xil shakldagi terminlar esa omonimlar tizimini tashkil qiladi. Terminning to‘g‘ri talqin etilishi uchun u maxsus definitsiya, ya’ni aniq ilmiy ta’rifga ega bo‘lishi talab etiladi”.

Rus tilshunos olimi B.N. Golovinning ta’kidlashicha, «Terminlar umumiste’modagi so‘zlardan farqli ravishda, ehtiyoj sezilib, ongli ravishda ishlab chiqiladi». N.P. Kuzkin esa «Umumadabiyotda keng qo‘llaniladigan leksemalar



barchaga tanish bo'lsa, terminologik sohadagi terminlar faqat tor doiradagi mutaxassislarga xosdir», deya izohlaydi. P.P. Nishonov esa bu ta'riflarga qo'shimcha qilib, “Termin tuzilishiga ko'ra, so'z yoki so'z birikmasi bo'lib, semantik jihatdan maxsus soha doirasi bilan chegaralangan va shu sohaga oid tushunchani ifodalovchi leksik birlikdir” [11, 17b] deb ta'rif beradi.

O.Vinokur ta'kidlaganidek, termin doimo aniq va ravshan bo'lib, terminlar tizimi ongli ravishda shakllantiriladi. Terminlar tasodifiy yoki stixiyali ravishda paydo bo'lmaydi; aksincha, jamiyatda ularga ehtiyoj tug'ilgan taqdirda, zarurat asosida yaratiladi. A.S. Gerdning fikricha, termin ilm-fan taraqqiyotining muayyan bosqichida shakllanib, mavjud tushunchalarning asosiy xususiyatlarini to'liq va aniqlik bilan aks ettiruvchi maxsus terminologik ma'noga ega tabiiy yoki sun'iy til birligidir, ya'ni so'z yoki so'z birikmasidir. O.S. Axmanovanning mulohazasiga ko'ra, terminologiya faqatgina fan o'z taraqqiyotining yuqori bosqichiga yetganda shakllanadi; termin esa faqatgina muayyan tushuncha ilmiy aniqlik kasb etgandan so'ng tan olinadi.

Termini notermindan ajratib turuvchi muhim xususiyatlardan biri – uni ilmiy asosda ta'riflash imkoniyatining mavjudligidir. V.G. Gak terminning ta'rifini berish bilan birga, uning mohiyatini ham yoritib, til leksik tizimidagi o'rnini belgilaydi. U ilmiy ishlarda terminning lug'aviy birliklarning maxsus turi sifatida qaralishiga qarshi chiqib, termini funksional leksik birlik sifatida ko'rib, uning qo'llanishi – leksik birliklarning maxsus bir ko'rinishi, degan fikrni ilgari suradi.

O.S. Axmanovanning “Lingvistik terminlar lug'ati”da “termin” tushunchasiga lakonik ta'rif berilgan: “Maxsus predmetlarni aniq ifodalash uchun shakllantiriladigan, olinadigan yoki o'zlashtirilgan maxsus (ilmiy, texnik va h.k.) tilning so'zi yoki iborasi” [5, 95b].

V.P. Danilenkoning talqinicha, jamiyatda sodir bo'ladigan har qanday jarayonning in'ikosi dastavval terminologiyada namoyon bo'ladi yoki muayyan terminlarning transformatsion o'zgarishi orqali voqelanadi. D.S. Lotte o'z ishlarida terminga alohida belgi sifatida emas, balki aniq tizimning tarkibiy qismi sifatida qarash zarurligini ta'kidlagan. Uning fikriga ko'ra, mazmun rejasidagi tizimli



munosabatlar terminlarning tizimli xususiyatga egaligini belgilaydi. Terminlarning tizimdagi o‘rni va mavqei esa ular ifodalaydigan tushunchalarning umumiy tushunchalar tizimidagi o‘rni va mavqei bilan aniqlanadi.

Bir qaraganda, baynalminal o‘zlashmaga har jihatdan mos tushgan o‘z so‘zning qo‘llanishi ma’quldek tuyuladi. Lekin termin o‘zlashmasining ta’rifi bilan atama yasamasi qamrovini qiyoslash har ikki leksemani sinonim tarzda ishlatishning maqsadga muvofiq emasligini ko‘rsatadi. O‘z vaqtida A.Hojiyev termin so‘zini atama yasamasi bilan almashtirishning noto‘g‘ri ekanligi, uning sabab va oqibatlari xususida jiddiy mulohaza yuritgan edi [14, 22b]. Shularni hisobga olgan holda, termin o‘zlashmasini ilm-fan, texnika sohalari yoki tarmoqlarida qo‘llanuvchi so‘z va so‘z birikmalari, atama so‘zini shartli ravishda qo‘yilgan nomlar (nomenklatura, nomenlar), xususan, geografik obyektlar, joy nomlari (toponimlar), arabcha istiloh o‘zlashmasini esa tarixiy terminologiya aspektidagi izlanishlar, tarixiy manbalar matnidagi tushunchalarga nisbatan ishlatish o‘zini oqlaydi [10, 29b]. Shu sababli terminologiya va nomenklatura o‘rtasidagi farqlarni ham aniqlab olish muhimdir.

Hozirgi vaqtda ko‘plab fanlarda ilmiy paradigmalarda sezilarli o‘zgarishlar yuz bermoqda: empirik kuzatishlarni oddiy tavsiflash va ro‘yxatga olishdan qarama-qarshiliklar va paradoksal holatlarni izohlashga o‘tilmoqda. Ilmiy paradigmalarning o‘zgarishi tabiiy ravishda tushunchalarning yangilanishiga, natijada yangi fanlarning shakllanishiga zamin yaratmoqda. Bu esa termin turlarini va ularni o‘rganish jarayonini yangi tamoyil va usullarni ishlab chiqishni talab qilmoqda. Shuningdek, fanning murakkablashuvi nazariyalarning o‘zgarib borishi, ularning tobora mavhumroq xususiyat kasb eta boshlashi bilan ham bog‘liqdir [4, 11b]. Shunga ko‘ra, olimlar termini turli nuqtai nazarlardan turlicha talqin qilgan.

S.Usmonovning fikriga ko‘ra, “Termin gapdan tashqarida ham ma’lum bir aniq ma’no ifodalaydigan so‘z yoki turg‘un holatdagi so‘z birikmasidir”[13, 4b]. V.P. Danilenkoning fikricha, termin – bu sohaga tegishli bo‘lgan definitsiyaga asoslangan maxsus tushunchani anglatuvchi so‘z yoki so‘z birikmasidir. D.S. Lottening ta’kidlashicha, terminga tizimlilik, qisqalik, kontekstdan mustaqillik, mutlaq va nisbiylik kabi maxsus talablar qo‘yiladi.



Shu asosda, termini ma'lum bir sohaga tegishli, sinonimsiz, turg'un holatdagi so'z yoki so'z birikmasi sifatida ta'riflash mumkin. Ushbu fikrlarni A.A. Reformatskiy quyidagicha ifodalaydi: “Termin – bu so'z bo'lib, u o'zining alohida va maxsus belgilari bilan chegaralanadi. U fan, texnika, iqtisodiyot, siyosat va diplomatiya sohalarida qo'llanuvchi bir ma'noli, aniq so'z sanaladi”.

Shunday qilib, xorijiy va mahalliy tilshunoslikda rieltorlik terminologiyasi asosan ijtimoiy va iqtisodiy kontekstda o'rganilib, ularning leksik-semantik xususiyatlari chuqur tahlil qilingan. Biroq, ushbu terminlarni to'laqonli lisoniy tadqiq qilish integratsion yondashuvni qo'llashni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Felber H. Terminological work and standardization of terminology. – Paris, 1974. – P. 1
2. Александрова О.В. Особенности терминологии когнитивной лингвистики. /О.В. Александрова // Когнитивные исследования языка. № 34. – Тамбов: Ралк, 2018. – С. 27 //
3. Александрова О.В. Особенности терминологии когнитивной лингвистики. /О.В. Александрова // Когнитивные исследования языка. № 34. – Тамбов: Ралк, 2018. – С. 27
4. Алексеева М.Л. Проблемы термина и терминообразования: Учеб. пособие по спецкурсу. – Пермь: Перм. гос. ун-т, 1998. – С. 11
5. Ахманова, О.С. Словарь лингвистических терминов [Текст] / О.С. Ахманова. – М.: Совет. Энцикл., 1966. – С. 95-96
6. Гринев С.В., Лейчик В.М. К Истории отечественного терминоведения. /С.В. Гринев, В.М. Лейчик // Научно-техническая информация. № 7. – Москва: Винитиран, 1999. – С. 1 – 13
7. Дониёров Р. Ўзбек тили терминологияси ва унинг тараққиёти – Тошкент: Фан, 1986. – 247 б.
8. Квитко, И.С. Терминоведческие проблемы редактирования: монография / И.С. Квитко, В.М. Лейчик, Г.Г. Кабанцев. – Львов: Вища школа, 1986. – С.3.
9. Лейчик В.М. Терминоведение. Предмет, методы, структура. / В.М. Лейчик. – Москва: Либроком, 2019. – С. 20-97
10. Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017. – Б. 28-30



11. Нишонов П. Француз ва ўзбек тиллари юридик терминологиясининг қиёсий-типологик тадқиқи. Номз. диссер. ... автореф. – Тошкент, 2009. – Б. 17
12. Новодранова В.Ф. Именное словообразование в латинском языке и его отражение в терминологии. *Laterculi vocum Latinarum et terminorum* / В.Ф. Новодранова; Рос. академия наук; Ин-т языкознания. МГМСУ. – М.: Языки славянских культур, 2008. – 328 с.
13. Усмонов С. Ўзбек терминологиясининг баъзи масалалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1968. – Б.4.
14. Ҳожиёв А. Термин танлаш мезони. – Тошкент, 1996. – Б. 22-25
15. Ҳожиёв.А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2002 – Б. 104

INGLIZ TILIDAGI EKOLOGIYAGA OID NEOLOGIZMLARNING O‘ZBEK TILIGA TARJIMA MUAMMOLARI

Rahimova Mohinur Qaxramon qizi

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktorant

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tilidagi ekologiyaga oid neologizmlarning o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolar va ularning yechimlari tahlil qilinadi. Ekologik diskursda paydo bo‘layotgan yangi atamalarning tarjima usullari, ekvivalentsizlik holatlari, kalkalash, transliteratsiya va mazmuniy tarjima kabi metodlarning qo‘llanilishi ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, tarjima jarayonida yuzaga keladigan lingvistik, pragmatik va madaniy muammolar hamda ularni bartaraf etish yo‘llari muhokama qilinadi. Tadqiqot natijasida ekologik neologizmlarni o‘zbek tiliga tarjima qilishning samarali strategiyalari, terminologik standartlashtirish zarurati va til korpusini boyitish imkoniyatlari tavsifa etiladi.

Kalit so‘zlar: ekologik neologizmlar, tarjima muammolari, ekvivalentsizlik, kalkalash, transliteratsiya, terminologik standartlashtirish, ekologik diskurs, ekologik ong.

Kirish

Bugungi kunda ekologik muammolar global ahamiyat kasb etib, atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlim o‘zgarishi, barqaror rivojlanish kabi masalalar xalqaro



muloqotning muhim qismiga aylandi. Ingliz tilida ekologik diskurs doirasida ko‘plab yangi tushunchalar va atamalar – neologizmlar paydo bo‘lmoqda. Ushbu neologizmlarni o‘zbek tiliga to‘g‘ri va aniq tarjima qilish muammosi dolzarb hisoblanadi, chunki u nafaqat tilshunoslik masalasi, balki jamiyatda ekologik ong va madaniyatni shakllantirish vositasi hamdir. Ekologik neologizmlar – bu yangi ekologik tushunchalarni ifodalash uchun paydo bo‘lgan yangi so‘zlar, so‘z birikmalari va iboralaridir. Ular yangiliklarni, ilmiy-ommabop adabiyotlarni, rasmiy hujjatlarni va xalqaro shartnomalarni tarjima qilishda katta ahamiyatga ega. Biroq, turli tillar tizimlaridagi tafovutlar, madaniy xususiyatlar va terminologik ekvivalentlarning yo‘qligi tarjima jarayonida bir qator murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Ushbu maqolaning maqsadi ingliz tilidagi ekologik neologizmlarni o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammolarni aniqlash va ularni hal qilishning samarali usullarini taklif etishdir.

Asosiy qism

Neologizmlar – tilning leksik tizimida yangi paydo bo‘lgan so‘zlar yoki mavjud so‘zlarning yangi ma'nolaridir. V.I. Zobotkina neologizmlarni uch turga bo‘ladi: leksik neologizmlar (yangi so‘zlar), semantik neologizmlar (mavjud so‘zlarning yangi ma'nolari) va frazeologik neologizmlar (yangi iboralar) [1].

Ekologik neologizmlar tabiiy muhit, iqlim o‘zgarishi, barqaror rivojlanish, qayta tiklanadigan energiya manbalari va boshqa ekologik masalalar bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalash uchun paydo bo‘lgan yangi leksik birliklardir. Ular ko‘pincha ingliz tilida paydo bo‘lib, keyin boshqa tillarga o‘tadi.

Neologizmlarni tarjima qilishning bir nechta usullari mavjud:

Transliteratsiya va transkripsiya – so‘zning grafik yoki fonetik shaklini o‘zbek tiliga moslashtirish (masalan, "biodiversity" – "bioturli xillik" yoki "biodiversitet").

Kalkalash – so‘z yoki iborani tarkibiy qismlarga bo‘lib tarjima qilish (masalan, "greenhouse effect" – "issiqxona effekti").

Tavsifiy tarjima – ekvivalent yo‘q bo‘lganda tushunchani izohlovchi tarjima berish.

Funksional analog – o‘zbek tilidagi eng yaqin ekvivalentni topish.



Neologizmi saqlash – ayrim hollarda xalqaro tushunchani asl shaklida qoldirish.

Ekologik neologizmlarni tarjima qilishda bir qator muammolar yuzaga kelishi muqarrar xususan:

1. Ekvivalentsizlik muammosi

Ingliz tilidagi ko‘plab ekologik neologizmlar o‘zbek tilida bevosita ekvivalentga ega emas. Misol uchun, "greenwashing", "carbon footprint", "upcycling" kabi atamalar. Bu holda tarjimon tavsifiy tarjima yoki kalkalash usullaridan foydalanishga majbur bo‘ladi.

Misol:

"Greenwashing" – "ekologik aldov" yoki "yashil niqob" (kompaniyalarning mahsulotlarini aslida unday bo‘lmasa-da, ekologik toza qilib ko‘rsatish amaliyoti)

"Carbon footprint" – "uglerod izi" (shaxs yoki tashkilot faoliyati natijasida atmosferaga chiqarilgan uglerod miqdori)

2. Madaniy va kontekstual farqlar

Ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasidagi madaniy farqlar ba’zi ekologik tushunchalarning qabul qilinishiga ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, "zero waste lifestyle" tushunchasi G‘arb mamlakatlarida keng tarqalgan bo‘lsa-da, o‘zbek tilidagi ekvivalent "chiqindisiz hayot tarzi" tushunchasi nisbatan yangi va to‘liq shakllanmagan.

3. Terminologik standartlashtirishning yo‘qligi

O‘zbek tilida ekologik atamalarning yagona standartlashtirilgan tizimining yo‘qligi tarjima jarayonida qo‘shimcha qiyinchiliklar tug‘diradi. Turli manbalarda bir xil neologizmlar turlicha tarjima qilinishi mumkin, bu esa tushunmovchiliklarga olib keladi.

Misol:

"Biodegradable" – "biologik parchalanuvchi", "biochirimli", "biochirigan"

"Sustainable development" – "barqaror rivojlanish", "doimiy rivojlanish", "muvozanatli rivojlanish"

4. Qisqartmalar va abbreviaturalar



Ingliz tilidagi ko‘plab ekologik qisqartmalar va abbreviaturalar mavjud, ularni o‘zbek tiliga tarjima qilish alohida muammolarni keltirib chiqaradi.

Misol:

"ESG (Environmental, Social, and Governance)" – "EBIT (Ekologik, Ijtimoiy va Boshqaruv Tamoyillari)"

"SDGs (Sustainable Development Goals)" – "BRM (Barqaror Rivojlanish Maqsadlari)"

Ekologik neologizmlar tarjimasi muammolarini hal qilish yo‘llari:

1. Tarjima strategiyalarini ishlab chiqish

O‘zbek tilida ekologik neologizmlarni tarjima qilish uchun yagona strategiya bo‘lmasa-da, quyidagi yondashuvlar samarali bo‘lishi mumkin:

Ilmiy va texnik atamalar uchun xalqaro atamalardan foydalanish (transliteratsiya orqali)

Ommabop adabiyotda ko‘proq tavsifiy tarjima yoki funksional analoglardan foydalanish

Matnning janri va maqsadli auditoriyasiga qarab tarjima strategiyasini moslashtirish

2. Terminologik standartlashtirish

O‘zbek tilida ekologik terminologiyani standartlashtirish uchun quyidagi chora-tadbirlar zarur:

Ekologik atamalar lug‘atlarini yaratish va muntazam yangilab borish

Tarjima amaliyotida bir xillikni ta'minlash uchun ko‘rsatmalar ishlab chiqish

Tarjimonlar, tilshunoslar va ekologiya sohasidagi mutaxassislar o‘rtasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish

3. Innovatsion yondashuvlar

O‘zbek tilidagi ekologik diskursni boyitish uchun quyidagi innovatsion yondashuvlar taklif etiladi:

Jamiyatda ekologik tushunchalarni keng targ‘ib qilish

O‘zbek tilidagi ekologik terminlar korpusini yaratish

Elektron lug‘atlar va tarjima dasturlarini ishlab chiqish



Quyida ingliz tilidagi ayrim ekologik neologizmlar va ularning o‘zbek tilida tarjima variantlari keltirilgan:

Climate anxiety – "iqlim xavotiri" (kalkalash) Tahlil: Ingliz tilidagi "climate anxiety" tushunchasi iqlim o‘zgarishi haqidagi xavotirni ifodalaydi. O‘zbek tiliga kalkalash orqali "iqlim xavotiri" deb tarjima qilingan, ammo bu tushuncha o‘zbek jamiyatida hali to‘liq shakllanganicha yo‘q.

Circular economy – "aylanma iqtisodiyot" (kalkalash) Tahlil: Bu neologizm zamonaviy iqtisodiy modelni ifodalaydi, bunda resurslar qayta ishlanadi va chiqindilar minimallashtiriladi. O‘zbek tiliga kalkalash orqali tarjima qilingan, ammo tushunchani to‘liq yetkazish uchun ko‘pincha qo‘shimcha izohlar kerak bo‘ladi.

Eco-anxiety – "ekoloqisma", "ekoxavotir" (neologizm yaratish) Tahlil: Bu atama atrof-muhit holati haqidagi tashvishni ifodalaydi. O‘zbek tilida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalent yo‘q, shuning uchun yangi so‘z yaratilgan.

Carbon neutrality – "uglerod neytrallik" (kalkalash va transliteratsiya) Tahlil: Bu atama tarjimasini ikkita usulning kombinatsiyasini o‘z ichiga oladi – "carbon" so‘zi kalkalash orqali "uglerod" deb tarjima qilingan, "neutrality" esa transliteratsiya orqali "neytrallik" deb o‘g‘irilgan.

Microplastics – "mikroplastik" (transliteratsiya) Tahlil: Xalqaro ilmiy atama bo‘lgani uchun transliteratsiya orqali tarjima qilingan.

Xulosa

Ingliz tilidagi ekologik neologizmlarni o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolar kompleks xarakterga ega bo‘lib, lingvistik, madaniy va pragmatik omillarni o‘z ichiga oladi. Ekvivalentsizlik, madaniy farqlar, terminologik standartlashtirishning yetishmasligi kabi muammolarni hal qilish uchun turli tarjima usullarining kombinatsiyasidan foydalanish, ekologik terminologiyani standartlashtirish va o‘zbek tilidagi ekologik diskursni rivojlantirish zarur. Ekologik neologizmlarni samarali tarjima qilish nafaqat til sohasida, balki jamiyatda ekologik ongni shakllantirish va global ekologik muammolarni hal



qilishda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun, bu sohadagi izlanishlar va amaliy ishlar davom ettirilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Zabotkina V.I. Novaya leksika sovremennogo angliyskogo yazika. – M.: Visshaya shkola, 1989. – 126 s.
2. Newmark P. A Textbook of Translation. – London: Prentice Hall, 1988. – 292 p.
3. Qosimova N.F. Ingliz va o‘zbek tillaridagi neologizmlarning lingvomadaniy xususiyatlari. – Toshkent, 2019. – 150 b.
4. Skrebnev Y.M. Fundamentals of English Stylistics. – M.: Visshaya shkola, 2003. – 221 p.
5. To‘raqulov X. Ekologik atamalar lug‘ati. – Toshkent: Fan, 2018. – 184 b.
6. Vinogradov V.S. Vvedeniye v perevodovedeniye. – M.: IOSO RAO, 2001. – 224 s.
7. Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2005. – 352 b.
8. Duden Wörterbuch. Umweltschutz. – Berlin: Duden Verlag, 2022. – 180 p.
9. Sanakulova Z. Ingliz va o‘zbek tillarida zamonaviy ekologik atamalar qiyosiy tahlili. – Samarqand, 2021. – 128 b.
10. Fill A., Mühlhäusler P. The Ecolinguistics Reader: Language, Ecology and Environment. – London: Continuum, 2001. – 296 p.

NATIONAL-CULTURAL CONCEPTUAL FEATURES OF FLOWER NAMES IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES

Javliyev Mansurbek Odil o‘g‘li

English teacher at Termez State University

Abstract. This article analyzes the national-cultural conceptual features of flower names in Uzbek and English languages. The study compares symbolic meanings, metaphorical uses, and cultural functions of floral lexemes, emphasizing their role in expressing cultural identity and emotional experience.

Keywords: flower names, national culture, conceptual semantics, symbolism, metaphor.

Introduction

Language is a mirror of national culture, worldview, and spiritual values. Lexical units, especially those carrying symbolic meanings, often reflect the unique



aspects of a nation's historical and cultural development. One such lexical field is that of flower names, which not only denote plants but also serve as carriers of deep cultural, aesthetic, and emotional meanings. In both Uzbek and English languages, flower names have been used in folklore, literature, and everyday speech to express beauty, love, sorrow, and other complex human feelings. This article investigates the national-cultural conceptual features of flower names in the Uzbek and English languages by analyzing their etymology, cultural symbolism, and figurative usage. The study aims to identify how different cultures encode values through floral vocabulary and how language reflects culturally bound perceptions of nature and emotion.

1. Cultural Symbolism of Flower Names

In many cultures, flower names carry strong symbolic meanings. For instance, the rose in English culture is traditionally associated with love, passion, and beauty. It is frequently found in English literature, poetry, and idiomatic expressions such as “a bed of roses” or “coming up roses”. In Uzbek culture, the flower 'lola' (tulip) is commonly used in songs and proverbs, symbolizing beauty and youth. The tulip also holds historical significance during the Timurid era and appears frequently in traditional patterns and poetry.

